


Kalonov K.K., Sodiqov A.K.,  
Qurbanaliyeva H.I., Alimboyeva B.

# SOTSIAL'LOGIYA



«IQTISODIYOT»

316/04 | 116820  
S'83.

Sofriologya

T: 2020      - 113 000


316(07)

5 83

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Kalonov K.K., Sodiqov A.K.,  
Qurbanaliyeva H.I., Alimboyeva B.

# SOTSILOGIYA

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi  
Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
muvofiglashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv talabalari  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



*UO'K 60.5 D 75  
KBK 60.5ya73*

**Kalonov K.K., Sodiqov A.K., Qurbanaliyeva H.I., Alimboyeva B.  
Sotsiologiya. – T.: “IQTISODIYOT”, 2020. -307 bet.**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada sotsiologiya fanining asosiy tushuncha va komponentlari to‘g‘risida o‘quvchiga ma’lumotlar beriladi. Atrof-muhitni o‘rab turgan sotsial dunyo, strukturna va jarayonlar sotsiologiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib yoritilgan. Darslikning asosiy boblari mumtoz sotsiologiya namoyondalari, mahalliy mutahassislar bildirgan fikr-mulohazalar, taklif va munosabatlarni inobatga olgan holda atroficha bayon qilindi. Darslik keng kitobxonlar ommasi, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalar uchun sotsiologik bilimlarni keingaytirish va boshqaruv faoliyatida foydalanish uchun xizmat qilishi mumkin.

В этом учебное пособие изложены основные понятия и компоненты социологической науки. Окружающий нас социальный мир, социальная структура общества и процессы протекающие в нем объяснены исходя из цели и задач социологии. Основные темы раскрыты на основе социологических взглядов и мнений представителей классической социологии и отечественных учёных. Данный учебное пособие способствует расширению социологических знаний и развитию управленческих навыков широкой аудитории читателей, преподавателей и студентов высших учебных заведений.

This book of study sets out the basic concepts and components of sociological science. The social world that surrounds us, the social structure of society and the processes taking place in it are explained on the basis of the goals and objectives of sociology. The main topics are disclosed on the basis of sociological views and opinions of representatives of classical sociology and uzbek scientists. This book of study contributes to the expansion of sociological knowledge and the development of managerial skills for a wide audience of readers, teachers and students of higher educational institutions.

**ISBN 978-9943-6066-6-1**

*UO'K 60.5 D 75  
KBK 60.5ya73*

© IQTISODIYOT, 2020.  
© Kalonov K.K., KSodiqov A.,  
Qurbanaliyeva H.I., Alimboyeva B., 2020.

## KIRISH

Sotsiologiya atamasi bugungi mulohazakor o'quvchi uchun tanish iboraga aylanib ulgurdi. Birinchidan, u oliy ta'limga ixtisoslashgan barcha muassasalarda o'qitilmoqda. Ikkinchidan esa mavjud OAV, xususan, Internet saytlarining aksariyat qismida "sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra", degan jumla bilan o'ziga xos "sotsial reklama" vazifasini o'taydigan bo'ldi. Suningdek, sotsiologik bilimlarni boyitishda ijtimoiy-gumanitar fanlar va tabiiy fanlarning ma'lum nazariya va uslubiyotlaridan faol foydalanish imkoniyati mavjudligi bugun sir emas.

Mamlakatimizda sotsiologiyaga bo'layotgan e'tibor hukumat darajasiga chiqib, uning jamiyat hayotida muhim o'rin tutishi e'tirof qilindi. 2019- yilning 22- fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi PF-5667-son Farmonining qabul qilinishi – sohaning yurtirnizda vujudga kelish tarixi, bosib o'tilgan yo'l, bugungi holat va istiqbol masalalarini o'zida qamrab oladi. Qabul qilingan Prezident Farmonida bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sotsiologik tadqiqotlarni xalqaro me'yorlar darajasida olib borish, jamoatchilikning o'y-fikrlarini, jamiyatda yechimini kutayotgan dolzarb ijtimoiy muammolarni Hukumat va uning Rayosat majlislarida muntazam muhokama qilish va ular bo'yicha zarur chora-tadbirlarko'rish imkonini beradi. Unda prezident va parlament boshqaruv institutlari, turli idora, tashkilot, muassasalarda sotsiologik tadqiqot markazlari faoliyat yuritib, ular shu kunning eng muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganib borishi ta'kidlandi. Hukumatdagi obro'li shaxslarning reytingi, narx siyosati, odamlarning o'z hayot darajasidan qoniqishi, jamiyat taraqqiyoti va kelajakka bo'lgan ishonch kabi ko'plab masalalar bo'yicha kishilarining fikrini muntazam tahlil qilib borish maxsus jamoatchilik fikrini o'rganish

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг "Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан кўлмаб-кувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"<sup>1</sup>ги 2019 йил 22 февраль ПФ-5667-сон Фармони // Халқ сўзи газетаси 2019 йил 23 февраль сони.

markazlarining kundalik ilmiy-amaliy faoliyatiga aylanishi kerakligi Farmonda o‘z ifodasini topdi. Natija o‘zini uzoq kuttirmadi, bugungi kunda turli OAV, matbuot, mahalliy internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda “eng ilg‘or” va “faoliyati sust” viloyat, shahar hokimlarining reytingi, oliy o‘quv yurtlarining turli sohalardagi ko‘rsatkichlari natijalari e’lon qilib borilmoqda.

Mutaxassislar sotsiologyaning tadqiqot obyekti – murakkab jarayon, ya’ni kishilik jamiyatiga e’tibor qilar ekanlar, unda mavjud jamiyatning sotsial tuzilmasi, taraqqiyot qonuniyatlari insonlarning xulq atvorlarini tadqiq etadilar. XX asrning so‘nggi 20 yilligida ijtimoiy hayotda jamiyatdagi sotsial muammolar, ularning kelib chiqishi, oldini olish va bartaraf etish chora tadbirlari to‘g‘risida ko‘plab ilmiy konferensiya va seminarlar o‘tkaziladigan bo‘lindi. Ularning natijalariga tayanib tabiiyki akademik kitoblar ham chop etildi va bu jarayon xanuz davom etib kelmoqda. Rus amerika sotsiologi Pitirim Sorokin ta’kidlaganidek “insoniyat XXI asrda sotsial muammolar girdobi bilan to‘qnash keladi”. Zamonaviy jamiyatda nega “oilalarda ajralishlar sodir bo‘ladi?”, “ishsizlikni qay yo‘sinda bartaraf qilish mumkin?”, “diniy va milliy nizolarning sababi nimada?”, “insonlarning xulq atvorini boshqarish mumkinmi?” qabilidagi o‘nlab va balki yuzlab sotsial masalalar o‘z yechimini topilishini kutib yotadi.

Sotsiolgiya fanining vujudga kelish tarixiga e’tibor qaratilsa, u sotsial falsafa negizida o‘zining ilk rivojini topganini kuzatish mumkin. Yuqorida ilgari surilgan muammoli jumboqlar antik davr faylasuflari Platon va Aristotelning Xitoy va hind falsafiy ta’limotlarida o‘rta asr sharq falsafa ilmida ham tafakkur nuqtai-nazaridan taqdim etilgan. Jumladan, musulmon dunyosida Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Ibn Batuta, Bobur asarlarida sotsiologik bilimlarga turtki bergen tanch mulohazalar ilgari surilgan. O‘rta asrlar Yevropasida Gobbs, Dekart, Russo, Volter, Monteske kabi mutafakkirlarning ijtimoiy hayot va kishilar xulq atvoriga oid ahloqiy, estetik ruhdagi qarashlarni ham sotsial bilimlarni takomillashuviga o‘z hissasini qo’shdı.

Sotsial hodisalarga nisbatan amaliy yondashib, uni faqat dalillar asosida baholash lozim, deb hisoblagan fransuz mutafakkiri O.Kont sotsiologiya sohasining

asoschisi sifatida e'tirof qilindi. Shuningdek, u birinchi bo'lib mazkur atamani fanga yangi yo'nalish sifatida kiritishiga muvaffaq bo'ldi. Nazariy sotsiologiyaning yanada takomillashuviga evropalik mumtoz nazariyotchilardan G.Spenser, G.Tard, G.Lebon, M.Veber va E.Dyurkgeymlarning xissasi beqiyos, ular o'z asarlarida protestantlikning kapitalizmdan ajralishi natijasida tafakkurdagi o'zgarish, shu vaqtdagi tabiiy fanlardagi qo'lga kiritilgan va misli ko'rilmagan kashfiyotlar, hamda kapitalistik munosabatlarda foyda olishning insori xulq-atvoriga o'tkazayotgan sotsial munosabatlar, harkatchanlik va jarayonlarni tahsil etadilar.

Jamiyatdagi revolyusiyalar, birinchi va ikkinchi jahon urushlari XX asr kishisining turmush va tafakkur tarziga atroficha ta'sir o'tkazdi. Buning oqibatida ommaviy mobillik jarayoni avj oldi. Ziyoli qatlamning katta qismi o'z faoliyatini okean ortiga Amerika qit'asiga qaratadi. AQSHda tez sur'atlar ichida emperik sotsiologiya taraqqiy eta boshladi. P.Sorokin, T.Parsons va R.Merton, I.Goffman kabi mutaxassislarining amaliy sotsiologiyani taraqqiyotiga oid akademik asarlari sotsiologiyaga nisbatan yangicha yondashuvni shakllantirdi. Muammoga nisbatan kompleks tarzda yondoshgan Chikago mактаби vakillarinинг yondashuvlari keyinchalik sotsiologyaning tarmoq yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qildi. O'zbek sotsiologiyasining rivoji u tashkil topgan vaqtdanoq tizimli ravishda taraqqiy etib bormoqda. Milliy tilimizda o'tgan asrning 90 yillardan boshlaboq sotsiologiyaga oid darslik va o'quv qo'llannalar chop etildi. Bunda N.Aliqoriyev, M.Ganiyeva, R.Ubaydullayeva, M.Bekmurodov, A.Xolbekov, O.Atta-Mirzayev, N.Mamatov kabi etuk mutaxassislar rahbarligida zamonaviy sotsiologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini batafsil izohlab bergen darslik va o'quv qo'llannalar nashrdan chiqdi. Mumtoz sotsiologiya vakili E.Giddensning "Sotsiologiya" nomli asari chop etildi.

Davr kutib turmaydi. Axborotlar asrida esa uning g'ildiragi yanada tez aylanib ketdi. Nafaqat axborot va texnokratik texnologiyalarning yangi avlodni paydo bo'ldi, balki ijtimoiy hayotda kishilardagi avlodlararo almashuv jarayoni faollashdi. Balkim bugungi kunda avlodlarning o'zaro almashuv jarayoni besh yilni tashkil qilayotgandir. Albatta bu taxmin xolos. Lekin u katta baxs munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Ingliz tilida so'zlashadigan Internet "avlodlari" shakllanib

ulgurganligi tabiiyki mubolag'a emas. Globallashgan jamiyatda yangi sotsial muhit shakllandi. Jamiyatdagi sotsial muhit bio va ekomakon ta'sirida keskin o'zgarib bormoqda. Eu esa sotsiologiyaning oldiga jiddiy talablarni qo'yadi. Jahon amaliy sotsiologiya tajribasida miqdorli tadqiqotlar o'z o'mnini asta-sekinlik bilan sifatlisiga bo'shatib bermoqda. Makrosotsiologiya ma'lumotlarini mikrosotsiologiya tadqiqot natijalari bilan o'zgartirish odad tusiga kirmoqda. Ommaviy tadqiqotlardan ko'ra ekspert so'rovlarga talab osha boshladi. Buning tag zamirida esa har doimgidek inson omili yotadi. Ushbu sotsial masalaning yechimi oddiy bir shaxs hayoti va turmush tarzini o'rghanish asosiga qurilmoqda.

Umuman olganda mazkur tayyolangan o'quv qo'llanma an'anaviy yozilgan vorislikni davom ettiradi. Unda nazariya, uslubiyot va uslublar, tadqiqot texnikasi, va ish jarayoni, maxsus va tarmoq yo'nalishlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek ushbu darslik avvalgilaridan lotin alifbosida tayyorlanayotganligi bilan farq qiladi. U keng ilmiy jamoatchilik va kitobxonlar ommasiga mo'ljallab yozilgan. Mualliflar har qanday sharoitda ham ushbu o'quv qo'llanma materiallaridan auditoriyalarda foydalanayotganda, albatta qo'shimcha manba va adabiyotlarga tayanishni so'oab qoladilar.

## **1-bob. SOTSILOGIYA FAN SIFATIDA**

- 1. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari zamонавиј sotsiologиyaning muhim manbalari sifatida**
- 2. Sotsiologiya fanining fan sifatida vujudga kelishida diniy, iqtisodiy, ilmiy va siyosiy omillarning o'rni**
- 3. O.Kont - pozitiv sotsiologиyaning asoschisi, uning sotsiologиyanı mustaqil fan sifatida yaratishdagи dastlabki rejaları. Kontning izdoshlari.**
- 4. Sotsiologиyaning obyekti va predmeti, vazifalari, metodlari va metodologiyasi.**
- 5. Sotsiologиyaning zamонавиј rivojlanish bosqichi (XX asrning 20yillaridan hozirgi davrgacha)**
- 6. Sotsiologиyaning boshqa fanlar bilan munosabati (falsafa, tarix, ijtimoiy psixologiya, antropologiya, ijtimoiy ish, iqtisod, statistika, matematika)**

**Tayanch tushunchalar:** Protestantizm. Merkantelizm. Proteksionizm, Marksizm. Metod. Metodologiya. Pozetivizm. Sotsial statika. Sotsial dinamika. Bixevierizm. Anomiya. Sotsial ayriboshlash. Belgili interaksionizm.

### **1. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari zamонавиј sotsiologиyaning muhim manbalari sifatida**

Bugungi kunda keng jamoatchilik sotsiologиyanı jamiyatdagи ijtimoiy muammolarni turli so'rov va kuzatish usullari orqali o'rganuvchi fan sifatida tushunadi. Aslida mazkur fan o'zining chuqur mohiyatiga ega bo'lib, jamiyat rivoji uchun o'ta muhim va qiziq sanaladi. Sotsiologиyaning jamiyatni tadqiq etuvchi ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqini va mohiyatini anglash maqsadida uning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, fan sifatida tashkil topishi, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanish bosqichlari, sotsiologиyaning fanlar tizimida tutgan o'rni,

sotsiologiyani tushunishdagi asosiy ilmiy nazariyalar, sotsiologiyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari tizimini ko'rib chiqish zarur.

Sotsiologiya fani narnoyondalaridan birining ta'biri bilan aytganda: «Sotsiologiya o'ta qadimiy predmetni o'rganish to'g'rsidagi yo'sh fan». Mazkur so'zlarining mohiyati shundan iboratki, insoniyat tomonidan jamiyat va unda kechuvchi turli voqealarni o'rganish holati antik davrdanoq boshlangan. Garchi sotsiologiya XIX asrda vujudga kelgan fan deb hisoblansada, qadimgi yunon, Rim va Sharq olimlarining asarlaridagi ijtimoiy qarashlarni sotsiologiyaning shakllanishidagi muhim manbalar sifatida baholash mumkin. Shuning uchun mazkur fanning kelib chiqish tarixini o'rganish barobarida tarixiy rivojlanish natijasida turli davr va mintaqaga oid bo'lgan olimlarning qoldirgan fikr va g'oyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Xitoyda adolatli jamiyat borasidagi dastlabki izlanishlar mutafakkir Konfutsiy (**Kun-szi, mil. av. 551-479**) tomonidan amalga oshirilgan. Olim yashagan davrda jamiyatda inqiroz davri yuzaga kelgan edi. O'zaro feodal urushlar, hokimiyat uchun kurashlar jamiyatda ilgari hukm surgan ahloqiy va ma'naviy qadriyatlarini yemirayotgan edi. Shuning uchun Konfutsiy insoniy qadriyatlar me'yorlarini qayta tiklash yo'llarini aniqlash maqsadida tarixni o'rgana boshlagan. U qadimgi Chjougun ahloqiy qoidalari merosini tadqiq etib, shunday yozadi: “men yaratayotganim yo'q, men o'tmishdagi merosni sizlarga yetkazmoqchiman”<sup>2</sup>. Ammo shu bilan birga Konfutsiy o'zining jamiyat, davlat va ahloqiy qoidalarga aloqador bo'lgan o'z ta'lilotini yarata oldi, deb ayta olamiz. U inqirozga yuz tutgan davlatni faqat komil hukmdor qutqara oladi, deb bilgan. Hukmdor majburiy va mutassil ravishda ro'y berib turadigan marosimlarning me'yorlariga mos hayotiy tamoyillarga ega bo'lgan, o'zini doimo takolmillashtirib turuvchi, komillikka erishgan, insonlarga muhabbat bilan qarovchi, insoniy burch vaadolatni his etuvchi insondir. Shu bilan birkalikda u bilimga intiluvchan, yoshi ulug'larni hurmat qiluvchi, sadoqatli, mehr-shafqatli, obro'li bo'lishi lozim. Hukrndorning adolatli bo'lishi uchun uning atrofidagi

<sup>2</sup> Киргизбоеев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 2010. 7-6.

mansabdorlar haqgo'y bo'lishi lozim. Konfutsiy ularga qarata shunday yozgan: "Hukmdorni aldamanglar! Unga e'tiroz ham bildiringlar<sup>3</sup>".

Jamiyatdagi inqirozga barham berish uchun olim: "hukmdor hukmdor bo'lishi, fuqaro-fuqaro, ota-ota, o'g'il esa o'g'il bo'lib qolishi lozim", degan shiorni ilgari surgan.

Konfutsiy jamiyatdagi tarqaror munosabatlarning asosiy nəgizi ma'naviy va ahloqiy yuksaklik, deb bilgan. U shunday yozadi: "Agar jamiyat qonunlar vositasida boshqarilsa, tartib jazo belgilash vositasida ta'minlansa, odamlar jazodan o'zlarini olib qochishga intiladilar. Chunki ular or-nomusni o'zlarida his qilmaydilar; Agar ma'naviy – ahloqiy vositalar yordamida boshqarilsa, tartib qadriyatlar orqali ta'minlansa, odamlar or-nomus nimaligini his qiladilar, xalol va sofdil bo'lishga intiladilar<sup>4</sup>".

Jamiyatning kelib chiqishi, rivojlanishi va ijtimoiy hayot qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan ilk izlanishlar miloddan avvalgi IV asrda yunon faylasuflari tomonidan ham olib borilgan.

**Suqrot (Sokrat, mil.av. 470-399yy)** haqidagi ma'lumotlar uning shogirdlari Aflatun va Ksenofont tomonidan qoldirilgan asarlarda uchraydi. Manbalarda yozilishicha, Suqrotning falsafaga qiziqishiga Delfiyadagi Appolon ibodatxonasiga bitilgan Xilonga tegishli bo'lgan "O'zingni o'zing angla" shiori sabab bo'lgan.

Suqrotning fikricha, polis (shahar - davlat) hayotini qonunlarsiz faqat ahloqiy qadriyatlar asosida tashkil etish mumkin emas. Uning fikricha, faqat ilmli insonlar boshqaruvida band bo'lishi va qonunlami ishlab chiqishi mumkin.

**Aflatun (Platon, m.a. 427-347yy)** avvaliga shoir sifatida faoliyat olib borgan, so'ng Suqrot g'oyalari ta'siri ostida mashhur yunon faylasufiga aylandi. Uning ijtimoiy qarashlari "Kriton", "Bazm", "Fedon", "Gipiy Kichik" nomli asarlarida, siyosiy qarashlari esa "Davlat", "Qonunlar" kabi asarlarida bayon etilgan<sup>5</sup>.

Aflatunning fikricha, insonning o'z sezgilarini orqali atrof olam haqida olayotgan axborotlarini butkul to'g'ri va o'zgarmas, deb bo'lmaydi. Olingan

<sup>3</sup> Киргизбоеев М. Фүхаролик жамнити: генезис, шаклланышы ва ривожланышы. – Т.: Ўзбекистон, 2010. 9-6.

<sup>4</sup> История политических и правовых учений. Древний мир. – М.: Наука, 1985. С.170.

<sup>5</sup> Yo'ldoshev S., Uemonov M. "Qadimgi va o'rtaast G'arbiv Yevropa falsafasi". "Sharq" nashriyoti.T.2003-y.50-b.

axborotlar obyektiv ravishda g'oya sifatida shakllangan bo'lsagina, u o'zgarmas va qaytariluvchandir. Shuning uchun olim atrof olam g'oyalardan iborat, deb hisoblagan. Inson ruhi shu g'oyalarga eng yaqin hisoblanib, ruh tanaga kirdunga qadar atrofdagi g'oyalarni mukammal o'zlashtirgan bo'ladi. Ammo tanaga kirkacha, bu g'oyalarni unutadi va hayoti davomida izlanishlar natijasida inson ruhi o'zi unutgan g'oyalarni eslay boshlaydi. Aflatuning fikricha, eng oliy g'oya bu Yaratguvchi va ezgulik g'oyasidir<sup>6</sup>.

Olim davlatni insonning yirik shakldagi proeksiyasi, deb hisoblagan. "Davlat inson o'z ehtiyojlarini faqatgina o'z kuchi bilan qondirish imkoniga ega bo'Imaganida vujudga keladi. O'z ehtiyojlarini qondirish ishtiyoqi insonlarni birlashishga undaydi, ular o'zaro bir-biriga yordam bera boshlaydi va jamoalarga birlashib, davlat shakllanadi"<sup>7</sup>. Olimning fikricha, davlatning asosiy maqsadi fuqarolarda ezgu xulqni shakllantirish orqali-ideal insonni yaratish va shu bilan davlatning barqaror saqlab qolishdan iborat. Ideal tipdag'i davlatda fuqarolarning tabiatan mavjud bo'lган qobiliyatları (bo'ysunuvchanlik, jasorat, adolat va donolik) asosida quyidagicha ierarxiya mavjud bo'lgan:

- bo'ysunuvchanlik qobiliyati: dehqonlar, hunarmandlar va tadbirkorlar
- jasorat va adolat qobiliyati: davlatni ichki va tashqi tazyiqlardan himoya qiluvchi harbiylar va qonun-tartibni ta'minlovchi himoyachilar
- donolik qobiliyati: davlat boshliqlari (faylasuflar), ularning vazifasi adolatlil qonunlar ishlab chiqish va davlatni donolik bilan boshqarishdan iborat bo'lgan<sup>8</sup>.

Aflatun o'zining ideal davlat g'oyasini Sitsiliyada Dionisiya tiraniyasi asosida amalga oshirmoqchi bo'lgan. Ammo uning bu urinishi muvaffaqiyatsiz bo'ldi.

Qadim yunon faylasufi Arastu (Aristotel, mil.avv.384-322yy.) "Siyosat" nomli asarida siyosat to'g'risidagi fanga asos solgan. U Aflatunni o'zining ustozi sifatida tan olgan bo'lsada, uning ko'pgina fikrlarini inkor qilgan. Ammo bu ikki alloma yevropa madaniyati va sivilizatsiyasining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Chunki

<sup>6</sup> Философский энциклопедический словарь. — М.: ИНФРА-М, 2001. - С.343.

<sup>7</sup> Платон. Государство // Государство. Законы. Политика / [Препод. Е.И.Темнова]. — М.: Мысль, 1998. — С.110-111.

<sup>8</sup> Философский энциклопедический словарь. — М.: ИНФРА-М, 2001. - С.344.

ular ilk bor davlatning qaror topishi, shakllanishi va boshqaruvidagi teologik konsepsiyalarga qarshi chiqib, mazkur jarayonning tabiiy ravishda kechishi g'oyasini ilgari surgan.

Arastu o'zining ijtimoiy qarashlarini "Metafizika" ("Birinchi falsafa"), "Jon to'g'risida", "Analitika", "Siyosat to'g'risida" kabi bir qator asarlarida bayon etgan.

Arastuning fikriga ko'ra, har qanday davlat tabiiy ravishda va tarixiy rivojlanish natijasida oiladan<sup>9</sup> boshlab shakllanadi. Arastu ham Aflatun kabi insonlarning ehtiyojlariga to'laligicha javob beruvchi ideal davlat boshvqaruvini yaratishga intilgan. Yu.N.Davidov Arastuning ijodini o'rganib chiqish natijasida shunday xulosaga kelgan: "o'z asarlarida polis nomi bilan atalgan va bugungi kunda ilmiy manbalarimizda davlat sifatida tarjima qilingan tushuncha, aslida olim tomonidan jamiyat sifatida talqin qilingan va anglangan"<sup>10</sup>.

Arastuning ideal jamiyatida qul va quldorlarning mavjudligi tabiiy holat, deya baholangan. Chunki davlatni kimdir boshqarishi, kimdir esa unga bo'ysunib, bajaruvchi vazifasini ijro etishi kerak. Olim ahloqiy fazilatlar faqat erkin kishilarga – quldorlarga xos, deb bilgan. Davlat boshqaruvida xalqni o'z izmiga solish faqat ikki yo'l: qo'rqitish (qo'rquvda saqlash) va mehr-muhabbat (g'amho'rlik) ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Qadim Rim jamiyatidagi ijtimoiy muammolar, ya'ni, tabaqalar o'rtasidagi va fuqarolar orasidagi munosabatlarni tartibga solish masalasi jamiyatda huquq normalarining yaratilishi, qonunlarning ishlab chiqilishiga olib keldi. Huquqshunoslik fanining yaralishi qadimgi Rimda boshlangan. Qadimgi Rim huquqi yevropada huquq ilmining rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Shuning uchun huquq fanning rivojlanishi qadimgi Rim bilan bog'liq. Chunki, nisbatan mukammal sanalgan va xususiy mulk munosabatlariga asoslangan respublika tuzumi aynan shu diyorga ilk bor qaror topgan edi (m.a. 510-509yy.). Bu paytda Rim qonunlari quldorlar huquqi va manfaatlarini himoya qilishga va aholining kam ta'minlangan qatlamlari hamda

<sup>9</sup> Аристотель. Политика // Соч.: В 4 т./ Академия наук СССР: Ин-т философии. — М.: Мысль, 1984. С.377-378.

<sup>10</sup> Давыдов Ю.Н. От «Этики» к «Политике» // История теоретической социологии: В 5 т./ Отв. ред. и состав. Ю.Н.Давыдов. - М.: Наука, 1995. -Т. 1.- Разд.2. -Гл.1. - С.61]

qullarni ekspluatatsiya qilishni qonunlashtirgan bo'lsada, keyingi davrlarda yaratilgan qonunlarning tayanch asosi hisoblanadi.

Qadimgi Rimda Yunonistondagi kabi faylasuf olimlar ko'p bo'lmagan. Bu diyorda asosan qonunlar ishlab chiqilgan. Rim huquqi va jamiyatini o'rgangan mashhur olim **Mark Tulliy Sitseron** (mil.av.106-43yy.) yunon falsafasini Rim aholisi orasida keng yoyish orqali aholining dunyoqarashini shakllantirishga harakat qilgan. U Aflatun asarlaridan ruhlanib, "Davlat haqida", "Qonunlar haqida" nomli asarlarni yozgan (mil.av.54-51yy.). Mazkur ishlarida Sitseron Rimning davlat tuzilishini o'rganib, uni mukammallashtirish yo'llarini qidirgan. Sitseronning fikricha, davlat (respublika) xalqning boyligidir<sup>11</sup>. Shuning uchun u xalq tushunchasi borasida quyidagilarni bildirgan: "xalq qandaydir tarzda birgalikda to'plangan har qanday odamlarning birlashmasi emas, balki huquq va manfaatlar umumiyligi masalalarida o'zaro bir-birlari bilan, kelishish bilan bog'liq bo'lgan ko'pchilik odamlarning qo'shilmasidir<sup>12</sup>". Shuningdek, mutafakkir barqaror va adolatli jamiyat qurishni orzu qilar ekan, uning markazini ideal fuqarolar tashkil etishini chuqur anglab yetgan. Ideal fuqaro burchlari sifatida Sitseron haqiqatni, adolatni anglagan, ruhiyati ulug' vor va odob-ahloq doirasida bo'lgan, o'z intilishlarini faqat ezguliklarga qaratgan insonni tushunadi. Olim fuqarolarning burchlari borasida fikr yuritib, fuqaroning vatan oldidagi askar sifatida himoya qilish majburiyatini<sup>13</sup> asosiy burchlardan biri sifatida ko'rsatgan. D. Markovichning ta'kidlashicha, Sitseronning Rim huquqini o'rganishdagi hissasi juda ulkan bo'lib, buni sinfiy jamiyatni o'rganishdagi ilk sotsiologik tadqiqot sifatida baholash mumkin<sup>14</sup>.

Fozil jamiyat qurishga oid nazariy izlanishlar bir qator Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan yaratilgan. Adolatli jamiyat qurish, fuqarolik jamiyatni unsurlarining shakllanishiga doir ulkan ilmiy meros qoldirgan buyuk mutafakkirlardan bir **Abu Nasr Farobi** (875-950yy). Uning fikricha, jamiyatda har bir tabaqa yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan

<sup>11</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.223-224.

<sup>12</sup> Цицерон. Диалоги о государстве, о законах. – М., 1966. С. 39.

<sup>13</sup> Цицерон. Диалоги о государстве, о законах. С. 46.

<sup>14</sup> Маркович Д. Общая социология: [Пер. с серб.-хорв.] — Ростов н/Дону.: Изд-во Рост. ун-та, 1993. С.

funksiyalariga ega bo'lib, shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan bo'ladi<sup>15</sup>. Olim jamiyatning kelib chiqishi haqida shunday yozgan: "Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra shunday tuzilganki, u yashash va oliv toifali yetuklikka erishish uchun ko'p narsalarga muhtojlik sezadi, uning o'zi esa bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi. Shu bois ularga ega bo'lishda kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatini bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin<sup>16</sup>".

Olim jamoani uch toifaga ajratgan: buyuk jamoa – dunyodagi barcha xalqlarning birlashuvi; o'rta jamoa – bir xalq yoki millatni birlashtiruvchi jamoa; kichik jamoa – alohida bir shahar. Albatta bunda olim o'rta jamoa doirasida ilk fozil jamiyatni tushungan va tadqiq etgan. Uning fikricha, fozil jamoa qurish uchun insonlarning ma'nnaviy yuksalishi va ularda fuqaroviylar fazilatlarning shakllanishi zaruriy shartdir. U shunday yozadi: "Fuqarolardan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq emas. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan, eng oljanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanidan himoya qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo'ladilar, xatto hammaning manfaatini o'zlarining manfaatlaridan ortiq ko'radilar, umumning manfaati uchun o'zlarining shaxsiy manfaatlaridan voz kechadilar, xalq manfaati uchun o'zlaridagi kuch-g'ayrat va boyliklarni ayamaydilar".

Farobiy o'z davridagi turli mamlakatlar hayotiy faoliyatini, ularning boshqaruvi usullarini o'rganish davomida ideal jamiyatning asosiy maqsadi insonlarni baxt va saodatga yetkazish, deya ta'kidlagan.

**Abu Rayhon Beruniy (973-1048)** jahon fani va taraqqiyotida ulkan iz qoldirgan Sharq olimlaridan biri. U o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar", "Mineralogiya", "Hindiston" kabi asarlarida o'zining ijtimoiy hayotga tegishli bo'lgan muhim fikrlarini qoldirgan. "Minerologiya" asarining

<sup>15</sup> Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Т.: А.Қодирний номидаги ҳалқ мероси нацпр., 1993. 189-6.  
<sup>16</sup> Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Т.: А.Қодирний номидаги ҳалқ мероси нацпр., 1993. 189-6.

muqaddimasida olim inson va uning jamiyatdagi ijtimoiy ahvoli, burchlari, olivjanobligi, ijtimoiy adolat borasidagi g'oyalari bitilgan.

Amerikalik olim Sarton Beruniyning ijodini o'rganish davomida uning qoldirgan ilmiy merosini o'ta haqqoniylig va xolislik bilan yozilganini ta'kidlagan, shu bilan birgalikda olim faoliyat olib borgan XI asri "Beruniy asri" nomi bilan atagan.<sup>17</sup>

Beruniyning asarlarini o'rganish davomida ularda ilgari surilgan etnosotsiologik g'oyalarni ko'rish mumkin. U "Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar" asarida forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian-molikiylar, xristian-nasturiylar, ma'jusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklarning hayoti, dini, an'analari, ijtimoiy hayotdagi munosabatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan.

Olimning "Hindiston" nomli asarida o'sha davr hind jamiyatining, ichki tuzilishi, mazkur zaminda yashovchi xalqlarning urf-odatlari, tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlari, ma'rosimlari, nikoh masalalari to'g'risida ishonchli ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniy ham ideal jamiyat borasida o'z fikrlarini bildirib, adolatli jamiyatni barpo etish uchun komil inson shakllanishi kerak, degan g'oyani ilgari surgan. "Oliyjanob inson o'zining joni va mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o'ziga tegishli bo'lgan mulkni boshqaradi. Agar bunday odam boshqalarning og'irini o'z yelkasiga olib, ular uchun o'zi mashaqqat tortib, Olloh unga in'om etgan narsalarni muhtoj odamlarga bersa, unday odam javonmard, deb ataladi. Javonmard o'zining oliyjanobligi va hayr-sahovati bilan mashhur bo'lgan odam. Ayni vaqtida u o'zining xushmuomalaligi, mehr-shafqati, sabr-matonati, sabr-toqati, obro'-izzati bilan ham nom chiqargan odamdir"<sup>18</sup>.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov 1998 yil tarixchi olimlar bilan uchrashuv davomidagi nutqida Beruniyning naqadar buyuk olim bo'lganini ta'kidlab, uning

<sup>17</sup>Karimov I.A.Yuk'sak ma'naviyat-engilma: kuch.Ikkinci nashri.T.: « Ma'naviyat »,2010, 42-b.

<sup>18</sup> Беруни А.Р. Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей. – М.: 1963. С.14.

shunday fikrini eslatib o'tadi: "Ilm-fan insonlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi"<sup>19</sup>.

**Ibn Sino (980-1037)** Sharqda "Shayhur-rais" – "olimlar boshlig'i" nomini olgan, uyg'onish davri madaniyatining yirik qomusiy olimlaridan biri. Allomaning bizgacha 24?ta asari yetib kelgan bo'lib, ular falsafa, ilohiyot, tasavvuf, tabobat, mantiq kabi sohalarga bag'ishlangan. Ular orasida "Kitob ash-shifo", "Donishnoma", "Kitob ul-insof", "Tib qonunlari kitobi" bugungi kunda ko'pchilik tomonidan o'qib o'rGANILADI. Olimning "Solomon va Ibsol", "Yusuf qissasi" nomli risolalarida uning ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Uning komil insonni shakllantirishga doir qarashlarida ilk uyg'onish davri mutafakkirlari kabi ma'naviy qadriyatlarning moddiy hayot qadriyatlaridan ustun bo'lishiga moyillik kuchliligi sezilib turadi<sup>20</sup>.

I.Karirnov o'z asarida olimga quyidagicha ta'rif beradi: "Ibn Sinoning butun faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor"<sup>21</sup>.

Arab tarixchisi va mutafakkiri **Ibn Xoldun (Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd, 1332-1406yy)** o'zining asarlarida sotsiologiyaga oid fikrlarini ilgari surib, mazkur bilirnolarini "ilm al-ijtimo" nomi bilan yuritgan. Shuning uchun Sharqda aynan shu mutafakkir sotsiologiya fanining asoschisi sifatida tan olinadi. Olim 1370 yilda yozilgan "Kitob ul-Ibar" asarining muqaddimasida o'zining tarixiy sotsiologik nazariyasini bayon qilgan. U insoniyat ijtimoiy fikri rivojlanishi tarixida birinchi bo'lib, jamiyat va uning ichki rivojlanish qonuniyatları hamda taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratdi.

Olim "Muqaddima" (1381 yil) asarining kirish qismidagi dastlabki bo'limni "Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida", deb nomlagan. Ibn Xoldun tomonidan yaratilgan sotsiologik ta'limotning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

<sup>19</sup>Karimov I.A. Biz kelajigimizni o'zqo'limiz bilunquramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 150-б.

<sup>20</sup>Жакбаров М. Комил инсон гоёси: тарисий-фалсафий таҳдиди. – Т.: Абу Али ибн Сино нашр., 2000. 106-108-б.

<sup>21</sup>Karimov I.A.Yukساқ ma'naviyat-engilmas kuch.Ikkinci nashri.T.: « Ma'naviyat »,2010, 43-b.

1) Insonlarning o'zaro sotsial munosabatlari va ularning mohiyati jamiyatning vujudga kelishini, uning mavjudligini, turmush tarzining asosiy shart-sharoitlarini belgilab berib, aholining mazmunli hayot kechirishi uchun asos bo'ladı.

2) Insonning jismoniy qiyofasi va kishilar ruhiyatining shakllanishida tabiiy fizik, ya'nioq qo'shiq muhit hamda sotsial muhit muhim o'rinni egallaydi.

3) Insonga tabiat kuchlari bilan birgalikda g'ayritabiyy kuchlar ham ta'sir ko'rsatadi. Insonlarning ijtimoiy mohiyati ularni mazkur kuchlardan qutilish imkoniyatlanini birlashish orqali qidirishga undaydi.

4) Insoniyat jamiyati insonlarning o'z manfaatlari asosida o'zaro birikmasidan tashkil topadi.

5) Insonlarning bunday birlashmalarini boshliqlar boshqaradi. Boshliqlar Olloh tomonidan tayinlanmaydi. Ular insonning hayot vositalariga bo'lgan intilishi hamda tabiiy ehtiyojlar asosida sodir bo'ladı.

Ibn Xoldun shu fikri bilan Arastuning "inson siyosiy mavjudot" degan g'oyasiga nisbatan muholif qarashni shakllantirgan.

6) Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi uning ma'naviy tabiatini hamda tabiiy ehtiyojlarini belgilab beradi.

Kishilar mavjud ekan ularning ehtiyoj va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari hamda shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qaramaqarshiliklar sodir bo'ladı. Bu esa o'z navbatida tartibni o'rnatish va tashkil qilish ehtiyojini yuzaga keltiradi, bu vazifani "hokimiyat" amalga oshiradi. Mulkiy va mulkka aloqador bo'lgan munosabatlarni davlat tartibga solib, jamiyatda reguliyativ va nazorat funksiyalarini amalga oshiradi.

Olimning fikricha, jamiyatda yuzaga keluvchi oddiy xalqning norozilik kayfiyati asosan boshqaruvda band bo'lgan hukmron sinf vakillarining adolatsiz qarorlari va o'z imkoniyatlarini suiste'mol qilishi, zo'ravonlikka asoslangan siyosatidir. Shuning uchun Ibn Xoldun tomonidan boshqaruvchi hukmdor adolatli va adolatsiz shch toifalarga ajratilgan. Olimning nazaridagi adolatli shohning siyosati shu qadar adolatli va uddaburon bo'lishi kerakki, amalga oshirilayotgan qarorlar xalq tomonidan zo'ravonlik yoki majburlov sifatida qabul qilinmasligi, xalq tazyiqni his

qilmasligi kerak. Adolatli hukmador boshqargan jamiyat aholisi o'zini kuchli, erkin va himoyalangan his etadilar va jamiyat ravnaqi yo'lida qudratli buniyodkor kuchga aylanadilar. Shu bois, mutafakkir shohlarga maslahat berib, xalq erkinligini xaddan ortiq bo'g'maslikka va erkinlik berishga chaqiradi: "Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqtish yo'li bilan bo'lar ekan, u xoh o'quvchi, xoh qul, xoh xizmatkor bo'lsin, tahdid soluvchi qo'rquv hissi natijada fuqaro ruhining o'sishiga to'sqinlik qiladi, harakatchanlikni so'ngdiradi va uning o'rniga yalqovlik, aldash, yolg'onchilikni kuchaytiradi. Bu hislatlar aynan shu zo'ravonlik ta'sirida yuzaga keladi".

Mazkur g'oyalar Ibn Xoldun sotsiologik qarashlarining muhim xulosalaridan bo'lib, unda boshqaruv va konflikt sotsiologiyasiga doir fikrlarni ko'rish mumkin.

## 2. Sotsiologiya fanining fan sifatida vujudga kelishida diniy, iqtisodiy, ilmiy va siyosiy omillarning o'rni

"Sotsiologiya" atamasining lug'aviy va etimologik ma'nosiga nazar tashlasak, u lotincha "*society*" – "*jamiyat*" va yunoncha "*logos*" – "*so'z, tushuncha, ta'limot*" so'zlarining yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, jamiyat to'g'risidagi fan sifatida talqin etiladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, sotsiologiya yaxlit tizim sifatidagi jamiyat, sotsial institutlar, sotsial guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan sotsial jarayonlarni, hodisa va voqealarни o'rganuvchi fandir.

Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganuvchi ijtimoiy fan bo'lgani uchun uning vujudga kelishida jamiyatdagi muhim ijtimoiy ehtiyojlar hamda olimlarning ilmiy yetukligi asosiy o'rinni egallaydi. Uning fan sifatida qaror topishida xristianlik dinidagi bo'linish, ya'ni G'arbiy yevropada protestantlik g'oyalarining tarqalish hamda aholi dunyoqarashiga ta'siri natijasida kapitalistik munosabatlarning o'matilishi, aniq va tabiiy fanlarning rivojlanishi ijobiy sharoit yaratdi. XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida boshlangan sotsial o'zgarishlarning yalpi tus olishi, aholi tabaqalari hamda olimlar dunyoqarashining o'zgarishi monarxiyaga asoslangan turnnush tarzidan voz kechilib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangi boshqaruv shakllariga o'tishni taqazo etdi. Fuqarolarning yangi huquq va erkinliklari iqtisodiy, siyosiy va diniy jihatdan jamiyat a'zolariga mustaqil tanlov imkonini berdi. Jamiyat a'zolarining yangi

imkoniyatlari, ya'ni tanlash huquqi ularda jamiyat hayotini o'rganish, undagi ijtimoiy jarayon va hodisalardan xabardor bo'lish ishtiyoqini, yangi ijtirooy manfaatlarni uyg'otdi. Iqtisod va siyosatdagi raqobat tadbirkor hamda siyosatchilarni jamiyatdag'i jarayonlardan ogoh bo'lish, keng jamoatchilik kayfiyatini o'rganish, aniq sotsial mexanizmlarni bilish, bashorat qilish imkoniga erishish kabi talablarini keltirib chiqardi. XIX asrga kelib jamiyatning sotsial rivojlanishi va jamiyat to'g'risidagi mavjud bo'lgan fanlarning rivojlanish evolyusiyasi yangi turdag'i sotsial bilimlarni shakllantiruvchi fanga ehtiyoj tug'ilganini namoyon qildi. Natijada G'arbiy yevropada shakllanishni boshlagan fuqarolik jamiyatni va uning ehtiyojlariga javoban sotsiologiya fani vujudga keldi.

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi natijasida savdo va ishlab chiqarishning kengayib, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Merkantilizm, siyosiy iqtisodiyot rivojlandi.

Kapitalizm qaror topish paytida siyosiy iqtisod mustaqil fan sifatida shakllanib, burjuaziyaning kapitalizmga qarshi manfaatlarini himoya qiladi. XVIII asr oxiri — XIX asr birinchi yarmida burjua siyosiy iqtisodiyoti o'zining eng gullagan nuqtasiga yetib, A.Smit (1723-1790), D.Rikardo (1772-1823) asarlarida o'z ifodasini topdi. Ularning fikricha, mol-mulk munosabatlari va xo'jalik hayoti insonlar irodasiga bog'liq bo'lмаган qonunlarga asoslanadi. Ular mehnat qiymati nazariyasi asoschilaridan sanaladi. Unga ko'ra, tovar qiymati unga sarflangan mehnat miqdori bilan aniqlanadi. A.Smit jamiyatni yollanma ishchilar, kapitalistlar va yer egalariga ajratib, buning asosida milliy daromadni ishchi haqqi, kapital, daromad va rentaga bo'lgan. Siyosiy iqtisodiyotning rivojlanishi jamiyat va uning qonuniyatlarini o'rganishda yana bir qadam bo'ldi.

N.I.Kareev o'zining «Sotsiologiyani o'rganishga kirish» (1897 yil) asarida shunday yozadi: «Davlat, huquq va qishloq xo'jaligidan tashqari jamiyat hayotida shunday voqye va hodisalar bor ediki, ularni bu uchta soha nuqtai nazaridan tadqiq qilishning iloji yo'q edi. Bu jamiyatning diniy madaniyati, tili, ahloqi va an'analarini, e'tiqodi, dunyoqarashi, san'ati va adabiyoti. Biz jamiyatni yuqorida aytib o'tilgan uchta soha nuqtai nazaridangina ko'rib chiqsak, jamiyat to'g'risidagi tasavvurimiz

juda tor bo'lib qoladi. Jamiyatning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy sohalarini birligida ko'rib chiqish orqali ham jamiyat hayoti nima ekanligi to'g'risida to'laqonli tasavvur olib bo'lmaydi<sup>22</sup>.

XVIII asrda tarix falsafasi fanining rivoji va **Djan Battist Viko** (1668-1744yy) ning "Millatlarning o'ziga xosligi asoslar" asari sotsiologiyaning qaror topishida yana bir turki bo'ldi. Unda olrn tarixiy jarayonlarni, millatlarning kelib chiqish qonuniyatlarini talqin etishga uringan.

XVIII asr va XIX asr birinchi yarmida tarix falsafasi tarixiy rivojlanishning umumiy nazariyasi sifatida shakllandi va olimlar jamiyatda o'tmishda yuz bergan voqyealar asosida turli qonuniyatlarni izlashni boshladi. Ular tomonidan taraqqiyot nazariyasi, tarixiy jarayonning yagonaligi va shakldorligi muammosi, tarixiy qonuniyatlar va h.k kabi muhim g'oyalar ilgari surilgan. Mazkur g'oyalar nazariy sotsiologiyaning shakllanishi uchun muhim manba sanaladi.

Tabiiy fanlardagi yutuqlar va usullar amaliy sotsiologiyaning rivojlanishida muhim o'rIN tutadi. Chunki tabiiy hodisalarga nisbatan ilmiy dunyoqarashning shakllanishi XVIII asrdan boshlab tabiatni metafizik dunyoqarash asosida anglashga chek qo'yib, uning o'mnida ilmiy (ratsional) bilimlarning shakllanishiga olib keldi.

**Mikhail Lomonosov** (1711-1765yy) moddaning atomdan tashkil topishi, modda va harakatni saqlash tamoyilini aniqladi, yerning tuzilishini ko'plab minerallarning kelib chiqish manbalari asosida tushuntirib berdi. Nemis munitoroz falsafasining asoschisi **Immanuil Kant** (1724-1804yy) 1755 yilda "Umumiy tabiiy tarix va osmon nazariyasi" asarini anonim ravishda nashr etib, unda tabiat yaralgan paytdan boshlab mexanik qonunlar asosida osmon jismlarining yaralishi, shakllanishi va ularni harakatlantiruvchi manbalar to'g'risida fikr yuritib,<sup>23</sup> "avvaliga osmon jismlarining barchasi tarqoq holatda mavjud bo'lgan, ya'ni zamonaviy ilm nuqtai nazaridan tarqoq atomlardan iborat bo'lgan"<sup>24</sup> va materiya ba'zi zaruriy bo'lgan qonunlarga, ya'ni

<sup>22</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.54.

<sup>23</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.63.

<sup>24</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.63.

tortishish va itarilish kuchlariga bo'ysunishi borasida gipotezani ilgari surgan. Fransuz astronomi, matematik, fizik Per Simon Laplas (1749-1827yy) o'zining kosmogoniya<sup>25</sup> gipotezasi bilan olamning tuzilishi va kelib chiqishidagi metafizik qarashlarga chek qo'ydi. Charlz Layell (1797-1875yy) tomonidan «Geologiya asoslari» ning yaratilishi (1830-1833yy), Jan Batist Lamark (1744-1829yy) biologiyada tirik tabiatning evolyutsiyasi konsepsiyasini yaratishi, Djon Dalton (1766-1844yy) yaratgan atomizm nazariyasi va gaz hosil bo'lish qonunlari, Fridrix Vyoler (1800-1882yy) kimyoviy yo'l bilan noorganik moddadan organik moddani olishi kabi qator kashfiyotlari mazkur davrgacha bo'lgan ilmiy dunyoqarashning tubdan o'zgarishiga hamda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. XIX asrning birinchi choragida Gemfri Devi (1778-1829yy), Nikola Leonor Sadi Korno (1796-1832yy) tomonidan elektr hodisasini o'rganish va shu asosdagi kashfiyotlar yaratildi. Urben Jan Jozef Levere (1811-1877yy) sayyoralar harakati va quyosh tizimining barqarorligi nazariyasini yaratib, uning hisoblari va bashorati asosida Iogann Galle (1812-1910yy) Neptun sayyorasini kashf qildi.

XIX asr o'rtalarida tabiiy fanlarda amalga oshgan uchta yirik kashfiyot: *hujayralar nazariyasining yaratilishi, energiyaning saqlanishi va hosil bo'lishi qonunining ochilishi* hamda *biologiyada evolyusion nazariyaning yaratilishi* sotsiologyaning fan sifatida qaror topishida muhim rol o'ynagan.

Hujayralar nazariyasi 1838-1839yillarda nemis olimlari — biolog Teodor Shvann (1810-1882yy) va botanik olim Matthias Yakob Shleyden (1804-1881yy) tomonidan yaratilgan. Ular hayvonlar va o'simliklar hujayralarini o'rganish asosida barcha organizmlar hujayralarining hosil bo'lish va shakllanish yo'llarini ko'rsatishdi<sup>26</sup>. Mazkur nazariya asosida jonli mavjudotlarning o'sish va rivojlanishi tushuntirib berildi. Bu flora va fauna olamlariga nisbatan bo'lgan metafizik qarashlarga chek qo'ydi.

<sup>25</sup> космогония – (юнонча-kosmogenia) фаловий жисмлар ва уларниң тизимларини яратиш ҳамда шакллашыш нүктаси назаридан ўрганувчи астрономияның бир жисми.

<sup>26</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С. 306-307.

Ishlab chiqarish amaliyotining rag'batlantirilishi tabiiy fanlardagi kashfiyotlarning jadal tus olishiga olib keldi va *energiyaning saqlanishi* va *hosil bo'lishi qonuni* ochildi. Ingliz kashfiyotchisi **Djeyms Uatt** (1736- 1819yy) bug' mashinasini kashf etdi. Mazkur dvigatel ishlab chiqarishda mashinalardan foydalanish uchun turtki bo'ldi. **Djeyms Preskott Djoul** (1818-1889yy) eksperiment asosida energiyaning saqlanish va hosil bo'lish qonunini asoslab berib, issiqlikning mexanik ekvivalentini topdi. **German Lyudvig Ferdinand Gelmgols** (1821-1894yy) uning ishini davom ettirib mazkur qonunni matematik jihatdan asoslab berdi. Shundan so'ng olimlar orasida mavjud bo'lgan olamni metafizik va idealistik jihatdan anglash g'oyasi butkul o'z kuchini yo'qotdi.

Evolusion rivojlanish nazariyasi **Charlza Roberta Darvina** (1809-1882yy) tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan amaliy tadqiqotlar va shaxsiy tajriba asosida yaratilgan. Uning yozishicha, hayvonot olamining jadal rivojlantiruvchi kuch sifatida u o'zgaruvchanlik, irsiyat va tabiiy tanlovdir<sup>27</sup>. O'zining 1871yilda chiqqan "Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlov" asarida Darwin odamning tabiiy jihatdan kelib chiqishini tushuntirib, ilohiy qarashlarni rad etdi. Olim o'zining evolyusion nazariyasi orqali olamdagи barcha jonli mavjudotlar evolyutsion rivojlanish natijasida o'zgarib, takomillashib borishini ko'rsatdi.

Evolutsionizm g'oyasi biologiyada vujudga kelib, o'sha davr jamoatchilik fikrining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi va sotsial fanlar doirasida sotsial-darvinizm g'oyasining shakllanishiga sabab bo'ldi.

*XIX asr birinchi yarmi va o'ralarida amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlarning obyektiv ahamiyati shundan iboratki, ular tabiatda yuz berayotgan voqye va hodisalarning o'zaro aloqadorligini o'chib berib, metafizik qarashlarning noto 'g'ri ekanligini isbotladi.*

Tabiiy fanlardagi yutuqlar yangi dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'lib, O.Kont, G.Spenser va E.Dyurkgeym tomonidan yaratilgan jamiyat to'g'risidagi

<sup>27</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.10.

qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ularning biologiya tamoyillariga asosilangan sotsial qarashlari "jamiyat rivojlanishining organik nazariyasi" nomi bilan yuritiladi.

XVIII-XIX asrlarda yevropada bo'lib o'tgan *sanoat inqilobi* va *Biyuk Fransuz inqilobi* (1789-1794 y), jamiyat to'g'risidagi yangi fanning rivojlanishida ulkan turki bo'ldi. Bu ikki revolyusiya G'arbiy yevropada kapitalizmning qaror topishini ta'minlab, ko'rib chiqilayotgan davrning iqtisodiy va siyosiy hayotida ulkan iz qoldirdi. N.I.Kareevning yozishicha, "metafizikaning g'oyalari asosida amalgaloshirilgan yirik tarixiy to'ntarish, ya'ni fransuz inqilobi kutilgan natijalarini bermadi va inqirozga yuz tutdi. Inqilob dasturi Fransiyaning o'zida ham oxirigacha hayotga tadbiq qilinmagan edi. Shuning uchun ko'pchilik mazkur inqilobning inqirozidan so'ng aql-idrok imkoniyatlaridan ko'ngli qoldi. Jamiyatdagi vaziyatni xolisona ravishda o'tmish, mavjudlik va kelajak nuqtai nazaridan tahlil etish ehtiyoji tug'ildi"<sup>28</sup>.

Sotsiologyaning paydo bo'lishida *ishchi sinfining shakllanishi* va *ijtimoiy munosabatlari inqirozi*<sup>29</sup> ning jadallahuvi muhira o'rinnegallaydi. Tarixiy jihatdan ishchi sinfining shakllanishi XV asrda boshlangan bo'lsada, inqilobdan keyingi holat proletariat<sup>30</sup> sinfining yetakchi sinfga aylanishini ta'minladi. Avvaliga ular o'zining asosiylar muammosi sifatida yangi stanok va mexanizmlarning paydo bo'lishini ko'rishgan bo'lsa, keyinchalik sotsial jarayon va holatni o'zgartirish zarurati birlamchi ekanligini tushunib yetishdi. Shundan so'ng fabrikalarda proletar sindikatlaridan iborat bo'lgan va ularning manfaatlarini ko'zlovchi tredyunionlarning paydo bo'ldi. Kapitalizm va uning ilk qarama-qarshiliklari XIX asr boshlarida sanoatlashib, katta fabrikalarga aylanayotgan tashkilotlarda proletar sindikatlarining o'zaro birlashib, ishsizlik, ekspluatatsiya, bolalar va ayollar mehnati kabi sotsial muammolarga qarshi kurashishga undadi. 1825-yildan boshlab kapitalistik

<sup>28</sup> Карсев Н.И. Огюст Кони как основатель социологии // Введение в изучение социальных наук: Сб. ст. / Под ред. Н.И.Карсева. — СПб.: Брокгауз-Эфрон, 1903. — С. 10.

<sup>29</sup> Кон И.С. Идеино-теоретические предпосылки социологического знания // История буржуазной социологии XIX — начала XX века / [Отв.ред. И.С.Кон]. АН СССР. Ин-т социолог, ис-ний. — М.: Наука, 1979. — Гл. 1. - С.13.

iqtisodiyotda davriy inqirozlar kuzatila boshlandi va xaddan tashqari yuqori ekspluatatsiya, ish soatlarining uzoqligi, mehnat sharoitlarining yaxshi emasligi, ish haqining pastligi, ayollar va erkaklar mehnatining bir xil baholarumasligi kabilarda o‘z ifodasini topdi. Bu proletar sinfnинг kambag‘allahuviga, kichik hunarmand va savdogarlarning esa kasod bo‘lishiga olib keldi. Natijada ishchi sinfi qarshilik munosabati sifatida qurolli chiqishlarni amalga oshira boshladi. Undan tashqari proletariat sinfnining talablari borgan sari tizimli va tartibli ko‘rinishga kirib, siyosiy xarakter kasb eta boshladi. Natijada marksizm g‘oyasi tug‘ildi va rivojlandi.

### **3. O.Kont - pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalar. Kontning izdoshlari**

*Ogyst Kont(1798-1857yy) sotsiologiyasi.* N.I.Kareevning yozishicha, XVIII asr umumiylarsa ilmiy mahsulidan qoniqmaslik hissi A.Sen-Simon va O.Kont tomonidan jamiyat to‘g‘risidagi yangi fanning yaratilishi to‘g‘risida fikrning ilgari surilishiga sabab bo‘ldi. Olimlar shu paytgacha jamiyatni o‘rganishda qo‘llanilgan metafizik usulni ilmiy usullarga almashtirishni maqsad qilishdi. Chunki faqatgina ilmiy usul orqali olingan natijalar jamiyatdagi vaziyatni to‘g‘ri baholash va uning yechimini topish imkoniyatini tug‘diradi<sup>31</sup>. O. Kont jamiyatni o‘rganuvchi yangi fan tabiiy fanlarning ilmiy usullarini o‘ziga moslashtirgan holda foydalanishi zarurligini ta’kidladi. Natijada falsafa va sotsiologiyada *pozitivism* yo‘nalishi rivojlandi.

Mashhur rus-amerika sotsiologi P.A.Sorokin “Barcha uchun sotsiologiya” (1920y) nomli darsligida shunday yozgan: “Rasmiy jihatdan sotsiologiyaning qaror topishi O.Kontning nomi bilan bog‘liq. U ilk bora mazkur fanning nomini ilmiy tilga kiritigan va fanlar tizimidagi o‘rnini belgilab bergan. Ammo mazkur fannning elementlari va mahsus savollari O.Kontgacha ham Qadim Sharq va yunon, olimlari, Qadim Rim huquqi tomonidan ko‘rib chiqilgan. Ulardan Platon, Aristotel, Tita Lukretsiya Kar, Foma Akvinat, arab olimi Ibn-Xaldun, shuningdek, Makiavelli, Gvichiardini, Bodena va Viko, Monteske va Tyurgo, Russo va Kondorse, Maltus va

<sup>31</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.9.

Ad.Smit, Gerder va Sen-Simonlarni alohida ko'rsatish lozim». A.Sorokinning fikricha, Kontdan so'ng sotsiologiyaga ulkan hissa qo'shgan olim bu *G.Spenser*, *Dj.S.Mill*, *G.T.Bokl* va bqa<sup>32</sup>.

M.M.Kovalevskiy ham sotsiologiyaning otasi sifatida O.Kontni tan olgan hamda sotsiologiyaning rivojida G.Spenser (1820-1903yy.) ning o'mi muhimligini ta'kidlagan<sup>33</sup>. V.P.Kultigin sotsiologiyaning qaror topishi va shakllanishida — O.Kont va G.Spenserning hissasi katta, deb hisoblaydi<sup>34</sup>.

Yuqorida keltirilgan va aksariyat olimlarning xulosalari natijasida sotsiologiyaning asoschisi sifatida O.Kontni ko'rsatishimiz mumkin. Aynan u mazkur fanga sotsiologiya nomini bergen va pozitivizm maktabiga asos solgan. O.Kontning o'zi "Pozitiv falsafa kursi"ning to'rtinchi tomida sotsiologiyaning qaror topishida ko'plab olimlarning hissasi borligini ta'kidlab o'tgan. U jamiyatni sotsiologik jihatdan o'rghanishni Aristotelning asarlarida ko'rgan va uning sotsiologik qarashlarini o'rgangan. O'zining sotsiologik fikrlari shakllanishida F.Bekon, J.B.Bossyue, A.Smit, A.F.Tyurgo, Sh.L.Monteske, J.A.Kondorse kabi olimlarning hissasini ta'kidlagan.

1822- yilda O.Kont «Jamiyatni qayta tuzish uchun kerakli bo'lgan ilmiy ishlarning rejasи» nomli falsafiy asarini yozib, unda jamiyat to'g'risidagi yangi fanni "sotsial fizika" nomi bilan atadi. "Sotsial fizika"ning asosiy vazifasi "pozitiv" usullar vositasida jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini topishdan iborat bo'lgan. Kont jamiyat rivojining mazkur qonunlarini "tortishish qonuni" kabi muhim ekanligini ta'kidlagan. "Endilikda inson ruhi (ongi) samoviy fizika (astronomiya), yer fizikasi, mehanik va kimyoviy fizika (kimyo), organik va o'suvchi tirik tabiat

<sup>32</sup> Сорокин П.А. Общедоступный учебник социологии. Статьи разных лет / Изд. подгот. В.В.Сапов. — М.: Наука, 1994. — С.185.

<sup>33</sup> Ковалевский М.М. Социология: Соч.: В 2 т./Отв. ред. А.О.Боронов. — СПб.: Издательство «Алетейя», 1997. — Т.2. — (Российская социология). Т. 1. Социология. — Т.2 Современные социологии., Т 2. С.7; 120. С.159.

<sup>34</sup> Култъгин В.П. Французская классическая социология XIX — начала XX веков: Лекции по истории социологии / Ин-т социальных и политических технологий АДС «НТЛ»: Вышие курсы социологов «Поню». — М., 1991.- С.11-12.

fizikasini (biologiya) yaratganidan so'ng kuzatuvchi fanlar tizimini tugallovchi sotsial fizikani (sotsiologiya) yaratishi lozim<sup>35</sup>.

O.Kont "Pozitiv falsafa kursi" nomli olti tomli asarini 1830- yildan boshlab (1835, 1838, 1839, 1841, 1842 yy.da chop etilgan)<sup>36</sup> chop etgan va unda jamiyat to'g'risidagi yangi fanni "sotsial fan", "sotsial falsafa", "sotsial fiziologiya" va ko'p hollarda "sotsial fizika" nomlari bilan atagan. Ammo 1839- yil O. Kont belgiyalik olim A.Ketlening 1835- yilda chop etilgan "Sotsial fizika va insoniyat imkoniyatlari rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar" nomli asari bilan tanishib, unda "sotsial fizika" termini jamiyatni faqat statistik jihatdan o'rganishga nisbatan qo'llanilganini ko'rgan. O.Kont mazkur ishdan xabar topgach, o'zi rivojlantirayotgan fanning o'rganish doirasi statistik tadqiqotlar bilan chegaralanmaganligini ko'rsatish maqsadida unga yangi nom berdi. "Sotsiologiya" termini yunoncha va lotincha so'zlarning birikmasidan tashkil topgani uchun bir qator olimlar O.Kontni uquvsizlikda aybladi. Uning sotsiologiyasi fizika va boshqa tabiiy fanlardan ularning ishonchhlilik xarakterini, tekshirimliligin, obyektivlik, umum tan olingenlik kabilarni olishi kerak edi.

O.Kontning fikricha, sotsiologiya *sotsial statika* va *sotsial dinamikadan* tashkil topgan. Sotsial statika deganda olim sotsial institutlarning o'zaro ta'sirini tushungan. Uning fikricha, jamiyat tirik organizmga o'xshab, undagi barcha qismlar uyg'un ravishda bir-biriga muvofiq. Shuning uchun davlat va siyosatni jamiyatdan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi. Sotsial statika ma'lum va aniq davrda jamiyat yoki sotsial institut, sotsial tashkilot tuzilishining anatomik tahlilini amalga oshiradi<sup>37</sup>.

Sotsial dinamika esa sotsial o'zgarishlar jarayonlarini o'rganadi. U jamiyatda kechuvchi jarayonlarni bosqichma-bosqich yoritadi. Kontning sotsial dinamikasi statikaga bo'ysundirilgan bo'lsada, jamiyatni o'rganish davomida dinamika islohotlar

<sup>35</sup> Конт О. Курс позитивной философии/ Полн. пер. с поэл. 5-го франц. изд. под ред. с примеч. и статьями С.Е.Савича, О.Д.Хвольсона, Д.И.Менделеева и др., с прилож. статьи Н.И.Кареева. - СПб : [Экон.Тип.], 1899. - Т.1. - Отд.1 — Общие предварительные сведения. — Философия математики, лекции 1-9.— С.11.

<sup>36</sup> Конт О. Курс позитивной философии/ Полн. пер. с поэл. 5-го франц. изд. под ред. с примеч. и статьями С.Е.Савича, О.Д.Хвольсона, Д.И.Менделеева и др., с прилож. статьи Н.И.Кареева. - СПб : [Экон.Тип.], 1899. - Т.1. - Отд.1 — Общие предварительные сведения. — Философия математики, лекции 1-9.— С.23.

<sup>37</sup> Конт О. Курс позитивной философии/ Полн. пер. с поэл. 5-го франц. изд. под ред. с примеч. и статьями С.Е.Савича, О.Д.Хвольсона, Д.И.Менделеева и др., с прилож. статьи Н.И.Кареева. - СПб : [Экон.Тип.], 1899. - Т.1. - Отд.1 — Общие предварительные сведения. — Философия математики, лекции 1-9.— С.11.

uchun yo'l ochib beradi, deya ta'kidlangan. Faktlar va merosiylik nuqtai nazaridan turli tashkilotlarni o'rganuvchi tarix fanidan farqli ravishda sotsial dinamika inson va jamiyat ongi shakllanish bosqichlarini tadqiq etishi lozim.

Olimning fikricha, inson ruhi (ongi) o'zining tabiatiga muvoffiq har bir tadqiqotda tafakkurning uch bosqichidan foydalanadi: *teologik usullar*, *metafizik usullar*, *poziiv (ijobiy) usullar*. "Uch bosqich qonuni" nomini olgan mazkur g'oya Kont tomonidan Dj.Viko va A.Tyurgoning inson aqliy rivojlanishining tarixiy jihatdan bosib o'tgan uch bosqichi asosida ishlab chiqilgan. Ammo ulardan farqli ravishda Kont barcha hodisalarning yagona manbai sifatida tabiatni ko'rsatgan.

Kont sotsiologiyaning fanlar tizimida tutgan o'mini aniqlash maqsadida o'ziga xos bo'lgan fanlar tasnifini ham ishlab chiqqan. Uning fikricha, "asosiy fanlar ieraraxiyasi" oddiydan mukammalga, aniq fanlardan tabiiy-ijtimoiy fanlarga qarab quyidagicha joylashgan: *matematika — astronomiya — fizika — ximiya — biologiya — sotsiologiya*. Bunda keyingi fan avvalgi fanning mantiqiy davomi sifatida shakllangan. Sotsiologiya bilan shug'ullanish uchun undan oldin vujudga kelgan barcha fanlarni yaxshi bilish zarur. Kontning fikricha, sotsiologiyaga eng yaqin fan biologiya. Fanlar tasnifida olim psixologiyani qo'shmag'anligi uchun keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan tanqid ostiga oligan.

O.Kont jamiyatni o'rganishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullarni ishlab chiqishga harakat qilgan. U sotsiologiyada *kuzatish*, *eksperiment*, *qiyosiy va tarixiy usullarning* qo'llanilishini asoslab bergan. Kontning fikricha, jamiyatni sotsiologik jihatdan tadqiq etishda tadqiqotchining tasavvuri qat'iy ravishda nazoratdag'i kuzatuvga bo'ysundirilishi kerak. Sotsial hodisalar va jamiyat rivolanishining tabiiy qonunlarini qayd etish orqali sotsial utopiyalardan voz kechish mumkin. Shuning uchun Kont jamiyatni o'rganish davomida tarixiy-taqqoslash usulidan foydalangan. U mazkur usulni sotsiologik umumlashtirish va pozitivistik sotsiologiyaning muhim vositasi sifatida baholagan. Olimning fikricha, jamiyatning o'tmishini faktlar orqali o'rganmasdan turib, uning kelajagi to'g'risida bashorat qilish mumkin emas. Bunda olingen faktlarni falsafiy mushohada asosida emas, balki umumilmiy usul orqali

tadqiq etish lozim. Jamiyatni sotsiologik jihatdan o'rganishning asosiy mohiyati shunda mujassamlashgan.

Olim barcha fanlar umumiy mantiqqa va metodologiyaga asoslanib, tadqiqotlari doirasiga kiruvchi umumiy qonuniyatlarni ochishga intiladi, deb hisoblagan. Insoniyat jamiyat rivojini boshqaruvchi umumiy qonuniyatlarni ochish orqali o'z hayoti va taqdirini boshqarish imkonini qo'lga kiritadi. Chunki "keljakni ko'ra bilish qobiliyati boshqarish imkonini keltirib chiqaradi".

O.Kont o'zining sotsiologik qarashlarini quyidagi asarlarida bayon qilgan:

- olti jildlik "Pozitiv falsafa kursi" (1830-1842yy);
- "Pozitiv falsafa rihi to'g'risidagi mulohazalar" (1844y);
- "Pozitiv katekizis" (1851y);
- to'rt jildlik "Pozitiv siyosat sistemasi yoki insoniyat uchun dinni qaror toptiruvchi risola" (1851-1854 yy);

Uning vafotidan so'ng "Ogyust Kont vasiyatları" nomli asar e'lon qilingan.

Amerikalik sotsiolog Smoll Kont haqida shunday yozadi: "Kont unga (yangi fanga) nom berdi, uning usullarini ko'rsatdi, kerig ma'noda predmetini aniqlashtirdi, boshqacha qilib aytganda u olamga go'dakni taqdim qildi; amnio u bu go'dakni oyoqqa turg'izib, yurishni o'rgatishga ojiz edi"<sup>38</sup>.

Davrimizning mashhur fransuz sotsiologi R.Aron o'zining "Sotsiologik fikr shakllanishining asosiy bosqichlari" nomli asarida sotsiologyaning asoschilarini sifatida — *Sh.L.Monteske, O.Kont, K.Marks, A. de Tokvil, E.Dyurkgeym, V.Poreto, M.Veberni* ko'rsatgan<sup>39</sup>

O.Kontning vatandoshi *Emil Dyurkgeym* (1858-1917yy) amaliy sotsiologyaning kashfiyotchisi sanaladi. U bugungi kunga qadar qo'llanilib kelayotgan funksional tahlil metodologiyasini yaratgan va "Suitsid" asarida o'z joniga qasd qilish muammosini sotsiologik jihatdan o'rgangan. Ariomiya nazariyasi, ijtimoiy mehnat taqsimot, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati,

<sup>38</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт. Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.19.

<sup>39</sup> Арон Р. Этапы развития социологической мысли: Пер. с фр. / Общ.ред. и предисл. П.С.Гуревича. — М.: Издательская группа «Прогресс»-«Политика», 1992. — С.25.

kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyusiyasi haqidagi qarashlari jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan.

E. Dyurkgeymning fikricha, sotsiologiyaning predmeti sotsial faktlar sanaladi. Sotsial faktlarning asosiy xususiyatlari: obyektiv va individdan xoli ekanligi; individga bosim o'tkazib, uni jamiyatdagi qadriyatlar, kutishlar va normalar asosida harakatlanishga majburlashidir. Olim tomonidan sotsiologiyada sotsiologizm nazariyasiga asos solingan. U jamiyatni individlardan jismoniy va ahloqiy jihatdan ustuvorlik kasb etishini ta'kidlagan. Olimning nazarida sotsiologiya ijtimoiy fanlar orasida markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun uning vazifasi faqatgina sotsial faktlarni o'rganish emas, balki ijtimoiy hayotni tadqiq qiluvchi boshqa fanlarni nazariy-metodologik asos bilan ta'minlashdan iborat.

*Karl Marks* (1818–1881yy) ijtimoiy nizo nazariyasi, jamiyat tuzilmasi va rivoji haqidagi ta'lilot hamda ijtimoiy sinflar to'g'risidagi konsepsiyaning asoschisi bo'lib, jamiyatdagi stratifikatsiya muammosini o'rganishda o'z xissasini qo'shgan. U o'zining nazariyasining asosi sifatida tarixiy materializmni oladi. Unga ko'ra, jamiyatning rivojlanishi unda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy tizimga bog'liq. Marksning nazarida tarix ijtimoiy - iqtisodiy formatsiyalarning obyektiv jihatdan o'zgarish jarayoni bo'lib, u sinflar o'rtasidagi kurash va sotsial inqiloblar natijasida amalga oshadi. Olim o'zi yashagan kapitalistik jamiyatni tahlil qilish orqali sotsiologik bilim rivojishga o'zining xissasini qo'shgan. Uning tahlili asosida ajriyatdagi iqtisodiy omillarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri aniqlangan. Marks "sinf", "sotsial qatlam", "sinfiy kurash" kabi tushunchalarning mazmun, mohiyatini ishlab chiqqan.

*Maks Veber* (1864–1920yy)ning ijtimoiy harakat va motivatsiya, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, begonalashuv, kasbga moyillik to'g'risidagi nazariyalari, byurokratiya nazariyasi, ijtimoiy stratifikatsiya va statusli guruhlar konserpsiysi, boshqaruv instituti asoslarini o'rganishga doir izlanishlari, sotsiologiyaning poydevorini tashkil qiladi. Uning din sotsiologiyasi, iqtisod va mehnat sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasiga qo'shgan hissasi katta. Veberning ideal tiplar nazariyasi uning metodologiya sohasidagi eng katta yutuqlaridan biri.

Struktur-funksionalizm vakillaridan farqli ravishda M.Veber o‘z e’tiborini ko‘proq guruh va individlarning faoliyati motivlari va xulq – atvoriga qaratgan. Uning fikricha, insonlarning va guruhlarning xatti-harakati sotsial munosabatlar va sotsial struktura bilan belgilab berilmaydi. Inson va guruhlarning sotsial xatti-harakati ma’lum ma’noda mustaqil va anglangan bo‘ladi. Nafaqat jamiyat insonga, balki inson ham jamiyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, sotsial reallikni yaratadi. Veberning fikricha, sotsiologiyaning asosiy vazifasi umum qabul qilingan harakatlar va munosabatlar asosida individlarning o‘zaro anglangan harakatlarni tadqiq etishdan iborat. Veberning tushunuvchan sotsiologiyasining mazmuni mana shundan iborat.

Ingliz olimi *Gerbert Spenser*(1820–1903yy) sotsiologiya fanidagi ijtimoiy evolyusiya g‘oyasining muallifi. Sotsiologiyada organik yo‘nalish asoschilaridan biri. Unga ko‘ra, jamiyat tirik organizm singari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarning faoliyati natijasida mavjud bo‘ladi. U organizdagi har bir organni “sotsial institut”ga qiyoslagan. Ammo bu qiyoslash nisbiy sanaladi. Chunki olim jamiyatning sotsiallik xususiyati uni hamisha rivojlanishiga va o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, deydi. Misol uchun aholi soni o‘sadi, faoliyatning yangi shakllari va turlari paydo bo‘ladi, yangi sotsial institutlar paydo bo‘ladi. shaxsnинг jamiyatga bog‘liqlik hissi o‘zgaradi.

Organik sotsiologiya doirasida liberalizm g‘oyalarini rivojlantirgan Spenser bu haqda shunday yozadi: “Biologik organizmda “qismlar” “yagona birlik” uchun yashaydi, sotsial organizmda esa “yagona birlik” hisoblangan jamiyat o‘zining “qismlari” uchun mavjud bo‘ladi”.

*Ferdinand Tennis* o‘zining “Jamoa va jamiyat”(1887y) nomli asarida keyinchalik klassik tipologiyaga aylangan ijtimoiylik tipologiyasiga asos solgan. Olim bevosita shaxsiy va qarindoshchilik munosabatlari hukmon bo‘lgan jamoa va formal institutlar ustuvor bo‘lgan jamiyatni taklif qilgan.

Sotsiologiya fani rivojining birinchi bosqichi sanalmish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Fransiya, Germaniya va Angliya sotsiologiya fanining markazi bo‘lgan.

Rossiya olimlari orasida mazkur davrda N.Kareev, N.Mixaylovskiy, M.Kovalevskiy, V.Xvostov faoliyat olib borishgan. Ammo ularning ijod mahsulini

sotsiologiya metodologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, deb aytolinaymiz. Ularning asarlari asosan G'arb olimlarining nazariyalari va faoliyatini o'rganishga, tahlil qilishga va tushuntirishga qaratilgan bo'lgan. *Pitirim Sorokin (1889–1968yy)* bundan mustasno. Chunki uning faoliyati avvaliga Rossiyada boshlangan bo'lsada, Amerikada davom etdi va amaliy sotsiologiyaning rivojiga sabab bo'ldi. Uning sotsiologik muammoni qarashidagi universalligi va sotsiologiyaga qo'shgan nazariy, metodologik xissasi M.Vebernikiga tenglashtiriladi.

#### **4. Sotsiologyaning obyekti va predmeti, vazifalari, metodlari va metodologiyasi**

Har bir fan o'zining obyekti va predmetiga ega bo'ladi. *Fanning obyekti* deyilganida, obyektiv va subyektiv reallikning mazkur fan o'rganadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bir qismi tushuniladi. *Fanning predmeti* esa izlanishlar natijasida aniqlangan obyektning ma'lum qismlaridir.

Sotsiologyaning fan sifatida shakllanish davri boshqa fanlarga nisbatan qisqa bo'lganligi uchun uning obyekti va predmeti borasidagi muammo bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur muammoni yechilishiga sotsiologyaning murakkab strukturasi ham to'sqinlik qiladi, Chunki u o'z ichiga bilimning turli bosqichlari, nazariy-metodologik tamoyillar, tadqiqot yo'nalishlari va amaliy usullarni qamrab olgan.

Har bir fanning obyekti o'ziga xos reallik, aloqadorlik, munosabatlар va hodisalardan iborat. Tabiiy fanlarda obyekt borasidagi muammo osonlikcha yechilsa, ijtimoiy fanlarda bu murakkabdir. Bugungi kunda sotsiologiya ko'plab tartiblangan bilimlar, turli nazariy konsepsiylar va metodologik tamoyillar, amaliy sohalar va sotsiologik tadqiqotlar tajribasi majmuasidan iborat. U o'z rivojlanishining har bir bosqichida o'zining obyekti va predmeti borasidagi bilimini takomillashtirib bormoqda. Mazkur muammo ko'plab nazariyalarda ko'rib chiqilgan. Misol uchun O.Kontning pozitivizmida, M.Veberning sotsial doktrinasiga asoslangan gumanistik konsepsiyada va h.k.

E. Dyurkgeymning fikricha, sotsiologiyaning mohiyatini boshqa fanlar o'rganuvchi faktlar emas, o'zi o'rganuvchi alohida faktlar tashkil etsagina fan sifatida qaror topishi mumkin. U sotsiologiyaning obyekti sifatida *sotsial faktlarni*, ya'ni ularni yaratuvchi guruhiy tasavvurlarni ko'rgan. Fannning predmetini esa mazkur guruhiy tasavvurlarning vujudga kelishi, namoyon bo'lishi va rivojlanishidagi umumiyy qonuniyatlar tashkil etgan. Olimning fikricha, ijtimoiy – jamoaviy deganidir. Shuning uchun, sotsiologiyaning predmeti turli xil ko'rinishlardagi *jamoaviylikda* o'z ifodasini topadi. Garchi Dyurkgeym mazkur muammoni ishlab chiqilishi va ijtimoiylik tushunchasi mohiyatini ochib berishda yetarlicha hissa qo'shgan bo'lsada, pozitivistik yondashuvda qoldi.

Nemis jamiyatshunosи *Maks Veberning* tushunuvchan sotsiologiyasi nuqtai nazaridan olib qaraganda, sotsiologiya bu o'zi tushunishga va ta'tiflashga harakat qilayotgan *ijtimoiy axloq* (*sotsial harakat*) haqidagi fandir. Uning fikricha, ijtimoiy axloq odamlarning munosabatlari, boshqacha qilib aytganda, qandaydir bir ishni amalga oshirish yoki undan o'zini tiyishga qaratilgan ichki yoki tashqi ko'rinishga ega bo'lgan holat. Bu munosabat subyekt uni ma'lum bir mohiyat bilan bog'lagandagina sotsial harakatga aylanadi. Inson harakati unga subyekt berayotgan ma'no boshqa individlarning o'zini tutishi bilan aloqaga kirishgandagina ijtimoiylik kasb etadi.

*Marksistlarning* g'oyalarida sotsiologiyaning predmeti sifatida jamiyatning tarkibiy qismlari – shaxslar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy muassasalar namoyon bo'ladi. Vatanimiz adabiyotlarda keng tarqalgan sotsiologiyaning ta'ifi quyidagicha: Sotsiologiya – jamiyatning butun bir yaxlit tizim sifatida, hamda uning tarkibiy qismlari (shaxslar, ijtimoiy jamoalar va muassasalar) orqali bu tizimning ishlashi va rivojlanishi to'g'risidagi fan.

Neopozitivistik yondashuvlar sotsiologiyaning fan sifatida mustahkamlanishiga katta hissa qo'shgan. Ular avvalgi olimlardan farqli ravishda sotsiologiyani amaliy tadqiqotlar asosida rivojlantirishga intildi. Bu davrda sotsiologiya *inson xatti-harakati* to'g'risidagi amaliy fan sifatida talqin etildi. Sotsiolog esa olim emas, balki *sotsial muxandis*, ya'ni jamiyatni quruvchi sifatida qabul qilindi. Demak, obyekt sifatida

insonning xatti-harakati olinsa, predmet mazkur xatti-harakatlarning *mehnat faoliyati, siyosiy, iqtisodiy va hayotning boshqa jabhalarida namoyon bo'lish mexanizmlari* bo'lgan. Sotsiologiya haqidagi bunday qarashlar bixeviorizm, belgili interaksionizm va empirizmda ustunlik qilib, asosan AQShda shakllandi.

Amerikalik sotsiolog, empirizm yo'nalishining asoschisi *F. Znanetskiy* o'zining "*Polshalik dehqon yevropa va Amerikada*" asarida sotsiologiyaning obyektini aniqlashga intilgan. U fizik va sotsial reallikni (borliq) chegaralash maqsadida "inson koeffitsienti" tushunchasini qo'llagan va bu tushuncha orqali sotsiologiyaning o'ziga xosligini ifodalab bergan. Olimning nazarida sotsiologiya o'z ichiga to'rt asosiy bo'limni qamrab olishi kerak: *sotsial harakat nazariyasi; sotsial munosabatlar nazariyasi; sotsial shaxslar nazariyasi va sotsial guruhlar nazariyasi*. Olim sotsiologiyaning obyekti sifatida jamiyatda sodir bo'layotgan barcha individlarning *o'zaro ongli ta'siri va munosabatlarini* ko'rsatgan.

Gumanistik yondashuvning diqqat markazida ong hayoti yotadi. Mazkur yo'nalish tarafdarları sotsiologiyani o'ziga xos boshlanishlar asosida qurishga intiladi. Misol uchun M. Veber fanni jamiyat nuqtai nazaridan emas, balki alohida individ nuqtai nazaridan o'rGANISH tamoyili asosida rivojlantirish filkrini ilgari surgan. Uning qarashlari fenomeologik sotsiologiya tarafdarları tomonidan davom ettirilgan. Mazkur yo'nalish asoschisi A. Shuts sotsiologiyaning obyektini Veber kabi *sotsial harakat*, deb bilsada, uni o'ta idealizmida tanqid qiladi. Shutsning sotsiologik nazariyasi kundalik sezgi, tajriba va ongga asoslanganligi bilan ancha qiziqarli sanaladi. Uning fikricha, ilmiy va kundalik tafakkur o'rtasida farq katta emas.

Mashhur amerikalik sotsiolog T. Parsons ta'kidlagan ediki, sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq, «butun jamiyatga, ijtimoiy tizimlarning birlashuviga taalluqli bo'lgan tizim va jarayonlarni o'rganadi»<sup>40</sup>.

G.V.Ozirovning fikricha<sup>41</sup>, sotsiologiya tarixan aniqlangan ijtimoiy tizimlarning umumiy va xususiy ijtimoiy qonun va qonuniyatlarning ishlashi,

<sup>40</sup> Американская социология. Перспективы, проблемы, методы. Под ред. Т. Парсона. М.: 1972. С.364.

<sup>41</sup> Основы Г.В. Степанова. Учебное пособие. М.: Мысль, 1990. – С.25.

rivojlanishi, bu qonun va qonuniyatlarning shaxslar, ijtimoiy jamoalar, sinflar, xalqlar faoliyatlarida namoyon bo‘lishining mexanizmlari to‘g‘risidagi fan.

Zamoraviy sotsiologiya bu ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o‘zaro ta’siri) qonuniyatlari haqidagi fan. U tabiiy va aniq fanlar bilan ko‘p umumiyligka ega. Mazkur o‘zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishning *obyekti jamiyat* hisoblanadi. Ammo jamiyat barcha gunanitar fanlarning obyekti sanaladi. Sotsiologiya obyektining o‘ziga xos jihat shundan iboratki, u jamiyatni yaxlit sotsial vogye’lik sifatida obyektiv jihatdan barcha ijtimoiy hodisalarini o‘rganadi (ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy subyektlar). Shundan kelib chiqqan holda *sotsiologiyaning predmeti sifatida shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamoa va butun jamiyat faoliyati hamda rivojlanishining qonuniyatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayotidagi voqye va hodisalari (ijtimoiy rollar, ijtimoiylashuv muammolari) namoyon bo‘ladi*.

Zamoraviy sotsiologiyaning predmeti uzoq yillar davomida olimlar tomonidan yaratilgan nazariyalar asosida shakllanib, boyitib borilgan. Kravchenkoning fikricha, “status”, “rol”, “sotsial normalar” zamoraviy sotsiologiya predmetining bosh tushunchalari hisoblanadi. “Status” sotsiologiya predmetining statik holatini, “rol” esa uning dinamikasini namoyon qiladi. Status insonning jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi. Ijtimoiy mavqe’ ijtimoiy munosabatlarga, shaxsiy statuslar esa shaxslararo munosabatlarga dahldor bo‘ladi. Sotsiologiya aynan ijtimoiy mavqyelarni o‘rganadi. Har qanday sotsial status unga muvoffiq bo‘lgan sotsial rolga ega bo‘ladi. Inson sotsial rollarni bajarish orqali jamiyatda sotsial munosabatlarga kirishadi. Jamiyatdagi mavjud bo‘lgan sotsial normalar esa mazkur rollarni ma‘lum qolipga solib turadi. Shu nuqtai nazardan sotsiologiya insonlar o‘rtasidagi sotsial munosabatlarni o‘z o‘rganish predmeti sifatida qabul qiladi.

Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o‘rganib, undagi sotsial mohiyatga ega bo‘lgan har qanday elementlarni (guruh, voqyea, hodisa, jarayon) va sotsial munosabatlarni ularning rivojlanish tendensiyalari hamda

taraqqiyot qonuniyatlari nuqtai nazaridan tadqiq qiladi. Shu nuqtai nazaridan sotsiologiya jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ahloqiy va boshqa sohalarida o'zining tarmoq va mahsus yo'nalishlari doirasida tadqiqotlarini olib boradi.

### *Sotsiologyaning vazifalari (funksiyalari)*

Har bir mustaqil fan o'zining obyekti va predmetiga ega bo'lgan holda ma'lum vazifalarni bajaradi. Sotsiologiya fani ham o'zining bir qator funksiyalariga ega. Mazkur fanning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi uning bajarayotgan ijtimoiy funksiyalarida o'z ifodasini topadi.

*Gnoseologik funksiya*, ya'ni nazariy bilish vazifasi sotsiologiyada jamiyat to'g'risidagi yangi konsepsiyalarning yaratilishi va zamonaviy sotsiologik ilmlarning shakllanishini ta'minlaydi. Har qanday fanda bo'lgani kabi sotsiologiyada nazariy bilim bilan amaliyotning birlashuvi uning eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

*Sotsiologyaning boshqarish funksiyasi* deyilganida, fan tomonidan taklif qilingan yangi boshqaruv usullari va muammolarni hal etish yo'llari tushuniladi.

*Axborot yetkazish funksiyasi* orqali sotsiologiya butun jamiyatga, olimlarga yangi bilimlarni yetkazishi tushuniladi.

*Tashviqot funksiyasi* nafaqat sotsiolog olimlar yoki biror guruh vakillariga nisbatan, balki barcha jamiyat a'zolariga qarata amalga oshiriladi.

*Tashkillashtirish funksiyasi* orqali sotsiologiya keng jamoatchilikni birlashtirish, ishlab chiqarishda, dam olish sohasida yoki siyosatda biror yo'singa yo'naltirishda namoyon bo'ladi.

*Sotsiologyaning bashorat funksiyasi* asosan siyosiy hayotda, marketing tadqiqotlarida, OAV tadqiqotlarida va boshqa sohalarda o'z ifodasini topadi. sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchiligi amaliy muammolarni hal etishga qaratilgan. Amaliy tadqiqotlar orqali olingan ijtimoiy bilimlar ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi haqida ilmiy asoslangan xulosalarni ishlab chiqish orqali kelajakdagi muammolarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Shuning uchun sotsial rejalashtrish ijtimoiy tizim qanday bo'lishidan qat'iy nazar barcha mamlakatlarda rivojlanmoqda.

Bundan tashqari sotsiologiyaning *dunyoqarashni shakllantirish, metodologik ijtimoiy va insonparvarlik* kabi funksiyalari ham mavjud.

### ***Sotsiologiya faning metodlari va metodologiyasi***

Sotsiologiya fan sifatida shakllanishini boshlagach, uning asoschilari bo'lmish O.Kont, E.Dyurkgeym, M.Veber va boshqalar tomonidan fanning ilmiy metodlarini yaratish ishlari boshlab yuborilgan.

Sotsiologiyada metodlar deyilganida, sotsiologik bilimni asoslab berish va ko'rish usuli, sotsial tizimlarni nazariy va empirik o'rganishning amallari tushuniladi. Bugungi kunda sotsiologik metodlar ikkiga: *nazariy va amaliy-empirik metodlarga* ajratiladi.

Sotsiologiya fanining murakkab vazifalarini nazariy jihatdan hal etishga qaratilgan quyidagi nazariy metodlari mavjud: *qiyoslash va taqqoslash; nazariy metod (fikrlash orqali mavhumlikdan aniqlik sari); induktiv va deduktiv metod; izohlash metodi; prognozlash metodi; integratsiya metodi.*

Sotsiologiyaning amaliy-empirik metodlari jamiyatda kuzatilayotgan yoki o'rin topishi mumkin bo'lgan turli amaliy muammolarui hal etish, tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- eksperiment metodi;
- kuzatish metodi;
- hujjalarni tahlil etish metodi;
- so'rov metodi.

Fanda qo'llaniladigan metodlarning yig'indisi shu *fanning metodologiyasini* tashkil qiladi. Metodologiya qo'yilgan muammolarni yechish usullarini tanlab, ilmiy yechimning yo'nalishlarini va bosqichlarini aniqlab beradi. Sotsiologiya fanida ham bir qator metodologiyalar mavjud. Misol uchun *funksional metodologiya* – jamiyatdagi sotsial hodisalarning ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi, *fenomenologik metodologiya* – jamiyat a'zolarining sotsial mavqye'ini aniqlashga harakat qiladi, *tasniflash metodologiyasi* esa qo'llanilishiga ko'ra, klassifikatsiya, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtrish kabilarni o'z ichiga oladi.

Undan tashqari sotsiologiya fani ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etishda umumiy, maksus va empirik metodologiya tamoyillariga asoslanadi.

### 5. Sotsiologyaning zamонавиғи rivojlanish bosqichi

Sotsiologiya fani rivojining ikkinchi bosqichi XX asrning 20 yillarda boshlanib, bugungi kunga qadar davom etmoqda. Mazkur davrda sotsiologiya rivojlanishining markazi sifatida AQSh tan olinadi. Bu yerda sotsiologiya faniga davlat va ko'pchilik universitetlar tomonidan ko'mak beriladi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti 1892 yil Chikago universitetida paydo bo'lgan. 1910- yilga kelib Amerika universitetlari va kollejlarning aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi. Amerikada sotsiologiya nisbatan yangicha nazar bilan qaralgani, ya'ni uning amaliy jihatdan hayotga tadbiq etilgani uning yevropadan o'zib ketishiga sabab bo'ldi. Ammo nazariy jihatdan Amerika sotsiologiyasi fan uchun faqatgina belgili – interaksionizm oqimini va *Tolkott Parsonsni* (1902-1979yy) bera oldi. T.Parsonsnинг nazariyasi jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib berishga qaratilgan urinishdir. U kishilik voqye'liginining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi mavhum tushunchalarning ulkan deduktivizmini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSh mana shu deduktiv nazariyalar borasida ancha muvafqaqiyat qozondi.

AQSh sotsiolog olimlarning ko'p sonli guruhini dunyoga taqdim etdi: *R.Merton, P.Blaу, Ch.Kuli, J.Mid, R.Park, I.Gofman, D.Bell, A.Toffler* va bqa. Ular zamонавиғи sotsiologyaning amaliy – ilmiy mazmunini belgilab berishdi. Agar yevropada sotsiologik bilim falsafa bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, Amerika sotsiologlari orasida sotsial psixologiya keng tarqaldi. Ikkala madaniyat vakillari ham jamiyat evolyusiyasi va faoliyatini tushuntirishga harakat qilib, turlicha usullardan foydalandi: yevropaliklar ko'pincha global tarixiy sxemalarga suyanishsa, amerikaliklar aniq modellar va amaliy ishlanmalarga tayandi. Shu tariqa Amerikada XX arsning boshida *bixevierizim*, ya'ni xulq-atvorni o'rganishga asoslangan yo'nalish paydo bo'ldi.

XX asrdaga qadar sotsiologyaning shakllanishi va rivojlanishini ta'minlab bergen qator nazariyalar va ilmiy ishlar natijasida fan doirasida turli yo'nalishlar va

maktablar paydo bo'ldi. Sotsiologiyada bugungi kunda mavjud bo'lgan biror bir maktab, yo'nalish yoki paradigm mukammal yoki universal bo'la olmaydi. Ularning mazmuni va mohiyati, shuningdek, yondashuvlari turlicha bo'lib, ma'lum ma'noda bir-birlarini to'ldiradi.

*Strukturaviy-funksionalizm* yo'nalishi — zamonaviy sotsiologiyadagi asosiy metodlardan biri sanaladi. Unga ko'ra, jamiyat yaxlit tizim sifatida o'zaro aloqador tagtizimlardan tashkil topgan. Har bir tizim o'zining jamiyatdagi o'midan kelib chiqqan holda ma'lum vazifalarni (funksiyalarni) bajaradi. Strukturaviy — funksionalizrn paradigmaiga G. Spenser va E. Dyurkgeymning qarashlari asos bo'lgan. Amerikalik R. Merton va T. Parsons ushibu yo'nalishning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishgan.

*Konfliktologik paradigm* — funksional nazariyaga qarama-qarshi ma'noga ega bo'lib, unga ko'ra, jamiyat rivoji konsensus emas, balki turli ijtimoiy qatlamlarning kurashi natijasida sodir bo'ladi. Konfliktologik paradiigma XXasning 50-60yillarda R.Darendorf, R. Mills, L. Kozer, R. Mur, K. Boulding va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Nemis sotsiologi Rolf Darendorfning fikricha, konflikt har qanday integratsiyaning qarama-qarshi tomoni bo'lgani uchun undan qochib qutilishning iloji yo'q.

*Bixevoirizm* (ingl. behavior — xulq-atvor) — Amerika sotsiologiyasidagi asosiy yo'nalishlardan biri — xulq-atvor to'g'risidagi fan. Bixevoirizmning asosini insonning tashqi ta'sirlarga nisbatan "stimul-reaksiya" ko'rinishidagi javob xulq-atvorini tadqiq etish masalasi yotadi. Mazkur yo'nalishning metodologik asosini pozitiv falsafa tamoyillari va struktur-funksional tahlil tashkil etadi. Bixevoirizm yo'nalishining zamonaviy tushunchalari E.Torndayk, Dj.Uotson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Sotsiologiyada bixevoirizm metodlarining keng qo'llanilishi va ta'sir doirasining ortishi XX asrning 20 yillarga to'g'ri keladi. Ammo keyinchalik qator olimlar mazkur yo'nalishda insonning xulq-atvori masalasiga bo'lgan yuzaki yondashuv tanqid qilina boshlangan. Klassik bixevoirizmda inson xulq-atvoringin psixologik va sotsiomadaniy xususiyatlari inobatga olinmagan. Bugungi kunda

bixevoirizm yo‘nalishini mukammallashtirish, fan talablariga moslashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Natijada sotsiologiyada *neobixevoirizm* yo‘nalishi paydo bo‘lib, rivojlanmoqda.

*Belgili interaksionizm* (ingl.interaction — o‘zaro harakat) — zamonaviy sotsiologiyaning yo‘nalishlaridan biri. Mazkur yo‘nalishning mnohiyati shundan iboratki, sotsial xulq-atvorni o‘rganish davomida individning tashqi holati bilan birga uning ichki olami ham o‘rganiladi. Bunda ular til belgilariiga alohida, e’tibor qaratishadi, ya’ni inson tashqi tomonidan qabul qilgan har bir so‘zini o‘zining nuqtai nazari asosida ma’lum belgi sifatida qabul qiladi.

Inson o‘zaro anglangan harakatlar davomida hamkorining harakatlarini o‘zicha baholaydi va tushunadi, shuning asosida o‘zining harakatlarini moslashtiradi. Natijada sotsial borliqda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Sotsial o‘zaro harakat davomida belgilarning qay darajada muhimligi aniqlanadi. Belgili interaksionalizmning nazariy-metodologik asoslari Ch. Kuli, G. Zimmel, K. Boulding kabi olimlar tomonidan yaratilgan. Yo‘nalishning rivojlanishida Dj.Mid, G.Kun, I.Gofman, G.Blumer, A.Stross, T. Shi-butu kabi olimlarni xissasi katta.

*Sotsial ayrboshlash (almashish)* nazariyasining tarafdarlari ijtimoiy munosabatlarning asosini almashish munosabatlari tashkil etadi, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, sotsiallik xususiyatiga ega bo‘lgan har qanday holat sotsial ayrboshlash uchun yaroqli sanaladi. Misol uchun mehnat moddiy raq‘batga, jismoniy ko‘rkamlik boylikka almashiladi. Shu bilan birgalikda yuqoriroq statusni egallagan tomonning ayrboshlash shartlarini belgilashi jamiyatda ko‘p uchraydigan holat bo‘lib, u almashish munosabatlarining notengligi muammosini keltirib chiqaradi.

Sotsial ayrboshlash nazariyasining nazariy-metodologik asosini siyosiy-iqtisodchilar I.Bentam va A.Smitning qarashlari tashkil etadi. Ulardan so‘ng bir qator sotsial antropologlar B.Malinovskiy, Dj.Freyzer, M.Moss mazkur yo‘nalishni rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Sotsial ayrboshlash yo‘nalishining sotsiologik jihatdan rivojlanishiga Dj.Xomans, P.Blau, R.Emerson o‘z hissasini qo‘shdi.

## **6. Sotsiologyaning fanlar tizimida tutgan o'rni**

Sotsiologiya fanlar tizimida o'ziga xos o'rinni egallaydi. U o'zining ijtimoiy mohiyati hamda amaliy tadqiqotlari orqali ham ijtimoiy, ham tabiiy, ham aniq fanlar bilan o'zaro uzviy aloqada bo'ladi.

Sotsiologiya fani *falsafa* fanidan ajralib chiqqan. Shuning uchun ularning uzviy aloqadorligini inkor qilib bo'lmaydi. Falsafada mavjud bo'lgan nazariyalar boshqa fanlar qatori sotsiologiya uchuri ham nazariy-metodologik jihatdan asos sanaladi.

Sotsiologiya fani *siyosatshunoslik* fani bilan uzviy bog'liq. Sotsiologiya tomonidan jamiyatda mavjud bo'lgan sotsial guruhlar, siyosiy vaziyat va kuchlar borasida olingan ma'lumotlar va xulosalar siyosatshunoslik fani tomonidan keng qo'llaniladi. Siyosiy sotsiologiya, davlat sotsiologiyasi, hokimiyat sotsiologiyasi, siyosiy munosabatlar sotsiologiyasi siyosatshunoslik fani bilan nazariy va amaliy hamkorlikda rivojlanib kelmoqda. Sotsiologiya siyosatshunoslik fanidan farqli ravishda jamiyat a'zolarining ijtimoiy hayotida yuz beradigan o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishini va mehnat jamoalari, aholi turli qatlamlarining fikr-mulohazalarini umumlashtirish asosida xulosalar chiqarib, mazkur xulosalar amaliy ko'rsatkichlarga, matematik-hisob kitoblarga asoslangan bo'ladi.

Sotsiologiya fani takomili *umumiyl va ijtimoiy psixologiya* fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo etadi. Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdoorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda mazkur jamoa tarkibidagi individlarning hatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularni temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy xulqni boshqarishda, albatta, ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tish mumkin emas.

Sotsiologiya fani *statistika* fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan bobda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta, shu sohadagi predmetning konkret holati va ahvolini, real voqyelik manzarasini statistika manbalaridan topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlar bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobjiy samaralar berishi shubhasizdir.

So'nggi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbiq etila borishi uning *ahloq, estetika, meditsina va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv* singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlanmoqda.

Sotsiologiya va *iqtisod fanining* o'zaro aloqadorligi va hamkorligi tarixga nazar tashlasak, shuningdek, insonlarning moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda esa bozor munosabatlariga o'tish, meghnatga yangicha munosabatning shakllanishi jarayonida uning ahamiyati yanada ortmoqda. Iqtisod va mehnat sotsiologiyasi kabi fanning maxsus sohalari jamiyatning iqtisodiy hayotiga aloqador bo'lgan ijtimoiy tomonlarini tadqiq etadi va muammolarini hal etishga xizmat qiladi. Iqtisod fanining nazariyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiyaning sohalariga asos bo'lib xizmat qilsa, o'z navbatida shu sohalarda olib borilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalari iqtisod fanlarining rivojlanishi, iqtisodiy muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya va *antropologiya* tarixiy jihatdan birligida, hamkorlikda rivojlandi, desa bo'ladi. 1892 yil Chikago universitetida tarixda birinchilardan bo'lib ochilgan sotsiologiya kafedrasi aslini olganda o'z tarkibiga antropologiya yo'nalishini ham olgan<sup>42</sup>. Uzoq yillar davomida mazkur ikki fan hamkor sifatida qabul qilingan. 1965yilga kelib, antropologiya mustaqil akademik fan maqomini oldi. Angliyada sotsiologiya va antropologiya hamkorlikda rivojlangan A. Radkliff-Braun va B. Malinovskiyning ishlari mazkur ikki fan rivojiga o'z hissasini qo'shgan. Radkliff-Braun antropologiyani qiyosiy sotsiologiya nomi bilan atagan. Bugungi kunda ham antropologiya va sotsial psixologiyani mustaqil fan ekanligini rad etib, sotsiologiyaning qismi sifatida tan oluvchi olimlar bor.

Sotsiologiya va *sotsial ish* o'zaro uzviy bog'liq fanlar sanaladi. Sotsiologiya jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarni, jumladan sotsial ishning faoliyat doirasiga kiruvchi muammolarni tadqiq etish va taklif-tavsiyalar ishlab chiqish orqali sotsial ish uchun faoliyat dasturini yaratadi, desak bo'ladi. Tarixga nazar tashlasak,

<sup>42</sup> Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002 .42.b

sotsiologiya AQSh va Angliyada ijtimoiy ish sifatida qabul qilingan. Shuning uchun 1940 yilga kelib AQShning ko‘pgina yirik bilim yurtlaridagi sotsiologiya fakultetlarida ijtimoiy ishni o‘qitish to‘xtatilgan. Ammo Shunga qaramay bu ikki fanni yagona fan sifatida talqin qiluvchi fikr XX asrning 60 yillariga qadar davom etgan.

Sotsiologiya va *tarix fani* jamiyat hayotini izchil ravishda o‘rganadigan ikki fan. Sotsiologiya nazariy jihatdan o‘tmish voqyea-hodisalarini tarix fani natijalari, tarixiy manbalardan foydalangan holda o‘rganadi. Tarix asosan jamiyatdagi bo‘lib o‘tgan voqyea va hodisalarini xronologiyasini yaratishga, tarixiy shaxslarning ahamiyati va rolini aniqlashishga harakat qilsa, sotsiologiya olingan mazkur ma'lumotlar asosida jamiyatning ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga intiladi.

Insoniyat tomonidan fan – texnikaning rivojlantirilishi jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashuviga olib keldi. Bu o‘z navbatida sotsiologiya va *tabiiy fanlarning* hamkorlikda faoliyat olib borishiga sabab bo‘lmoqda. Insonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri kundan-kunga ortib borishi ekologik sotsiologiya va demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiyasining rivojlanishi va mazkur muammolarni hal etishga jalb qiladi.

Hozirgi kun sotsiologiyasini *matematika* fanisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum qarash bo‘lib qoladi. Matematik usullarning sotsiologiyaning empirik tadqiqotlari darajasida egallagan o‘rnii juda muhim.

Shunday qilib, murakkab umumiylari va xususiy sotsiologik fanlardan iborat bo‘lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi uni ko‘plab ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va aniq fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda, ham maxsus hususiy fanlar va ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladi, bu esa uni zamonaviy fanlar tizimidagi o‘mini aniqlab beradi. Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlari ierarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Platon, Aristotel va Abu Nasr Forobiy asarlarida ijtimoiy muammolar tahlili.
2. XIX asrda G'arbiy Evropadaga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.
3. Fransuz sotsial-utopistlari ta'limotlarini shakllanishi.
4. Sotsiologiyani mustaqil fan sifatida paydo bo'lishining sotsial-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy va amaliy zaminlari.
5. O.Kont jamiyatni o'rganishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan qanday usullarni ishlab chiqди?
6. O.Kont - pozitiv sotsiologiyaning mohiyati nimadan iborat?
7. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti, vazifalari, metodlari va metodologiyasi nimalardan iborat?
8. Sotsiologiyaning zamонавиј rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
9. Sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni qanday?

### **Test savollari**

1. Sotsiologiyaning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari, fan sifatida tashkil topishi, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanish bosqichlari, fanlar tizimida tutgan o'rni, asosiy ilmiy nazariyalar, sotsiologiyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari tizimini o'rGANISHdan asosiy maqsad nima?
  - A. jamiyatni tadqiq etuvchi ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqini va mohiyatini anglash maqsadida
  - B. sotsiologiyaning aniq fanlardan farqini o'rGANISH maqsadida
  - C. sotsitologiyaning falsafadan farqini aniqlash maqsadida
  - D. sotsiologiyaning jamiyat hayoti uchun kerakliligini aniqlash maqsadida
2. Sotsiologiya fani nechanchi asrda vujudga kelgan?
  - A. XIX asr ikkinchi yarmida
  - B. XX asr ikkinchi yarmida
  - C. XX asming boshlarida

- D. XIX asr birinchi yarmida
3. Qadimgi Xitoyda adolatli jamiyat borasidagi dastlabki izlanishlarni ilgari surgari va o'ziga xos diriy ta'limotni yaratgan mutafakkir kim?
- A. Kun-szi
  - B. Chjou-gun
  - C. Xilon
  - D. Sokrat
4. "Agar jamiyat qonunlar vositasida boshqarilsa, tartib, jazo belgilash vositasida ta'minlansa, odamlar jazodan o'zlarini olib qochishga intiladilar. Chunki ular or-nomusni o'zlarida his qilmaydilar; Agar ma'naviy – ahloqiy vositalar yordamida boshqarilsa, tartib qadriyatlar orqali ta'minlansa, odamlar or-nomus nimaligini his qiladilar, xalol va sofdil bo'lishga intiladilar" so'zları kimga tegishli?
- A. Konfutsiy
  - B. Suqrot
  - C. Aristotel
  - D. Platon
5. Platonning ijtimoiy qarashlari qaysi asarlarda o'z ifodasini topgan?
- A. "Kriton", "Bazm", "Fedon", "Gipiy Kichik"
  - B. "Davlat", "Qonunlar"
  - C. "Fedon", "Gipiy Kichik", "Davlat", "Qonunlar"
  - D. "Gipiy Kichik", "Davlat", "Qonunlar"
6. Eng oliv g'oya sifatida talqin qilingan Yaratuvchi va ezbilik g'oyasi kimga tegishli?
- A. Platon
  - B. Sokrat
  - C. Aristotel
  - D. Ksenofont
7. Platonning fikricha, Ideal tipdag'i davlatda ierarxiya fuqarolarning qaysi qobiliyatlariga asoslanadi?

A. Bo'ysunuvchanlik, jasorat,adolat va donolik

B. Bo'ysunuvchanlik, takabburlik, bilimdonlik

C. Jismoniy baquvvatlik, aqliy zukkolik, mehnatkashlik

D. Ijodkorlik, tashkillashtirish qobiliyati, boshqaruvchanli

8. **Qaysi olimning fikricha, davlat tabiiy ravishda va tarixiy rivojlanish natijasida oiladan boshlab shakllanadi?**

A. Arastu

B. Aflatun

C. T.Gobbs

D. J.Lokk

9. **Abu Nasr Farobi yamoani qanday toifalarga ajraib o'rgangan?**

A. Uch toifaga: buyuk jamoa; o'rta jamoa; kichik jamoa

B. Ikki toifaga: buyuk jamoa, kichik jamoa

C. To'rt toifaga: ulkan jamoa, yirik jamoa, o'rta jamoa, kichik jamoa

D. Ikki toifaga: jamiyat va jamoa

10. **Beruniyning etnosotsiologik g'oyalarni qaysi asarida uchratish mumkin?**

A. "Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar"

B. Hindiston

C. Mineralogiya

D. Fozil odamlar shahri

11. **Sharqda shartli ravishda sotsiologiyaning otasi nomini olgan olim?**

A. Ibn Xoldun

B. Ibn Sino

C. Farobi

D. Beruniy

12. **XIX asr birinchi yarmi va o'rtalarida amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlarning jamiyat va fan nuqtai nazaridan obyektiv ahamiyati nimadan iborat?**

- A. Ular tabiatda yuz berayotgan voqealarni hodisalarining o'zaro aloqadorligini ochib berib, metafizik qarashlarning noto'g'ri ekanligini isbotladi
  - B. Mavjud bo'lgan fanlar dorasida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi
  - C. Sotsiologining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi
  - D. Amaliy sotsiologiyani metodlar bilan ta'minladi
  - E. Olimlarning yangi dunyoqarashini shakllantirdi
  - F. Barcha javoblar to'g'ri
- 13. Qaysi yo'nalish zamoanviy sotsiologiyaning asosiy metodlaridan biri sanaladi?**
- A. Strukturaviy-funksionalizm
  - B. Konfliktologik paradigma
  - C. Bixevorizm
  - D. Belgili interaksionizm

## **2-bob. SOTSILOGIYA FANINING STRUKTURASI (ICHKI**

### **TUZILISHI)**

**Reja:**

- 1. Sotsiologiya fani strukturasining tarkibiy qismlari**
- 2. Fundamental va amaliy sotsiologiya. Nazariy va empirik tadqiqotlar. Mahsus va tarmoq yo'nalishlar**
- 3. Makrosotsiologiya, o'rta darajadagi sotsiologiya va mikrosotsiologiya**

**Tayanch tushunchalar:**

*Fundamental sotsiologiya. Amaliy sotsiologiya. Dunyoqarash. Metodologiya. Integratsiyalashtiruvchi. Evristik. Makrosotsiologiya, Mikrosotsiologiya.*

#### **1. Sotsiologiya fani strukturasining tarkibiy qismlari**

Sotsiologiya fani boshqa fanlar kabi o'zining strukturasiga, ya'ni ichki tuzilishiga ega. Fanning strukturasi deyilganida, fandagi asosiy elementlarning o'zaro aloqadorlikda joylashishi, munosabati va tartibi tushuniladi. Fanning rivojlanganlik darjasasi uning strukturasi holatini hamda mukammalligini belgilab beradi. Fan o'zining umumiy asoslari, kategoriya va tushunchalari, bilishning turli darajalari va shakllarini ishlab chiqib, ularning o'rtasida qat'iy mantiqiy bog'lanish va muvofiqlikka erishsa, bir yaxlit sistema sifatida qaror topgan va o'z strukturasiga ega bo'lgan hisoblanadi.

Sotsiologiya fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan kech yuzaga kelgani uchun bugungi kunda xali o'zining tugal va mukammal strukturasiga ega emas. U yosh fan sifatida turli xil rivojlanish yo'nalishlari va ilmiy tizimlarning to'plami sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda sotsiologiyaning fanining o'rganish predmeti va mazkur predmet asoslangan ilmiy konsepsiylar sotsiologik bilimning strukturasini belgilab bermoqda. Shuning asosida sotsiologiya o'zining bilim darajasiga ko'ra, nazariy va empirik sotsiologiya; tashkil etuvchi sotsiologik bilim vazifalariga ko'ra, fundamental

va amaliy sotsiologiya; tadqiqot obyekti (butun jamiyat yoki uning ma'lum qismi)ga ko'ra, umumiy va tarmoq sotsiologiyasi (makro-sotsiologiya va mikrosotsiologiya); tuzilish sohasiga ko'ra, mahsus va tarmoq yo'nalishlar sotsiologiyasiga bo'linadi. Sotsiologiya fanining mazkur tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lib, ayrim hollarda bir-birlariga qo'shilib ketadi, boshqa hollarda esa bir-birlarini inkor qiladi.

## **2. Fundamental va amaliy sotsiologiya. Nazariy va amaliy tadqiqotlar.**

### **Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar**

Sotsiologiya strukturasida bilim olish darajasiga ko'ra fundamental va amaliy sotsiologiyaga ajratiladi.

*Fundamental sotsiologiya* o'z doirasida o'r ganayotgan muammolarning ko'lami kengligi bilan ajralib turadi. U sotsial olamning mavjудлиги va tarqqiyoti uchun zarur bo'lgan umumiy sotsial qonun va qonuniyatlarni izlash asosida shakllangan.

Fundamental va amaliy sotsiologiya nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir – biridan farq qiladi.

Amerikalik sotsiolog DJ.Terner fundamental sotsiologiyadagi nisbatan shunday fikr bildirgan: "nazariylashtirish orqali fan o'zining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda shakllanayotgan voqe va hodisalarini o'r ganish natijasida ularni tasniflash orqali ularning istiqboldagi holatini bashorat qila bilish; bo'lib o'tgan voqealarning sabablarini aniqlash va tushuntirish orqali kelajakda bo'ladigan voqealarni oldindan ko'ra bilish; voqealarning nima uchun va qay tarzda bo'lib o'tishini intuitiv ravishda taklif qilish.

P.Sorokinning fikricha, fundamental sotsiologiya mavjud holat yuzasidan insonlarning o'zaro harakatini o'r ganadi. U sotsial borliq borasidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tushunish va tushuntirish, sotsiologiyaning konseptual apparatini ishlab chiqish kabi ilmiy-nazariy vazifalarni hal etadi. U "nima o'r ganilayapti?" va "qanday o'r ganiladi?" savollariga javob beradi.

Fundamental sotsiologiya o‘z ichiga sotsiologiya fanining asosini ijodiy izlash bilan band bo‘lgan ko‘plab sotsial maktablar va yo‘nalishlarni qamrab oladi. U sotsiologiyaning asosini tashkil etuvchi bilimlarni yaratishda uchta aspektga tayanadi.

Ontologik aspekt orqali sotsiologiya fanining obyekti, uning faoliyat ko‘rsatish shakllarini tahlil qilib o‘rganish davomida sotsial yoqye’likning mohiyatini ochib beruvchi qonun va qonuniyatlarni yaratadi. Sotsial olamning dinamik xarakteri, doimiy o‘zgaruvchanligi va turli qatlamlardan tashkil topgani sotsiologiyada ikkinchi jahon urushidan so‘ng ontologiya muammosining ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. So‘nggi o‘n yilliklarda esa mazkur muammo yanada keng ko‘lamda o‘rganildi. Chunki mazkur davrda “pozitivistik” inqiroz jarayoni, ya’ni an'anaviy sotsiologik metodlarning, jumladan, statistik ma'lumotlarga tayangan sotsiologiyaning kutilgan ilmiy natijalarni bermagani olimlar tomonidan yangi yo‘llarni va yondashuvlarni qidirishga sabab bo‘ldi.

Natijada sotsiologiya fani doirasida bilishning shakl va metodlarini qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Shu bilan birga sotsiologiya obyektining mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini qayta ko‘rib chiqish talabi paydo bo‘ldi.

Ontologik muammo masalarini sotsiologiyadagi barcha yo‘nalish vakillari o‘z qarashlaridan kelib chiqqan holda hal qilishga intilgan. Ular orasida ekzistensial, fenomenologik va realistik muktab vakillarining ontologik izlanishlari e’tiborga loyiq.

Fundamental sotsiologiya fanning nazariy asoslarini ishlab chiqish barobarida bilishning umumsotsiologik fundamental tamoyillarini ham keng ma’noda ishlab chiqadi. Shuning uchun sotsiologik bilishning mohiyati va vazifalari, bilimlarning obyektivligi, u yoki bu tamoyilni vaziyatdan kelib chiqqan holda qo‘llash kabilar fundamental sotsiologiyaning obyekti sanaladi.

Sotsiologiya fanida turli nazariya va konsepsiylar asosida “sistemalilik”, “funksional yondashuv”, “sababiyat”, “tushunuvchi” yo‘nalish kabi fundamental tamoyillar ishlab chiqildi.

Sotsiologiya yildan – yilga rivojlanib, mukammallashib bormoqda. Uning doirasida turli sotsial muammolar zamon va makon o‘zgarishi sharoitida o‘rganib

kelinmoqda. Garchi insoniyat jamiyatini yildan – yilga o‘zgarib, taraqqiy etayotgan bo‘lsada, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat kundan-kunga o‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilayotgan bo‘lsada, fundamental sotsiologiya o‘z ichiga olgan asosiy qonun va qonuniyatlar, umumiy tarjoviyalar (sotsiologiyaning obyekti va predmeti, sotsial reallikning mohiyati, uning rivojlanish qonunlari, sotsial olamda inson o‘rni, shaxs ongi va tafakkuri kabilalar) o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Ular sotsiologiya fanning rivoji va faoliyatida asosiy bazani tashkil etadi.

Fudamental sotsiologiyaning maqsadi – sotsial olamning to‘liq tasvirini yaratish, mazkur sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlash.

Fundamental nazariyalar o‘zining shakllanishini boshlagan davrda tabiiy fanlar, jumladan, biologiya va fizika yutuqlaridan keng foydalangan. XIX asming ikkinchi yarmidagi yo‘nalishlar – pozitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlantiruvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodniya yaratish uchun o‘z kuchlarini birlashtirdilar. Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, urnumilmiy metod va yo‘nalishlardan foydalanadilar. Ammo XX asming boshlariga kelib sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqa boshlaydi.

Pozitivizmning o‘rniga kelgan struktur-funksionalizm yo‘nalishi sotsiologiyaning empirik ko‘rinishda shakllanishida katta hissa qo‘shdi.

Ammo empirizm fundamental nazariya ahamiyatini va mazkur nazariyaning o‘zini inkor qila boshladi. Natijada sotsiologiyaning nazariy va amaliy bilim qismlari o‘zining yaxlitligini yo‘qota boshladi. Mazkur holat XX asming ikkinchi yarmiga qadar davom etib, jamiyatdagi sotsial muammolarni o‘rganish faqatgina empirik metodlar vositasida tugal amalga oshirilmasligi, bashorat qilish paytida nazariy bazaning muhim ekanligining namoyon bo‘lishi sotsiologiyadagi nazariy va amaliy bilimlarning integratsiyalashuviga olib keldi. Fanda metodologik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bordi. Sotsiologlar orasida nrazariy bilimlarni boyitish maqsadida falsafaga yuzlanish holati sotsiologiyada ekzestensial va fenomenologik yo‘nalishlarni paydo qildi. Ular sotsiologiyaning metanazariyasini, ya’ni asosini

yaratishga harakat qilishgan. Hozirgi kunda mazkur yo'nalishdagi, harakatlar kuchaymoqda.

Shunday qilib, fundamental sotsiologiya – bu nazariya, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriya va tushunchalari, metodlarini o'rGANADIGAN umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shuning uchun fundamental sotsiologiya tadqiqotlarining roli beqiyos, bajaruvchi funksiyalari esa xilma-xil. Uning quyidagi funksiyalarini alohida ko'rsatish mumkin: *dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik* va h.k.

Fundamental sotsiologiya *dunyoqarash funksiyasi* orqali bevosita borliq va ong, insonning mohiyati kabi dolzarb muammolarning yechimini topishga harakat qiladi. Chunki bu muammolar sotsiologiyaning obyekti va predmeti mohiyatini ochib beradi. Bu muammolarni hal etish barobarida sotsiologiya falsafa bilan uzviy aloqada ish olib borib, sotsial olam haqida ilmiy tasavvur yaratiladi. Umumsotsiologik nazariya negizida sotsiologiyaning umumiyligi metodologiyasi ishlab chiqiladi.

*Integratsiyalashtiruvchi funksiya* fundamental sotsiologiya nazariyasini boshqa fanlar bilan bog'laydi. Mazkur yaxlit yondashuv natijasida yangi sotsial muammolarni hal qilish, ijtimoy hayotning xali yaxshi o'rGANILMAGAN tomonlarini chuqur ilmiy tahlil qilishga imkon yaratadi.

*Amaliy sotsiologiya* fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni, maqsadi va metodlari bilan farqlanadi. U nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo'llarini ishlab chiqadi.

Amaliy sotsiologiya ja'miyat hayotida bevosita sodir bo'layotgan dolzarb sotsial muammolarni tadqiq etuvchi metodlar, metodologiyalar va metodikalarni o'z ichiga oladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi. U XX asr boshlarida empirik tadqiqotlar asosida shakllandi. Bu davrda empirik tadqiqotlar sotsial amaliyatga olib chiqadigan vosita hisoblangan. Ammo amaliy sotsiologiyani bu yo'sinda tushunish u qadar to'g'ri emas. Empirik tadqiqotlar jonli faoliyatning bevosita shakllanishini o'rgansada, u o'zgartiruvchanlik faoliyati emas.

Amaliy sotsiologiya tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy hayotning turli sohalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida amaliy tadqiqotlarning natijalari asosida amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqadi. Boshqaruv tizimining elementi sifatida amaliy tadqiqotlar fanning ijtimoiy funksiyalarini bajarib, uning natija va yutuqlarini amaliy faoliyatga aylantiradi. O'zining amaliy yo'nalishiga qarab ayrim hollarda amaliy tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar bilan qarama-qarshilikka boradi.

Mashhur sotsiolog olim M.Veber fanda ilmiylik va foydalilik bir-biri bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun tadqiqotchi olimlar haqiqatni ochishga intilishi zarur, ya'ni ilmiy bilimlardan to'g'i foydalanish uchun jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy elementlarning tizimi mavjud bo'lishi lozim.

Amaliy sotsiologiya "nima uchun o'r ganilayapti?", degan savolga javob beradi. M.Veber tomonidan amaliy sotsiologiyaning vazifalari aniq ko'rsatib berilgan. Uning fikricha, amaliy sotsiologiya quyidagi holatlarni aniq oolib, ko'rsatib berishi kerak:

- Amaliyot uchun zarur bo'lган vositalarni;
- Amalga oshirilgan harakatlarning aniq salbiy oqibatlarini;
- Tahlil natijasida o'r ganilayotgan hodisa yuzasidan uning bir necha xil rivojlanish variantini ko'rsatib, ularga mos ravishda takliflar ishlab chiqish.

P.Sorokin amaliy tadqiqotlarni amaliy meditsina faoliyatiga qiyoslagan. Uning fikricha, sotsiologiyaning mazkur qismida "sotsial kasalliklarni yengish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rsatuvchi yo'llar" ishlab chiqiladi. Olim ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlar, anketa javoblari va so'rov natijalari amaliy hamda empirik sotsiologiyaning vositalari bo'lib, ular asosidagina o'r ganilayotgan muammo borasida fikr bildirish noto'g'ri, deb hisoblaydi. Tadqiqot tugal bo'lishi uchun nazariy asosga ega bo'lishi lozim. Shu o'rinda fundamental va amaliy sotsiologiyaning o'zarlo aloqadorligi va ko'magi sotsiologiya fanining rivojlanish istiqbolini belgilaydi.

Shunday qilib amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy, metodologik bilimlarni shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya fundamental sotsiologiyaning amaliy samaradorligi masalalarini hal qilish, yangi muammolarni o'rtaga qo'yish orqali fundamental tadqiqotlarning rivojiga turki

Beradi. Amaliy sotsiologiya cloirasida nazariy va metodologik muammolar bilan  
bigitlikda, protsedura va metodik muammolar o'rganiladi. Bugungi kunda  
sotsiologiya va metodika muammolari orasida koneptualizatsiya, formalizatsiya va  
operatsionalizatsiya masalalari dolzorb sanaladi. Bu muammolar sotsial qurilish va  
sotsial muhandislikning muammlolarini hal etishda muhim o'rinni tutadi.

*Sotsial muhandislik* amaliy tadqiqotlarning negizida shaklangan faoliyatning  
bir turi. U sotsial strukturani (ijtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy) ma'lum  
~~maqsadga~~ yo'naltirish yoki tubdan o'zgartirish vositasida eng samarador holatga  
~~erishishni~~ nazarda tutadi.

Amaliy sotsiologyaning sotsial muhandislikdan tashqari *sotsial texnologiya*  
~~qismi ham~~ mavjud. U maqsadga erishishni ta'minlaydigan metodlar va vositalarning  
~~qizindisidan~~ iborat.

Amaliy sotsiologyaning taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omil  
~~janayitdagi ijtimoiy-siyosiy holat~~. Chunki amaliy sotsiologyaning muammolarini  
~~uziqlab~~, ularni o'rganish va hal etish yo'llarini ishlab chiqish uchun buyurtmani  
~~zamon va makon~~ belgilab beradi. Turli mamlakatlarda turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-  
siyosiy holatning xusuiyatidan kelib chiqqan holda har xil muammolami o'rganish  
~~shaxsiyjashuvni~~ shakllantiradi. Ilk bor ishlab chiqarishni tashkil etish, shaxsning  
~~muammolari~~ yezchish uchun *sotsial buyurtmalar* (jamiat talabi) kerak.

#### *Mazary va empirik tadqiqotlar*

~~Sotsiologiyada sotsiologik tadqiqotlar shartli ravishda nazariy va amaliy~~  
~~rezultatlaridagi~~ Chunki ular o'rtaida qat'iy chegaroni o'tkazish mushkul. Zero har  
~~ijtimoiy-fundamental sotsiologiyani~~ nazariydir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan  
~~uzaytirishda umidga oshiriladi~~. Ammo ular e'rtasida farq mavjud.

*Mazary* - bu kategoriyu, fushunchalar, holular va prinsiplarning konseptual  
~~baʼbiʼli, oʼsishishini amalidir, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini oshib~~

Umumsotsiologik nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal etadi. Masalan, jamiyatning rivojlanish davlari va strukturasi, uning faoliyat qonunlari va boshqalar.

Maxsus nazariyalar sotsiologiya obyektining muhim tomonlarini o'rganadi. Sotsial struktura nazariyasi, institular nazariyasi sotsiologiyada maxsus sohalar sifatida shakllandi. Maxsus nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, ammo ular ko'pincha faktlarga asoslanadilar

Xususiy nazariyalar ko'proq empirik tadqiqotlarga tayangan holda quyi darajadagi sotsial jarayonlarni o'rganadi. Misol uchun referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va hk. Bu nazariyalar inson fe'l atvorining mustahkam mexanizmlarining har xil sharoit va holatlardagi ko'rinishini aniqlashga harakat qiladi.

*Empirik tadqiqotlar.* Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan bo'lsada, XX asrning birinchi yarmida AQShda ommalashdi. Empirik tadqiqotlar deyilganida, bilimlarni tajriba orqali olish tushuniladi. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning obyekti – ijtimoiy hayotning mikrojaaryonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlari. Ularning asosiy maqsadi sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar muammolarini, ya'ni jonli sotsial muammolarni bevosita o'rganishdan iborat.

Empirik tadqiqotlarni sotsiologiyaning muhim qismi sifatida empirizm konsepsiysi bilan solishtirish mumkin emas, Chunki empirizm konsepsiya sifatida nazariy bilimlarni butkul inkor qiladi. Hissiy idrokning bevositaligi empirizm konsepsiyasida fanning asosini tashkiil etadi.

Empirik tadqiqotlarning obyekti mikrojarayonlar, predmeti esa individlar, sotsial guruhlar, sotsial tashkilotlar, mehnat faoliyatining sernahsulligi, shaxs xususiyatlari va hk. Ularning vazifasi kuzatish, eksperiment, hujjalarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar borasida faktlar va ma'lumotlar yig'ishdan iborat. Empirik tadqiqotlar natijalarini ham amaliy, ham nazariy maqsadlarda ishlatish mumkin.

Tarixiy rivojlanishga nazar tashlasak, empirik tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida ko'plab metodologik xarakterga ega bo'lgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilimning empirik ma'lumotlar bilan o'zaro munosabatlari, so'rov, kuzatish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida subyektiv omilning roli kabilar paydo bo'ldi.

Empirik tadqiqot usullari amaliy sotsiologiya doirasida shakllanib, mukammallahashdi. Bular: so'rov, kuzatish, hujjalarni tahlil qilish va eksperiment usullari. Amaliy sotsiologiya doirasida qaysi metod qay tarzda va qay vaziyatda qo'llanilishi kerakligi, metodlarning yutuq va kamchiliklari o'rganib, ishlab chiqilgan. Misol uchun eng keng tarqalgan so'rov metodi insonlarning ichki dunyosini, subyektiv fikrini o'ragnishga yo'naltirilgan.

Amaliy sotsiologyaning oldida bugungi kunda sotsiologik tadqiqotlar davomida olinayotgan empirik axborotlarning haqqoniyligini va obyektivligini ta'minlashga hizmat qiluvchi optimal tamoyillarni ishlab chiqish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Amaliy sotsiologiya tarkibiga empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar tizimi va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi kiradi. Shuning uchun odatda empirik tadqiqotlar turli xil mutaxassislar tmonidan ham olib borishshi mumkin.

Empirik tadqiqotlar asosan statistika ma'lumotlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda axborot ta'minoti empirik tadqiqotning muhim manbasi hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarni amalga oshirishda texnikaning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Chunki empirik ma'lumotlar qayta ishlanishi zarur. So'rov, kuzatish, eksperiment metodlari vositasida empirik tadqiqotlar o'tkazilganida ma'lum ma'noda moddiy va texnik vositalar talab qilinadi. Shuning uchun empirik tadqiqotlar anchagina qimmat tadbir sanaladi.

### *Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar*

Sotsiologiya faning tarixiy rivojlanishi davomida unda *maxsus va tarmoq yo'nalishlar* paydo bo'ldi.

Sotsiologiyada bugungi kunda maxsus yo'nalishlar qatoriga kiruvchi ayrim nazariyalar sotsiologiya asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, maxsus yo'nalishlar XX asrning birinchi yarmida neopozitivizm asosida shakllandi va keyinchalik bir qancha nazariy yo'nalishlar tufayli rivojlandi.

Sotsiologiya hodisalarni yaxlit ijtimoiy struktura elementi sifatida qabul qiladi. Jamiyat taraqqiyotiga taalluqli bo'lgan sotsial institutlar, boshqaruv shakllari, sotsial munosabatlar va sotsial harakatlar, guruh xarakteri va tafakkuri kabi masalalarni chuqurroq o'rghanish ehtiyoji oqibatida sotsiolcgiyada maxsus yo'nalishlar paydo bo'idi. Ularning qatoriga bugungi kunda institutsional sotsiologiya, shaxs sotsiologiyasi, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasi, taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat sotsiologiyasi, sotsial struktura sotsiologiyasi.

O'z navbatida yuqoridagi masalalarni o'rghanish davomida sotsiologiya boshqa fanlarning yutuqlariga tayanishi kerak. Misol uchun siyosiy sotsiologiya va siyosatshunoslik.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada *tarmoq yo'nalishlari* mavjud. Tarmoq yo'nalishlarning eng rivojlanganlari qatoriga sanoat sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi kabilar kiradi. Bu yo'nalishlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan.

Tarmoq sotsiologiyasi arnaliy tadqiqotlar uchun asos hisoblanadi. Ular ijtimoiy hayotning turli tomonlarini tadqiq qilish orqali xususiy va maxsus nazariyalarining rivojiga yordam beradi, fundamental sotsiologiya rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlar asosida ayrboshlash nazariysi, referent guruh nazariysi, yetakchilik nazariysi kabilar yaratildi. Tarmoq yo'nalishlarining shakllanishi natijasida fundamental sotsiologiya oldiga jamiyatning yaxlit strukturasida turli xil ijtimoiy tizimchalarning roli va ularning o'zaro harakat turlari, taraqqiyoti asoslari kabi muammolarni qo'ydi.

Tarmoq sotsiologiyasining maqsadi ijtimoiy strukturadagi moddiylik va ma'naviylik holati, mehnatning sermahsulligini oshirish tamoyillari, ishlab chiqarish va oilaviy munosabatlar kabilarning o'zaro faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini yaratishdan iborat.

### **3. Makrosotsiologiya, o'rta darajadagi sotsiologiya va mikrosotsiologiya**

Sotsiologiya fani jamiyat istiqboli xususida sotsial utopiyaga asoslangan nazariyaga suyanmasdan, balki jamiyat taraqqiyotining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy holatini atroflicha o'rganish asosida yaqin kelajakda bu taraqqiyot tarkibi va mazmunidagi tadrijiy o'zgarishlar manzarasini ilmiy asoslab beradi.

Ogyust Kontning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o'rganadi: aniq-empirik, xususiy(mahsus), umumiy. Shunga muvoffiq bugungi kunda ham sotsiologiya empirik, mahsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

- Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo'ljallangan yo'naliш - *makrosotsiologiya*.
- Maxsus (xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'naliшi – *o'rta darajadagi sotsiologiya*.
- Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi *mikrosotsiologiya*.

*Makrosotsiologiya* ja'miyatni yaxlit tixzim sifatida tushunishga ko'maklashuvchi xulq-atvor modellariga e'tibor qaratadi. Mazkur modellar yoki strukturalar deyilganida, oila, ta'lim va din kabi ijtimoiy institutlarni tushunishimiz mumkin. Inson tug'ilishidan boshlab ja'miyatdagi mazkur sotsial strukturalarning tarkibida bo'ladi va sotsial institutlarning ta'sirini sezadi. *Makrosotsiologiyaning asosiy vazifasi ja'miyatdagi turli elementlarning o'zaro munosabatlarni va mazkur munosabatlarning o'zgarish tendensiylarini taddiq etishdir*. *Makrosotsiologik* darajada tadqiqotlarini olib boruvchi olimlar mavjud bo'lgan ikki raqobatdosh nazariyalar: funksionalizm va konflikt nazariyasidan biriga asoslanib o'z sotsiologik bilimlarini shakllantiradi. Funksionalizm nazariyasining tarafдорлари sifatida Gerbert Spenser, Emil Dyurkgeym, Talkott Parsons, Robert Mertonni ko'rsatish mumkin. Konflikt nazariyasi esa Karl Marks, Ralf Darendorf kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan, qo'llangan.

Sotsiologiya strukturasing tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, avvalboshdan makro – va mikrosotsiologiya o'rtasida aniq chegara bo'lmagan.

P.Lazarfeld mikrosotsiologik tadqiqot deganda, "zamnaviy sharoitda shaxsning bevosita hulq-atvorini miqdoriy metodlar va sifatiy protseduralarning keng qo'llanilishi asosida o'rganuvchi tadqiqotlar<sup>4</sup>ni tuShungan. Makrosotsiologik tadqiqotlar esa "shunday umumiy qonunlarni ochib berishga qaratilganki, ular ijtimoiy rivojlanishning o'trnish va kelajakdagi trendensiyalarini belgilab beradi".

R.Merton mikrosotsiologik muammolar sifatida "kichik guruhlarni o'rganish davomida ochib beriladigan muammolar"ni, makrosotsiologik muammolar deyilganida esa "sotsial mobillik, formal tashkilotlarning qiyosiy tadqiq etish va sotsial institularning o'zaro bir-biriga bog'liqligi muammolari"ni ke'rstagan.

Barcha olimlar uchun bu ikki bilim sohasini bir-biridan ajratuvchi shart sifatida mikrosotsiologik darajada empirik tadqiqotlarning o'tkazilishi, makrosotsiologik darajada esa umumiy nazariya sohasiga tegishli tadqiqotlarning o'tkazilishi namoyon bo'ldi.

Kont tomonidan sotsiologiyaga asos solingan davrdan boshlab XX asming 20yillariga qadar sotsiologiyada makrosotsiologik tadqiqotlar ustuvor bo'lgan. Bu davrda yaratilgan barcha sotsiologik bilim umumnazariy bilimlardan iborat bo'lgan. Mikrosotsiologik yo'nalishning shakllanishi tahminan XX asming 30 yillardan boshlangan. Bu shartli ravishda mazkur asrning 20-30yillarida AQShda boshlangan ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq edi. Iqtisodiy inqiroz, buyuk depressiya, yirik shaharlarda gettoning paydo bo'lishi, ko'p sonli sotsial anomaliyalarning paydo bo'lishi (alkogolizm, tilamchilik, jinoyatchilik) kabilar mikrosotsiologik tadqiqotlar, ya'ni empirik tadqiqotlarning rivojiga sabab bo'ldi. Mikrosotsiologiyaning paydo bo'lishidan so'ng sotsiologlarning aksariyati jamiyatda kuzatilayotgan sotsial muammolarni o'rganish davomida ularni makro darajadagi bilimlar, ya'ni umumiy mazariyalar nuqtai nazaridan birligida o'rganmay qo'ydi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosan mikro darajada amalga oshirilib, pragmatik yo'nalishda, ya'ni tor d'oiradagi aniq sotsial muammoni yechishga qaratilgan bo'lgan.

<sup>4</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.22.

Ammo makrosotsiologiya ham avvalgi shijoati bilan bo'lmasada o'zining rivojlanishida davom etgan. P.Sorokin va T. Parsonsning ijod namunalari bunga misol bo'ladi.

XX asrning 60 yillari so'ngida strukturaviy – funksionalizmning makro va mikro darajadagi sotsiologik bilimlarni bir yaxlit tizimga birlashtira olmaganligi ularning qatiy ravishda bir-biridan ajralishiga olib keldi. Fanda yuzaga kelgan mazkur holat butun dunyo olimlarining makro- va mikrosotsiologiyaning integratsiyasi masalasida izlanishlar olib borishga rag'batlantirdi.

R.Mertonning mazkur yo'naliishda olib borgan izlanishlari taxsinga sazovor. U o'zining ustozlaridan (P.Sorokin, T.Parsons) farqli ravishda yevropa nazariy sotsiologiyasining AQShda tarqalishiga o'z hissasini qo'shgan Uning fikricha, yevropaning nazariy sotsiologiyasi va AQShning amaliy tadqiqotlari birlashishi sotsiologiyaning mukammallashuviga olib keladi. U nazariya va amaliyotning integratsiyasi tarafdoi bo'lgan. Shu maqsadda Merton "o'rta daraja nazariyasi"ni yaratgan Olimning "o'rta daraja nazariyasi" kundalik hayotdagi sotsial muammolarni tadqiq etish davomida yuzaga keluvchi kichik ishchi gipotezalar bilan umumsotsiologik nazariyalar o'rtasidagi oraliq bo'g'inni tashkil etishi kerak bo'lgan. Shunday qilib, Merton "o'rta darajadagi sotsiologiya"ni yaratdi hamda makro va mikrosotsiologiyani o'zaro uzviy bog'ladi.

Bugungi kunda mahsus sotsiologik nazariyalar yoki *o'rta darajadagi nazariyalar* amaliy tadqiqotlar asosida shakllantirilib, umumsotsiologik nazariyalarni to'ldirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birqalikda reallik bilan uzviy bog'liq bo'lgan empirik sotsiologiyani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

*Mikrosotsiologiya* insonlarning kundalik hayotidagi o'zaro sotsial muloqotlarini (interaksiya, o'zaro munosabatlар) o'rganadi. Mazkur yo'naliish tarafdoqlari sotsial hodisalarining mazmunini mazkur hodisalarga insonlarning o'zaro munosabatlarga kirishganidan so'ng bergan ma'nolarini o'rganib tushunish mumkin, deb hisoblashadi. Ularning asosiy e'tibori individlarning xulq-atvori, qilmishlari va motivlariga qaratilgan. Chunki insonlarning xulq-atvori, motiv va xatti-harakatlari

jamiyatdagi shaxslararo o'zaro harakatga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning barqarorligi va unda kechuvchi o'zgarishlarda o'z aksini topadi.

Sotsiologiyada ayirboshlash nazariysi (Dj.Xomans), etno-metodologiya nazariysi (G.Garfinkel), belgili interaksionizm nazariyasi (G.Blyumer) namoyondalari mikrosotsiologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashgan.

A.M.Rumyansev va G.V.Osipov 60-yillar so'ngida sotsiologiya strukturasini tahlil qilish natijasida sotsilogik bilimlarni *umumsotsiologik nazariya; jamiyat sotsial strukturasi nazariyasi; turli sotsial tizimlar nazariyalari; empirik darajalarga ajratgan*<sup>45</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, XXasr 70yillari oxiri - 80yillar boshlaridan boshlab butun dunyo olimlari orasida sotsiologiyaning *uch darajali strukturasi konsepsiysi* (makro, mikro va o'rta darajadagi sotsiologiya) keng tarqaldi.

#### Nazorat savollari

1. Fanda struktura tushunchasining ahamiyatini aytin
2. Zamonaviy sotsiologiyaning strukturasini chizib bering.
3. Fundamental sotsiologiya boshqa elementlardan qaysi jihatlari bilan alohida ajralib turadi?
4. Nazariy sotsiologiya asosiy vazifalarini izohlang
5. Amaliy sotsiologiya deganda nimalarni tushunasiz?
6. Makro va mikro sotsiologiya haqida ma'lumotlar bering.

#### Test savollari

**1. Sotsiologiya strukturasida bilim olish darajasiga ko'ra qanday qismlarga ajratiladi?**

- A. Fundamental va amaliy sotsiologiya
- B. Nazariy va amaliy
- C. Mahsus va yo'nalish
- D. Nazariy va empirik

**2. Fudamental sotsiologiyaning maqsadi?**

<sup>45</sup> Румянцев А.М. Осипов Г.В. Марксистская социология и конкретные социальные исследования // Вопросы философии. — 1968. — №6. — С.3-13.

- A. Sotsial olamning to'liq tasvirini yaratish, mazkur sotsial olamning taraqqiyot munbai va shakllarini aniqlash.
- B. Nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo'llarini ishlab chiqish
- C. Ko'proq empirik tadqiqotlarga tayangan holda quyi darajadagi sotsial jarayonlarni o'rghanish
- D. Barcha javoblar to'g'ri
- 3. Fundamental sotsiologiyada X1Xasrning ikkinchi yarmidan qanday yo'nalishlar paydo bo'ldi?**
- A. Pozitivizm, naturalizm va psixologizm
- B. Bixevoirizm, naturalizm, struktur-funksionalizm
- C. Neobixevoirizm, psixologizm, pozitivizm
- D. Pozitivizm, neobixevoirizm, psixologizm
- 4. Sotsiologiya tabiy fanlar tizimidan qachon butkul ajralib chiqa boshlaydi?**
- A. XX asrning boshlariga kelib
- B. XX asrning o'talariga kelib
- C. XIXasrning so'nggi choragidan
- D. XIXasrning o'talaridan
- 5. Pozitivizmnинг о'rniga kelgan qaysi yo'nalish sotsiologyaning empirik ko'rinishda shakllanishida katta hissa qo'shdii?**
- A. Struktur funktsionalizm
- B. Konfliktologik paradigma
- C. Bixevoirizm
- D. Psixologizm
- 6. Sotsiologyaning nazariy va amaliy bilim qismlari qachondan boshlab yaxlit va uzviy holatda rivojlana boshladi?**
- A. XX asrning ikkinchi yarmidan
- B. XX asr boshlaridan
- C. XIXasr so'ngidan

D. XIX asr ikkinchi yaridan

7. XX asrning ikkinchi yarmidan sotsiologlar orasida nazariy bilimlarni boyitish maqsadida falsafaga yuzlanish holati sodir bo'lib, sotsiologiyada qanday yo'nalishlar paydo bo'ldi?

A. Ekzestensial va fenomenologik yo'nalishlar

B. Struktur-funksionalizm, sotsiologizm

C. Naturfalsafa, nepozitivizm

D. Bixevoirizm, ekzestensial yo'nalish

8. Amaliy sotsiologiyaning tadqiqot doirasi?

A. Sotsial muammolarni tadqiq etuvchi metodlar, metodologiyalar va metodikalarni o'z ichiga oladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi

B. Sotsiologik metodlarni ishlab chiqadi

C. Sotsiologik texnika va protseduralarni ishlab chiqadi va ulami qo'llash yo'llarini ko'rsatadi

D. Empirik metodlar vositasida sotsial hayotni o'rghanadi va tavsiyalar ishlab chiqadi

E. Barcha javoblar to'g'ri

9. Amaliy sotsiologiya qachon paydo bo'ldi?

A. XX asr boshlarida

B. XX asr oxirlarida

C. XX asr o'rtalarida

D. XIX asr so'ngida

10. Mashhur sotsiolog olim M.Veber fanda ilmiylik va foydalilik bir-biri bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun tadqiqotchi olimlar tadqiqot davomida nimaga e'tibor berishi kerakligi ta'kidlangan?

A. Ilmiy bilimlardan to'g'ri foydalanish uchun jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy elementlarning tizimi mavjud bo'lishi lozim

B. Xolislik bilan yondashuv lozim

C. Ideal tiplarni yaratish lozim

D. Barcha javoblar to'g'ri

**Reja:**

1. Sotsiologiyada sotsial tizim va sotsial struktura tushunchalarining mohiyati
2. Jamiyat strukturasi va uning tasnifi
3. V.Pareto – “jamiyat individlarning o‘zaro munosabatlari tizimi sifatida”
4. F.Tyonnisning “Jamoa va jamiyat asari” mohiyati
5. Jamiyatning sotsial rivojlanishi.

**Tayanch tushunchalar**

*Sotsial tizim. Sotsial struktura. Tizimli yondashuv. Strukturaviy yondashuv. Jamiyat. Jamiyat strukturasi. Jamoaviy munosabatlar. Ijtimoiy munosabatlar. Agrar jamiyat. Industrial jamiyat. Ochiq jamiyat. Yopiq jamiyat, Postindustrial jamiyat. Dinamik muvozanat. Ijtimoiy rivojlanish. Sotsial taraqqiyot. Evolyutsiya. Revolyutsiya.*

**1. Sotsial tizim va sotsial struktura tushunchalarining mohiyati**

Sotsial tizim tushunchasi qadimgi mutafakkirlarning asarlarida ham uchraydi. Ammo u ko‘proq “ijtimoiy tartib” sifatida talqin qilingan. Sotsiologiyada tizimli yondashuvning rivojlanishi oqibatida sotsial tizim tushunchasi ilmiy jihatdan ishlab chiqildi. Ilmiy adabiyotlarda “tizim” (sistema) tushunchasining ellikdan ortiq turli xil ta’riflari mavjud. Ularni umumlashtirgan holda tizim – bu bir butunlikni tashkil etuvchi, o‘zaro aloqalarga ega bo‘lgan elementlar yig‘indisi, desa bo‘ladi. Shu bilan birgalikda aytib o‘tish kerakki, alohida elementlarga tegishli bo‘lgan xususiyatlar va ular tashkil etuvchi butunlikning xususiyatdariga bir-biriga muvoffiq kelmaydi. Shuning uchun tizim bir vaqtning o‘zida uni tashkil etuvchi elementlarga bog‘liq va ularidan mustaqil sanaladi.

*Tizimli yondashuv* asosida tadqiqot obyekti o‘rganilganida tizmini tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqalari, shuningdek, tizimning o‘z elementlari bilan

aloqalari tadqiq qilinadi. Har bir tizimning ichida tagtizimlarning mavjud bo'lishi aloqalar sonining ortishiga olib keladi.

Tagtiziimlar tizim ichida o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birlgilikda ma'lum tartib va bo'ysunish asosida joylashadi, Shunga ko'ra, o'z vazifalarini bajaradi. Shuning uchun asosiy tagtizimni aniqlash orqali tizimning rivojlanish qonuniyatlarini va butun tizimning faoliyatini ochish imkonini beradi.

Tizimli tahlilda, ayniqsa, rivojlanish jarayonini o'rganish davomida "struktura" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. "Struktura" tushunchasi ictincha "structura" so'zidan olingan bo'lib, tuzilish, tartib, joylashuv ma'nolarini anglatadi. Mohiyati jihatidan struktura - bu obyektni tashkil etuvchi tarkibiy elementlarning o'zaro joylashuvi va qat'iy aloqalari yig'indisi bo'lib, obyektning tashqi va ichki o'zgarishlar oqibatida harn xususiyatlarining o'zgarmasdan saqlanib qolishini ta'minlaydi.

*Sotsial struktura* — bu ma'lum sotsial tizimda qabul qilingan norma va qadriyatlarga mos ravishda o'zining vazifalarni (rollar) bajarib, ma'lum statusni egallagan individlarning o'ziga xos aloqa va o'zaro harakat usullaridir.

Mazkur tushunchani aniqlashtirish maqsadida sotsial strukturaga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni keklitirish mumkin:

- 1) jamiatning barcha a'zolari o'rtasidagi qat'iy aloqalar, o'zaro bog'liqlik, korrelyasiya;
- 2) mazkur o'zaro harakatlarning doimo bo'lishi, qat'iyligi, takrorlanishi;
- 3) strukturaga kiruvchi elementlarning muhimlik darajasiga ko'ra ma'lum pog'onalarda joylashishi;
- 4) elementlarning xulq-atvorini boshqaruvchi, belgilovchi va dinamik nazoratning borligi<sup>46</sup>.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar jamiatning shakllanishi va faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

<sup>46</sup> Кравченко С.А., Мнацаканян М.О., Покровский Н.Е. Социология: Парадигмы и темы: Учебник для высших учебных заведений / Московский Государственный ин-т междунар. отношений МИД РФ (МГИМО-Универ-ситет). — М.: Изд-во «Анкип», 2000. — С.186.

Demak, sotsial struktura deyilganida, tizimni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro qat'iy aloqalari va munosabatlari tushuniladi. Integratsion aloqalar yig'indisi sifatida namoyon bo'lувчи тизимдан farqli ravishda sotsial struktura uni tashkil etuvchi elementlarning sifatiy ko'rsatkichlarini belgilab beradi, tizimning qat'iylik xususiyatini shakllantirib, vazifalarini aniqlab beradi. Struktura – bu elementlar o'zaro aloqasining usullari to'plami bo'lib, turli vazifalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Demak, har qanday tizim jarayon yoki hodisaga tegishli bo'lgan butunlikni namoyon qiladi, struktura esa uning bajarayotgan vazifalari asosida sifatiy belgisini aniqlab beradi.

Strukturadagi aloqalar undagi elementlarning joylashuviga uzviy bog'liq bo'lgani uchun strukturaning rivojlanishi undagi asosiy elementlarning ikkilamchi elementlar bilan aloqalariga bog'liq bo'ladi. Misol uchun boshliqning mehnat jamoasidagi o'mi. Elementlarning o'zaro harakati va rivojlanishi oqibatida tizimdagи aloqalar sonining ortishiga olib keladi. Demak, strukturadagi ahamiyatli o'zgarish tizimga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tizim ham strukturaga elementlari vositasida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu strukturadagi elementlarning rivojlanish va shakllanishining susayishi yoki jadallashuvida o'z ifodasini topadi.

Shu dialektik aloqadorlik oqibatida tizim rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini aniqlash mumkin. Buning uchun eng avvalo elementlarning ahamiyati, strukturadagi o'mi hamda tizimdagи asosiy aloqalar aniqlanadi. Aniqlangan aloqalar tagtizimlarning o'zaro bo'ysunishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Natijada o'rganish obyekti sifatida tizimning ma'lum qismi, uning birlamchi elementi tanlab olinadi.

Birlamchi element tanlab olingach, tizimdagи asosiy tagtizimlar va ularning ierarxik aloqalari ajratib olinadi. Tizimning strukturasini bilish uning asosiy aloqalarini aniqlash imkonini beradi. Tizim va struktura masalasini aniq tushunish uchun jamiyatni yagona sotsial borliq sifatida o'rganish talab etiladi.

Ma'luniki, "jamiyat" sotsiologiya fanining aschosiy tushunchalaridan biri sanaladi. Mazkur so'zni ilmiy adabiyotlarda va kundalik hayotda juda ko'p ishlatishadi.

Ilmiy jihatdan jamiyat deyilganida, odatda keng ko'lamdagi insonlar birligi, ya'ni umumiy faoliyat, madaniyat va ratsional tashkil etilgan o'zaro harakatlar asosida birlashgan individlar va guruhlarning eng yirik umurniy sotsial aloqa ko'rinishi tushuniladi. O.Kont jamiyatni fuknksional tizim sifatida ko'rib, uning asosini oilalar, sinflar va davlatlarning o'zaro mehnat taqsimoti va birdamlikka asoslangan munosabatlari tashkil etadi, degan.

Keiyinchalik sotsiolog olimlar tomonidan jamiyat tizimni tashkil etuvchi boshqa qator omillar ajratib ko'rsatilgan. Ammo ularning barchasi jamiyat murakkab tuzilishga ega bo'lgan va butunlikni ifodalaydigan sotsial organizm, degan g'oyani qo'llab- quvvatlashgan.

Aksariyat sotsiologik lug'atlarda jamiyat deyilganida, "tarixiy rivojlanish jarayoni davomida tashkil topgan inson o'rtasidagi moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi o'zaro faoliyati natijasida yuzaga kelgan sotsial aloqalar va munosabatlarning mustahkam tizimi"<sup>47</sup>, tushuniladi.

Demak, keng ma'noda jamiyat – insonlarning tarixiy jihatdan shakllangan aniq birligi bo'lib, ularning faoliyati davomidagi o'zaro harakatlari asosida tashkil topgan. Shu ma'noda jamiyatni eng yirik sotsial tizim sifatida baholash o'rinnlidir. Unga boshqa barcha tizimlaga xos bo'lgani kabi eelementlarining o'ziga xos tarkibi, ularning aloqalarining mustahkam tartibi xos bo'lib, Shunga muvoffiq jamiyat yaxlit tizim sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Murakkablik sotsial tizimning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Jamiyat tabiat elementlaridan farqli ravishda o'zidagi aloqalar va munosabatlari, jarayonlarning xilma-xilligi, shuningdek, rivojlanish tendensiyalari va imkoniyatlari jihatidan murakkabroq sanaladi. Jamiyatning rivojlanish darjasи qanchalik yuqori bo'lsa, undagi sotsial o'zaro

<sup>47</sup>Социологический энциклопедический словарь: На русском, английском, немецком, французском и чешском языках / Ред.-координатор Г.В.Осипов. Ин-т соци-альто-политич. исслед. РАН: Ин-т социологии РАН — М: Издательская группа ИНФРА-М-НОРМА, 1998. — С.212.

munosabatlar shunchalik xilma-xil bo'ladı. Mazkur xilma-xilliklar jamiyatni sotsiologik jihatdan o'rganish davomida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Demak, jamiyat o'zining ichki soitsal strukturasiga ega bo'lgan murakkab tizim sanaladi. Misol uchun mehnat guruhlarining sotsial strukturasi – bu ma'lum sotsial –demografik (yoshlar, qariyalar), sotsial (guruh, qatlam, sinf), professional-malakaviy, hududiy (qishloq, shahar) va etnik birliklarning yig'indisi bo'lib, ular nisbatan mustahkam o'zaro munosabatlar bilan bog'langan bo'ladı. Sotsiologiyaning asosiy maqsadi sotsial struktura va uning mukammallahuv yo'llarini tadqiq etishga qaratilgan.

Jamiyatning dinamikasi ko'p xollarda uning sotsial strukturasiga bog'liq bo'ladı. Ammo jamiyatdagi iqtisod, siyosat, madaniyat, mafkura va ta'lif ham jamiyat evelyusiyasida muhim o'rinn tutadi. Ularning faoliyati faol sotsial guruhlarning harakatlari natijasida amalga oshib, mazkur harakatlar sotsial gurug'hamming jamiyatda egallagan o'rniga bevosita bog'liq.

Sotsial tizimlarning yana bir xususiyati bu ularning insonlardan tashkil topishidir. Sotsial tizimlar bir vaqtning o'zida inson faoliyatining mahsuli va inson faoliyatining sohasi sanaladi. Mazkur xususiyatni jamiyatni o'rganish davomida albatta inobatga olish lozim. Barcha tagtizimlarda va ijtimoiy hayotning sohalarida inson universal element sifatida namoyon bo'ladı. Bu yerda o'zaro ta'sir holati o'rinn topgan, ya'ni jamiyat insonni ishlab chiqaradi, inson esa o'z navbatida jamiyatni yaratadi. Max'lum insonlarning o'zaro harakatlari natijasida jamiyat sotsial strukturasi vujudga keladi. Shuning uchun sotsial struktura insonlarning munosabatlari, shaxsiy o'zaro aloqalarining yig'indisi bo'lib, sotsial vazifalar - bu inson faoliyatining natijasidir.

Keng ma'noda sotsial struktura deyilganida, jamiyatning umumiy tuzilishi tushunilib, uning asosiy funksional sohalari o'rtaqidagi mustahkam aloqalar nazarda tutiladi. Funksional sohalar deyilganida, iqtisod, siyosat, madaniyat kabi sohalar tushuniladi. Shu ma'noda sotsial strukturaning elementlari sifatida mazkur sohalarga mos bo'lgan sotsial institutlar namoyon bo'ladı: istisod instituti, davlat instituti, madaniyat instituti va h.k.

Tor ma'noda sotsial tizim deyilganida, jamiyatdagi turli sotsial guruhlar, guruhlar o'rtasidagi mustahkam aloqalar tizimi, shuningdek, turli sotsial jamoalarning ichki tuzilishi tushuniladi.

Sotsial jamoalarning tipiga ko'ra, tashkilotning strukturasi ikki darajada o'rGANILADI: *makrostruktura va mikrostruktura*.

Makrostruktura darajasida jamiyatdagi sinflar, qatlamlar, etnik guruhlar, turli sotsial kategoriyalar va ular o'rtasidagi mustahkam sotsial aloqalar hamda ularning ichki tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatlar tushuniladi.

Mikrostruktura kichik guruhlardagi mustahkam munosabarlar va aloqalarni ko'rsatadi. Misol uchun talabalar guruhi, mehnat guruhi va h.k. mazkur holatda strukturaviy tahlilning asosiy elementlari sifatida ma'lum statusga ega bo'lgan va alohida funksiyalarni bajaruvchi individlar namoyon bo'ladi. Mikrostrukturani o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki u jamiyatdagi ko'plab jarayonlarda o'z aksini topadi. Misol uchun individlarning sotsializatsiya jarayoni va jamoatchilik fikrining shakllanishi.

## 2. Jamiyat strukturasi va uning tasnifi

Sotsiologiya fanining eng muhim tushunchalardan biri *jamiyat* bo'lib, u muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o'zlarini boshqa qo'shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi<sup>48</sup> dan tarkib topadi. Jamiyat kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Jamiyatni sotsial tizimining muayyan aniq shakli sifatida, funksional va rivojlanish qonuniyatları nuqtai nazaridan, shuningdek, har bir elementining o'ziga xos tomonlarini va shaxslarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarini ilmiy jihatdan sotsiologik asosda o'rganish orqali jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarni bartaraf etish mumkin.

<sup>48</sup> Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002.820.b.

“Sotsiologik ensiklopedik lug’at”da jamiyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: jamiyat – tarixiy rivojlanish natijasida insonlar orasida birlgiligidagi faoliyat natijasida hosil bo’lgan sotsial aloqa va munosabatlarning nisbatan mustahkam tizimi<sup>49</sup>.

Tarixga nazar tashlasak, ko’p olimlar tomonidan jamiyat – o’z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Ammo jamiyat ijtimoiy munosabatlar majmuasini ham o’z ichiga oladi.

*Jamiyatda kishilar birlgilidagi faoliyati oliib borishlari natijasida turli ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar va ijtimoiy munosabatlarning boshqa tashkiliy shakllari paydo bo’ladi. Jamiyat o’z navbatida mana shunday tashkiliy shakllarning turli darajalaridan iboratdir.* Bu faoliyat doirasida turli-tuman jamiyat va uning a’zolari, ularga mansub bo’lgan birliklarning har biri uchun umumiy bo’lgan ehtiyojlar qondiriladi. Aniqroq qilib aytganda, *jamiyat o’z a’zolari turmush sharoiti uchun barcha zarur jarayonlarni yo’lga qo’yadi va amalga oshiradi.*

Zamonaviy sotsiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sotsiolog N.Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiy qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy - madaniy) tenglikka ega bo’lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

*Shilzning fikriga ko’ra, agar kishilar birlashmasi quyidagi talablarga javob bersa, unga nisbatan «jamiyat» tushunchasini qo’llash mumkin:*

- 1) birlashma katta bir tizim(jamiyat)ning bir qismi b’lmasa;
- 2) nikch ushbu birlashma namoyandalari orasida tuzilsa;
- 3) birlashma bolalar tug’ilishi bilan to’ldirib borilsa;
- 4) shaxsiy hisoblangan hududga egalik qilinganda;
- 5) o’z nomi va tarixiga ega bo’lish;
- 6) o’z boshqaruv tizimiga ega bo’lish;

<sup>49</sup> Социологический энциклопедический словарь: На русском, английском, немецком, французском и чешском языках / Ред.-координатор Г.В.Осипов; Ин-т социально-политич. исслед. РАН; Ин-т социологии РАН. — М.: Издательская группа ИНФРА-М-НОРМА, 1998. —С.212.

7) birlashma qadriyatlarning umumiy tizimi (urf-odat, an'ana me'yorlar, qonun - qoidalar) madaniyat asosida tashkil topadi.

«Jamo'a» va «jamiyat» atamalari anglatgan ma'nolariga ko'ra yaqindir. Har ikki so'z arabcha «jam'a»dan yasalgan bo'lib, kishilarning turli darajada va maqomda olingan umumiyligini anglatadi. Agar «jamiyat» deyilganda keng ma'noda oldingi paragirflarda ko'rsatib o'tilganidek, kishilarning birgalikdagi manfaatlari va kelishuvi asosida, maqsadga muvofiq oqilonaga tashkil etilgan, birgalikdag'i faoliyati ifodasi tushunilsa, «jamo'a» tushunchasida umumiy kel'ib chiqish, til, taqdир va qarashlar bilan bog'liqlik o'z aksini topadi.<sup>50</sup> Oila, xalq va hokazolar ayni shunday jamoalardir. Har qanday jamoa ham jamiyat bo'lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyat murakkab jamoa bo'lib, o'z-o'zidan mavjudlik va rivojlanish xususiyatlariiga egadir.

*Jamiyat strukturası* o'z ichiga barcha strukturaviy komponentlar va tagtizimlarni qamrab oladi. Har bir jamiyatda mazkur tagtizimlarning joylashish ketma-ketligi, ierarxiysi turli xil bo'ladi va o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Jamiyatning birlamchi va asosiy tashkil etuvchi komponentlari strukturaviy-funksional va tizimli yondashuv namoyondalari bo'lmish Parsons, Merton va Lumman kabi olmilar tomonidan yoritilgan.

Bunda ular jamiyatda gorizontal ravishda joylashuvchi quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatishgan:

- Sotsial subyektlar, ya'ni insoniy komponent (tabiiy farqlar tufayli yuzaga kelgan insonlar jamoalari va guruhlari)
- Sotsial institutlar
- Normativ-huquqiy komponentlar (jamiyatda o'matilgan formal va noformal qonun-qoidalar)
- Mental komponentlar (e'tiqod, qadriyatlar, qiziqishlar)
- Infrastrukturaviy komponentlar.

<sup>50</sup> B.Aliev, M.Mullajonova, B.Raxmonova Sotsiologiya Darslik. T. 2011 , 234-b.

K.Marksning fikricha, yuqorida keltirilgan barcha komponentlar insonlar faoliyatining turli sohalarini o‘z ichiga qamrab olib, beshta nisbatan mustaqil tagtizimga birlashadi. U jamiyatdagi quyidagi beshta sohani ajratib ko‘rsatgan:

- Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi faoliyati oqibatida yuzaga kelgan)
- Sotsial soha (insonning o‘z avlodini yaratishi va rivojlantirishiga qaratilgan faoliyati yuzasidan kelib chiqqan)
- Siyosat (aholini mafkuraviy va ruhiy jihatdan jilovlash hamda boshqarish faoliyati asosida shakllangan)
- Huquqiy soha
- Madaniyat (ma’naviy rivojlanish asosida shakllangan).

Jamiyat hayotidagi mazkur sohalar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga aloqalari orqali ta’sir ko‘risatadi. Misol uchun jamiyatdagi iqtisodiy tizim ishlab chiqarishning asosi sanalib, u jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, diniy, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga bevosita ta’ sir ko‘rsatadi va jamoatchilik fikrining ma'lum yo‘sinda shakllanishini ta’minlaydi.

Jamiyat undagi moddiy bazis, ya’ni iqtisodiy tizim va ishlab chiqarish munosabatlarga ko‘ra K.Marks tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:

- Ibtidoiy jamoa tuzumi
- Antik formatsiya, ya’ni quldarlik tuzumi
- Feodal tuzum
- Kapitalistik tuzum
- Inqilobiy yoki kommunistik tuzum

Aksariyat sotsiolog olimlar tomonidan jamiyatning rivojlanishi formatsiyalar asosida quyidagicha talqin qilinadi:

- Ibtidoiy jamoa tuzumi
- Quldarlimk tuzumi
- Antik formatsiya
- Osiyo mamlakatlari formatsiyasi
- Feodal formatsiya
- Kommunistik yoki inqilobiy formatsiya

- Postindustrial formatsiya.

Postindustrial ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya deyilganida, zamonaviy postkapitalistik shakldagi tuzurn tushunilib, unda ishlab chiqarishning asosini axborot – texnologiyalari tashkil etadi, fuqarolik jamiyat shakllangan, davlat demokratik ijtimoiy-huquqiy yo'ldan borayotgan bo'ladi.

*O.Toffler* tomonidan qo'llab-quvvatlangan va globalistlarning jamiyat sivilizatsion tasnifi nomini olgan nuqtai nazarga ko'ra, jamiyat quyidagi rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan:

- Kosmogen sivilizatsiyalar
- An'anaviy sivilizatsiyalar (XVI-XVII asrgacha)
- Texnogen sivilizatsiyalar (XX asr o'rtalarigacha)
- Antropogen sivilizatsiyalar

Postindustrial tasnifning asosini jamiyatda fan va ta'lim rivojlanishi oqibatida ishlab chiqarish munosabatlarida va turmush tarzida sodir bo'lgan texnik va texnologik taraqqiyot darajasi tashkil etadi. Unga ko'ra jamiyat quyidagi turlarga ajratilgan:

- Agrar jamiyat (sanoatlashishgacha bo'lgan jamiyat)
- Industrial jamiyat (sanoatlashgan jamiyat)
- Postindustrial jamiyat (kompyuterlashtirish, axborotlashtirish asri)

*Agrar jamiyatlar* dastavval Misrda tashkil topdi, ular omoch va hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishni yo'lga qo'ydilar. Ularning ishlab chiqarishdagи mahsulorligi ham yuqori bo'lgan. Agrar jamiyatda qo'shimcha mahsulotning toplanishi natijasida davlat vujudga keldi, ma'muriy apparat va armiya tashkil topdi. Yozuv kashf qilindi, pul tizimi shakllandi, savdo kengaydi.

*Industrial jamiyatlar* XVIII asr oxirlarida Buyuk Britaniyada sanoatlashtirishning vujudga kelishi natijasida barpo bo'ldi. Eng zamonaviy sanoat jamiyatları Shimoliy Amerika, Yevropa, Sharqiy Osiyoda tashkil topdi. Texnologiyaning takomillashuvchi, energiyaning yangi manbalaridan foydalanish sanoat jamiyatları rivojlanishida asosiy rol o'ynadi.

Industrial jamiyat G'arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning an'anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, uning kelib chiqishi va tabiatni to‘g‘risidagi ikki asosiy kategoriyalarning biri. Ushbu tushunchani birinchi bo‘lib Sen-Simon ishlatgan, uni O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym va boshqalar rivojlantirishgan.

*Postindustrial jamiyat* konsepsiysi amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan ishlab chiqilgan. Uning fikricha, bu jamiyatda kapitalistlar hukmronligi yo‘qolib, uning o‘mini yuqori bilimga ega bo‘lgan malakali huquqiy elita egallaydi. Xususiylik jamiyatning asosiy mezoni sifatida o‘zining ma‘nosini yo‘qotadi, uning o‘rnini ta’lim va bilimning yuksak darajasi egallaydi. Industrial jamiyatda asosiy nizo mehnat kapitali orasida bo‘lsa, post industrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqr bilimga ega emaslik o‘rtasida boradi. Chet el mamlakatlarga tayyor mahsulotga qaraganda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari ko‘proq eksport qilinadi. Davlat – monopolistik kapitalizm o‘rnini bosadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida fan va maorifga e’tibor beradi. Olim, mutaxassis roliga yuksak baho ko‘rsatiladi. Sinflarga munosabati, uning ishlab chiqarishga egaligini inkor qiladi. Sotsial tengsizlik saqlanib qolishini e’tirof etadi.

XX asr o‘rtalaridan qator G‘arb davlatlari jamiyat rivojanishining uchinchini bosqichi – postindustrial jamiyatga o‘ta boshladi. Sotsiologiyada bu jamiyat nomi har xil, jumladan «informatsion» jamiyat, maishiy xizmat qilish jamiyati deb yuritiladi.

*Ochiq va yopiq jamiyat tushunchasi* sotsiologiyaga K.Popper tomonidan kiritilgan bo‘lib, taraqqiyotning turli bosqichlarida turli jamiyatlarning madaniy-tarixiy va siyosiy tasvirlanishi ifoda etiladi. Ochiq jamiyat – demokratik jamiyat bo‘lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o‘zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o‘tmoqqa moslashgan jamiyat tushuniladi. Yopiq jamiyat esa dogmatik-avtoritar rejim asosida bo‘lib, sehrli tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi. K.Popper yopiq jamiyatlarga o‘zining siyosiy va ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo‘lgan davlatlarni kiritadi, ya’ni Sparta, Prussiya, chor Rossiyasi, natsistlar Germaniyasi va Sovet Ittifoqi. Ochiq jamiyatga qadimgi Afina va G‘arb rivojlangan davlatlarini kiritadi. Ochiq va yopiq jamiyat konsepsiysi hozirgi zamон

davlatlarining uchun ideologik-siyosiy va ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan muhim hisoblanadi.

### **3.V.Pareto: "jamiyat individlarning o'zaro munosabatlari tizimi sifatida"**

Olimning nazarida uning sotsiologik qarashlari va yaratgan tizimi jamiyat to'g'risidagi XIX asr ijtimoiy-siyosiy qarashlarida asosiy o'rinni egallagan spekulyativ va metafizik qarashlarga chek qo'yishi kerak edi. U Kont, Mill, Spenserning sotsiologik nazariyalarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsada, bilimni amaliy jihatdan asoslash paytidagi uquvsizliklarini aytib o'tgan. Uning fikricha, sotsiologiya huquq, siyosiy iqtisodiyot, siyosiy tarix, din tarixi kabi har xil fanlarning sintezi bo'lib, asosiy maqsadi jamiyatni yaxlit tizim sifatida o'rghanishdan iborat bo'lgan.

Jamiyatning tashkil topishi, faoliyati va o'zgarishlarining asosiy tamoyillarini ochib berishda Pareto mantiqiy-eksperimental usulidan foydalangan. Uning asosiy g'oyalaridan biri jamiyatning sekinlik bilan parchalanadigan va qayta tiklanadigan muvozanat holatidagi tizim ekanligidir. Muvozanat tushunchasini Pareto Vilrasning iqtisodiy nazariyasidan olgan bo'lib, unga mexanistik mazmun bag'ishlagan. Tizimning bir qismida sodir bo'lgan o'zgarish boshqa qismiga ham, albatta o'tadi va "dinamik muvozanat" tiklangunga qadar butun tizim harakatga keladi.

V.Pareto jamiyatga qismlarning o'zaro bog'liqligidan tashkil topgan tizim sifatida qaradi. Xuddi kimyoviy elementlar qo'shilishidan o'ziga xos birikma tashkil topgani singari individlar ham o'ziga xos molekulalar bo'lib, ularning birikuvidan sotsial tizim tashkil topadi. Jamiyatni tizimli tahlil qilish Pareto sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyati va muhim yutig'idir. Sotsiologiya tarixida bunday yo'nalish jamiyatning ikki modeli (jamiyat organik birlik, jamiyat mexanik birlik) ta'sirida shakllangan bo'lib, Pareto Dyurkgeymdan farqli ravishda jamiyatga mexanizm sifatida talqin qildi.

V.Pareto muayyan zamon va makondagi sotsial tizimning holatini quyidagi *omillar* bilan belgiladi:

- 1) tashqi tabiiy shart-sharoitlar (tuproq, iqlim, flora va fauna);

2) notabiyy xarakterga ega bo'lgan omillar boshqa jamiyatlarning mazkur jamiyatga ta'siri;

3) sistemaning ichki elementlari: xissiyot, manfaatlar, intilishlar, kuzatish, mulohaza yuritish qobiliyati va x.o.

V.Paretoning fikricha, bir element boshqa elementga nisbatan qanday rol o'ynashi aniqlanganidan keyingina sotsial tizimning har bir elementini tushunish mumkin. Jamiyatdagi ta'sir va aks ta'sir jarayonlari bir-birini neytralashtiradi. Shuning uchun ham jamiyat muvozanat holatida bo'ladi. Jamiyat muttasil ravishda revolyutsion o'zgarishlarni kechirib turar ekan, jamiyat muvozanati dinamik xarakter kasb etadi. Muvozanatni qo'llab-quvvatlashda his-tuyg'u, muhim ahamiyatga ega.

Pareto sotsial rivojlanishning «taraqqiyot (progress) nazariyasiga»ni keskin tanqid qildi. Uning fikricha, sotsial tizim rivojlanishi huddi mayatnik kabi siklli (takrorlanuvchi) bo'ladi. Bu jamiyat hayotining barcha sohalarida kuzatiladi. Taraqqiyotning almashinuvchi tendensiyalari jamiyat muvozanatini ta'minlaydi.

Paretoغا ko'ra, sotsial geterogenlik sotsial tizimning muhim elementi bo'lib, individlarning tug'ilgan paytlaridanoq noteng ekanligini anglatadi. U yoki bu sotsial guruuhnинг hususiyatlari uning a'zolarining qobiliyati va iste'dodiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida guruhnинг jamiyatda tutgan o'mini belgilab beradi. O'z sohasida yuqori natijalarga ega bo'lgan guruhn Pareto elita nomi bilan atagan. Elita – bu aholining ma'lum kam sonli qismi bo'lib, jamiyatning boshqa a'zolari ularga intilib, ularning rag'batini kutib yashaydi. O'z navbatida elita ikki qismga ajratiladi. Birinchisi, "hukmron elita", ya'ni bevosita yoki bilvosita jamiyatni boshqaruvchi guruhlar. Ikkinchisi esa boshqaruvda ishtirot etmaydigan, jamiyatning san'at va ilmiy sohalarida band bo'lgan guruhlar.

V.Pareto sotsial rivojlanishning siklli ko'rinishini *elita nazariyasida asoslashga xarakat* qildi. Uning bu qarashlari E.Dyurkgeymning qarashlariga butunlay zid. U sotsiologyaning vazifasi ideallarni asoslash, ilmiy zaminga qo'yish, deb hisoblagan va sotsial ideallar sotsial voqelikda mujassamlashganligini isbotlashga harakat qilgan edi. E.Dyurkgeym barcha dinklar o'z o'mida yaxshi ekanligini ta'kidlagan, V.Pareto esa barcha *dinlar yolg'on ekanligini* isbotlashga harakat qildi. E.Dyurkgeym fan o'z esa barcha *dinlar yolg'on ekanligini* isbotlashga harakat qildi. E.Dyurkgeym fan o'z

ob'yektini buzmasligi kerak, desa, V.Pareto aksincha fan o'z ob'yektini buzishi va o'zgarishi kerak, deb hisobladi. V.Pareto ham E.Dyurkgeym singari ideallarni real harakatchan kuch deb hisobladi. Biroq u bu ideallarning va nazariyalarning birortasiga ishonmadidi. Bu ideallar yo yaqinlik mahsuli yoki hukmron elita qo'lidagi keng ommani aldash vositasidir, deb hisobladi.

Elita sirkulyasiyasi – bu geterogen jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalar jarayoni bo'lib, Pareto uni piramida shaklida tasvirlagan. Bunda elita piramidaning yuqorisini egallaydi. Elita istalgan vaziyatda o'zini sovuqqon tuta bilishi, hisob-kitob va boshqalarning nozik tomonlarini ko'ra bilishi, bu kamchiliklarni o'z manfaati yo'lida ishlata olish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Oddiy emma esa odatda hissiyotlarga o'ta beriluvchan bo'ladi. Bu holat jamiyatning ikki qismga ajralishini asoslab beradi. Paretoga ko'ra, bilimga ega bo'lganlar hissiyotga beriluvchanlarni boshqara oladilar.

V.Pareto insonning aqliy mavjudot ekanligiga shubha bilan qaradi. Bu jihatdan unga Makiavveli qarashlari ancha yaqin edi. Uning yozishicha odamlar *minnatdor bo'lishni bilmaydigan subitsizlikdir*, ular ikkiyuzlamachilik va yolg'onchilikka moyil, boylikka o'ch bo'ladi. Odamlarni faqat xavf – xatargina qo'rqtib turadi. V.Paretoning antropologik falsafasi insonning ratsionalistik kontsepsiyasiga qarshi qaratilgan edi. U inson o'z xatti-harakatlarini avvalo yaxshi o'ylab ko'radi va keyin unga muvofiq xatti-harakat qiladi, degan qarashga keskin qarshi chiqdi. Uning fikricha, inson dastaval xatti-harakatni amalga oshiradi, keyin uni izohlashga, tushuntirishga, oqlashga, ratsionallashtirishga urinadi.

V.Pareto ratsionalistik modelga qarshi chiqar ekan, to'laligicha mantiq va eksperimentga asoslanuvchi ratsional fan pozitsiyasida turdi. Olim–sotsiologning bu ratsionalizmi yolg'on motivlar «nazariya»larni fosh etishga qaratilgan edi. Uning ta'kidlashicha, biror-bir nazariyaning eksperimental haqiqiyligi bilan uning sotsial foydaliligi ko'p xollarda bir biriga qarshidir.

#### **4. F.Tyoniisning "Jamoa va jamiyat" asari mohiyati**

F.Tyoniisning "Jamoa va jamiyat" asari uning sotsiologik konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Asarning asosiy g'oyasi jamoaviy va ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilishdan iborat. Olimning fikricha. Jamoaviy munosabatlarning asosini emotsiya, rihiy yaqinlik, o'zaro bog'liqlik va simpatiya munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar ongli ravishda amalga oshishi yoki emotsiyalar ta'siri ostida angilanmagan holda bo'lishi mumkin. Olim jamoaviy munosabatlarning quyidagi turlarini ko'rsatgan: urug'-aymoqchilik munosabatlari, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, do'stlik munosabatlari.

Jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar jamoaviy munosabatlardan farqli ravishda ratsionallik va ratsional ayirboshlash munosabatlariga asoslanadi. Jamoa a'zolari o'tasida ratsional munosabatlar kamdan-kam hollarda uchraydi. Ijtimoiy munosabatlarning asosini o'zaro manfaat tashkil etadi.

Bu ikki turdag'i munosabat nafaqat individlarning o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, balki ularning jamiyatga bo'lgan munosabati bilan farqlanadi. Jamoa mantiqiy jihatdan o'zidan so'ng qismlarni ajratadi, jamiyatda esa aksincha, u qismlardan tarkib topgan bo'ladi. Turli jamoa va jamiyatlar – bu sotsial butunlikni tashkil etuvchi qismlarning organik va mexanik birligi.

Mexanistik va organistik birlikni farqlash uchun olim ikki xil xulosaga keladi: 1) guruhlarning barcha a'zolari oz yoki ko'p jihatdan e'tiqodlar va hissiyotlarning jamlanmasini tashkil etadi, natijada guruhning kollektiv turini hosil qiladi. 2) jamiyat – bu turli xil maxsus funksiyalarning sistemasidir.

Organik birlikning mexanik birlikdan farqi shundaki, u mehnat taqsimoti natijasida vujudga keladi. Mehnat taqsimoti ijtimoiy birlikning oliy funksiyasi sifatida axloqiy funksiyalarni vujudga keltiradi va «shaxs individualigini» vujudga kelishini va rivojlanishini ta'minlaydi.

Jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlarini to'g'risida ko'pgina sotsiologlar o'z ta'limotlarini yaratganlar, jamiyat to'g'risidagi nazariyalarni boyitib, o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar, bular Zimmel, Parsons, Lumin, Chikago maktabi namoyondalari va boshqalar.

## **5. Jamiyat taraqqiyoti**

*Ijtimoiy rivojlanish* – bu jamiyatdagi qator o'zgarishlar yig'indisi bo'lib, ular yangi ijtimoiy munosabatlar, sotsial institutlar, norma va qadriyatlarning yaralishiga turki bo'ladi. Sotsial rivojlanishning uchta aniqlashtiruvchi xususiyati bor. Bular ortga qaytarilmaslik, yo'nalganlik va qonunlarga bo'y sunishi.

— Orta qaytarilmaslik – jamiyatda miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarning doimiy ravishda to'planishi, jarayonidir.

— Yo'nalganlik – bu jamiyanish sodir bo'layotgan yo'nalishlar.

— Qonunlarga bo'y sunishi – o'zgarishlarni jamlashning zaruriy bo'lgan jarayoni.

Sotsial rivojlanishning muhim xususiyatlaridan biri u amalga oshayotgan vaqt oralig' idir. Chunki, sotsial rivojlanishning muhim xususiyatlari faqat vaqt o'tisho'i bilan namoyon bo'la aboshlaydi. Sotsial rivojlanishning oqibati sifatida sotsial obyektning strukturasi va tashkilotida yangi sifatiy va miqdoriy o'zgarishlar kuzatiladi. Sotsiologiya fanida jamiyat rivojini o'rganish nuqtai nazaridan uchta yondashuv shakllangan:

1. *Jamiyatning rivojlanishi chiziqli-o'suvchanlik xarakteriga ega.* Unga ko'ra, jamiyat o'z rivojlanishi davomida qator bosqichlardan o'tib, ularning har birida bilimlarni, aloqalarni, hayot uchun kerakli bo'lgan ko'nikmalarни o'ziga xos jamlash va o'zidan keyin qoldirish usullaridan foydalilanadi. Shunga ko'ar har bir bosqichda jamiyat tizimi va strukturasining murakkablik darajasi ortib boradi. Mazkur yo'nalishning tarafdarları sifatida G.Spenser, E. Dyurkgeym, F.Tyonnis kabi olimlarni ko'rsatish mumkin.

2. *Jamiyatning rivojlanishi sikl, ya'ni qaytariluvchanlik xususiyatiga ega.* Mazkur nuqtai nazar tabiat va jamiyatdagi o'xshashlikka asoslangan holda tabiatda yil fasllarining qaytarilishi kabi jarayonlarning doimiy ravishda qaytarilishi jamiyatning rivojlanish jarayonlariga qiyoslanadi. Har bir jamiyatda kuzatiladigan sivilizatsiyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yakun topishi holati jamiyatdagi siklik jarayonlarning biriga sabab bo'ladi. Mazkur yondashuvning tarafdarları V.Pareto, O.Shpengler, O.Danilevskiy, L.Gumilev va boshqalar.

3. *Jamiyat rivojlanishining chiziqli bo'lmagan ko'rinishi.* So'nggi yillarda jamiyat rivojida kuzatilayotgan jarayon va hodisalar unda chiziqli bo'lmagan yo'naliqhining ustuvorligini ko'rsatmoqda. Olimlar tomonidan shunday "o'zgarish nuqtasi", ya'ni bifurkatsiya aniqlanib, undan so'ng rivojlanish qay yo'sinda borishini aniq aytish mushkul sanaladi. Sotsial rivojlanishning chiziqli bo'lmagan ko'rinishida bir hodisa yoki jarayonning keyingi rivojlanishi bir necha variantda amalga oshishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bunda qaysi variantning amalga oshishi ko'p hollarda subyektning tanloviga asoslanadi. Mazkur yo'naliqhining tarafidlorlari S.L.Frank, M.Xetcher, D.Kollmen va boshqalar.

O'z tabiatiga ko'ra sotsial rivojlanish *evolyusion* va *revolyusion* yo'llarga ajratiladi. U yoki bu sotsial rivojlanishning tabiatini unda kechuvchi sotsial o'zgarishlarga bevosita bog'liq. Evolyusion rivojlanish yo'li deyilganida, jamiyatning barcha sohalri, ya'ni iqtisod, siyosat, ijtimoiy va boshqa sohalaridagi sekin-astalik va bosqichma-bosqich ko'rinishda amalga oshuvchi sotsial o'zgarishlar nazarda tutiladi. Evolyusion o'zgarishlar odatda sotsial islohotlar ko'rinishi amalga oshib, jamiyat hayotining turli jabhalarida amalga oshuvchi chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Sotsial islohotlar jamiyat sotsial tizimining asosiga dahldor bo'lmaydi va uni o'zgartirishga qaratilmaydi. Odatda ular faqat sotsial tizimning ma'lum qismlari va strukturaviy elementlarini o'zgartirish uchun amalga oshiriladi.

Har bir jamiyatning evolyusiyasi o'ziga hos ekanligini unutmaslik kerak. Chunki, u jamiyatning an'analariga asoslangan bo'ladi.

Sotsial revolyusiya yoki inqilob deyilganida, jamiyatning har tomonlama, tez fursatda va tubdan o'zgartirilishi nazarda tutiladi. Bunda jamiyat rivoji to'lqinsimon ko'rinishga ega bo'lib, ma'lum bir sifatiy ko'rinishdan boshqasiga o'tishni anglatadi.

Sotsial revolyusiya har cloim bir turdag'i sotsial munosabatlarning zo'ravonlik yo'li bilan boshqa sotsial munosabatlarga o'zgartirilishini nazarda tutadi. Ko'p olimlar tomonidan sotsial revolyusiya anomaliya, ya'ni tabiiy tarixiy rivojlanishdan og'ish sifatida talqin qilinadi. Ammo boshqa turdag'i olimlar evolyusion va revolyusion yo'llarni sotsial rivojlanishning ajralmas va bir-birini almashtiruvchi jarayonlar sifatida tushunadi. Unga ko'ra, jamiyat rivojlanishining evolyusion va

revolyusion yo'llarining o'zaro munosabatlari va o'mi davlat va davrning aniq-tarixiy sharoitlari asosida aniqlanadi.

Sotsial rivojlanish jarayoni "sotsial taraqqiyot (progress)" tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Sotsial taraqqiyot – bu rivojlanishning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, quyi, ya'ni oddiy jamiyatdan yuqori, ya'ni mukammaliga qarab rivojlanishini nazarda tutadi. Sotsiologiyada jarayonning taraqqiyot yo'lidan borayotganini aniqlashda asosan ikki kriteriyidan foydaliladi<sup>51</sup>.

1. Mehnat samaradorligi va aholi iqtisodiy farovonligi darajasi;
2. Shaxs erkinligi darajasi.

Ammo zamonaviy sharoitda taraqqiyotning mazkur kriteriyilari aniqlashtirilishi lozim. Ko'p olimlarning fikricha, birinchi kriteriy ko'rsatkiya sifatida o'z mazmunini saqlab qolmoqda. Ikkinchisi esa o'zining dolzarbligini yo'qotgan. Chunki so'nggi ma'lumotlarga qaraganda zamonaviy inson uchun ozodlikdan ko'ra, jeamiyat oldidagi mas'uliyat hissi muhimroq sanaladi. Shuning uchun sotsial taraqqiyotning ikkinchi kriteriyisi sifatida jamiyat a'zolarining ozodlik va erkinlarini ta'minlovchi ijtimoiy-siyosiy vositalarning rivojlanganlik darajasi ni ko'rsatish mumkin.

Undan tashqari jamiyat a'zolarining ma'naviy-ahloqiy o'zgarishlarini (ijtimoiy ahloq darajasi) aks ettiruvchi kriteriyini qo'shish ham maqsida muvoffiq. Mazkur ko'rsatkichlardan tashqari sotsiologiyada sotsial taraqqiyot darajasi jamiyat a'zolarining savodxonligi, jamiyatdagи djiferensiatsiya va integratsiya, sotsial birdamlik turi va darajasi, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va insonni tabiatning stixiyali harakatlaridan himoyalanganligi kabilar asosida aniqlanadi.

#### *T. Parsons va jamiyat evolyusiyasi bosqichlari*

T. Parsons jamiyat strukturaviy o'zgarishlarini tahlil qilish oqibatida neoevolyusionizm g'oyasiga asos soldi. Unga ko'ra, jamiyat evolyusion nuqtai nazardan oddiy ko'rinishdan murakkablik tomoni rivojlanib boradi. Bunda u uchta bosqichni boshdan kechiradi: primitiv (oddiy) bosqich, oraliq bosqich, zamonaviy bosqich.

<sup>51</sup> [http://www.e-reading.club/chapter.php/99772/21/Davydov\\_-\\_Sociologiya\\_\\_konsept\\_lekcii.html](http://www.e-reading.club/chapter.php/99772/21/Davydov_-_Sociologiya__konsept_lekcii.html)

Olimning fikricha, jamiyat strukturasining murakkablashuvi jamiyat va uning tagizimlarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Primitiv jamiyatlarda differensiatsiya bo'lmaydi, oraliq jamiyatlarda u o'zini asta-sekinlik bilan namoyon qila boshlaydi va zamonaviy jamiyatlarda esa to'laligicha qaror topadi. Parsonsning yozishicha, primitiv jamiyatidan oraliq jamiyatga o'tish paytida madaniyatning ajralmas bo'lagi sanalmish til asosiy o'rinni egallaydi. Oraliq jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish paytida esa sotsietal struktura va huquq tizimiga tegishli bo'lgan normativ tartib qoidalarining institutlashuvi, ya'ni qonunlar muhim o'ringa ega.

Olim o'z izlanishlarida jamiyat evolyusiyasiga alohida e'tiber qaratgan. Uning fikricha, jamiyat evolyusion rivojlanishi davomida, ya'ni bir bosqichdan boshqasiga o'tishi barobarida o'z boshidan qator revolyusiyalar ketma-ketligini kechiradi. Albatta bu yerda Parsons K.Marksdan farqli ravishda revolyusiyaga o'zgacha ma'no bergen. Olim zamonavtiy jarniyatdagi uchta revolyusiya haqida gapiradi. Bular sanoat, demokratik va ta'lim inqiloblari.

Shunga ko'ra, sanoat inqilobi jamiyat iqtisodiy va siyosiy tizimlarini bir-biridan ajratadi. Demokratik inqilob siyosiy va ijtimoiy tizimlarni bir-biridan ajratadi. Ta'lim inqilobining maqsadi esa madaniy ishlab chiqarish tizimini ijtimoiy tizimdan ajratishdan iborat.

T.Parsonsning zamonaviy jamiyatdagi evolyusiya va revolyusiya munosabatlari hamda ularning mutanosibligi muammosiga nisbatan yondashuvi ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Nazariy sotsiologiyada Parsons birinchilardan bo'lib mazkur muammoni tadqiq qilgan sanaladi. U evolyusiya va revolyusiya o'zaro munosabatlarining mexanizmlarini ochib berib, ularni qanday tadqiq qilish mumkinligini ko'rsatgan<sup>52</sup>.

T.Parsonsning fikricha, sanoat inqilobi, eng avvalo, fabrika ko'rinishidagi ishlab chiqarish tiziminинг shakllanishi, bozor hamda kredit-moliyaviy munosabatlarining o'matilishi bilan izohlanadi. Aynan shu jarayonlar tufayli sotsial

<sup>52</sup> [http://olduct-nki.com.ua/15840720/sotsiologiya/istoriya\\_sotsiologii - zborovskiy\\_ge](http://olduct-nki.com.ua/15840720/sotsiologiya/istoriya_sotsiologii - zborovskiy_ge)

strukturada bo'linish sodir bo'lib, yangi kasbiy rollar va millatlarning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. O'z navbatida sanoat inqilob demokratik inqilob uchun asos sanaladi.

Demokratik inqilob tufayli jamiyatda insonlaming erkinligi ortib boradi, mansabdar shaxslar ustidan nazoratning demokratik shakli o'rnataladi, ya'ni saylov kabi shakllardan namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda huquqiy davlatning o'rnatilishi aynan demokratik inqilobning asosida amalga oshadi.

Sanoat va demokratik inqilob oqibatida jamiyatda ta'lif inqilobi uchun ehtiyoj tug'iladi. Ta'lif inqilobi asosida jamiyatning har bir a'zosi ta'lif olish uchun bir xil imkoniyatlarga ega bo'ladi. Parsonsning fikricha, mazkur inqilob tufayli jamiyatdag'i tabaqalanishning asosini boylik va hokimiyat emas, balki bilim, qobiliyat va ma'lumotlilik darajasi belgilab beradi.

Xronologik jihatdan olib qaraladigan bo'lsa, sanoat inqilobi kapitalistik jamiyat rivojining boshlang'ich bosqichida, ya'ni qaror topishi paytida amalga oshgan. Demokratik inqilob rivojlangan kapitalizm davriga to'g'ri keladi. Ta'lif inqilobi esa XX asrning ikkinchi yarmi uchun xarakterli sanaladi.

T.Parsonsning mazkur nazariyasi, ya'ni strukturaviy funksionalizm paradigmasi bir necha bor o'zining konservativizmida ayblangan. Qator olimlar tomonidan uning nazariyasida jamiyatdag'i sotsial qarama-qarshiliklar va sotsial taraangliklar inobatga olinmaganligi ta'kidlangan. Ammo strukturaviy funksionalizm paradigmasining mohiyati ham aynan mana shunda. Unda jamiyat rivojidagi ijtimoiy birdamlik hamda jamiyatdag'i tartibga intilish g'oyasi ustunlik qiladi.

### Nazorat savollari

1. Sotsial tizim va sotsial struktura tushunchalarining mohiyatini yoriting.
2. V. Pareto muayyan zamon va makondagi sotsial tizimning holatini qaysi omillar bilan belgiladi?
3. F.Tyoniisning "Jamoa va jamiyat asari" mohiyati nimadan iborat?
4. Sotsiologiya fanida jamiyat rivojini o'rganish nuqtai nazaridan qanday yondashuvlar shakllangan?

5. T.Parsonsning zamonaviy jamiyatdagi evolyutsiya va revolyutsiya munosabatlari haqidagi fikrlarini izohlang.

### Test savollari

**1. Jamiyat siyosiy boshqaruvining o'ziga xos jihatlari asosida qanday tuzilishga ega?**

- A. Totalitar, avtoritar, demokratik
- B. An'anaviy va zamonaviy
- C. Agrar, industrial, postindustrial
- D. Ochiq va yopiq

**2. G'arb sotsiologiyasida hozirgi kapitalistik davlatlarning qiyofasini ifodalovchi qanday nazariyalar paydo bo'ldi?**

- A. «Umumiy rohat-farog'at jamiyat» va «iste'mol qilish jamiyat» degan nazariya
- B. "An'anaviy va zamonaviy jamiyat" degan nazariya
- C. Mekanistik; organistik; kulturologik jamiyat degan nazariya
- D. Agrar jamiyatlar va industrial jamiyatlar

**3. Sotsiolog N.Smelzer jamiyat haqida shunday deydi:**

- A. "Muayyan geografik chegara, umumi qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy - madaniy) tenglikka ega bo'lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi"
- B. "Postindustrial jamiyatda intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o'ringa chiqadi".
- C. "Ochiq jamiyat – demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyatdir".
- D. Jamiyat bu kishilar majmuasi bo'lib, ular muayyan ehtiyoj va muayyan manfaatlarga ko'ra birlashishi natijaida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlар mahsulidir. Jamiyat insonsiz bo'lishi mumkin emas va jamiyat tushunchasi davlat tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

**4. Sotsiologiya jamiyatni tizim sifatida uning strukturasi, funksiyalari va tizimi elementlarini, odatda, qaysi aspektlarda o'rganadi?**

1. Individlarning o'zaro ta'siri
2. Guruhlarning o'zaro ta'siri
3. Ijtimoiy maqomlar ierarxiyasi
4. Individlar xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy me'yor va qadriyatlarning majmui

A. 1,3,4

B. 2,4

C. 1,2,3,4

D. 1,2

**5. "Jamoa va jamiyat" asarining muallifi kim?**

A. Tyonnis

B. O.Kont

C. E.Dyurkgeym

D. T.Parsons

**6. Amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya?**

A. Industrial jamiyat

B. Postindustrial jamiyat

C. Agrar jamiyat

D. Faravon jamiyat

**7. Totalitar jamiyat – bu?**

A. Siyosiy boshqaruvning zo'ravonlikka asoslangan sistema, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va xatto boshqaruvchi rahbar elitaning maishiy hayotini yakka lider tomonidan o'matilgan harbiy-byurokratik apparat tomonidan boshqariladi.

B. Demokratik bo'limgan siyosiy rejimga asoslangan va siyosiy ongning avtoritetga, umuman hokimiyat avtoritetiga bo'lgan munosabatlarni aks ettiruvchi shaklidir.

C. Ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishi tanoyili hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligining e'tirof etilishidir.

D. Bu jamiyatda kapitalistlar hukmronligi yo'qolib, uning o'rmini yuqori bilimga ega bo'lgan malakali huquqiy elita egallaydi.

**8. Industrial (sanoat) jamiyati terminini birinchi bo'lib kim ishlatgan?**

- A. Sen-Simon
- B. O.Kont
- C. G.Spenser
- D. E.Dyurkgeym

9. Amerika sotsiologlari tomonidan XX asr 40-50 yillarda jamiyatning har bir a'zosining hayot darajasini yaxshilash maqsadidagi tasavvurlarning keng yoyilishi natijasida vujudga kelgan nazariya.

- A. Mo'l-ko'lchilik jamiyati nazariyasi
- B. *Iste'mol qilish jamiyati nazariyasi*
- C. Postindustrial jamiyat nazariyasi
- D. An'anaviy jamiyatlar nazariyasi

10. Qator G'arb davlatlari jamiyat rivojining uchinchi bosqich – post industrial jamiyatga o'tish qachon boshlandi

- A. XX asr o'rtalaridan
- B. XX asr boshlaridan
- C. XX asr 80 yillaridan
- D. XX asrning 50 yillaridan

## **4-bob. SOTSIAL GURUHLAR, SOTSIAL TASHKILOTLAR VA SOTSIAL INSTITUTLAR**

**Reja:**

- 1. Sotsiologiyada sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari**
- 2. Sotsial guruh turlari (katta, kichik, referent, formal, noformal va h.k.)**
- 3. Sotsial tashkilot tushunchasi, maqsadi, turlari**
- 4. Sotsial institut tushunchasi va uning funksiyalari, disfunksiyasi**
- 5. Sotsial institut turlari va ko‘rinishlari (siyosiy, iqtisodiy, oila va nikoh, din)**

**Tayanch iboralar:**

*Sotsial jamoa. Sotsial birlik. Sotsial kategoriyalar. Nominal va real guruh. Sotsial guruh. Katta sotsial guruh. Kichik sotsial guruh. Ochiq va yopiq guruhlar. Referent guruh. Rasmiy va norasmiy guruh. Sotsial tashkilot. Sotsial institut. Oshkora va latent funksiyalar. Disfunksiya, Siyosiy institutlar. Iqtisodiy institutlar. Din instituti. Oila instituti. Madaniyat instituti.*

### **1. Sotsiologiyada sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari**

Sotsiologiyada sotsial guruh, sotsial tashkilot va sotsial institut tushunchalarini farqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki ular tarkibiy jihatdan, tuzilishiga ko‘ra, maqsad va vazifalari asosida bir-biridan farqlanadi. Shular asosida ularni o‘rganishda turli yondshuv hamda omillar, tamoyillar asos qilib olinadi.

Misol uchun “sotsial institut” va “sotsial guruh” o‘rtasida quyidagi ichki farqlar mavjud:

Sotsial guruh o‘zaro harakatdagi insonlarning yig‘indisi bo‘lsa, sotsial institut inson faoliyatining ma'lum sohasida amal qiluvchi sotsial aloqalar tizimi va sotsial normalar yig‘indisidir. Misol uchun oila o‘zida ham kichik sotsial guruh ham sotsial institutning xossalalarini birlashtirgan sotsiologik jihatdan betakror, ya’ni unikal sotsial tizim hisoblanadi.

Oila jamiyat strukturasining kichik modeli, o‘zida jamiyatning sotsiomadaniy xususiyatlarini mujassamlashtirgan hosila hamda mustahkam bog‘liqlikka ega

bo'lgan kichik guruh sifatida namoyon bo'ladi. Oila sotsiologiyada sotsial institut sifatida uning tur mush tarzi va bajarayotgan vazifalari qay darajada jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari va talablariga muvoffiqligi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Tadqiqotchilarni, eng avvalo, kichik guruh sifatida oilaning xatti-harakat namunalari qiziqtiradi. Boshqacha qilib aytganda, oilada amalga oshiriluvchi sotsial xatti-harakatlar qay tarzda boshqarilishi va nazorat qilinishi tadqiq qilinadi. Bunda oilaning shakllanishi jarayonida tomonlarning bir-biriga ko'rsatgan e'tibori va g'amho'rliги, bo'lajak umryo'ldoshini tanlashi, jinsiy xulq-atvori, bo'lajak umr yo'ldoshining ota-onasi bilan munosabatlari borasidagi jamiyatda o'rnatilgan norma va standartlar hamda individlarning ularga muvoffiqligi o'rganiladi.

Er va xotin munosabatlari mahsus nikoh instituti tomonidan ma'lum sanksiya va normalar vositasida nazorat qilinadi. Mazkur sanksiya va normalarning bir qismi huquqiy jihatdan qonun tomonidan kafolatlangan bo'ladi. Misol uchun er-xotinning farzandlar va bir-biri oldidagi moddiy majburiyatlar, mulkka egalik qilish, nikohni bekor qilish shartlari va h.k.

Nikohning boshqa normalari ahloq, an'ara, madaniyat asosida ta'minlanadi. Misol uchun to'ygacha bo'lgan munosabatlarning shakli, oilada er va xotin o'rtasidagi vazifalarning taqsimlanishi, oilaning bo'sh vaqt ni o'tkazish shakllari va h.k.

Oiladagi individlarning munosabatlari o'rganilgan paytda oila kichik sotsial guruh sifatida talqin qilinadi. Shunday tadqiqotlar oilada er-xotin, ota-onasi va farzandlar munosabatlarining dinamikasini, ajralishlarning sabab va motivlarini ko'rsatib beradi. Oiladagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish davomida ular bevosita jamiyatdagi norma, qadriyatlar va xulq-atvor namunalariga asoslanishini unutmashlik kerak. Tadqiqotchilarni bunda odatda guruhiy o'zaro munosabatlarning maqsadi, strukturasi, tarkibi, xarakteri, hokimiyat strukturasi, oilaviy qadriyat va normalar, individlarning shu oila a'zosi ekanligidan qoniqish hissi kabilar qiziqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobu oilaga bag'ishlanganligining mamlakatimizda oilaga berilayotgan e'tiborning qay darajada yuqori ekanligi ifodasidir. Xususan, konstitutsiyaning 63-moddasida, Oila –

jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", 65-moddasidagi, "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi"<sup>53</sup>, deyilgan. Mazkur huquqiy norma oilalarning ijtimoiy muhofaza qilinishining huquqiy asosi sifatida belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Oila sotsial institut sifatida o'rganilganida uning tashqi aloqalari nazarda tutiladi. Shu bilan birgalikda sotsial institut sifatida oila ma'lum tipdagi oilalarga xos bo'lgan norma va sotsial rollar kompleksini o'z ichiga oladi.

Sotsiologiyada sotsial guruhlarni o'rganish muhim masala hisoblanadi. Chunki shaxslarning ijtimoiy munosabatlari asosan sotsial guruhlar ichida o'z ifodasini topib, sotsial guruhlar ichidagi munosabatlar jamiyatdagi barqarorlik holatida o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, har qanday jamiyatda ko'plab ijtimoiy uyushunalar, birliklar va tashkilotlar mavjud bo'ladi. Inson butun hayoti davomida ehtiyojlari va manfaatlari, shuningdek, ba'zan majburiyat yuzasidan turli sotsial jamoalar va sotsial guruhlarga a'zo bo'ladi. Shu o'rinda sotsial jamoa va sotsial guruh tushunchalarini farqlash lozim.

*Sotsial jamoa – bu insonlarning nisbatan mustahkam uyushmasi bo'lib, unga birikkan insonlar hayotiy faoliyatları va tafakkur tarzining ma'lumi jahbalarida o'xshash tomonlariga ega bo'lish bilan birga ma'lum darajada yagona qadriyatlar, an'analar va manfaatlari asosida birlashadi.*<sup>54</sup>

Sotsial jamoalar insonlar tomonidan ongli ravishda tashkil qilinmaydi. Ular ijtimoiy rivojlanishning tabiiy ketma-ketligi davomida hosil bo'ladi. Har xil turdag'i sotsial jamoalar turli obyektiv sabablar asosida vujudga keladi. Ba'zi jamoalar ijtimoiy ishlab chiqarish asosida paydo bo'ladi. Bularga ishlab chiqarish kollektivi, ijtimoiy sinf, ijtimoiy-kasbiy guruhnini kiritish mumkin. Etnik asosda yaratilgan sotsial jamoalarga elatlar va millatlar misol bo'ladi.

Tarixiy jihatdan birinchi hosil bo'lgan sotsial jamoalar oila, qabila, urug' hisoblanadi. Ularning qon-qarindoshlik jihatdan yagonaligi, umimiy ishlab chiqarish faoliyati hamda umumiy etnik xususiyatlarning ilk kurtaklari mazkur jamoalarning

<sup>53</sup> Узбекистон Республикаси ишлар Конституцияси. – Т.: Узбекистон, 2014. Б. – 12.

<sup>54</sup> Самыгин С.И. Социология. Ростов н/д: издательский центр «Март», 2001. С.49.

hosil bo'lishida ob'yektiv asos bo'ldi. Ibtidoiy jamoa tizimidan xususiy mulkka asoalangan tizimga o'tilishi natijasida oila bir qator o'zgarishlarga uchraydi, yangi jamoalar, ya'ni sotsial sinf va sotsial guruhlar tashkil topadi. Mehnat taqsimoti tufayli o'zida aniq ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tusini aks ettiruvchi kasbiy guruhlar qaror topadi. Mehnat kollektivlari shakllanib, o'z ahamiyatini oshira boradi.

*Tashqi kuzatuvchilar tomonidan ko'rsatigan qandaydir umumiy belgilarga ega bo'lgan kishilar yig'indisi ham sotsial jamoa, deb ataladi.* Masalan, biz kishilar to'plamidan qora tanli kishilar to'plamini, ko'k ko'zli kishilar to'plamini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bu jismoniy belgilarga asoslanib, jamoa yoki to'plamlarga ajratish hisoblanadi. Bu bilan ko'pincha antropologiya fani shug'ullanadi, jamoani u yoki bu kasb bilan shug'ullanuvchi kishilar ham tashkil etishi mumkin. Aynan bir kasb bilan shug'ullanadigan kishilar kasbiy (professional) kategoriylar deb ataladi. Yoshiga qarab ajratiladigan kishilar to'plami yoki kategoriyalari deyiladi. Jinsiga qarab kishilar ikkita jins, ya'ni erkaklar va ayol kategoriylariga ajratiladi.

*Aniq belgiga asoslanib ajratiladigan har qanday jamoa yoki to'plam sotsial kategoriyanı (nominal va real guruh) tashkil etadi<sup>55</sup>.* Sotsial kategoriylar hech qanday ichki aloqalar bilan birlashmaydi. Bir kategoriya kiradigan, masalan, kasbiy (professional), yosh, jins, mulk, daromadi va boshqa kategoriyalarga mansub kishilar qandaydir umum belgilarga ega bo'ladi. Ana shu asosga ko'ra, sotsial kategoriylar ichki aloqa va shaxsiy institutlariga ega bo'lishi mumkin. Sotsial kategoriylar biror bir sotsial aloqada bo'lgan taqdirdagina sotsial birlikka aylanishlari mumkin.

«Sotsial guruh» tushunchasiga yaqin bo'lgan tushuncha — sotsial birlik» tushunchasidir. Zamonaliv sotsiologiyada bu tushunchalar sinonim sifatida ishlataladi. «Sotsial birlik» so'zi umumiylikni bildirib, u tabiiy va sotsial asoslar bilan, ya'ni qon-qarindoshlik, hudud, til va boshqalar asosida birlashgan guruhdir. Sotsial birliklar sotsial guruhlarning bir turi sifatida sotsial struktura elementi hisoblanadi.

<sup>55</sup> Кравченко А.И. Социология. – Екатеринбург: Деловая книга, М.: издательская корпорация «Лотос», 1999. С.184.

Sotsial guruuh nazariyasi sotsiologiyada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida E.Dyurkgeyrn, G.Tard, G.Zimmel, L.Gumplovich, Ch.Kuli, F.Tyonnis tomonidan amalga oshirilgan. Garchi bunday tashkilotlar XIX asr uchinchi yarmida boshlangan bo'lsada, XX asrda nisbatan fundamental xarakterga ega bo'ldi. Bunda E.Dyurkgeyrning roli muhim.

Shunday qilib, *sotsial guruuhlar deyilganida, xatti-harakatilari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan o'zining xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar sistemasi asosida bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlik tushuniladi*<sup>56</sup>.

Sotsial guruuhlar guruhdagi shaxslar soni; ichki tashkilot (institutlar, nazorat shakllari); faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari kabi o'zining xarakterli tomonlariga ega bo'ladi.

*Guruhdagi shaxslar soni* deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a'zolar yig'indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a'zolar soni qancha bo'lishi kerakligi haqida aniq bir to'xtamga kelinmagan. Guruhda a'zolar soni chegaralashi yoki cheg aramasligi mumkin. Shu asosga ko'ra, guruuhlar "yopiq" yoki chegaralangan guruuhlar nomi bilan atalib, ularda guruhga yangi a'zolarni qabul qilishda aniq mezonlar qo'yilgan bo'ladi. "Ochiq guruuhlar" ga esa xohlagan miqdorda kishlari kirishi mumkin bo'lib, bu guruhlarda a'zolarga nisbatan aniq talablar qo'yilmaydi, aniq talablar a'zo qabul qilish va a'zolarni guruhdan chiqishi masalasidagina qo'yilishi mumkin.

O'z shaxsiy tashkilotiga ega bo'limgan, faqatgina ijtimoiy aloqalarga asoslangan erkin sotsial birliklar sotsial guruh bo'lolmaydi. *Sotsial guruuh faoliyatida sotsial institutlar, nazorat shakllari va faoliyat namunalari* muhim ahamiyatga ega. Ular o'zining nazorat va maqsadga yo'naltirish funksiyalari orqali guruhning faoliyatini ta'minlaydi, guruhda norma va qadriyatlarning shakllanishini belgilab beradi.

<sup>56</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.225.

Sotsial guruh o'zining ma'lum norma va qadriyatlariga ega bo'lib, ular guruh a'zolarining o'zaro uyushishida muhim o'rinni tutadi. Mazkur norma va qadriyatlar guruhning ma'lum mustahkam g'oyalari va shiorlarida, guruhning belgi va ramzlarida, asosiy maqsadlarda va moddiy predmetlari kabilarda o'z ifodasini topadi. Bular orqali shaxsning o'zini mazkur sotsial guruh bilan identifikatsiyasi (masublik hissi) masalasi ortib boradi.

Har bir sotsial guruh o'zining boshqa guruh va birliklardan ma'lum xususiyatlari bilan farq qiladi. Sotsial guruhlarni farqlaydigan xususiyatlarga ma'lum hududda yashash, alohida harakatlar, kasbiy farqlar, til, mafkura, din va boshqalar kiradi.

## 2. Sotsial guruh turlari

Sotsial guruhlar ko'plab xususiyatlarga ko'ra tasniflash va turlarga ajratish mumkin. Shulardan biri *miqdor ko'rsatkichidir*. Sotsiologiyada mazkur ko'rsatkich asosida guruhlar asosan *katta va kichik sotsial guruhlarga* bo'lib o'rganiladi. Ammo o'rta sinf tushunchasi tarafidori ham bor.

Sotsiologiyada *katta sotsial guruhlar* deganda, a'zolari soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlari tushuniladi. Katta sotsial guruhlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular:

- A. A'zolar sonining ko'pligi;
- B. Yagona hududning mavjud emasligi;
- C. A'zolar o'rtaсидаги алоқалар асосан биљвости, я'ни оммавија алоқа виситалари кабилар орқали о'натилиши;
- D. Guruh strukturasining murakkabligi, ya'ni o'z ichiga ko'plab kichik guruhlarni olishi.

Katta guruhlar *paydo bo'lish shakliga* ko'ra, tasodifiy tashkil topgan va tarixiy rivojlangan turlarga ajratilishi mumkin.

*Tasodifiy ravishda paydo bo'ladigan sotsial guruhlar* asosan stixiyali kayfiyatgatga ega bo'lib, qisqa vaqt oralig'ida mavjud bo'ladi. Ularga olomon, omma (publika), auditoriya kabi guruhlarni kiritish mumkin.

*Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan* sotsial guruhlar ijtimoiy munosabatlar sistemasida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar sifatida shakllanadi. Jamiyatning tarixiy rivojlanishi natijasida hosil bo'lgan sotsial sinflar, turli etnik guruhlar (elat, xalq, millat), kasibiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) mazkur turdag'i guruhlarga misol bo'ladi.

Katta guruh bilan kichik guruh o'rtasida *o'rta guruh* ham bor. Ammo guruh muammosi bilan shug'ullanayotgan sotsiologlar fikricha, o'rta guruhlar, ularning strukturasi, aloqasi, unda bo'ladijan xodisa va jarayonlar mohiyat jihatdan kattaroq guruhlarga xosdir. Kichik va katta guruhlar o'rtasidagi farqni kichik guruhning yiriklashuvi va uning katta guruhga aylanish jarayonida ko'rish mumkin. Masalan, bir yoki bir nechta taniqli kishilar atrofida birlashgan, 40—45 kishidan iborat partiya kichik guruhdir, Chunki bu guruh vakillarining shaxsan bir-birlarini tanishlari (bilishlari) kichik guruhga xos bo'lgan xususiyatni beradi.

*Kichik guruhlar deganda, bir necha o'nlab a'zolardan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi*<sup>57</sup>. Sotsial guruhning minimal soni ikki kishidan, maksimal hajmi esa bir necha o'n kishidan iborat bo'lishi kerak. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stlik munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasida bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, yuqori darajada shakllangan kichik maqsadli guruhlar ham mavjud. Bu guruhlarda a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik sotsial guruhlarga oilani, do'stlarni, qo'shnilarini, harbiylar kollektivi, sport jamoasi, diniy sekta, ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda kichik guruhlarni o'rganuvchi sotsiologyaning bo'limi — *mikrosotsiologiya* deb ataladi. Kichik guruhlarni o'rganagn olimlar qatorida Dj. Xomas, R.Merton, R.Beylz muhim o'rinn egallaydi. Mikrosotsiologiya doirasida

<sup>57</sup> Самыгин С.И., Перов Г.О. Социология. Ростов н/д: Издательский центр «Март», 2001. С.51.

kichik guruhlarni o'rganish natijasida uchta yo'nalish tashkil topdi: *sotsiometriya*, *guruhiy dinamika va bixevoiristik yo'nalish*<sup>58</sup>. Ilmiy adabiyotlarda kichik guruhlarga berilgan ta'riflar soni yuzdan ortiq. Odatda olimlar kichik guruhlarning quyidagi xususiyatlarini alohida ta'kidlashadi<sup>59</sup>:

- *A'zolar sonining chegaralanganligi.* Kravchenko fikrcha kichik sotsial guruhlarda a'zolar soni 2 (diada) dan 20kishigacha bo'lishi mumkin, aks holda guruh turli kichik guruhlarga ajralib ketadi. Odatda o'rtacha kichik guruhlari 7kishi va undan kam bo'lgan insonlar miqdoridan tarkib topadi.
- *Tarkibining nisbiy o'zgarmasligi.* Odatda kichik guruhlardacha har bir a'zo o'z vazifasiga ega bo'lib, qat'iy o'rinni egallaydi. Shu nuqtai nazardan guruhiy tarkib kam hollarda o'zgaradi.
- *Ichki struktura.* O'z ichiga noformal rol va statuslarni, sotsial nazorat mexanizmini, sanksiyalar, normalar va xatti-harakat qoidalarini qamrab oladi.
- *Agar a'zolar soni arifmetik progressiyaga ko'ra o'ssa, aloqalar soni geometrik progressiyaga ko'ra o'sib boradi.* Uch kishidan iborat bo'lgan guruhda aloqalar soni faqat to'rtta bo'lishi mumkin. To'rt kishidan iborat bo'lgan guruhda aloqalar soni 11ni tashkil etadi.
- *Guruh soni qanchalik kam bo'lsa, undagi o'zaro munosabatlар shunchalik jadalroq bo'ladi.* Guruh hajmining kattalashuvi uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning formal tus olishi va guruh a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarini borgan sari kam miqdorda qondirishi so'dir bo'ladi.
- *Guruhning hajmi guruh faoliyatining xususiyatiga bog'liq.* Yirik banklarning moliyaviy kommitetlari odatda 6-7 kishidan iborat bo'ladi. Nazariy masalalarni muhokamasi bilan band bo'lgan parlament kommitetlari 14-15 kishidan iborat bo'ladi.
- *Guruhga tegishlilik.* Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun shaxs ma'lum guruhga a'zo bo'ladi. Kichik guruhlar katta guruhlarga nisbatan ko'proq darajada

<sup>58</sup> Самитин С.И., Перов Г.О. Социология Ростов н/д: Издательский центр «Март», 2001. С.51.

<sup>59</sup> Кравченко А.И. Социология. – Екатеренбург: Деловая книга, М.: издательская корпорация «Лотос», 1999. С.199.

insonlarning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondiradi. Shaxs guruh uning ehtiyojlarini qondirmasligiga ishonch hosil qilsa, uni tark etadi.

- *Gurihdagi o'zaro aloqadorlik.* O'zaro aloqadorlik guruh a'zolari tomonidan ta'minlangan taqdirdagina mavjud bo'ladi. Guruh a'zolaridan biri guruh uchun muhim bo'lgan vazifalarni bajarmay qo'ysa, u guruhdan haydaladi.

- *Guruh o'z a'zolarining barchasiga imkoniyatlar yaratadi.* Shaxs ma'lum kichik guruhning a'zosi sifatida o'ziga tegishli bo'lgan imkoniyatlardan foydalanadi.

Kichik sotsial guruhsalar turli mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruhiy munosabatlar strukturasiga qarab kichik sotsial guruhsalar *rasmiy va norasmiy* guruhlarga, a'zolar o'rtaсидаги munosabatlarning yaqinligiga qarab *birlamchi va ikkilamchi* guruhlarga, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmasligiga qarab *a'zoli va referent* guruh turlariga bo'linadi.

Amerikalik sotsiolog E.Meyo(1928y) birinchi bo'lib kichik sotsial guruhlarni *rasmiy va norasmiy guruhlarga* bo'lib o'rganishini taklif qilgan. U 1924-1932yillarda Chikagodagi Xotorn tashkilotlarda olib borgan eksperimentlari asosida mehnat samaradorligini oshirishni maqsad qilgan. Tadqiqotlarning natijasida olim har qanday ishchi guruhida rasmiy munosabatlardan tashqari norasmiy – do'stona munosabatlar ham bo'lishini aniqlagan. Aynan mana shu noformal do'stona munosabatlar ishchi guruhidagi mehnat motivatsiyasida muhim o'rinn egallashi tadqiqot natijasida namoyon bo'lgan.

Guruhlarni rasmiy va norasmiy guruhlarga ajratishda u guruhiy munosabatlarning strukturasiga asoslangan. Shunga ko'ra, rasmiy guruhsalar huquqiy statusga ega bo'lgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan sotsial guruhlardir. Rasmiy guruhlarning aniq va izchil maqsad, ierarxiyaga solingan aniq funksiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtaсидаги rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjudligi kabi xususiyatlar mos keladi. Har qanday rasmiy guruh tashkiy jihatdan tartiblangan, ya'ni turli guruh va a'zolari o'rtaсидаги munosabatlarning tartibi shakllantirilgan bo'lishi kerak. Ularda guruh maqsadlari, funksiyalari xatti-harakat qoidalari, xatto

a'zolik shartlari maxsus hujjalarda (dastur, instruksiya, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi.

Rasmiy guruh — bu aniq sotsial guruh bo'lib, jamiyat sotsial strukturasining elementi hisoblanadi. U ob'yektiv holda mavjud. Uning strukturasi va xatti-harakat shakllari keng miyosdagi guruh yoki jamiyat tomonidan boshqariladi. Rasmiy tashkilot yuqoriroq darajali sistema bilan aniq belgilangan funksiyalarni bajarish uchun tashkil etiladi. Bu funksiyalar ma'lum ma'noda individlar uchun yuzaki hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish korxonasining sotsial tashkiloti ishlab chiqarish brigadasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. Brigada doirasida bu funksiyalar har bir brigada a'zosining guruhda tutgan individual martabasiga qarab taqsimlanadi. Individ rasmiy guruhga a'zo bo'lar ekan, o'zining shaxsiy sifatlarini yo'qotadi va rasmiy guruh tashkiloti doirasidagi u yoki bu rollarni bajaruvchi kishiga aylanadi.

Rasmiy guruhlarga siyсиy partiylar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar, ishlab chiqarish kollektivi, mакtab sinfi, sport komandasи va boshqalarni kiritish mumkin. Rasmiy guruhning eng sodda ko'rinishi sifatida ishlab chiqarishni ko'rsatish mumkin. Uning hajmi, tuzilishi, rahbarining vazifalari ishlab chiqarish tashkiloti qoidalari bilan qat'iy belgilanadi.

*Shunday qilib, rasmiy sotsial guruh deb, guruh alohida a'zolarining o'rni va xatti-harakati sotsial tashkilotning rasmiy qoidalari, qonunlari bilan chegaralanadigan guruhga aytildi. Rasmiy guruh a'zolarining nufuzi (tutgan o'rni) shaxsiy sifatlar bilan emas, ularning martabalari bilan aniqlanadi. Shaxslararo munosabatlar esa rasman o'matilgan chegara doirasida amalga oshadi.*

Ammo rasmiy struktura tomonidan tan olinmagan va huquqiy jihatdan norasmiy hisoblangan sotsial guruhlar ham sotsiologik jihatdan rasmiy guruh sifatida baholanishi mumkin. Bularga turli yashirin tashkilotlar va norasmiy guruhlar misol bo'ladi.

*Norasmiy guruhlar, ko'pincha «sotsial psixologik guruhlar» deb ataladi. Chunki bu guruhlarning tashkil topishida guruh a'zolari o'rtaсидagi psixologik, hissiy munosabatlar va ijtimoiy ehtiyoj yotadi. Norasmiy guruhlarning paydo bo'lishida*

vaziyat va unumiy manfaatlar majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlarni ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar deb atashadi.

Norasmiy guruhning tuzilishi rasmiy guruhlardan farq qiladi. Rasmiy guruhda guruh sotsial strukturaning yuqqori organlar va xatto jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa *shaxsiy asosda*, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol o'ynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarning ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yaratuvchi xatti-harakat tizimi shakllanadi.

*Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlar doirasida* ham, undan tashqarida ham tashkil topishi mumkin. Bu holda norasmiy guruh rasmiy guruh tashkilotiga nisbatan *ikkilamchi* hisoblanadi. Masalan, oddiy ishlab chiqarish korxonasidagi do'stlar guruhি.

Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlarga bog'liq bo'lмаган holda mavjud bo'ladi. Ular hudud yaqinligi asosida (qo'shnilar), qiziqishlarning bir xilligi asosida (jaz klubи a'zolari, kitobxonlar klublari), psiko-fiziologik xususiyat birligi asosida (bolalarning o'zin guruhlari, qariyalar guruhи), shaxsiy mayl (simpatiya asosida do'stlar guruhи) asosida paydo bo'ladi.

Norasmiy guruh a'zolari o'rtaсидаги munosabatlар aniq ifodalangan shaxsiy sifatlarga ega. Bu aloqalar rasmiy guruhдаги aloqалarga nisbatan a'zolar uchun ahamiyatliroq bo'ladi. Masalan, ishchilar guruhи doirasida yuzaga kelgan do'stlar munosabati faqatgina birga ishlashlari bilan emas, bo'sh vaqtлarini ko'proq birga o'tkazishlari, ko'p uchrashishlari, bir-biriga o'zaro yordam berishlari bilan ham belgilanadi.

Norasmiy guruhlar muntazam tashkilotga ega emas, ularda rasmiy saylangan martabali shaxslar; nizomlar, kun tartibi va aniq rasmiy maqsad bo'lmaydi, guruhda tartib an'anaga, hurmat va obro' munosabatlariga asoslanadi. Biroq norasmiy guruhlar har doim o'ziga xos ahloqiy kodekslarga ega emas. Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlarga qaraganda ancha beqaror, ularga a'zo bo'lish erkin va belgilanmagan.

Norasmiy guruhlarni birlashtiradigan ascsiy omillar – a'zolar manfaatlari, mayillari, odatlari hisoblanadi. Norasmiy tashkilotning o'ziga xos tomoni norasmiy sardorning va guruhga yaqin bo'lgan shaxsiy xususiyatlarning bo'lishidir. Norasmiy guruh a'zolarining faoliyati qayd qilinmagan norma va an'analar yordamida amalga oshiriladi. Bu norma va an'analar mohiyati guruhning jipslik darajasiga, uning boshqa sistemalar bilan munosabatiga bog'liq. Ba'zi norasmiy guruhda faoliyat qoidalari buzilgan taqdirda, aybdor shafqatsiz jazolanadi: masalan, banda, mafiyalarda bunday jazo usullari qo'llaniladi.

Shunday qilib, *norasmiy guruh deb, a'zolar aloqalarining shaxsiy sifatlari, boshqa sotsial strukturalardan mustaqilligi, guruh faoliyatining aniq bo'limgan maqsadi, norasmiy nazorat sistemasi, guruh jipsligining yuqori darajasi bilan xarakterlanadigan guruhga aytildi*<sup>60</sup>.

Guruhlarni rasmiy va norasmiy guruhlarga ajratish nisbiy xarakterga ega. Guruh rasmiy guruhga aylanishi mumkin. Masalan, oila a'zolari ma'lum bir tashkilot tuzishlari mumkin. Boshqa tomondan bir vaqtning o'zida guruh ham rasmiy, ham norasmiy bo'lishi mumkin. Masalan, kursdoshlar, korxona hodimlari.

*Birlamchi va ikkilamchi guruhlar.* Shaxslarning yaqinligiga ko'ra, kichik guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlarga bo'linadi. Fanga birlamchi guruh termini bиринчи bo'lib XX asrning boshlarida amerikalik sotsiolog Ch.Kuli(1864-1926) tomonidan kiritilgan. Unga ko'ra, birlamchi guruhlarda muhit samimiy bo'ladi va a'zolarning sidqidildan o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Mana shu xususiyati bilan birlamchi guruh boshqa guruhlardan farq qiladi.

Birlamchi guruhlarning xarakterli belgilari quyidagilardan iborat: *a'zolar sonining kamligi, guruh a'zolarining hududiy yaqinligi, bevosita samimiy munosabatlari, yashashning uzoq davom etishi, maqsadlarning umumiyligi, guruhga a'zo bo'lishning erkinligi va a'zolar xatti-harakati ustidan norasmiy nazorat.* Shunga muvofiq, birlamchi guruh termini turli ko'rinishdagi kichik guruhlarni aniqlash va «ikkilamchi guruh» terminiga qarama-qarshi tarzda qo'llaniladi.

<sup>60</sup> Кравченко А.И. социология. – Екатеринбург: Деловая книга, М.: издательская корпорация «Лотос», 1999. С.187.

Birlamchi guruh, eng avvalo oiladir, guruhni birinchi navbatda a'zolarning manfaatlari bog'laydi. Bunday xarakterga ega insonning bolalik va o'smirlik chog'idagi tengdoshlar guruhiiga ham ega, qo'shnilar, mahalla ham birlamchi guruhi aylanishi mumkin. Birlamchi guruhlar rasmiy aloqaga ega emas. Agar birlamchi guruh a'zolari o'rtasida rasmiy aloqalar paydo bo'lsa, bu guruh kichik rasmiy guruhga aylanganligini bildiradi.

Birlamchi guruhning shaxsga ta'siri katta. Ular a'zolarining axloqiy tomonini shakllantiradi va yangilaydi, mustahkamlaydi. Bu guruhlarda kishilarning birinchi sotsializatsiyasi amalga oshadi, kishilar o'zlarining hislari va xatti-harakatlarini jamiyat talabiga muvofiq keladigan tarzda shakllantirishadi.

Ikkilarnchi guruh (Secondary groups) ikki va undan ortiq odamlarning bir maqsadga erishish uchun o'zoro hatti-harakatini muofiqlashtiruvchi kishilar guruhi. Ikkilamchi guruxda ma'lum bir vazifani bajarish uchunchina sotsial munosabatlar shakllanadi.<sup>61</sup> Umuman, ikkilamchi guruhlar — bu katta guruhlardir. Ba'zan birlamchi guruhlar ham ikkilamchi guruh bo'lishi mumkin. Ikkilamchi guruhlarga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarni kiritish mumkin.

*Referent va a'zoli guruhlar.* «Referent guruh» termini amerikalik sotsial psixolog Mustafo Sherif tomonidan kiritilgan bo'lib, u ingliz tilidan «mansub bo'lish» deya tarjima qilinadi. «Referent guruh» termini individ ongli ravishda kiradigan sotsial guruhlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan ishlataladi. Bu tushuncha quyidagi ma'nolarda ishlatalidi:

- Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon yoki mezon bo'lib xizmat qiladigan guruh.
- Individ o'z harakatlarini shu guruhga yo'naltiradigan guruh.
- Individ a'zo bo'lishga intilayotgan guruh.
- A'zolarning qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'Ichovi, sotsial "o'Ichov doirasi" sifatida xizmat qiladigan guruh.

<sup>61</sup> Sociology: A Global Perspective, Ninth Edition Joan Ferrante 2015, Cengage Learning p-112

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotial muhitlarga moslashuvi jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Referent guruhlar real va ideal guruhlarga bo'linadi. *Real referent guruh* shaxsga qulay sotsial norma va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan alohida kishilar yoki kishilar birligidir.

*Ideal referent guruh* - bu ma'lum bir guruhning qadriyatli va normativ yo'l-yo'riqlarini inson ongida aks etishidir. Shaxs bu guruhga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishga harakat qiladi. Masalan, muhandis o'zini real hayotda muhandislar guruhiga mansub deyish bilan birga o'zini guruh sifatida mavjud bo'lmasagan ma'naviy "elitaga"ga mansub, deb hisoblaydi.

#### Sotsial guruhlar xarakteristikasi

<b>Sotsial guruh turlari</b>	<b>Birlamchi guruh</b>	Kichik, maxsuslashmagan, yuzma -yuz bir-birini yaxshi biladigan, va yuzma-yuz munosabatlarga kirishadigan va ma'lum vaqt davomida sotsial kontakt mavjud bo'lgan guruh
	<b>Ikkilamchi guruh</b>	Kattaroq, ancha maxsuslashgan, personal munosablar shakllangan, maqsad-orientatsiyali sotsial munosabatlar shakllangan, cheklangan, nisbatan kam vaqt davomida shaklangan guruh
	<b>Inguruh</b>	Shaxs o'zi taalluqli bo'lgan guruh, shaxsda mansublik xissi bo'lgan guruh
	<b>Outguruh</b>	O'zi mansub bo'lgan guruhdan tashqarida bo'lgan guruh. Bunda guruhga nisbatan mansublik hissi bo'lmaydi va e'borsizlik yoki raqobat, dushmanlik xarakterida bo'lishi

		<b>mumkin.</b>
	<b>Referens guruh</b>	<b>Sahxsning tur mush tarzi va xulq atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi gurux</b>
<b>Gurux hajmi</b>	<b>Diada</b>	<b>Ikkita a'zodan iborat gurux</b>
	<b>Triada</b>	<b>Uchta a'zodan iborat guruh</b>
	<b>Formal tashkilot</b>	<b>Yuqori tarzda tashkillashtirilgan ikkilamchi guruh bo'lib, ma'lum maqsadlarga erishish uchun tashkil etilgan tashkilot.</b>
<b>Tashkilot turlari</b>	<b>Normativ</b>	<b>Volontyorlik asosida umumi qiziqishlar, nimadandir qoniqish xissini xosil qilish uchun yoki pristijga erishish uchun uchun tashkil etilgan tashkilot.</b>
	<b>Majburiy</b>	<b>Shaxslarni majburiylik prinsiplari asosida bir tashkilotga umumi tarzda, majburan tashkil topgan tashkilot. Masalan, qamoqxona</b>
	<b>Utilitar</b>	<b>Volontyorlik asosida birlashadigan va a'zolar birlashushidan ular xohlagan materiallarni oladigan tashkilot<sup>62</sup></b>

### **3. Sotsial tashkilot, uning maqsadi, turlari**

Garchi sotsial institut va sotsial tashkilotlar o'zaro aloqador bo'lsada, ularni bir-biridan farqlash lozim. Sotsiologlar orasida sotsial institut va sotsial tashkilotlarning o'zaro munosabatlari borasida yakdil fikr mavjud emas. Bu ikki tushunchani sinonim sifatida ishlatib, ularni farqlashning keragi yo'q, degan fikri ilgari suruvchi olimlar ham bor. Albatta mazkur fikrning o'ziga yarasha asoslari

<sup>62</sup> Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition Cengage Learning USA 2016 151  
99

mavjud. Armiya, bank, ta'lif, sotsial ta'minot tizimi kabilar ham sotsial institut ham sotsial tashkilot sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur ikki tushunchani farqlashdagi birinchi qiyinchilik sotsial institutlarning o'z faoliyati davomida sotsial tashkilotlar sifatida faoliyat olib borishidir. Shu bilan birqalikda sotsial tashkilotlarning soni sotsial institutlarning sonidan ko'p ekanligini aytib o'tish lozim. Chunki bitta sotsial institutning maqsadi, vazifalarini amalga oshirish uchun odatda bir nechta sotsial tashkilot shakllantiriladi. Misol uchun din instituti asosida turli diniy tashkilotlar, masjidlar va konfessiyalar faoliyat olib boradi.

Kundalik hayotimizda tashkilot tushunchasini ko'p marotaba qo'llaymiz. Tashkilot, ya'nii organizatsiya so'zi fransuzcha, "organisation", yoki qadim lotincha "organizo" so'zidan olingan bo'lib, axborot qilaman, tashkil qilish ma'nolarini anglatadi. Tashkilot quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

1. Aniq qoida va prseduralar asosida ma'lum dastur va maqsadni amalga oshirish uchun yig'ilgan insonlar birlashmasi.
2. Qismlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning tashkil tolpishi va mukammallashuvini ta'minlovchi jarayon va harakatlar yig'indisi.
3. Bir butunning qismlarga ajratilgan avtonom "bo'lak"larining ichki tartiblanganligi, o'zaro roziligi va o'zaro harakati.

Tashkilot tushunchasi biologik, sotsial va texnik obyektlarga nisbatan qo'llaniladi va odatda struktura, tizim va boshqaruva tushunchalari bilan birqalikda ishlataladi. Qoidaga ko'ra, tashkilot o'z ichiga tizimning dinamik qonuniyatlarini, ya'nii qismlarining sho'zaro faoliyati, xulq-atvori va o'zaro harakatlarini mujassamlashtiradi.

Sotsial obyektlarga nisbatan "sotsial tashkilot" tushunchasi qo'llaniladi. Sotsial tashkilot muammolarini o'rgangan olim A.I.prigojin o'zining qator ishlarida sotsial tashkilotlarning to'liq va izchil xarakteristikasini bergen.

Birinchidan, sotsial tashkilotlar – bu "institutsional xarakterga ega bo'lgan birlashma bo'lib, u jamiyatda ma'lum o'rinni egallaydi va ma'lum chegaralar bilan belgilangan vazifalarni bajaradi". Mazkur holatda sotsial tashkilot deyilganida, sun'iy ravishda ma'lum maqsad yo'lida tashkil etilgan va ijtimoiy muhim vazifani

bajaruvchi institutsional xarakterga ega bo'lgan guruhi nazarda tutilmoqda. Shu ma'noda sotsial institut sotsial strukturining elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunga misol qilib, bank, maktab, hokimiyat organlari, kasaba uyushmalari kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu ma'noda sotsial institut va sotsial tashkilot bir-biriga monand ma'nolarga ega.

Ikkinchidan, sotsial tashkilot – bu “o'ziga xos tashkil etuvchi faoliyat bo'lib, o'z ichiga vazifalarning taqsimoti, mustahkam aloqalarning o'rnatilishi, nazoratv a boshqaruv kabilarni qamrab oladi”.

Mazkur holatda sotsial tashkilot ostida faoliyatning ma'lum turi tushunilmoqda. Bu obyektga nisbatan qaratilgan maqsadli ta'sir ko'rsatish jarayoni bo'lib, bir tomonidan tashkilotni tashkil qiluvchi - *tashkilotchining* va ikkinchi tomonidan – tashkillashtiriluvchi *kontingen*ning bolishini nazarda tutadi. Shu ma'noda sotsial tashkilot boshqaruv so'zi bilan mos tushadi, ammo uni to'laligicha aks ettirmaydi.

Uchinchidan, sotsial tashkilot – bu “qismalarning bir butunga birlashishidagi ma'lum struktura va aloqa turlari bo'lib, har bir obyektda ular o'ziga xos mazmun kasb etadi”. Bu ma'noda sotsial tashkilot sotsial obyektning atributi sifatida namoyon bo'ladi va bu yondashuvdan biror sotsial tizim elementlarining ichki tartiblanganlik darajasini aniqlash lozim bo'lganida foydalaniлади.

Demak, yuqorida yondashuvlar sotsial tashkilot tushunchasini obyekt, tashkillashtirish bo'yicha faoliyat va obyekt xususiyati sifatida talqin etmoqda. Mazkur yondashuvlardan birinchisi sotsial tashkilotning asosiy mazmuni sanaladi. A.I.Prigojinning fikricha, sotsial tashkilotning asosiy ko'rsatkichi “uning maqsadli birlashma” ekanligidir.

Sotsial tashkilot sotsiologiyadan tashqari falsafa, psixologiya, politologiya, iqtisod kabi qator fanlar doirasida tadqiq qilinadi. Ularning har biri mazkur tushunchaga o'z ma'no va mazmunlarini beradi. G'arb sotsiologiyasida sotsial tashkilotning “maqsad yo'lida tashkil topgan” modeli keng tarqalgan. Ammo boshqa alternativ modellar ham bor. Misol uchun M.Fayol, L.Urvikning “tashkilot-mashina”, T.Parsons, R.Mertonning “tabiiy tashkilot”, E.Meo, F.Rotlesberger “tashkilot –

jamoa" modeli, L.Zuker, B.Rovenning institutsional modeli, Ch.Barnard, G.Saymonning interaksionistik modeli va boshqalar<sup>63</sup>.

Mazkur ishda sotsial tashkilotning A.I.prigojin tomonilan ilgari surilagn talqini asosiy qilib olindi. Unga ko'ra, sotsial tashkilotning asosiy ko'rsatkichi – bu maqsad. Darhaqiqat insonlar biror maqsad yo'lida tashkilotlarga birlashadilar. Maqsadsiz tashkilotning umri o'ta qisqa bo'ladi va unda ma'no bo'lmaydi.

Insonlarning tashkilotlarga birlashuvi ikki holatda sodir bo'ladi: birinchidan, umumiy maqsadga yetishish ma'lum individual maqsadlarga yetishishga bog'liq bo'lganida (misol uchun masosh, prestij, o'z qobiliyatlarini amalga oshirish) tashkilotlar paydo bo'ladi; ikkinchidan, individual maqsadlarga yetishish faqat umumiy maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lganida aksionerlik jamiyatlari va jamoatchilik tashkilotlari yuzaga keladi.

A.I.Prigojinning fikricha, sotsial tashkilotlarning *maqsadlari uch turga* ajratiladi: maqsad-vazifa, maqsad-yo'nalish(orientatsiya), tizim maqsadi.

*Maqsad-vazifa* – bu yuqori turuvchi tashkilotning quyi turuvchi takshilotga buyurgan bajarilishi kerak bo'lган vazifalari, rejalari. Misol uchun vazirlik kombayn ishlab chiqaruvchi zavodga ma'lusm miqdordagi mashinalarni ishlab chiqarish bo'yicha vazifa beradi. Maqsad-vazifa o'ta muhim sanaladi, shuning uchun mazkur maqsad yuzasidan va uning atrofida tashkilot birlashadi. Maqsad-vazifaning xususiyati shundavn iboratki, odatda ular tashkilot a'zolarining motivlari asosida shakllanmaydi. Misol uchun kombaynni ishlab chiqaruvchi ishchiga kombaynning kenragi yo'q. U tashqilotning vazifasini bajarish uchungina va moddiy manfaat yo'lida harakat qiladi.

*Maqsad-yo'nalish (orientatsiya)* – ko'pchilikning maqsadini ifodalaydi, ya'ni ishtirokchilarning umumiy maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday maqsadlarni faqatgina umumiy kuch bilan va tashkilotga birlashish orqali amalga oshirish mumkin. Albatta har bir individning o'z maqsadlari bo'ladi. Biroq ba'zi hollarda umumiy maqsadlar tashkilot uchun birlamchi va doimiy, o'zgarmas tus

<sup>63</sup> Франчук В.И. Основы современной теории организаций / Ахад. организац. наук; Ин-т организац. систем. – М.: ИОС, 1995. С.9-10, 12-13, 31- 33.

oladi. Guruhay maqsad sifatida ishchilarning ko'proq maosh olish manfaati namoyon bo'lishi mumkin.

*Tizim maqsadi* – bu sotsial tashkilotni imkon qadar mustaqil bir tizim sifatida saqlab qolishiga harakatdir. Bunda elementlar o'tasidagi aloqalarni tartiblashtirish, tashkilotdagi muvozanatni saqlab qolish, uning barqarorligi va butunligini saqlab qolish nazarda tutiladi. Tashkitlot mustahkam bo'lishi uchun uning ishchilari o'tasidagi aloqalar, norma va talablar doimiy bo'lishi lozim. Tashkilotning mustahkamligini ta'minlash maqsadi har doim dolzarb sanaladi. Tashkilot kun tartibining ishchi personal xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi, guruhda nizolar sonining kamaytirilishi, kadrlar qo'nimsizligining pasaytirilishi kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali sotsial hamda ishlab chiqarish tashkilotlarida faoliyatning samaradorligi va tizimning mustahkamligi oshiriladi.

Bugungi kunda tizimning maqsadlari ko'p tashkilotlar uchun birlamchi o'ringa chiqib olmoqda. Tashkilotlar mavjud bo'lgan sharoit va raqobat holatida barcha imkoniyatlarni ishga solib o'z faoliyatini saqlab qolish uchun harakat qilishmoqda.

Yuqorida keltirilgan asosiy maqsadlardan farqli ravishda tashkilotlar o'z oldiga ko'plab *oralig va ikkilamachi maqsadlarni* qo'yishadi. Misol uchun, o'z xodimlarini rag'batlantrish, ularning xulq-atvorlarini tartibga solish, mehnat sharoitini yaxshilash, mehnat samaradorligini oshirish va h.k.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, tashkilot o'z tarkibiga bo'limlarni olgan bo'lishi mumkin. Shu sharoitda mazkur bo'limlar asosiy va birlamchi maqsadga yetishishni ta'minlovchi qator oraliq va ikkilamchi vazifalarni bajarishi mumkin.

**Tashkilot turlari.** Tashkilotlarning ko'plab tipologiya va tasniflari mavjud. Ular orasida sohaga ko'ra turlarga ajralish ommalashgan sanaladi. Bular:

- ishlab chiqarish tashkilotlari;
- ta'lim tashkilotlari;
- sog'liqni saqlash tashkilotlari;
- madaniyat tashkilotlari;
- transport tashkilotlari va h.k.

Tashkilotlarni sotsiologik jihatdan turlarga ajratishdan asosiy maqsad ularning ijtimoiy munosabatlardagi o'mi va vazifalarini aniqlashdan iborat.

*A.Etsioni* sotsial tashkilotlarni uchta sinfga ajratgan. Bular: *volonterlik, majburlov va utilitar tashkilotlar*.

Volonterlik (ko'ngililar) tashkilotlariga (voluntary organizations) a'zo bo'lish ko'ngilli xarakterga ega bo'ladi. Bularga siyosiy partiylar, turli klublar, universitetlar kabi tashkilotlar misol bo'ladi.

Majburlov tashkilotlariga (coercive organizations) a'zolik majburlov usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Odatda bunday holat jamiyatda o'matilgan majburiy talablar, individdagi biror jismoniy yoki psixologik og'ish, deviantlik holatlari kabilar tufayli amalga oshiriladi. Misol uchun muktab ta'limi, armiya, ruhiy kasalliklar shifoxonasi, qamoq va h.k.

Utilitar tashkilotlarning (utilitarian organizations) a'zolari umumiylari va shaxsiy manfaatlar yo'lida birlashgan bo'ladi. Bunga istalgan zavod, firma kabilalar misol bo'ladi.


A.I.Prigojin jamiyatda to'rtta turdag'i tashkiliy hosilalarni ajratib ko'rsatadi. ularning ikkitasi tashkilot bo'lsa, qolgan ikkitasi tashkilotga shakldosh – yarim tashkilotlar sanaladi (rasm 5.3.1.).

Tashkilotlar kelib chiqishiga ko'ra, V.I.Franchuk tomonidan *tabiiy va sun'iy sinflarga* ajratilgan. Unga ko'ra, sun'iy tashkilotlar avvaldan rejalashtirilgan tashkilotlar bo'lib, inson tomoniddan ma'lum maqsad va reja asosida yaratiladi. Aksionerlik jamiyatları, xususiy firmalar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Tabiiy tashkilotlar esa avvaldan rejalashtirilga loyiha va tarhlarsiz tabiiy rivojlanish mahsuli sifatida jamiyat hayotida paydo bo'ladi. Insonlarning turar hududlari, assotsiatsit tashkilotlar, shuningdek, butun jamiyat bunga misol qilib keltirilgan.

Sotsial tashkilotlardagi normalar, qoidalar va odatlarning qay tarzda belgilanganligiga qarab tashkilotlar *rasmiy (formal)* va *norasmiy (noformal)* turlarga ajratiladi. Formal va noformal tashkilot tushunchasi fanga E.Meyo tomonidan kiritilgan bo'lib, u Chikagodagi Xotom tashkilotlarida olib borgan eksperimentlari

natijasida ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashga harakat qilgan eksperimentlar davomida olim har qanday tashkilot va guruhda formal munosabatlardan tashqari noformal mukunosabatlар borligini aniqladi. Unga ko'ra, do'stona munosabatlarning berligi mehnat samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



### 5.3.1- rasm.

**Rasmiy tashkilot** – individlar o'rtaсидаги aloqalar, statuslari va normalarining rasmiy tashkil etilgan shakli. A.I.Prigojin tomonidan rasmiy tashkilotning quyidagi asosiy elementlari ajratib ko'rsatilgan:

1. Mehnat taqsimoti, ya'nı kerakli bo'lgan kasblar va ixtisosliklarga ajralish nazarda tutiladi. Tashkilotda individlar egallagan joylari ierarxik tarzda joylashgan bo'lib, bir-birini takrorlamaydi.

2. Kommunikatsiyalar tizimi. "Tepadan pastga" va "pastdan tepaga" o'tishi kerak bo'lgan ishga aloqador axborotlarni uzatish vosita va kanallari.

3. Regulyatorlar – sotsial tashkilot faoliyatini taqsimlaydi va rejalashtiradi. Ularga xizmat xulq-atvori normalari, faoliyat dasturlari, rag'batlantirish tamoyillari va shakllari, majburlov va rag'batlantirish kiradi.

Formal tashkilotning strukturasini tahlil qilish jarayonida Prigojin F.Taylor va A.Fayolning ishlarida e'tirof etilgan tiplarni ko'rsatib o'tadi: chiziqli tashkilot, funksional tashkilot va shtabli tashkilot.

Sotsial tizimning rasmiylashtirilishi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: birinchidan, qaror topgan holatni qonunlashtirish, ya'nı rasmiylashtirishning "refleksli" ko'rinishi; ikkinchidan, sotsial tashkilot yaratilishi uchun mahsus dasturning (loyiha yoki ish rejasи) ishlab chiqilishi, ya'nı ramiyulashtirishning "konstruktiv" usuli.

Barcha rasmiy tashkilotlar mahsus boshqaruv apparatiga ega bo'ladi. Boshqaruv apparatining asosiy maqsadi a'zolari faoliyatini nazorat qilish va boshqarish orqali tashkilotni saqlab qolishdan iborat.

Rasmiy tashkilot rivojlarishining eng so'nggi bosqichlarida tashkilotning ichki tashkiloti va faoliyatidagi o'ta standartlashuv bilan izohlanadi va bu uni byurokratik tizimga aylantiradi. **Byurokratiya** tushunchasi fransuzcha bureau — byuro, kanselyariya va yunoncha kratos — hokimiyat, kuch so'zlaridan oligan bo'lib, kanselyariya hokimiyati sifatida tarjima qilinishi mumkin. Byurokratiyaning mohiyati shundan iboratki, ijrochi hokimiyatning ish faoliyatidan begonalashuvi ortib, mansabdor shaxslar o'z hokimiyatidan foydalanib, o'z faoliyati ustidan olib boriladigan demokratik nazoratni susaytirishga intilishadi.

Byurokratiya masalasini o'rganishga M.Veber katta hissa qo'shgan. U byurokratiyanı ijtimoiy tartibning muhim shakli hamda sotsial tashkilotning samaradorligining asosiy omili sifatida muhim ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha,

byurokratiya tizimi texnik, texnologik va tashkilotning taraqqiyotini belgilab beradi. Veber tomonidan byurokratiyaning ideal shakli ishlab chiqilib, uning asosiy xususiyatlari ko'rsatilgan. Olimning fikricha, byurokratiyaning ideal tipi – qat'iy ratsionalizatsiyaga asoslangan samarador boshqaruv mashinasidir. Shu bilan birgalikda jamiyatda yoki sotsial tashkilotda byurokratiyaning xaddan tashqari kuchayishi xavfli holatlarga olib kelishi mumkin. Garchi Veberning sotsial tashkilotlarda va jamiyatda byurokratiyaning namoyon bo'lishi borasidagi fikrlari va ideal tipi qator tanqidlrga uchragan tbo'lsada, so'nggi yillarda uning fikrlarini yoqlash va ularni modernizatsiyalash tendensiyasi namoyon bo'lmoqda.

*Norasmiy tashkilot* – shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning oqibatida sotsial aloqalar, normalar va harakatlarning tasodifiy ravishda qaror topgan tizim.

Norasmiy tashkilot ikki turda bo'ladi. Birinchisi, rasimy tashkilotdan tashqarida qaror topgan norasirny tashkilot. Unda ma'lum rasmiy tashkilot tarkibidagi individlar tomonidan tasodifan shakllantirilgan norasmiy munosabatlар asosiy o'rini egallaydi. Ishdagi ma'lum xiznatni bajarishga yo'naltirilgan, amino instruksiya va qoidalar bilan belgilanmagan, ya'ni rasmiy jihatdan tasdiqlanmagan munosabatlар. Misol uchun sex boshliqlarini ma'lum qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda tepaning buyrug'ini kutmasdan o'zaro kelishib ishlashlari.

Norasmiy tashkilotning ikkinchi turi – sotsial-psixologik tashkilot. U ishchilarning uzoq muddatli aloqalari va o'zaro harakatlari asosida tasodifiy ravishda tashkil topgan shaxslararo munosabatlар tizimi. Misol uchun do'stlik munosabatlari, simpatiya munosabatlari, prestij munosabatlari, qiziqishlarga ko'ra guruh munosabatlari va h.k. Uning asosida guruhdagi aloqa va munosabatlarni shaxsiy va saralash tanlovi yotadi. Mazkur norasmiy sotsial – psixologik tashqilotdagi individlarning asosiy maqsadlari o'zlarining turli sotsial ehtiyojlari qonditrishdan iborat. Misol uchun muloqet ehtiyoji, o'zini e'tirof etishdagi ehtiyoj, o'zini rivojlantirish ehtiyoji, ishonchlilik ehtiyoji. Shu jihatdan sotsial – psixologik tashkilotlar noformal kichik guruhlarning paydo bo'lishiga sabab bo'li b, ularda kishilar soni o'rtacha uch kishidan o'n kishigacha bo'ladi. Bunday guruhlarning asosiy xususiyatlari o'zaro ishonch va birdamlik hissi kabilat. Ularda rasmiy

standartlar va xulq-atvor namunalarining o'mini o'ziga xos ahloqiy tamoyil va normalar egalalydi.

Istalgan ramiy tashkilotning tarkibida har doim bir nechta o'zaro raqobatdosh yoki hamkor bo'lgan sotsial-psixologik tashkilot mavjud bo'ladi.

Noformal tashkilotlar formal tashkilotlarning qarama-qarshisi va uning kamchiliklarini to'ldiruvchi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat olib boradi. Shu jihat bilan noformal tashkilotlar formal tashkilotlarning rivojlanishiga va mukammallahuviga o'z hissasini qo'shami. Ammo shu bilan birga u rasmiy tashkilotda disfunktional rolni bajarishi mumkin. Misol uchun boshliq avtoritetiga putur yetkazish, tashkilotning umumiy maqsadlariga qarshilik qilish va h.k. Noformal tashkilot formal tashkilotga nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi.

#### **4. Sotsial institut tushunchasi va uning vazifalari**

*Sotsial institut tushunchasi* etimologik jihatdan lotincha "institutum" so'zidan olingan bo'lib, nizom, qoidalar yoki ularning to'plami, mahkama, muassasalar, deya tarjima qilinadi. Sotsiologiyaga sotsial institut tushunchasi huquqshunoslik fanlaridan kirib kelgan. Yurisprudentsiyada sotsial institutlar deyilganda, ijtimoiy – huquqiy munosabatlarni idora qiladigan huququiy normalar tushuniladi.

*Sotsial institut* – sotsial guruh va individlar tomonidan insonlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan normalar asosida bajarilgan sotsial harakatlarning qat'iy strukturasi.

G.Spenserning fikricha, sotsiologyaning asosiy vazifasi sotsial institutlarning funksiyalarini o'rGANISHDAN iborat. Olim sotsial quyidagi holatlarni sotsial institut sifatida baholagan:

- davlat va cherkov vositasida sotsial nazoratni amalga oshiruvchi *regulyativ tizim*
- munosabatlarni nazorat qiluvchi urf-odatlarni ta'minlovchi status va ranglarni *qa'llab-quvvatlovchi tizim*
- maqsadga yetkazuvchi hamkorlikni ta'minlaydigan *distributiv tizim*.

S.Frolov g'arb sotsilogik adabiyotlarining tahlili asosida sotsial institutga quyidagicha ta'rif bergan: "sotsial institut - bu jamiyat sotsial ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy qadriyat va protseduralarni o'z ichiga oluvchi tartibga solingan sotsial aloqalar va normalar tizimi"<sup>64</sup>. Misol uchun oila instituti o'z ichiga er, rafiqo, farzand, qaynota, qaynona, buvi, bobo kabi sotsial rol va sotsial statuslarni qamrab oladi. Oiladagi ijtimoiy qadriyatlar sifatida muhabbat, farzandlarga nisbatan mehrli munosabat, oilaviy hayot namoyon bo'ladi. Farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish, farzandlarning jismoni rivojlanishini tashkil etish, oilaviy tartib va burchlar ijtimoiy protseduralar sifatida baholanishi mumkin.

Ko'rib turganimizday, institut – bu ijtimoiy sinf emas. Masalan, boylar sinfi yoki ijtimoiy guruh, aytaylik barcha nafaqaxo'rlar. Ular ham, bular ham – insonlar yig'indisi. Sotsial institut esa mexanizm yoki muassasalar yig'indisidir. Ammo elementlarning mexanik yig'indisi emas. Istalgan muassasaga yoki ijtimoiy tashkilotga nazar tashlasak, u yerda aniq yo'lga qo'yilgan nazorat, rejalashtirish, hisob, xodimlar shtati, binolar va uskunalar, boshqaruv pog'onasini va boshqa narsalarni ko'ramiz.

*Shunday qilib, sotsial institut bir tonondan me'yorlar yig'indisi; ikkinchi tonondan roollar va mavqe'lар yig'indisi sifatida baholanishi mumkin. Demak, sotsial institut – me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi muassasalar yig'indisidan hamda muayyan ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan roollar va mavqe'larning yig'indisidan iborat.*

Sotsial institutlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Asosiy ehtiyojlarni qondiruvchi sotsial harakat va sotsial amaliyotning qat'iy tartiblangani strukturasining mavjudligi
2. Institut faoliyati amalga oshadigan rasmiy va norasmiy normalar, stereotiplar, xulq-atvor normalarining borligi
3. Normalar bilan belgilangan status va rollar
4. Sotsiomadaniy simvol va urf-odftlarning mavjudligi

---

<sup>64</sup> Фролов С.С. Социология: [Учебник для высш.учеб. заведений] — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательская корпорация «Логос», 1996. С.162.

5. O'zini – o'zi tashkil etish va boshqarish organlarining mavjudligi.

Sotsial institut strukturaviy jihatdan o'z ichiga quyidagi *komponentlarni* qamrab oladi:

- Sotsial subyektlar, ya'ni shaxs va guruhlar
- Institut faoliyatiga bo'lgan asosiy ehtiyoj, maqsadlar, vazifalar, tarmoyillar
- Asosiy normativ ustanovkalar. Ular asosida institut va undagi status, roller

o'z faoliyatini olib boradi

- Institutning asosiy va yondosh funksiyalari

Har bir sotsial institut quyidagilarga *tashkiliy elementlariga* ega bo'ladi:

- o'z faoliyatining ma'lum darajada aniq shakllangan maqsadlariga;
- individlarga belgilangan ijtimoiy mavqe' va rollarning to'plamiga;
- individlarning xulq-atvorini nazorat qiladigan sanksiyalar tizimiga;
- ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan aniq xususiy vazifalarga;
- harakat qilayotgan individlar o'rtaсидаги hamjihatlikni ta'minlash vazifasiga.

*Institutlashtirish va sotsial institutlarning rivojlanishi.* Sotsial institutlar o'zaro ijtimoiy ta'sirining muhim shakli hisoblanadi. Sotsial institutlar kategoriysi *B.Malinovskay va A.Radkiff-Braun* tomonidan bat afsil ishlab chiqilgan: odamlarning faoliyati muayyan guruhlar tomonidan amalga oshiriladi hamda muayyan axloqiy va huquqiy qoidalar bo'yicha bajariladi. *Ushbu «moslashish» institut deyiladi.* Ijtimoiy hayotda institutlashtirishning o'mi va roli sotsial institutlarning o'mi va roli bilan belgilanadi. Jamiyatda institutlashtirish – bu shaxsnинг hayotdagи ijtimoiylashuvining o'zidir. Ulami jamiyat hayotining yo'llari tartibga solinishi, to'g'rilanishi kerakligi birlashtirib turadi. Sotsiolog *S.Froloving* fikricha, institutlashtirish – bu o'z-o'zidan yuzaga keladigan xulq-atvorning o'miga kelishi kerak bo'lgan, jamiyatda muayyan ijtimoiy me'yorlarni o'mnatish, ushbu jamiyat a'zolarining mavqe va rollarini belgilash orqali boshqarilishi va kerakli yo'lga yo'naltirilishi lozim bo'lgan, oldindan bashorat qilinadigan xulq-atvordir. U institutlashtirish bosqichlarini belgilab berdi:

- yuzaga kelgan ehtiyojni qondirish uchun tashkillashtirilgan harakatlar zarur;

- barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadlar shakllantiriladi;
- o'zaro ijtimoiy munosabatlar jarayonida muayyan me'yor va qoidalar vujudga keladi;
- shu qoida va me'yorlar bilan bog'liq protseduralar yuzaga keladi;
- topilgan me'yor va qoidalar tasdiqlariadi, ular real hayotda qo'llaniladi, ya'ni institutlashtirish jarayonining o'zi sodir bo'ladi;
- belgilangan me'yorlar bajarilmagan taqdirda sanksiyalar belgilanadi;
- jamiyatda institutning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan mavqe va rollar paydo bo'ladi.

S.Frolov, institutlashtirish jarayoni yakunlanishi bilan o'z qoida va me'yorlariga ega mavqeli-rolli tuzilma o'matiladi, u ko'pchilikning ehtiyojini qondiradi, deydi. Bir qator shartlar mavjud bo'lib, ularni bajarishda ijtimoiy institutlarning to'g'ri va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin:

- har bir institut uchun vazifalar va maqsadlarni belgilanishi shart;
- institut faoliyati institutlashtirish vazifalarini bajaruvchi kishilarning shaxsiy manfaatlariga bog'liq bo'lmasligi kerak (xolis bo'lishi lozim);
- har qanday institut guruh oldida o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga va ko'tarishga harakat qilishi lozim;
- barcha sotsial institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish juda muhim.

Ushbu shartlarning bajarilishi katta ahamiyatga egadir. Chunki sotsial institutlar qanday faoliyat yuritishi butun ijtimoiy hayotda aks etadi. Agar institutga misol bo'ladigan oilani ko'rib chiqadi-gan bo'lsak, bu qadimiy institutlardan biri ekanini bilamiz, ammo u ba'zida inqirozlarni ham boshidan kechirgan bo'lsa-da, hozir ham dolzarb hisoblanadi. Oilani institutlashtirish ayni paytda uning asosini davlat tomonidan ruxsat berilgan nikoh ittifoqi tashkil etishi bilan belgilanadi.

Institutlashtirish – bu shunday jarayonki, unda biror bir ijtimoiy ehtiyoj xususiy emas, balki umum ijtimoiy sifatida angvana boshlanadi va uni amalga oshirish uchun jamiyatda alohida ahloqiy me'yorlar o'matiladi, kadrlar tayyorlanadi, zahiralar ajratiladi.

Institutlashtirishning samaradorligi qabul qilingan hamda institutlar, individlar faoliyatining ijtimoiy –madaniy konteksti hisoblangan qadriyat –me’yorlar tizimi o’zaro uyg‘unlashish-ishlamasligi bilan belgilanadi.

*Sotsial institut vazifalari.* Amerikalik sotsiolog olim R.Merton tomonidan sotsial institutlarning “*yashirin*” va “*oshkora*” funksiyalarini ajratib ko’rasatish kerakligini taklif qilgan. U ba’zi hollarda sotsial institutlar faoliyatida kuzatiladigan va jamiyatga salbiy ta’sir qiladigan holatlarni o’rganish davomida shunday xulosaga kelgan. Chunki odatda tadqiqotchilar sotsial institutlarning barcha uchun ma'lum bo’lgan, kuzatilayotgan funksiyalarinigina o’rganib, *yashirin* funksiyalari tufayli jamiyatda yuz bergen ba’zan salbiy holatlarni inobatdan qochirishgan. Mertonning yozishicha, “*oshkora* va latent funksiyalarga ajratishda quyidagilar asos sanaladi: *oshkora* funksiyalar sotsial harakatning obyektiv va oldindan rejalashtirilgan oqibati sanalib, sotsial birlikning moslashishi va ko’nikishiga olib keladi; Latent funksiyalar esa o’sha tartibning anglanmagan va ko’zlanmagan oqibati hisoblanadi<sup>65</sup>”. Misol tariqasida Merton xopi qabilasining yomg’irmi chaqirishga qaratilgan ritual raqsini keltiradi. Bu raqsning latent funksiyasi guruh ichidagi birlikni mustahkamlash va qabila davomiyligini ta’minlashdan iborat.

Sotsial institutlarning *oshkora funksiyalari* odatda avvaldan rejalashtirilgan, ko’zlangan va guruh a’zolari tomonidan angangan bo’lib, formal jihatdan belgilangan va status hamda rollar tizimida mustahkamlanadi. Misol uchun sog’liq saqlash, ta’lim, ijtimoiy ta’tninot masalalarida mahsus qonun yoki qoidalar to’plamining qabul qilinishi. Shu nuqtai nazardan sotsial institutlarning *oshkora funksiyalari* bevosita jamiyat tomonidan boshqarilishi mumkin.

Har qanday sotsial institutlarning asosiy va umumiyligi funksiyalaridan biri uning maqsadidan kelib chiqqan holda a’zolarining va jamiyatning *sotsial ehtiyojlarini qondirish*. Mazkur funksiyani bajarish uchun har bir institut bir qator boshqa funksiyalarni bajarishi kerak. Bularga ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va

<sup>65</sup> Мертон Р. Явные и латентные функции // Американская социологическая мысль: Р. Мортон, Дж. Мид, Т. Парсонс, А. Шлюц: Тексты / Сост. Е.И.Крачченко: Под ред. В.И.Добренькова. — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1994. — С.427.

ishlab chiqarish; nazorat funksiyasi; birlashtirish (integrativ) funksiya; uzatish funksiyasi; kommunikativ funksiya<sup>66</sup>.

- ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va ishlab chiqarish funksiyasi qat'iy belgilangan norma hamda qoidalar asosida sotsial institut elementlarining harakatlarini oldindan aytish imkonini yaratadi;
- nazorat (regulyativ) funksiyasi – sotsial institut tomonidan ishlab chiqilgan xatti-harakat, norma va nazorat shabloni asosida guruhdagi a'zolarining o'zaro munosabatlari boshqariladi.
- Birlashtirish (integrativ) funksiyasi – bu sotsial guruh a'zolarining o'zaro birlashishi, o'zaroaloqadorligi va bir-biriga bog'liqlik hissi, bir-birining oldidagi mas'uliyat hissining sotsial institut tomonidan mustahkamlangan norma, qoda, sanksiya va rollar tizimi orqali ta'minlanishi.
- Uzatish funksiyasi – bu avlaodlar almashinuvi hamda sotsial institut chegaralarining kengayishi natijasida sotsial institutga qo'shiluvchi yangi a'zolarga o'z ijtimoiy tajribasini (bilim va ko'nikmalarini) qoldirish mexanizmining shakllantirilishi. Mazkur mexanizm asosida yangi a'zolar sotsial institutning qadriyatlari, norma va rollariga tez fursatda ijtimoiylashadi.
- Kommunikativ funksiya – sotsial institutda shakllantirilgan axborotlarni institutning ichki tuzilmalari orasida, shuningdek, tashqi institutlar bilan aloqalar paytida uzatish.

Agar institut o'zining oshkora funksiyalarini bajara olmasa, u takshiliy jihatdan yemirilib, qator o'zgarishlarga va inqirozga uchraydi.

Sotsial institutlarning latent (yashirin) funksiyalari rejalashcirilmagan bo'ladi va ularning oqibatlarini har doim ham oldindan bashorat qilish mumkin emas.

Ba'zan amaliyotda ayrim sotsial institutlar o'zining oshkora vazifalarini bajarmasada faoliyat olib borishi kuzatilgan. Bu mazkur institutning guruh a'zolari ehtiyojlarini qondiruvchi yashirish funksiyalari mavjudligi va yuqori darajada

---

<sup>66</sup> Фролов С.С. Социология: [Учебник для высш.учеб.заведений] — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательская корпорация «Логос», 1996. С.173-175.

rivojlangani haqida dalolat beradi. Shu bilan bиргаликда сotsial institutlarning latent funksiyalarini aniqlash mushkul ish sanaladi.

Mertonning fikricha, sotsiologiya sotsial institutlarning barcha funksiyalarini tadqiq qilishi lozim, ammo ba'zilar faqatgina oshkora funksiyalarni o'rganishadi. Haqiqiqy sotsiolog aynan latent funksiyalarni o'rganishi lozim. Chunki jamiyat taraqqiyoti uchun kutilmagan salbiy oqibatlar aynana yashirin funksiyalar tufayli yuzaga keladi. Sotsiolog sotsial institutlarning latent funksiyalarini aniqlashi hamda ularning istiqbolini oshkora funksiyalar bilan bиргаликда ko'rsatib berishi orqali jamiyatga va fan rivojiga hissa qo'sha oladi.

R.Mertonning fikricha, latent funksiyalar sohasidagi kashfiyotlar, oshkora funksiyalar borasidagi kashfiyotlarga qaraganda sotsiologik bilimlarga ko'proq hissa qo'shadi<sup>67</sup>. Ko'p hollarda latent funksiyalarni o'rganish qarama-qarshiliklarga olib keladi. Misol uchun insonlar qimmat narxdagi narsa-buyumlarni faqatgina ularning sifatiy jihatdan yaxshiroq ekanligi uchun amalga oshirmaydi. Qimmat narxdagi tovarlar ularni sotib oluvchi haridorning "moliyaviy kuchi", "yuqori sotsial statusi"ni belgilab beradi. Demak, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sohasi insonlarning jamiyatda o'z prestijini ko'tarish kabi latent funksiyani bajaradi. Inson tomonidan namoyishkorona tarzda "yuqori" toifali tovarlarni iste'mol qilinishi shaxsning yuqori statusini belgilaydi.

Sotsial institutlarning latent funksiyalarini o'rganish natijasida sotsial hayotning haqqoniy holati namoyon bo'lib, bu sotsial aloqalar va sotsial obyektlarning rivojlanishini hamda ularda kechayotgan jarayonlarni boshqarish imkonini beradi.

Ya.Shevanskiyning fikricha<sup>68</sup>, sotsial intitutlar jamiyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Individlar uchun o'zining turli xil *ehtiyojlarini qondirish* imkonini yaratadi;

<sup>67</sup> Мертон Р. Явные и латентные функции // Американская социологическая мысль: Р. Мертон, Дж. Мид, Т. Парсонс, А. Шюц: Тексты/Сост. Е.И.Кравченко: Под ред. В.И.Добренькова. — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1994. — С.431.

<sup>68</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.225.

- Sotsial munosabatlar doirasida individlarning xatti – harakatini *nazorat qiladi*;

• *Ijtimoiy tuzilmani aniqlab, ta'minlab turadi*, shuningdek, shaxssiz funksiyalarning ishlb chiqilishini ta'minlaydi. Shaxssiz funksiyalar deyilganida, sotsial institutlar tarkibidagi a'zolarning kimligidan qat'iy ravishda doimo institut doirasida bajariladigan vazifalar tushuniladi;

- Intilishlar, harakatlar va munosabatlar *integratsiyasini ta'minlaydi*.

Sotsial institutlarning funksiyalari borasida gap ketganida quyidagi holatlarni bilib olish kerak<sup>69</sup>:

- bir vaqtning o'zida bit'a institut bir nechta vazifani bajarishi mumkin
- turli maqsadlarga ega bo'lgan institutlar bir xil funksiyalarni bajarishi yoki bajarmasligi mumkin,
- tarixiy rivojlanish davomida sotsial institutlar turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin,
- vaqt o'tishi bilan sotsial institut funksiyalaridan biri mustahkamlanishi yoki susayishi mumkin,
- bir xil maqomga ega bo'lgan sotsial institutlar turli jamiyatlarda har xil vazifalarni bajarishi mumkin.

Shu o'rinda oila institutining vazifalariga to'xtab o'tamiz. Oilaning reproduktiv, tarbiya, maishiy-xo'jalik, iqtisodiy, sotsial nazoratning birlamchi bo'g'ini, ma'naviy muloqot sohasi, ijtimoiy status, bo'sh vaqt, emotsional va jinsiy funksiyalari mavjud. Oila institutning bajarayotgan vazifalarining barchasi bosh va birlamchi funksiyalar hisoblanib, ularning qay darajada bajarilishi jamiyatning kelajagini belgilaydi.

Barcha sotsial institutlarning *funksiyalari umumiyligi va maxsusiga ajratiladi*. Umumiy funksiyalar aksariyat sotsial institutlar tomonidan bajariladi. Maxsus funksiyalar esa faqat sanoqli institutlarga xos bo'ladi. Misol uchun oilaning sotsial institut sifatidagi maxsus funksiyalari tarixiy rivojlanish natijasida ham uning

<sup>69</sup> Андреев Ю.П., Коржевская Н.М., Костина Н.Б. Социальные институты: содержание, функции, структура. — Свердловск: Изд-во Урал. ун-та, 1989. С.35.

mohiyatini ifodalagani uchun saqlanib kelmoqda – reproduktiv funrksiya va bolalarni sotsializitsiyasi funksiyasi. Oila tufayli jamiyatning biologik davomiyligi saqlanib kelmoqda. ijtimoiy jihatdan esa u sotsializatsiyaning birlamchi agenti va birlamchi guruhi sifatida muhim o'rin egallamoqda. Oila institutining mazkur maxsus funksiyalari jamiyatning ehtiyoji (turmush tarzining oilaviy shakli, farzandli bo'lish va hk.) tufayli yo'qolmay rivojlanib bormoqda.

Oila institutiga xos bo'lgan umumiy funksiyalarda oila va jamiyatning aloqadorligi namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi tarixiy o'zgarishlarni taqqoslash natijasida oila institutida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va asoslash mumkin. Misol uchun XX asr boshlarida ba'zi mamlakatlarda ayrim sotsial institutlar avvallari oilaga tegishli bo'lgan vazifalarni bajara boshlagan. Misol uchun maktab va bog'chalar – tarbiya funksiyasini, xizmat ko'rsatish sohasi – ovqatantirish, kiyintirish, bo'sh vaqtini o'tkazi, miliitsiya va armiya – himoya vazifalarini bajargan.

Aytib o'tish kerakki, har bir sotsial institut garcha o'ziga xos bo'lgan funksiyalarni bajarsada, ko'p hollarda ular birgalikda faoliyatda bo'lib, o'ziga xos tizimni shakllantiradi va butun jamiyat uchun muhim bo'lgan vazifalarni birgalikda bajaradi.

Sotsial institatlarning bajaruvchi funksiyalarii xilma-xil va ularni turli nuqtai nazarlar asosida turlarga ajratish mumkin. Shunday tasniflardan birini sotsiologiyadagi institutsional maktab namoyondalari S.Lipset va D.Landberg yaratishgan. Ularning fikricha, barcha sotsial institatlarga xos bo'lgan funksiyalar tasnifi quyidagilardirs<sup>70</sup>:

1. *Jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish.* Oila mazkur vazifani bajaruvchi asosiay institut sanalsada, davlat va boshqa institutlar mazkur jarayonda o'z ta'siriga ega.
2. *Sotsializatsiya.* Yosh avlodga jamiyatdagi norma va qadriyatlarni yetkazib berish.
3. *Ishlab chiqarish va taqsimot.* Asosan boshqaruv va nazoratda band bo'lgan ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

<sup>70</sup> Радутин А.А., Радутин К.А. Социология: Курс лекций: Для студентов и преподавателей вузов, техникумов и училищ старших классов школ, колледжей, гимназий, лицесов. — М.: «Владос», 1995. С.121.

*4. Boshqaruv va nazorat funksiyalari.* Sotsial norma va qoidalar orqali amalga oshiriladi.

*Ldemak, sotsial institutlarning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:*

- Asosiy ehtiyojlarni qondirish funksiyasi
- Sotsial-integrativ funksiya, ya'ni insonlarni birlashtirish
- Status va rollar funsiyasi
- Sotsializatsiya funksiyasi
- Nizolarni hal etish funksiyasi

*Sotsial institutlarning disfunksiyasi.* Sotsial institutlarning asosiy xususiyatlardan biri uning doimiy ravishda jamiyat bilan aldoqadorligidir. Mazkur aloqadorlikning buzilishi natijasida sotsial institutlarning disfunksiya holati yuzaga keladi. Ma'lumki, sotsial institutning asosiy vazifasi jamiyat ehtiyojini qondirish, ammo vaqt o'tishi bilan xuddi yakka shaxsdagi kabi jamiyatning ham ehtiyojlarini o'zgarishi mumkin. Bu o'z navbatida sotsial institutlarning jamiyat bilan munosabatlariga ta'sir qiladi va ularni o'zgartiradi. Natijada jamiyat ehtiyojlarini uchun keraksiz bo'lgan funksiyalarni bajaruvchi sotsial institutlarning faoliyati bemazmun, ba'zan esa jamiyat rivojini orqaga suruvchi bo'lib qoladi. Bunday institutlar ma'lum muddat an'analarga bo'lgan hurmat tufayli faoliyat olib borishi mumkin. Ammo ko'p hollarda ular qisqa muddatda o'z faoliyatini to'xtatadi.

Sotsial institutlarning disfunksiya holati jamiyatdagi notinchliklar, inqiloblar, siyosiy yoki iqtisodiy tuzumning o'zgarishi kabi holatlarda yuzaga keladi. Jamiyatdagi sotsial institutlarning disfunksiyasi holati bilan bog'liq bo'lgan o'tish davrlarini *E.Dyurkgeym anomiya* nomi bilan atagan.

## **5. Sotsial institut turlari va ko'rinishlari**

*Sotsial institutlarni qator kriteriyalar asosida tasniflash mumkin.*

Sotsial institutlar ta'sir doirasiga ko'ra, makro va mikroinstitutlarga ajratiladi. *Makroinstitutlar*, deb jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondiruvchi bosh institutlarga

aytiladi. *Mikroinstitutlar* esa bosh institutlarning tashkiliy elementlari hamda strukturaviy qismlari bo'lib, ularning faoliyatini ta'minlab beradi.

Yondosh funksiyalarining hajmi yoki rniqdoriga ko'ra, sotsial institutlar *monofunksional* va *polifunksional* bo'lishi mumkin. Monofunksional sotsial institutda asosiy bitta funksiya bajariladi, polifunksional institatlarda esa bir nechta asosiy funksiyalar qatorida ko'plab yondosh funksiyalar bo'ladi.

Sotsial institutlar jamiyat hayotining qaysi jabhasida faoliyat olib borishiga ko'ra quyidagi *turlarga* ajratiladi:

- Iqtisod (ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, savdo, banklar)
- Siyosiy (davlat, parlament, partiyalar)
- Sotsial soha (ilm, ta'lif, san'at)
- Ma'naviy soha (din)
- Huquqiy soha (huquq, sud)
- Oila (oila, nikoh)

Jamiyatda paydo bo'lishi vaqtiga ko'ra sotsial institatlarni *qadimgi* va *yosh* institatlarga ajratish mumkin. Qadimgi institutlar qatoriga oila, din, davlat, ta'lif institutlarini kiritisho' mumkin.

G.Spenser sotsiologiyada sotsial institutlar muammosini o'rghanish davomida evolyusion nazariya asosida jamiyatda uchta asosiy sotsial institute guruhi mavjud bo'lishini yozgan. Unga ko'ra:

- *Nasl qoldiruvchi (nikoh va oila)*
- *Taqsimlovchi (iqtisodiy)*
- *Nazorat qiluvchi (din, siyosiy tizimlar)*

Mazkur tasnif barcha institatlarga xos bo'lgan xusuiyatlar asosida amalga oshirilgan.

G'arb sotsiologi P.Blau o'zining normativ struktura nazariyasidagi qadriyatlar asosida sotsial institatlarni quyidagi shartli guruh va turlarga ajratgan:

- *Birlashtiruvchi institutlar.* Jamiyatdagi munosabatlarning birligini, hamkorlikni va patikulyarlikni ta'minlaydi. Ular jamiyatning 'yashirin bo'lish' ehtiyojiga javob beradi.

- *Distributiv institutlar.* Sotsial kelishuvlarning asosi sanalgan, maxsus rag'batlar ko'rinishidagi universal qadriyatlarni rivojlantiradi. Ularning asosiy vazifasi "mas:lashish" ehtiyojiga javob berish.

- *Tashkiliy institutlar.* Qadriyatlarni maqsadga yetish uchun ishlataldi. "Integratsiya" va "maqsadga yetish" vazifasini bajaradi.

Sotsial institutlar sotsial muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sir normal tarzda, shuningdek, normaning buzilishi sharoitida ham bo'lishi mumkin. Har qanday real jamiyatda normativ tartibotga bo'ysunmaydigan anomik hodisalar bo'lishi tabiiydir.

Bugungi kunda fanda amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish keng tarqalgan:

1. *Relyatsion* (yozma ma'lumotlarga asoslanuvchi) institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-mashg'ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi.

2. *Regulyativ* (idora etish) sotsial institutlari. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz holda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketilganda qo'llaniladigan sanksiyalarini (bunda sotsial nazoratning hamma mexanizmlari ham kirib ketadi) belgilab beradi.

3. *Integrativ* (birlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga ma'sul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi.

4. *An'anaviy* sotsial institutlar. Bu sotsial institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bog'liq muassasalar.

5. *Ijtimoiy-madaniy* institutlar. Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq muassasalar.

Sotsiologiya fanida quyidagi sotsial institutlarni o'rganishga katta e'tibor qaratiladi:

- 1) jamiyatning asosini tashkil etuvchi ehtiyojlarni amalga oshirish (oila va ta'lim institutlari);

- 2) moddiy hayot faoliyatini ta'minlash (iqtisodiyot institutlari);

3) ijtimoiy guruqlar va jamoalarning integratsiyasi (siyosiy va huquqiy-davlat institutlari);

4) ma'naviy qadriyatlarni quvvatlash va saqlash (madaniyat institutlari) hamda boshqalar bilan bog'liq bosh sotsial institutlar.

Ijtimoiy hodisalarning tizimli-tuzilmaviy tahlilida «sotsial institut» tushunchasiga markaziy o'rinn beriladi, u ijtimoiy tizimning asosiylarini va ehtiyojlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali odamlarning turli – tuman harakatlaridan mavhumlashgan faoliyatning eng muhim turlari va ijtimoiy munosabatlarini umumlashtirish imkoniyatini ko'zda tutadi. Shu ma'noda sotsial institut ijtimoiy hayotning alohida sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi jamiyat ijtimoiy tuzilmasining yetakchi tarkibiy qismi sifatida ifodalanishi mumkin.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va huquqiy sohalariga xos bo'lgan sotsial institutlar muhim sanaladi. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtaсидagi tarbiya usullari) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tushqari jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar (maorif, sog'liqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi. Bundan tashqari qarindoshlik instituti, nikch instituti, ta'lim (maktab, oliy ta'lim va h.k.) instituti, kommunikatsiya (informatsion texnologiya) va ommaviy axborot vositalari instituti, din instituti, mehnat instituti, iqtisodiyot instituti va h.k. mavjud.

*Siyosiy institutlar.* Jamiyatda siyosiy boshqaruva vazifasini davlat amalga oshiradi. Ko'pchilik olimlar tomonidan yaratilgan nazariyalarda aynana siyosiy va iqtisodiy institutlar jamiyat hayotida eng muhim vazifalarni bajaradi, deb ta'kidlangan.

Siyosiy institutlar – davlat, partiylar, kasaba uyushmalari va siyosiy hokimiyatning muayyan shaklini o'rnatish va saqlab turishga yo'naltirilgan siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa turdag'i jamoat tashkilotlari. Ularning yig'indisi ushbu

jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi. Siyosiy institutlar mafkuraviy qadriyatlarni takror ishlab chiqarishni va turg'un saqlanishini ta'minlaydi, jamiyatdagi yetakchi ijtimoiy-sinfiy tuzilmalarni barqarorlashtiradi.

Ularning hokimiyatga ega bo'lish muammolarini qo'yish va hal etish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui quyidagilarda o'z aksini topadi: harakatlar dasturi; mafkura; islohot; tashkilot (partiya) va jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi.

*Davlat* jamiyatning makrosiyosiy instituti sanaladi. U ma'lum hududda yashovchi xalqning siyosiy statusini mustahkamlaydi, xalqning irodasi va umumxalq manfaatlarini ifodalaydi, xalqning ehtiyojlarini qondirish maqsadida bosh hokimiyatni amalgalaydi. Davlatning ikki asosiy funksiyasi mavjud bo'lib, ularning birinchisi, ijtimoiy sohaga oid ishlarni boshqarish, ikkinchisi esa norma va qoidalarni yaratish, ularning ijrosini nazorat qilish orqali xavfsizlikni ta'minlash.

*Din instituti.* Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir o'tkazuvchi omil – din doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lar ekan, asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Uning fikricha, insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi. Bular quyidagilar: teologik, metofizik va ilmiy bosqichlar. Har uch bosqichda ham din muayyan rol o'ynaydi. Din quyidagi o'ziga xos belgilarga ega:

1. Muayyan e'tiqod va ta'lilotning mavjudligi. Har bir din dunyonи o'z nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi;
2. Marosim va rasm-rusumlar. Har bir din o'ziga xos marosim va rasm rusumlarga ega;
3. Diniy marosim va rasm-rusumlarning muayyan qismi faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi sinagogda va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan o'qiladigan namoz asosan jom'e masjidlarida o'qiladi. Din sehrgarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, ya'ni muayyan marosimlarni muayyan davrlarda bajarish bilan farqlanadi. Sehrgar va shomonlar g'ayritabiyy harakatlarni individual holatda

bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarni asosiy qismini jamoa bo‘lib bajaradilar. Sanab o‘tilgan belgilarning uchtasi ham dunyoviy dinlarning barchasida mavjud. Bu dinlar quyidagilar: iudaizm, xristianlik, islom.

Uch olamiy dindan tashqari buddaviylik, induizm, kinfuchilik kabi dinlar ham ko‘p millionlik tarafdarlariga ega. Induizm eramizdan oldingi 4 ming yilliklarda shakllangan. Bu din tarafdarlari asosan Hindistonda yashaydilar. Bu din odamlarning kastalarga bo‘linishini ilohiy sabab bilan izohlaydi. Buddaviylik, kinfuchilik va daosizm dinlari uchun umumiy xususiyat shundaki, ularning tarafdarlari xudoni e’tirof etmaydilar.

*Masjid* – islom dini asosida tashkil topgan makroinstitutlardan biri va diniy tavshkilot bo‘lib, ushbu dingga e’tiqod qiluvchilarni diniy amallar orqali birlashtiradi va ularga hayot mazmuni hamda to‘g‘ri yo‘lni topishga ko‘maklashadi. U quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Diniy psixoterapiya
- Diniy – integrativ funksiya (yagona e’tiqod asosida irlashtiradi)
- Diniy tarbiya
- Diniy-kommunikativ

*Oila instituti*. Oila sotsiologiyasi — sotsiologyaning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, bu fan oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida uning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va mavjudlik qonuniyatlari, oilaning mohiyati va faoliyatining o‘zgarib borishi, nikoh va oila turlari evolyutsiyasini o‘rganish orqali tadqiq qiladi. Fanda oilaga quyidagicha ta’rif beriladi: «*Oila – insonlarning tabiiy - biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviyat munosabatlariiga asoslangan, turmush birligi va o’zaro javobgarlik his-tuyg‘ulari orqali bog’langan ijtimoiy guruhdir*».

Oila sotsial institutlar orasida asosiylaridan biri sanalib, mikroinstitut sifatida namoyon bo‘ladi. U ayol va erkakning o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirilgan ittifoqi asosida tashkil topib, qon-qarindoshlik aloqalari va insonlar asosiy ehtiyojlarining qondirilishi bilan asoslanadi. Bunda insonning asosiy ehtiyoji sifatida birlilikda

yashash istagi, reproduktiv ehtiyoj, iqtisodiy (yashash), bo'sh vaqtini o'tkazish ehtiyoji namoyon bo'ladi.

*Madaniyat sotsial instituti.* Mazkur sotsial institut insoniyat tarixi davomida takomillashib, o'zining normalarini mustahkamlab borgan. Har bir jamiyatning o'z madaniyat normalari va shakllari mavjud. Odatda madaniyat insonning sotsializatsiya jarayonida o'zlashtiriladi. Bunda atrof –muhiuning o'mni yuqori sanaladi. Oila, qo'shnilar, do'stlar muhim vazifalarni bajarishadi. Bugungi kunda kino va televideenie ham madaniyat institutining asosiy kanallaridan biriga aylanib bormoqda. Televideenie jamiyatda sodir bo'layotgan voqyealarни yorituvchi va uzatuvchi asosiy vosita sanaladi. Kino esa ahloq normalari, insonlar o'rtasidagi munosabatlar borasida asosiy axborotlarni yetkazish kanali sanaladi. Shu nuqtai nazardan televideenie va kino muhim siyosiy qurollardan biri, desa ham bo'ladi. Chunki, ular orqa li jamoatchilik fikrini shakllantirish va yo'naltirish mumkin. Shu o'rinda ommaviy madaniyat ta'msiri va undan himoyalanish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. Sotsial guruh deganda nimani tushunasiz?
2. Sotsial guruh turlarini sanab bering
3. Sotsial tashkilot tusunchasiga ta'rif bering
4. A.I.Prigojin sotsial tashkilotlarni qanday turlarga ajratgan?
5. Sotsial tashkilot turlarini ayting
6. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasini izohlang.
7. Sotsial institutning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Sotsial institutlarning asosiy turlarini ko'rsatib bering.
9. Din sotsiomadaniy institut sifatida deganda nimani tushunasiz?
10. Iqtisodiy institutlar faoliyatiga misollar keltiring.
11. Shaxs hayotida sotsial institutlarning o'mini misollarda tushuntiring
12. Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning qanday ko'rinishlari mavjud

## **Test savollari**

**1. Ko'pchilik sotsiologlar shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini qaerda boshlanadi deb hisoblaydilar?**

- A) məktəb
- B) milə
- C) do'stlar davrasida
- D) iş kollektivida

**2. Sotsial institut tushunchasining lug'aviy ma'nosini aniqlang?**

A) lotincha-institutum, o'zbekcha mahkama, muassasalarни, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini bildiradi.

B) lotincha societas – jamiyat va yunoncha Logos – ta'limot

lot stratum - qatlama va fatsio – bajaraman

C) status: -lat fuqaro yoki yuridik shaxsning huquqiy holati

**3. Kichik ijtimoiy guruhlarda shaxslararo munosabatlar strukturasini o'rGANISH nima deyiladi?**

- A) subordinatsiya
- B) sotsiometriya
- C) ijtimoiy interaktsiya
- D) stratifikasiya;

**4. Klassik sotsiologlarning nazariyalarida sotsial institutlar amal qilishiga ko'ra qanday ajratib ko'rsatiladi?**

- A) oddiy va murkkab
- B) sotsial dinamika
- C) sotsial statistika
- D) qarama-qarshiliklar

**5. Katta guruhlardan nechta turga bo'lish mumkin?**

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

**6.Kichik guruhlar deganda nimani tushunasiz?**

- A) ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zolardan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi
- B) ko'p sonli guruhlar tushuniladi
- C) rasmiy guruhlar tushuniladi
- D) norasmiy guruhlar tushuniladi

**7.«Sotsial guruh» tushunchasiga yaqin bo'lgan tushunchani aniqlang?**

- A) Sotsial birlik tushunchasi
- B) Ko'p sonli guruhlar tushuniladi
- C) Sotsial katigoriya tushunchasi
- D) sotsial oqim tushunchasi

**8.«Referent guruh» termini ma'nosini aniqlang?**

- A) inglizcha so'z, «mansub bo'lish»
- B) lotincha-jamiyat, arabcha-tushuncha
- C) yunoncha-ijtimoiy, lotincha-fan
- D) yunoncha-shaxs, lotincha-birlik

**9.Madaniy sotsial institutlar tarkibiga quyidagilardan qaysilari kiradi?**

- A) din, san'at, adabiyot bilan bog'liq muassasalar.
- B) tartibga rioya qilish va axloqni saqlab turish
- C) ishlab chiqarish va taqsimot
- D) jamiyat manfaatlarini qondirishga ma'sul bo'lgan sotsial guruh

**10. Qayси олим сотсиологиада сotsial institutlar muammosini evolyutsion nazariya asosida o'rgangan?**

- A) G.Spenser
- B) T.Parsons
- C) M.Veber
- D) E.Dyurkgeym

## **5-bob. SOTSILOGIYADA SHAXS MUAMMOSI VA DEVIANT**

### **XULQ-ATVOR**

**Reja:**

- 1. "Inson", "individ", "shaxs" tushunchasi**
- 2. Shaxs to'g'risidagi sotsiologik nazariyalar**
- 3. Shaxs sotsializatsiyasi va uning bosqichlari**
- 4. Deviant xulq-atvor tushunchasi**

**Tayanch so'z va iboralar:**

*Inson. Individ. Shaxs. Modal shaxs. Normativ shaxs. Ko'zgudagi men. Sotsializatsiya. Deviant xulq-atvor. Anomiya.*

#### **1. "Inson", "individ", "shaxs" tushunchasi**

Kundalik hayotda "inson", "individ", "shaxs" tushunchalari yagona mazmunda qo'llaniladi. Ammo sotsiologiya fani doirasida mazkur tushunchalar sinonim sifatida talqin qlinmaydi, ular o'rtaida ma'lum farqlar va o'ziga xos xususiyatlar bor.

"Inson" tushunchasi yer yuzidagi barcha odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni anglatuvchi umumiy tushuncha sanaladi. Bunda insonning inson zotiga tegishli ekanligini bildirish asosiy maqsad sanaladi.

Butun insoniyat emas, balki ularning aniq bittasi to'g'risida gap borganida "individ" tushunchasi ishlataladi. "Individ" tushunchasi aniq sotsial va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan insonni anglatadi, "aniq bir inson".

Shaxs – bu insonning o'z jamiyati tizimiga oid bo'lgan sifatiy belgisi bo'lib, uning ijtimoiy munosabatlarga kirishganidan darak beradi hamda birlgiligidagi faoliyat va muloqotida o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, shaxs – bu sotsial munosabatlarning subyekti va mahsuli sanaladi. Hozirgina dunyoga kelgan go'dak xali o'zida shaxsni mujassamlashtirmagan bo'ladi. U individ sanaladi. Shaxs bo'lishi uchun inson ma'lum rivojlanish va shakllanish bosqichlarini bosib o'tishi kerak bo'ladi. Mazkur rivojlanishning asosiy shartlari sifatida biologik, genetik meros bilan birlgilikda sotsial muhitninng mavjudligi muhim sanaladi.

Shaxsning sotsial strukturasi o'zgaruvchan bo'ladi. Chunki inson butun hayoti davomida yangi axborotlarni qabul qiladi va ularidan xulosa chiqargan holda rivojlanib, takomillashib boradi. Shunga ko'ra, u o'z faoliyatini o'zgartirishi, xattiharakatlarini boshqacha turda amalga oshirishi, amallarining motivatsiyasini o'zgartirishi mumkin. Aynan shuning uchun shaxsning sotsiogen komponenti sotsiologlar tomonidan katta qiziqishlarga sabab bo'ladi.

Sotsiologiya shaxsni o'rganish davomida u yashayotgan jamiyatni ham inobatga oladi va shuning natijasida mavhum shaxs tipini yaratishga intiladi.

Mashhur sotsial antropolog R.Lintonning fikricha, istalgan jamiyatda shaxsning ikki asosiy tipi mavjud bo'ladi: *normativ* va *modal*. Normativ shaxs tipi deyilganida, jamiyatdagi norma, qadriyat va madaniyatga mos bo'lgan shaxs tushuniladi. Modal shaxs tipi esa mazkur jamiyatdagi norma va qadriyatlardan og'uvchi shaxslar ichida eng ko'p tarqalgan tipini anglatadi.

Shaxs strukturasida *biogen*, *psixogen* va *sotsiogen* komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin. *Psixogen komponent* o'z ichiga emotsiyalar, kechinmalar, iroda, xotira, qobiliyat va h.k.larni qamrab oladi.

*Sotsiogen komponen* esa quyidagilardan tarkib topgan:

- Shaxsning obyektiv sotsial ehtiyojlari (fiziologik, xavfsizlik, bandlik, do'stlik, g'amho'rlik, muhabbat, prestij ehtiyojlari)
- Ijodkorlikka, bilim va ko'nikmalarni olishga bo'lgan iqtidor;
- Jamiyat madaniy qadriyatlariga egallaganlik darajasi;
- Shaxs amal qilib yashaydigan ahloqiy normalar, tamoyillar.
- Shu o'rinda *shaxs faoliyati* tushunchasiga to'xtalish maqsadga muvoffiq.

Shaxs faoliyati deyilganida, shaxsning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi tushuniladi. Shaxsning ijtimoiy faolligi insonning shaxs sifatidagi darajasini ifodalaydi, bu uning qadriyatli ehtiyojlarining qondirilishi hamda sifat ko'rsatkichdir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Shaxs faolligi – insonning hayotini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarning namoyon bo'lishi. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va tor darajada

o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

- Shaxs – o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlarga ega bo'lgan sub'yekti. Bu belgi va sifatlar muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiyaning mahsulidir. Shaxs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi. Shaxs – barcha ijtimoiy munosabatlarning yig'indisidir. U jamiyatdan tashqarida shakllana olmaydi.

- Shaxsning shakllanishida uning rivojlanish davri, mazkur jarayonning natijasi hamda shaxsni maqsadiga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

- Shaxsning *asosiy xislatlariga* ong'lilik; ma'naviy boylik; ijtimoiy munosabatlar; jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik va javobgarlik kiradi.

- Shaxsning *asosiy sotsial sifatlari* aniq sotsial guruhlar, jarnoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning sotsial sifatlari 3ta kichik tizimdan iborat:

- 1. Shaxsning individualligi.
- 2. Shaxslararo munosabatlari.
- 3. Munosabatlar sub'yekti.

- *Shaxsning individualligi* undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

- *Shaxsning shaxslararo munosabati* shaxsning shu munosabatlar tizimi elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun shaxsning shaxslararo munosabatlar shaxsda insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylilik kabi xislatlarning shakllanishida va takomillashuvida alohida o'ringa ega.

- *Munosabatlar sub'yekti*. Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlarda sub'yekti sifatidagi maqomini belgilaydi.

- Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarining oqibatigina emas, balki sababchisi hamdir. Har bir shaxsnинг sotsial sifatlari uning amaliy faoliyatining mazmun va xarakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofdagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsnинг ichki holat ta'sirida uning faoliyatida o'rabi turgan voqelikka shaxsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar tizimidir. Shaxsnинг sotsial xususiyati kishining faoliyati,xatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida ko'rindi. Shaxsnинг sotsial sifatlarini tashkil etuvchi elementlarga (shaxs sotsial maqsadi):

- - o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar;
- - foydalanadigan belgilar tizimi;
- - o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

## 2. Shaxs to'g'risidagi sotsiologik nazariyalar

Sotsiologiya va psixologiyada ko'plab shaxs masalasiga bag'ishlangan nazariyalar mavjud. Ular bir-biridan metodologik yondashuvlari asosida farqlanadi. Misol uchun marksizmdagi shaxs nazariysi, Ch.Kuli va Dj.Midning "ko'zgudagi men" nazariysi, Z.Freyd, E.Eriksonning psikoanalitik nazariyalari; J.Piajening bilishning rivojlanishi nazariysi, L.Kolbergning ahloqiy rivojlanish nazariysi; R.Linton, M.Moreno,T.Parsonsning shaxsnинг rolli nazariysi va boshqalar.

Sotsiologiyadagi funksional yondashuv shaxsni o'rganishdagi status-rolli nazariyaning shakllanishiga sabab bo'ldi. Bunda shaxs jamiyat uchun xarakterli bo'lgan status va rollarning majmuasi sifatida ko'rilib, uning bajarayotgan vazifalari tahlil qilinadi. Bugungi kunda sotsiologiyada aynan *rolli nazariya* sotsiologik

jihatdan eng maqbul sanalmoqda<sup>71</sup>. Aytib o'tish kerakki, insonni akter sifatida qabul qilish an'anasi anchadan beri mavjud va xatto antik davr olimlarida ham uchraydi. Mazkur rolli nazariyaning asosiy tushunchalari "sotsial rol" va "sotsial status" hisoblanadi. Ular shaxsnинг jamiyatdagi o'rni va uning bajaruvchi vazifalarini uning jinsi, yoshi kabilar asosida belgilab beradi.

"*Sotsial rol*" tushunchasi XX asrda E.Dyurkgeym, M.Veber, keyinchalik, T.Parsons, T.Shibutani, R.Linton va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik u turli sotsiologik nazariyalarda, jumladan, funksionalistik va interaksionistik nazariyalarda ham o'z ifodasini topdi<sup>72</sup>. Rossiya sotsiologiya fanida I.S.Kon va V.A.Yadov o'z asarlarida sotsial rol masalasini yoritgan

I.S.Konning fikricha, "sotsial rol – bu o'ta shaxsiy masala bo'lib, hech kimning individualligi bilan bog'liq emas. U har bir insonda u yashovchi jamiyat kutishlari asosida shakllanadigan vazifalar bo'lib, uning sotsial tizimda egallagan o'rni bilan belgilanadi". Demak, sotsial rol – jamiyat sotsial tizimida ma'lum joyni egallagan shaxsdan talab qiluvchi qator talablar yig'indisi (ma'lum xatti-harakatning bajarilishi kutish). Mazkur talablar qator sotsial normalarda o'z ifodasini topadi. Talablarning amalga oshirilishi sotsial sanksiyalar vositasida ta'minlanadi.

Hech bir sotsial rol qat'iy belgilangan xatti-harakatlar modeli sanalmaydi. Rolga tegishli bo'lgan xatti-harakatlar vaqt o'tishi bilan va turli vaziyatlar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Garchi jamiyat shaxsdan uning rollariga tegishli bo'lgan vazifalarni bajarishni talab qilsada, faqatgina individning xarakteri va individual xususiyatlari uning qay darajada va shaklda mazkur vazifalarni bajarishini belgilab beradi.

*Sotsial status* – individning jamiyatda egallagan o'rni bo'lib, u bajarayotgan vazifalar, majburiyatlar va huquqlari bilan belgilanadi. O'qituvchining statusi faqat o'quvchi statusi bo'lganida amal qiladi.

<sup>71</sup> Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев, А.В.Кабыша и др.]: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С. 182.

<sup>72</sup> Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев, А.В.Кабыша и др.]: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С. 182

“Sotsial status” tushunchasi (lotincha status — holat) ilk bora sotsiologik jihatdan ingliz tarixchisi G.D.S.Meyn tomonidan 1885yilda chop etilgan “Qadim huquq” asarida qo’llanilgan. Qadimgi Rimda mazkur tushuncha yuridik shaxsnинг huquqiy holatini belgilash uchun ishlataligancha. XIXasrning 30yillaridan R.Linton, F.Merill, T.Shibutani, R.Terner kabi olimlar tomonidan sotsial status nazariyasini ishlab chiqildi. Hozirgi kunda mazkur tushuncha sotsiologlar tomonidan ikki xil ma’noda qo’llaniladi.

- individning yoki guruhning sotsial tizimdagagi o’rnini belgilab beradi;
- mazkur o’rinning rangi (toifasi) va prestijini ko’rsatib beradi.

Keng ma’noda sotsial status — individning jamiyatda tutgan o’mi bo’lib, ushbu o’rinni yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy holati kabi xususiyatlari orqali egallaydi. Olimlar tomonidan statuslar tug‘ma (belgilangan) va erishilgan status turlariga ajratiladi. Tug‘ma statuslarga shaxsnинг millati, sotsial kelib chiqishi, jinsi kabilalar kiradi. Erishilgan statuslar esa ma'lumotlilik, malaka, ko’rsatgan xizmatlari kabilalar kiradi.

Sotsial statusning belgilanishi jamiyatdagagi qadriyatlar tizimi hamda madaniyatga bevosita bog’liq bo’ladi. Misol uchun zamonaviy AQSh jamiyatining stratifikatsion strukturasini o’rganish uchun quyidagi kriteriyalar qo’llaniladi: *mashg’ulot turi, daroniad miqdori, ma'lumotlilik darajasi, etnik kelib chiqishi*.

*U.Tomas va R.Darendorfning* rolli nazariyasida 40 yillardan boshlab sotsial status tushunchasining o’rnini “pozitsiya” (holat) tushunchasi egallay boshladi. Ularning nazarida pozitsiya turli qadriatlardan xoli tushuncha sifatida namoyon bo’ladi. Bunda sotsial struktura pozitsiyalar o’tasidagi turli tipdagи munosabatlar sifatida namoyon bo’ladi. Sotsial status individ pozitsiyasining prestijini belgilab beruvchi sifatni anglatib, sotsial stratifikatsiya nazariyasining elementiga aylanadi.

Shu bilan birgalikda *sotsial status* va *shaxsiy status* tushunchalarini farqlash lozim. Agar sotsial status individning ma'lum guruhga bog’liqligini va mazkur guruhning prestijini anglatsa, shaxsiy status shaxsnинг birlamchi guruhdagi o’rnini, shaxsiy xususiyatlarini anglatadi. Aytib o’tish kerakki, status rolsiz, rol esa statussiz mavjud bo’la olmaydi.

So'nggi paytlarda sotsiologiyaning shaxsga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Chunki shaxsning kichik guruhlarda sodir bo'luvchi jarayonlardagi o'zaro munosabatlari va harakatlarining makrodarajadagi strukturaviy jarayonlarga ta'siri kuchayib bormoqda.

Shaxsni o'rghanishdagi sotsial-psixologik yo'nalishning asosichisi *Zigmund Freyd* bo'lib, uning fikricha, shaxs doimo jamiyat bilan konflikt holatida bo'ladi. Freydning nazariyasiga ko'ra, insonning biologik ehtiyojlari (ayniqsa, jinsiy mayl) jamiyatdagi madaniyat normalariga qarshi bo'ladi. Sotsializitsiya esa mazkur qarshlikni jilovlash jarayonidir. U inson psixikasida uchta darajani ajratib ko'rsatgan: U, Men, Super-Men.

Rossiyalik sotsiolog *I.S.Kon* o'zining "*Shaxs sotsiologiyasi*" nomli (1967) asarida shaxs tushunchasining ko'plab ta'riflari borligini va u ko'pqirrali ekanligini ta'kidlagan. Uning yozishicha, shaxs tushunchasi bir tomondan "aniq individni, faoliyat subyektini ifodalab, uning sotsial rollari va betakror individual xususiyatlarini nazarda tutadi. Boshqa tomondan shaxs individning sotsial xususiyati sifatida qabul qilinadi, ya'ni unda mehnat hamda bilish jarayonida mujassamlashgan ijtimoiy xususiyatlarning birligi nazarda tutiladi. Mazkur ikkinchi yondashuv sotsiologik nuqtai nazardan muhim sanaladi. Chunki u shaxsni jamiyatning, sotsial qatlam, sotsial guruhning vakili va sotsial xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan obyekti sifatida o'rganadi".

Shaxs qator gumanitar fanlarning tadqiqot obyekti sanaladi. Misol uchun falsafa, psixologiya, sotsiologiya va h.k. Falsafiy jihatdan shaxs umumiy tarzda tarixiy-nazariy asosda o'r ganiladi. Unga ko'ra, hayot mazmuni, shaxs mohiyati va uning biologik va sotsial mavjudot sifatidagi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tadqiq qilinadi.

Psixologiya shaxsni ongli faoliyat subyekti sifatida bir butunlik nuqtai nazaridan o'r ganadi. *G.M.Andreevaning* ta'kidlashicha, sotsial psixologiyaning asosiy maqsadi shaxsning guruh bilan bo'lgan munosabatlari sanaladi. Shu orqali jamiyatning shaxsga bo'lgan ta'siri, mikro va makro muhitning shaxs hayotidagi o'mi tadqiq qilinadi.

Sotsiologiya boshqa fanlardan farqli ravishda shaxsni o'rganishda sotsiallik xususiyatidan kelib chiqadi. Bunda "har bir inson shaxs sanaladimi?", degan savol asosiy hisoblanadi<sup>73</sup>.

Sotsiologiyada shaxs masalasini o'rganish natijasida shaxs sotsiologiyasi yo'naliishi rivojlandi. Uning asosiy o'rganish doirasiga shaxsning shakllanishi, uning sotsial munosabatlardagi ishtiろki, ehtiyojlarining rivojlanishi, jamiyat va shaxsning o'zaro uzviy bog'liqligi, shaxs xulq-atvorining atrof-muhit ta'sirida tashqi tomondan va o'zini-o'zi nazorat qilishi kabilar kiradi.

Zamoraviy sotsiologiya fanida Ye.A. Ajufrievning fikricha, shaxsni ikki jihatdan ta'riflash maqsadga muvoffiq: *formal-mantiqiy va dialektik-mantiqiy*<sup>74</sup>.

Birinchi yondashuvni asosan psixologlar va pedagoglar yoqlab, unga ko'ra, shaxs individdagi xususiyatlardan tashqari qator ijobjiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Mazkur ijobjiy xususiyatlarga ega bo'lgan individlarga shaxs sifatida talqin qilinishi mumkin. Ijobjiy xususiyatlar sotsializatsiya davomida o'zlashtiriladi. Mazkur yondashuv ratsional mohiyatga ega bo'lsada, chegaralangan hisoblanadi va kimni shaxs deb aytish mumkin emas, degan savolga aniq javob topib bo'lmaydi. Misol uchun bola nechi yoshdan so'ng shaxs? deb sanaladi yoki qanday jinoyatni sodir etgan jinoyatchini shaxs sifatida ko'rish mumkin emas va h.k.

Ikkinci yondashuv yuqorida keltirilgan qarama-qarshiliklarni cheklash imkonini beradi. Bunda shaxs umumiy butunlikning yakka, betakror, sotsial elementi sifatida ko'rildi. Barcha insonlar ma'lum o'xshash biologik va sotsial xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo shu bilan birgalikda insonlarning o'ziga xos bo'lgan biologik va sotsial sifatlari mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra, shaxs umumiy va xususiy sifatlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun mazkur yo'naliш tarafdorlari shaxs tushunchasini barcha insonlarga nisbatan qo'llash mumkin, degan fikri ilgari surishadi. Chunki har bir inson o'zining umumiy va xususiy sifatlariga

<sup>73</sup> Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В. Осипов, Л.Н. Москвичев, А.В. Кабыща и др.: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С.165.

<sup>74</sup> Социология: Основы общей теории: Учеб. пособ. для высш. учеб. заведений / [Г.В. Осипов, Л.Н. Москвичев, А.В. Кабыща и др.: Редколлегия Г.В. Осипов (отв.ред.), Л.Н.Москвичев (отв.ред.) и др.]. — М.: Аспект Пресс, 1996. С.165-166.

ega bo'ladi. Shaxs – betakror hosila sifatida bir qator o'ziga xos bo'lgan sifatlarni talab qiladi. Shunga ko'ra, uni rivojlangan yoki rivojlanmagan shaxs, ongli yoki ongsiz shaxs sifatida baholash va o'rganish mumkin.

Aytib o'tish kerakki, mazkur ikki yondashuv bir-birini inkor qilmaydi, balki to'ldiradi.


Barcha sotsiologik tadqiqotlarning markaziy muammosi shaxs va jamiyat munosabatlari sanaladi. *A.G.Zdravomislovnning* fikricha, sotsiologning diqqat markazida doimo jamiyat va shaxsiy manfaatlarning murakkab munosabatlari yotadi. Sotsiolog uchun ijtimoiy manfaatlari jamiyatdagi sotsial institutlar, tashkilotlar, tizimlarning manfaatlari shaklida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, olim sotsiologyaning strukturasini sxema tarzida yaratgan. Unda jamiyat siyosat, iqtisod va ma'nnaviy sohaning natijasi hisoblanadi. Sotsiologiya esa shaxsning mazkur sohalardagi faoliyatini o'rghanadi.

### 3. Shaxs sotsializatsiyasi

Shaxsning shakllanishida *sotsializatsiya jarayoni* va uning asosiy kanallarining o'mi muhim sanaladi. Bunda oila instituti va ijtimoiy tarbiya institutining ta'siri katta. Shaxsning sotsializatsiya jarayonini quyidagicha tasvirlash mumkin: (*rasm 7.3.1*).

Inson o'sishi barobarida turli sotsializatsiya kanallari orqali yangi bilim va normalarni o'zlashtiradi. Shu asosida o'zi uchun kerakli bo'lgan qadriyatlar tizimini yaratadi. Ammo inson shaxs sifatida shakllanganidan so'ng ham uning jamiyat bilan munosabatlari uzilib qolmaydi, u shakllanishda va takomillashishda davom etadi. Unga ikki tizim eng ko'p ta'sir ko'rsatadi: oila va mehnat jamoasi.

Rasm 7.3.1.



«Sotsializatsiya» tushunchasi XIX asr oxirida - paydo bo'lib, shaxsnинг о'з hayoti mobaynida о'зи mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Sotsializatsiya «shaxsni tarbiyalash», «shaxsni shakllantirish» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq, biroq u kengroq tushuncha bo'lib, insonga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ta'sirlarni qamrab olad

Inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, u shaxs bo'lib shakllanadi. Insonning shaxs bo'lib shakllanishi va qaror topishi sotsializatsiya jarayoni nomi bilan ataladi. Sotsializatsiya jarayoni go'daklikdan boshlanib, insonning so'nggi kunigacha davom etadi. Mazkur jarayon davomida inson jamiyatdagi madaniyat normalarini va sotsial rollarni egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, u o'z "Men"ini topadi.

Bunda inson quyidagi jarayon va usullardan foydalanadi:

*O'rganish* – yangi bilimlarni qabul qilish, sotsializatsyaning rudimentar shakli.

*Tarbiyalash* – sotsializatsiya agentlarining insonning ruhiy olami va xulq-atvoriga maqsadli ravishda ta'sir ko'rsatishi.

Shaxs sotsializatsiyasining asosini normalarni o'zlashtirish holati yotadi. Normalarga amal qilish jamiyatning madaniy darajasini aniqlab beradi.

Shaxs sotsializatsiyasi ikki bosqichni qamrab oladi:

1. *Adaptatsiya (moslashish)*. Bu individning sotsial sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishidir. Sotsial adaptatsiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning sotsializatsiyasida o'z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'yaydi.

2. *Interiorizatsiya*, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishi jarayoni. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi. Ko'pgina nazariyalarda shaxsning sotsializatsiyasi, tashqi ta'sir ob'yekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina sotsializatsiya yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Sotsializatsiya Shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatni sifatida o'zi ham ijtimoiy hayotining hamma sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta'sirlanishning ob'yekti va sub'yektidir. Sotsializatsiya jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat ko'rsatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatalish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Ommaviy axborot vositalari sotsializatsyaning muhim aganti bo'lib namoyon bo'ladilar. Faqat televidenie o'zi bizning ijtimoiylashuvimizga ulkan ta'sirini ko'rsatayapti. Bunga yana matbuot, kitoblar, yangiliklarni ifoda etuvchi axborotlar, Internet, musiqa, radio va boshqalarni ilova qiling. Natijada Siz jamiyat haqida kuchli tasavvurga ega bo'lasiz. Lekin ko'pchilikni bu ma'lumotlarning bir turi bolalikdag'i ijtimoiylashuv

uchun o'ta zararliligi tashvishga soladi. Misalan, OAV orqali berilayotgan zo'ravonlik haqidagi ma'lumotlar bolalar uchun c'ta xavfli va zararlidir.

Aynan shu holat ayrim mamlakatlardagi maktablarda sodir bo'layotgan qurolli otishmalarga sabab bo'layotgandir. Chnki bolalar agressiv hulq-atvorga taqlid qilishga moyildir. Lekin bolalar teleko'rsatuvlarni vaakum holatida tomosha qilmaydilar. Ular ota-onaliga bag'rida ulg'ayishadi va shu erda ular kuchga tayangan hulq-atvorni o'zlashtirishali. SHuning uchun ularning sotsializatsiyasida yuqoridagi muammolar bo'imasligiga oila kafolatchi bo'lishi zarur.<sup>75</sup>

Shaxsning sotsializatsiya jarayoni quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: *bolalik, o'spirinlik, balog'at yoshi, ota-onalik, keksalik*.

#### 4. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati

Normalardan og'ish holati sotsiologiyada *deviatsiya* nomi bilan ataladi. *Deviant xulq-atvor* — jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Quyidagilar deviant xulq-atvoring nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlari: jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, byurokratiya, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik.

Keng ma'noda *deviatsiya* yozilgan va yozilmagan normalarga mos kelmaydigan barcha xatti-harakatlar. Tor ma'noda esa deviatsiya faqat yozilmagan qoidalarga mos kelmaydigan harakatlar, formal normalarning buzilishi esa *delikvent harakatlar*, deb nomlanadi.

Deviant va delikvent harakatlarni qat'iy farqlash buzilgan normalarning xususiyatlari asosida amalga oshiriladi. Deviant xatti-harakatlar nisbiy buzilishlar sanaladi, ya'ni yozilmagan normalarning buzilishi va ularning jamiyat tomonidan baholanishi, unga nisbatan ma'lum sanksiyalarning qo'llanilishi. Misol uchun yoshi

<sup>75</sup> Margaret L. Andersen and Howard F. Taylor. Sociology: The Essentials, Sixth Edition.P.79

keksa insonga avtobusda joy bermagan yigitni faqat jamoatchilik fikri va munosabati orqali jazolash mumkin. Bunda atrofdagilar unga nisbatan pand-nasihat yoki dashnom qo'llashlari mumkin.

Delikvent harakat esa yozilgan normalarni buzilishini nazarda tutadi. Misol uchun o'g'irlik. Buning uchun qonun tomonidan jazo belgilanadi.

Jamiyatda deviant xulq-atvor paydo bo'lishining sotsial sabablari mavjud. Ularga quyidagierni kiritish mumkin:

- *Sotsial inqirozlar paytda jamiyatdagi nazoratning susayishi oqibatida yuzaga keladigan anomiya*. Eski qadriyatlar barham topib, yangilari xali shakllanib ulgurmagan paytda jamiyat a'zolar hayotdagi yo'nalishlarini yo'qotib qo'yishadi. (E.Dyurkgeym sotsiologik yondashuvi). XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'lilot — E.Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi yaratildi. Ma'lumki, sotsiologiyaning fan bo'lib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E.Dyurkgeymning to'rtta asari chop etilgan bo'lib, shulardan biri «O'z joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag'ishlangan edi.

- *Madaniy qadriyatlar va jamiyat tomonidan mazkur qadriyatlarga yetishishdagi muqobil yo'llar o'rta sidagi nomuvofiqlik* (R.Merton sotsiologik yondashuvi). Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'lilot sotsiologiyada yetakchi o'rinn tutadi. E. Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, R.Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir».

- *Sotsial guruylar madaniyat normalari o'rta sidagi nizo, qarama-qarshilik* (A.Selin – kulturologik yondashuv);

- *Dominant madaniyat normalari bilan shaxs a'zo bo'lgan submadaniyat normalarinining qarama-qarshiliği* (V.Miller – kulturologik yondashuv);

- Ta'siri yuqoriroq bo'lgan guruhning o'zidan kichik yoki nimjon bo'lgan guruh faoliyatiga deviantlik "tamg'a"sinii qo'yishga bo'lgan *ishtiyogi* (G.Bekker stigmatizatsiya nazariysi);
- *Hukmron sinf o'z manfaati yo'lida qonun va qonunni himoyalovchi organlardan foydalanib, quyi turuvchilarni kamsitishi.*

Deviat xulq-atvor nisbiy xarakterga ega. Chunki bir inson uchun og'ish sanalgan harakat boshqasi uchun tabiiy xol va norma sifatida baholanishi mumkin. Misol uchun elita o'zining xatti-harakat normalari asosida quyi sinf vakilini baholasa, albatta uni deviatsiya sifatida ko'radi. Ammo quyi sinf vakili uchun u tabiiy bo'lishi mumkin.

Sotsiologiyada devatsiyaning ko'plab ta'riflari bor. Ulardan biri *R.Merton* tomonidan taklif qilingan bo'lib, u madaniyat maqsadlari va ularga jamiyat tomonidan ma'qul bo'lgan yetishi yo'llari o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli sodir bo'lgan anomiya holati oqibatida yuzaga keladi. Olimning fikricha, *konformistlik* – yagona deviant bo'lмаган xatti-harakat sanaladi. Konformistlar jamiyatning maqsad va vositalarni qabul qilib, umum tomonidan e'tirof etilgan qadiriyatlar va ularga erishish uchun belgilangan vositalarga amal qiladilar, bunda ularning muvaffaqiyatga erishish yoki erishmasliklari ahamiyatga ega emas. Aholining ko'pchiligi mana shu toifaga mansub bo'ladi.

Merton deviatsiyaning to'rtta mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan tipini ajratib ko'rsatadi.

*Innovatsiya* –jamiyatning maqsadlarini tan olgan holda, ushbu maqsadlarga yetishishning umum qabul qilingan yo'llarini inkor qiladi. Innovatorlar – jamiyat qabul qilgan qadiriyatlarga amal qilishda davom etadilar, biroq erishish uchun qonunga yaqin yoki noqonuniy vositalardan foydalanadilar. Reaksiyaning bunday tipi qonunga xilof harakatlar yordamida farovonlikka erishgan jinoyatchilar uchun xos. "Innovatorlar" toifasiga "moliyaviy piramida"larning yaratuvchilari, shantaj bilan foya oluvchilar, fohishalik bilan shug'ullanuvchilarni kiritish mumkin. Shu bilan birgalikda buyuk kashfiyotchi va olimlarni ham kiritish mumkin.

*Ritualizm* – jamiyatning maqsadlarini inkor qilish bilan bog‘liq bo‘lgan holat, shu bilan birgalikda ushbu maqsadlarga yetishish yo‘llariniga juda katta e’tibor qaratadi. Misol uchun byurokrat tomonidan har bir hujjatning maksimal ravishda to‘ldirilishi, kamida ikki marta qayta tekshirilishi kerakligining so‘ralishi. Ammo mazkur ishlarning bari nima maqsadda amalga oshirilayotgani esdan chiqariladi. «Ritualizim» - ular amal qilayotgan qadriyatlar o‘z mazmunini yo‘qotgan bo‘lsa ham, ulardan chetga chiqmaydigan odamlar. Qoidalarga maqsadsiz, beixtiyor shu qoidaning o‘zi uchun amal qilinadi. Ritualistlar, odatda o‘zlarini qiziqarli bo‘limgan va charchatadigan, istiqbolsiz va kam haq to‘lanadigan ishga bag‘ishlagan odamlar.

*Retretizm* – haqiqatdan qochish, jamiyat tomonidan tan olingan maqsadlar va ularga yetishish yo‘llarini inkor qilish. «Retriatishlar» - raqobatchi dunyoqarashni rad etadiganlar, ayni paytda qabul qilingan qadriyatlar va ularga erishish vositalarni ham rad etadigan odamlar. Misol tariqasida xo‘jalik hisobidagi mustaqil namunalarni keltirish mumkin. Ularga giyohvandlar, uysizlar ham kiradi.

*Isyon* – jamiyatning maqsad va maqsadga yetishish yo‘llarini inkor qilish bilan ularning o‘rniga yangi maqsad va yo‘llarni o‘rnatishga harakat qilish. Misol uchun bolsheviklar kapitalizmning, xususiy mulkning yakun topishini va uning o‘rnini sotsializm egallashini istagan. Evolyusion yo‘lni inkor qilib, inqilobni yoqlashgan. «Isyonchilar»- mavjud qadriyatlar va me’yoriy vositalarni rad etadilar, yangi qadriyatlarni kiritish va ijtimoiy tizimni o‘zgartirish uchun faol harakat qiladilar. Bu toifaga radikal siyosiy guruhlarning a’zolarini kiradi.

Amerika sotsiologiyasida muhim o‘rin tutuvchi ta’limotlardan biri E.Saterlendning *differentsial aloqalar ta’limotidir*. Bunga ko‘ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o‘rganiladi, ya’ni mavjud jamiyat a’zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o‘rgatiladi.

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan uchta omilni ko‘rsatish mumkin. Bular *shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari*. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan uchta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: 1) irsiy omillar; 2) psixo-fiziologik omillar; 3) shaxsning bilim darajasi.

Shunirgdek, ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatlari yoki qat'iyatsizligi, qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozni ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, deviant holatlarini Z.Freyd va uning shogirtlari A.Adler,K.Yung,E.Frommlar psixologik nuqtai nazardan chuqur o'rjanib chiqishgan.

Psichoanalitik maktabning asoschisi *Zigmund Freydning* fikricha, insonning faoliyatiga ikkita instinkt kuchli ta'sir ko'rsatadi. Insohlar o'linidan qo'rqib yoki lazzatlanish uchun harakat qiladilar. U «Deviant xulq-atvor»ni aynan mana shu nuqtai nazardan baholaydi. Freydning «Bokiralik tabusi» asarida u qadimiy xalqlarda me'yordarning paydo bo'lishi va shakllanishini tariflab beradi. Uning fikriga ko'ra, insonning o'z naslini saqlab qolishga bo'lgan intilishi, aynan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohni bekor qilinishiga, qat'iy ta'qiqlanishiga olib kelgan. Tabuni buzish o'lim bilan jazolangan.

#### Nazorat savollari

1. Inson, individ, shaxs tushunchalarini mohiyatini izohlab bering.
2. Ch.Kuli va Dj.Midning "ko'zgudagi men" nazariyasining mohiyatini tushuntiring.
3. Shaxs sotsializatsiyasi va uning bosqichlarini aytib bering.
4. Deviant va delikvent xulq-atvor tushunchalariga ta'rif bering
5. Deviant xulq atvorning vujudga kelishining qanday sotsial sabablari mavjud?

#### Test savollari

1. Mashhur sotsial antropolog R.Lintonning fikricha, istalgan jamiyatda shaxsning qanday ikki asosiy tipi mavjud bo'ladi?

- A. Normativ va modal

- B. Formal va noformal
  - C. Alternativ va nominal
  - D. Devant va delikvent
2. Shaxs strukturasida qanday komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
- A. Biogen, psixogen va sotsiogen
  - B. Onglilik; ma'naviy boylik; ijtimoiy munosabatlar
  - C. Jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik va javobgarlik.
  - D. Psixogen va sotsiogen
3. "Ko'zgudagi men" nazariyasining asoschilari kim?
- A. Ch.Kuli va Dj.Mid
  - B. Z.Freyd, E.Erikson
  - C. J.Piaje
  - D. R.Linton, M.Moreno,T.Parsons.
4. Rolli nazariyaning asosiy tushunchalari
- A. "Sotsial rol" va "sotsial status"
  - B. Pozitsiya va holat
  - C. Sotsial hamkorlik va birdamlik
  - D. Sotsial statys va me'yorlar
5. U.Tomas va R.Darendorfning rolli nazariyasida sotsial status tushunchasining o'rnini qaysi tushuncha egallaydi?
- A. Pozitsiya
  - B. Holat
  - C. Rang
  - D. Strata
6. Shaxsni o'rganishdagi sotsial-psixologik yo'nalishning asosichisi?
- A. Zigmund Freyd
  - B. I.S.Kon
  - C. E. Dyurkgeym
  - D. M.Veber

7. G.M.Andreevning ta'kidlashicha, sotsial psixologiyaning asosiy maqsadi bu?
- A. Shaxsning guruh bilan bo'lgan munosabatlari sanaladi
  - B. Shaxslararo munosabatlari
  - C. Guruhlararo munosabatlarni
  - D. A va B javoblar
8. Ye.A.Anufrievning fikricha, shaxsni ikki jihatdan ta'riflash maqsadga muvoffiq?
- A. Formal-mantiqiy va dialektik-mantiqiy
  - B. Sotsial va psixologik
  - C. Adaptativ va integrative
  - D. Modal va normativ
9. Shaxs sotsializatsiyasi qanday bosqichlarni qamrab oladi?
- A. Adaptatsiya (moslashish). Interiorizatsiya.
  - B. Adaptatsiya (moslashish). Integratsiya. Interiorizatsiya.
  - C. Bolalik, o'spirinlik, balog'at yoshi, ota-onalik, keksalik.
  - D. Deviatsiya va delikvent harakatlar
10. Yer yuzidagi barcha odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni anglatuvchi umumiy tushuncha
- A. Inson
  - B. Individ
  - C. Shaxs
  - D. Kishi

## **6-bob. SOTSIOLOGIYADA SOTSIAL STRATIFIKATSİYA VA SOTSIAL MOBİLLİK**

**Reja:**

- 1. Sotsial stratifikatsiya tushunchasi, uni o'rganishdagi yondashuvlar**
- 2. Stratifikatsiya modelлari va turlari**
- 3. Sotsial mobillik tushunchasi va uning turlari**
- 4. Jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi o'zgarishlar va uning o'ziga xos jihatlari**

### **Tayanch so'z va iboralar**

*Ijtimoiy strata. Sinf. Stratifikatsiya. Piramida modeli. Romb modeli. Limon va bosiq piramida modeli. Eyfel minorasi modeli. Sotsial mobillik. Vertikal va gorizontal sotsial mobillik. Individual va guruhiy mobillik. Avlodlararo mobillik. Avlodlar ichidagi mobillik. Marginallik.*

#### **1. Sotsial stratifikatsiya tushunchasi, uni o'rganishdagi yondashuvlar**

*Sotsial stratifikatsiya* – jamiyat va uning qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi. Stratifikatsiya (*lot stratum - qatlam va fatsio - bajaraman*) – jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir.

Daromad, hokmiyat, prestij va ma'lumotlilik darajasi insonning ijtimoy-qorisidiv statusini aniqlab berib, uning jamiyatda egallagan o'mini ko'rsatib beradi. Bu holatda status stratifikatsiyani umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Belgilangan statuslar qatiy belgilangan stratifikatsion tizim, ya'ni yopiq jamiyatni anglatadi. Ma'lumki, yopiq jamiyatlarda bir stratadan boshqasiga o'tish qat'ian man etilgan bo'ladi. Bunday tizimlarga quldorlik, kasta va tabaqlar mavjud bo'lgan jamiyatlar kiradi.

Erishiladigan statuslar siluvchi yoki harakatdagi stratifikatsion tizimlarga xos bo'lib, ochiq jamiyatlarda kuzatiladi. Ochiq jamiyatlarda insonlarning bir stratatdan

boshqasiga erkin harakatlanishiga yo'l ochib berilgan bo'ladi. Bunga sinflar va kapitalistik munosabatlar o'rnatilgan zamонавија jamiyatlарни misol qilishimiz mumkin. Jarniyat stratifikatsiyasining tarixiy jihatdan qaror topgan tiplari shular sanaladi.

Stratifikatsiya sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy guruhlari va ularni tabaqalanishi belgilarini tizimini o'zida aks ettiradi. Hozirgi zamon stratifikatsion yondashuvining nazariyotchilari ijtimoiy guruhlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, jamiyatning asosan mulkka bo'lган munosabati asosida tabaqalashuvi xususidagi marksistik yondashuvni inkor etib, jamiyat *ma'lumot, ruhiyat, maishiy shart sharoitlar, bandlik darajasi, daromad ko'lamlari* va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalishini asoslab beradilar. Ular yuqorida belgilarga ko'ra ajraluvchi ijtimoiy guruhlardan tashqari, yuqori tabaqa, o'rta tabaqa va quyi tabaqa doimiy amal etishini ta'kidlaydilar.

G'arb sotsiologiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rghaniladi. Demak *stratifikatsiya G'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri* bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtirnoiy tabaqalarga, guruhlarga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

*Maks Veber* tomonidan sotsiologiyadagi sotsial stratalarni o'rganish yoki stratifikatsiya nazariyasiga asos solingan. Ungacha K.Marks tomonidan jamiyat mulkka egalik qilish kriteriyasi asosida ikki sinfga ajratilgan edi.

Karl Marks birinchilardan bo'lib sinf tushunchasini aniqlashtirgan va ishlab chiqqan. Unga ko'ra, ijtimoiy sinflar – bu mehnatni tashkil etishdagi roli, ishlab chiqarish vositalariga bo'lган munosabati, mehnat jarayonida egallagan joyi, mol-mulkka erishish usullari va uning shakliga ko'ra, shuningdek, sotsial statusiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi insonlarning yirik guruhlari. Har bir jamiyatda eng kamida ikkita sinf mavjud bo'ladi. Unga ko'ra, jamiyat mulkdorlar sinfi va mulksizlar sinfiga ajratilgan. Marksning nazariyasida mulkdorlar sinfi deyilganida ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lган quidorlar, feodallar, burjua vakillari tushunilgan. Mulksizlar esa ishlab chiqarish vositalariga hamda mulkka egalik qilish huquqidан mahrum bo'lганлар кирган. Bularga qullar, proletariy va krestyanlar kирган.

Ammo aytib o'tish kerakki, Marksning sinflar nazariyasida intelligensiya kabi ba'zi gunuhlar kiritilmagan. Olim ularni mazkur ikki sinf oralig'idagi ko'rinishlar, oraliq sinflar nomi bilan atagan. Aynan shu jihatni bilan mazkur nazariya XIX asr oxiriga kelib o'zining tor doirada ekanligini ko'rsatdi. Natijada M. Veber tomonidan stratifikatsion nazariya yaratildi.

M. Veberning stratifikatsion nazariyasida<sup>76</sup> jamiyat a'zolarini guruhlarga ajratishdagi kriteriyalar soni ortgan. Mulkka bo'lgan munosabat va daromad miqdori kabi iqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqari hokimiyatga bo'lgan munosabat va prestij kriteriyalari kiritildi. Prestij deyilganida, inson tomonidan tug'ilganida yoki umri davomida o'zining shaxsiy xislatlari tufayli jamiyatda egallagan sotsial statusi tushuniladi.

Maks Veber stratifikatsion jarayonlar mohiyatini ochishda *ratsionalistik* asosida yondashadi va ratsionalistik omilning muhimligiga alohida ahamiyat beradi. Maks Veber fikricha ratsionalizm Yevropa xalqlari tabiatiga xos bo'lib, bu omilni ijtimoiy voqe'likning barcha schalariga joriy etish zarur, deb hisoblaydi. Uni amalda qo'llash uchun quyidagi prinsipni joriy etishni taklif etadi. Iqtisodiyotda – deydi u, – ikki yoqlama hisob-kitobni amalga oshirish tizimiga o'tish, axloq borasida esa – to'g'ri va teng munosabatlarga amal qilishga, erishishni, siyosatda – parlamentarizmga amal qilib, rasmiy huquq va ma'muriy boshqaruv institutlarini joriy etish zarurligini, musiqa sohasida esa – yevropaga xos notalar tizimini va unga mos texnik (cholg'u asboblari) vositalarini uyg'unlashuv me'yorlariga o'tish g'oyasni targ'ib etadi. U hamma sohaga umumplanetar axloq va turmush tarzi faqat Yevropa xalqlarigagina xos deb hisoblab, bu sohada u milliylikda alohidalikni (ya'ni yevropachalik tizimni) iqtisodiyot, siyosat va huquq va boshqaruvda, axloqda umumiylilikni ulug'lab dualizm – ikki tomonlamalik pozitsiyasiga amal qiladi. Shu sababli Maks Veber hamma narsalarning jamiyatda yakkalikdan umumiyning ("xusus" dan "Umumning") kelib chiqishdek umumiy qonuniyatni unutadi.

<sup>76</sup> Основы социологии: Курс лекций / [А.И.Анто-лов, В.Я.Нечасев, Л.В.Пиковский и др.]: Отв. ред. Г.Эфендиев. — М.: ОБ-во «Знанием» Россия, 1993. С.287.

*P.Sorokin* ham o'zining 1920- yil chop etilgan "Sotsiologiya tizimi" asarida hamda keyinchalik AQShda olib borgan faoliyati davomida stratifikatsiya nazariyasining asosini tashkil etuvchi qator tushunchalarni tizimiga solib, ularning mohiyatini ishlab chiqdi. Ulariga misol qilib "bir asosli stratifikatsiya", "ko'p asosli stratifikatsiya", "sotsial mobillik" kabilarni keltirish mumkin. Pitirim Sorokin «Sotsial stratifikatsiya nazariyas» nomli asarida o'zining quyidagi fikrlarini ilgari surgan. Sotsial stratifikatsiya deyilganida, ma'lura insonlarning birlashmasining yoki butun jamiyat aholisining ierarxik ranglarda sotsial sinflar, guruhlar va statuslarga differensiatsiyasi tushuniladi va u mol-mulk, daromad, hokimiyat, ta'sir doirasi kabilarning noteng taqsimlanishida o'z ifodasini topadi. Pitirim Sorokin stratifikatsion kriteriylarning uchta kategoriyasini ishlab chiqqan. Ular asosida sotsial stratalar bir-biridan farqlanadi. Bular:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy – mol-mulk, daromad, mehnatni tashkil qilishda tutgan o'mi, ishlab chiqarish tizimidagi o'mi, strataning statusi;

2. Ijtimoiy-professional – mehnatning xarakteri va tarkibi, mehnat sharoiti, professional malaka va umumiylar ma'lumotlilik darajasi, kasbning prestiji, faoliyat sohasining obro'si;

3. Ijtimoiy-siyosiy status - hokimiyat, ta'sir ko'rsatish doirasi, astoriteti

Yuqorida keltirilgan farqlar asosida P.Sorokin sotsial stratalarni quyidagicha tasniflagan:

1. Elementar stratalar – bir kriteriy asosida;

2. Kumulyativ stratalar – ikki va undan ortiq kriteriyalar asosida;

3. Konglomerativ stratalar – elementar va kumulyativ stratalar asosida, ularning hajmi o'ta katta bo'ladi. Misol uchun "oltin milliard".

M.Veberdan tashqari sotsial stratifikatsiya nazariyasiga rivojiga *T.Parsons, R.Darendorf, B.Barber, K.Devis, U.Mor, R.Kollinz* kabi olimlar o'z xissasini qo'shdilar. ularning fikricha, "sinf" tushunchasi faqat o'tmishtagi jamiyatlarning strukturalarini tadqiq etishda qo'llanilishi mumkin. Zamonaviy postindustrial jamiyatlar uchun bu tushunchani qo'llashning keragi yo'q. Chunki u zamonaviy jamiyatdagi stratalarning mulkiy munosabatlarini belgilab, mohiyatini ochib bera olmaydi. Zamonaviy

postindustrial jamiyatlarda mulkiy munosabatlar o'zining aniqlik ko'rsatkichini yo'qotgan. Endilikda korxona aksiyalarining mulkdori sifatida korxonani boshqaruvchi a'zolardan iborat guruh vakillari bilan birgalikda oddiy ishchilar ham namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun zamoanaviy jamiyatlarda yuz bergan shu kabi global c'zgarishlar oqibatida sotsiologiyada qatlamlarni ilgari ifodalagan "sinf" tushunchasini "strata"<sup>77</sup>, ya'ni qatlam tushunchasi bilan almashtirish lozim.

Shunga ko'ra, sotsial stratifikasiya nazariyasi marksizm sotsiologiyasining *sinflar va sinfiy kurash nazariyasiga zid* bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy qatlamlar va guruhlarga nafaqat mulkiy munosabatlar, balki ma'lumoti, psixologik jihatlari, turmush sharoiti, ijtimoiy bandligi, daromadi va boshqa xususiyatlarga asosan bo'lishni yoqlaydi.

Amerikalik sotsiolog T.Parsons: «Stratifikasiya - ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatining asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb, uni rivojlantirdi.

G'arb mamlakatlari sotsiologlari jamiyatni «yuqori», «o'rta», «quyi» qatlamlardan iborat deb talqin qilishadi. Masalan, g'arbiy Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni *boshqaruvchi va boshqariluvchilar* toifasiga bo'ladi. O'z navbatida boshqaruvchilar toifasi 2 guruhdan iborat bo'lgan: a) mulkdor boshqaruvchilar va b) mulkdor bo'lmanan boshqaruvchilar - ma'muriy byurokrat menedjerlar. Boshqariluvchilar toifasi ham 2 ga bo'lingan: yuqori - «ishchi aristokratiyasi» va quyi - past malakali ishchilar.

Jamiyatni o'rganish tamoyillari, ijtimoiy-iqtisodiy vokelikka yondashuv xususiyatlari doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boradi. Totalitar tuzum davrida ijtimoiy taraqqiyotning bosh sababi sinflararo kurash deb qaralganligi sababli jamiyatdagi muammolarga umumiyligini yondashib, bir sind vakillari bilan ikkinchi sind vakillari qarashlaridagi tafovutni aniqlash barcha ijtimoiy fanlar xususan sotsiologiyaning ham asosiy ilmiy tadqiqot tamoyillaridan hisoblangan.

Keyingi 20 yillikda G'arb, xususan AQShda rivojlangan o'rta tabaqa konsepsiyasini o'rta sind konsepsiysi bilan ayni uyg'unlashtirish tendensiyasi yuz

<sup>77</sup>Strata - lotincha "strata" so'zidanolinganbo'lib, "qatlam", deya tarjima qilinadi. Mazkur tushuncha sotsiologiyaga geologiya fanidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.U sotsiologiyada jamiyat strukturasini tashkil etuvchi guruh va shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

bermoqda. O'rta sinf jamiyatni o'ziga xos milliy, irqiy intellektual va moliyaviy tenglik va barqarorlik me'yori sifatida o'ziga xos ijtimoiy konsensus vazifasini ham o'tamoqda. Shu boisdan o'rta sinf hissasining ortishi jamiyatdag'i ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida ham talqin etilmoqda. O'rta sinf vakillari miqdori esa ulardagi ko'chmas mulk hajmi, bankdagi mablag'lari, turli manbalardan olgan foydalari, boshqa daromadlardan davlatga to'lanadigan soliqlari salmog'iga ko'ra yilma-yil aniqlab boriladi. G'arb mamlakatlari turmush tarzini o'ziga xos barometri vazifasini o'tayotgan o'rta sinf fenomeni garchi rivojlangan Yevropa davlatlari uchun ijtimoiy - iqtisodiy qadriyat darajasida kelinayotgan bo'lsa-da, bu qadriyat o'rta sinf vakillarini yuqori va quyi sinf vakillari bilan ma'naviy yaqinlashtirish imkonini bermadi.

Bugungi kunda dunyo sotsiologik adabiyotlarining aksariyatida "sinf" va "strata" tushunchalari milliy hamda xalqaro tadqiqotlarda bir maromda qo'llanib kelinmoqda. Shu o'rinda ular o'rtasidagi farqni aniqlashtirish lozim. "Sinf" tushunchasi bugungi kun sotsiologiya fanida ko'p jihatdan jamiyatni iqtisodiy ko'rsatkich bo'yicha sinflarga ajratishda qo'llaniladi. "Strata" yoki qatldam tushunchasi esa unga nisbatan kengroq mohiyatga ega bo'lib, u iqtisodiy ko'rsatkich bilan birgalikda shaxs yoki guruhning sotsiomadaniyat xususiyatlardan kelib chiqadi.

## 2. Startifikatsiya modellari va turlari

*Bernard Barber* individlarning sotsial tizimlarda turli holatlarni egallashiga qarab, ularning ierarxiyasi asosida sotsial stratifikatsianing *piramida* va *romb* shaklidagi ikki modelini yaratgan<sup>78</sup>. U o'zining stratifikatsion modellarini uch toifaga ajratgan: yuqori qatlam, o'rta qatlam va quyi qatlam.

Yuqori qatlam – aholining elitasini tashkil etuvchi ozchilik bo'lib, ularning daromadini nazorat qilish soliq solish orqali amalga oshiriladi.

O'rta qatlam – sotsial ierarxiyaning ikki qutbi oraisdag'i oraliqni egallovchi insonlar guruhi bo'lib, ular daromadining miqdori, istemol qilish qobiliyati va xarakteri, turmush uslubi va asosiy qadriyatlari kabi ko'rsatkichlar orqali bir-biriga

<sup>78</sup> Васильева Т.С., Орлов В.В. История социологических учений // Социальная философия: Учеб.пособ. / Перм. Гос. ун-т им. А.М.Горького. — Пермь, 1993. С.146.

yaqin turadilar. Ammo ular ma'lumoti, mashg'ulot turi, darornad manbai kabi kriteriyalar orqali farqlanadi. Shunga qaramay, c'rtta qatlam jamiyat barqarorligi va farovanligini ta'minlab turuvchi poydevor sanaladi. Mazkur qatlam ko'lami qanchalik keng bo'lsa, u yuqori va quyi qatlam kamchiliklarini osonlik bilan bartaraf eta oladi.

Quyi qatlam - yuqori turuvchi qatlam bilan mustahkam aloqalarga ega bo'limgan va jamiyatning "tubini" tashkil etuvchi insonlar guruhi. Ularni ba'zi adabiyotlarda autsayderlar nomi bilan ham atashadi.

Piramida va romb shaklidagi stratifikatsion modellar jamiyatda hamisha ozchilikni tashkil etuvchi elita qatlarni borligini ko'rsatadi. Shu bilan bigalikda piramida ko'rinishidagi stratifikatsion tizimlarda o'rtta qatlam elita qatlamanidan ko'proq bo'lsada, aksariyat insonlar quyi qatlamda joylashganini ko'rish mumkin. Barberning fikricha, so'nggi yuz yil ichida g'arb jamiyati piramida ko'rinishidagi tipdan romb ko'rinishidagi timpga o'tdi. Olimming fikricha, zamonaviy tipdag'i jamiyatlarda endilikda taraqqiyot vaturmush darajasining ko'tarilishi natijasida romb shaklidagi stratifikatsion model qaror topadi va shakllanadi.

*U.Uorner* tomonidan ishlab chiqilgan AQSh jamiyatining olti sotsial sinfdan iborat bo'lgan stratifikatsion modeli g'arbning bir qator sotsiolog olimlari (*K.Devis, U.Mur, R.Koleman, L.Reyuoter, R.Darendorf*) tomonidan rivojlantirildi. Mazkur model asosini sotsial ierarxiya tashkil etadi. Unga ko'ra AQSh jamiyati stratifikatsiyasi quyidagicha ko'rinishga ega<sup>79</sup>:

- Yuqori yuqori sinf – umummilliy korporatsiyaning bosh boshqaruvchisi, nufuzli firmanın boshlig'i, yuqori harbiy unvon egasi, federal suda, birja egasi, yirik arxitektor, yuqori malakali shifokor, arxiepiskop
- Yuqori sinf – o'rtta darajadagi firmanın boshqaruvchisi, muhandis-mexanik, gazeta egasi, amaliyotchi shifokor, amaliyotchi yurist, kolledj o'qituvchisi
- Yuqori o'rta sinf – bank kassiri, munitsipal kolledj o'qituvchisi, o'rta darajadagi boshqaruvchi, maktab o'qituvchisi

<sup>79</sup> Капитонов Э.А. Социология XX века: История и технология. — Ростов н/Дону, 1996. — С. 107.

- O'rta o'rta sinf -- bank xodimi, tish shifokori, boshlang'ich maktab o'qituvchisi, sug'urta kompaniyasi xodimi, magazzin boshqaruvchisi, malakali usta
- Quyi o'rta sinf - Avtomexanik, parikmaxer, barmen, jismoniy mehnatda band bo'lgan malakali ishchi, mehmonxona xizmatchisi, pochta xodimi, politsiyachi, yuk mashinasi haydovchisi
- O'rta quyi sinf – taksi haydovchisi, o'rta malakali ishchi, benzin quyuvchi, ofitsiant, shveytsar
- Quyi quyi sinf – idish yuvuvchi, uy xizmatkori, bog'bon, shaxtada ishchisi, supuruvchi va h.k. davlat qaramog'i idagi ishsizlar.

Rossiyalik sotsiologlar Z.T.Golenkova va E.D.Igitxanyanning fikricha<sup>80</sup>, bugungi kunda jamiyatning uchta stratifikatsion modelini ajratib ko'rsatish mumkin: limon, eyfel minorasi va yerga bosilgan piramida modeli. Olimlarning ta'kidlashlaricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan iqtisodiy barqaror mamlakatlarda limon shaklidagi stratifikatsion modelni ko'rishimiz mumkin. Eyfel minorasi modeli ko'p hollarda Lotin Amerikasi mamlakatlariga xos bo'ladi. Ularda quyi qatlam ko'lami keng bo'lsada, o'rta qatlam yuqoriga cho'zilgan bo'ladi. Yerga bosilgan piramida modeli markaziy va Sharqiy yevropa, jumladan, ittifoq qulashidan keyingi ilk yillardagi Rossiya uchun xos bo'lib, unda 80 foizga yaqin jamiyat a'zolari quyi qatlamga, 3-5 foizi elitaga kiradi. O'rta qatlam esa deyarli mavjud bo'lmaydi.

#### *Stratifikatsiya turlari.*

Pitirim Sorokin "Sotsial stratifikatsi nazariyasi" asarida stratifikatsion tizimning tarixiy rvojlanishga ko'rsa ketma-ket paydo bo'lgan to'rtta tipini ajratib ko'rsatgan. Ular stratifikatsion rvojlanishning bosqichlari sanaladi.

- Quldarlik tizimi
- Kasta tizimi
- Soslovie tizimi (tabaqalar)
- Sinflar tizimi

---

<sup>80</sup> Голенкова З.Т. Грицчин К.В. Историко-социологическая проблематика // Социология в России. Под ред. В.А. Ядова. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Ин-та социологии РАН, 1998. С.45-69.

*Shunga ko'ra, quldorlik* – kishilarni qaram qilishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shaklidir. *Kastalar* (guruh, toifa, tabaqa) – odam tug'ilganidan boshlab a'zo bo'lib qoladigan ijtimoiy guruhlar (stratalar)dir. *Tabaqalar* – taomillar yoki huquq, qonunlari bilan mustahkamlangan nasldan-naslga o'tuvchi huquqlar va burchlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar. *Sinflar* – sinflar paydo bo'lishi XVIII-XIX asr bilan bog'liq. AQSh - o'rta sinflar jamiyatি. AQShda 4 ta asosiy sinflar bor: oliy; o'rta; ishchi; quyi sinflar.

Ko'plab sotsiologlar jamiyatda kishilarning sotsial mavqyeini, tabaqa va qatlamlarini aniqlashda stratifikatsiyalashning sotsial 7-xil vertikal tabaqalanish holatidan foydalanib o'rganishga harakat qilingan. Ushbu stratifikatsiya tiplari alohida bir-biridan ajralgan holda emas, balki bir-birini to'ldirish va o'zaro bog'lanib, mutanosiblashib ketishi bilan turmushda, sotsial-jamiyatda namoyon bo'ladi. Ushbu uslub bevosita G'arbda va Rossiyada qo'llaniladi va sotsial stratifikatsion tizimni aniqlashda keng foydalanishga harakat qiladilar va harakat qilmoqdalar. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) professional, ma'muriy-yuqori sinf qatlami (yuqori tabaqa vakillari);
- 2) o'rta darajadagi texnik. mutaxassislar;
- 3) kommersiyaviy sinf tabaqalari (savdo karchalonlari);
- 4) mayda burjuaziya sinfi (o'rta mulkdorlar tabaqasi);
- 5) rahbarlik funksiyalarini bajaruvchi texniklar, ishchilar (rabochiylar) – ya'ni vositachi rahbarlar – o'rta toifadagi rahbar xodimlar;
- 6) malakali ishchilar, ya'ni haqiqiy moddiy boylik yaratuvchi malakali mutaxassis mehnatkashlar;
- 7) malakasiz, mutaxassis yoki mutaxassis bo'lmagan ishchilar, mehnatkashlardir.

Yuqorida keltirilgan aniq darajada aholining sotsial startifikatsiya turi – qatlamini aniqlanishiga imkon beradi. Ammo ushbu yuqorida nomlari keltirilgan aholi qatlami ham aniq chegaraga ega bo'lmasdan, ular ham o'zlarining jamiyatdagи sotsial mavqyei, iqtisodiy, siyosiy o'mni va rolini aniqlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, ya'ni ularning – professiyasi malakaliligi; moddiy daromadi; ma'lumotliligi,

turar joy-yashashi, turmush tarzi bilan farq qilganza sababli mavqyei, o'mi, roli o'zgarib turaadi va shakli, guruhi aniqlashda noaniqlikni vujudga keltiradi.

### 3. Sotsial mobillik tushunchasi va uning turlari

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi jamiyatni turli qatlamlarga bo'lish kriteriyalarini ishlab chiqish bilan birga sotsial mobillik nazariyasi uchun nazariy asos sanaladi. Jamiyatning ierarxik tuzilishi doimiy va o'zgarmas emas, undagi elementlar orasida doimiy ravioshda o'zaro ta'sirlar, o'zgarishlar va harakatlar bo'ladi. Mana shu holatlar sotsiologiyada sotsial mobillik nuqtai nazaridan tadqiq etiladi.

*Sotsial mobillik – individ yoki guruhning jamiyat stratifikatsion tizimida egallagan sotsial maqomini statusini o'zgaririlishi,ya'ni insonlarning sotsial ko'chishlaridir.Bu yerdf shaxsning bir sinfdan ikkinchi bir sinfga, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi va jamiyat ijtimoiy tarkibida tutgan o'mini o'zgarishinazarda tutilmogda.*

Shaxsning umri misolida bu uning go'daklik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik davrlarida namoyon bo'ladi. Undan tashqari insonma'lumot olishi, oila qurishi, hunar o'rganishi, kasb egallashi orqali ijtimoiy o'zaruvchanlikka uchraydi va uning jamiyatdagi o'mi - statusi o'zgarib boradi. O'quvchi, talaba, muhandis, nafaqaxo'r kabi.

Jamiyat misolida bu undagi insonlar hayotida ro'y beruvchi ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni orqali namoyon bo'ladi. Sinfalarning paydo bo'lishi, sinflarning bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tishi, jamiyat sinfiy strukturasining o'zgarishi,jamiyat ishlab chiqarish kuchlari joylashuvining o'zgarishi, fan, texnika, madaniyat va sa'nat taraqqiyotida o'z aksini topadi. Masalan, *qul, dehqon, ishchi, sovxozi, pomeshchik, kapitalist, fermer.*

«Sotsial mobillik» termini sotsiologiyaga P.Sorokin tomonidan 1927 yilda kiritilgan.Mobillik inglizcha“mobilité” so'zidan olingan bo'lib, «ko'chish»,

«*safarbarlik*» ma'nosini anglatadi. P.Sorokin o'z nazariyasida sotsial mobililikni ikki turga ajratgan: vertikal va gorizontal sotsial mobililik<sup>81</sup>.

*Gorizontal mobililik* individning bir sotsial qatlamdan shu darajada joylashgan boshqa qatlaunga o'tishini anglatadi. Mobililikning bu turi yashash joyini o'zgartirish, boshqa diniy guruhga o'tish kabilarda namoyon bo'ladi. *Vertikal sotsial mobililik* bir strataidan boshqasiga o'tishni, ya'ni hayoti davomida insonning yuqori statusni quyiga, quyi statusni yuqori darajadagisiga almashtirishni nazarda tutadi. Masalan, oddiy ishchining korxona prezidenti darajasiga ko'tarilishi yoki teskari jarayon.

*Vertikal mobililik* o'z o'mida yuqoriga va pastga yo'naltirilgan bo'ladi. Yuqoriga yo'naltirilgan sotsial ko'tarilish,yuqoriga harakatni,pastga yo'naltirilgani -sotsial tushish,pastga harakatni anglatadi.

Shunga ko'ra, P.Sorokin ko'tariluvchi sotsial mobililik va quyiga yo'naltirilgan sotsial mobililik tushunchalarini ham kiritgan. Sotsial ierarxiya bo'yicha yuqoriga ko'tarilish *ijtimoij ko'tarilish* nomi bilan atalgan. Uning aksi esa *sotsial tushish* nomi bilan yuritiladi.

Sotsial mobililik boshqa shaxs va guruh nuqtai nazaridan *individual va guruhiy mobililik*<sup>82</sup> turlariga ajratiladi.

*Individual mobililik*-individning boshqalarga bog'liq bo'limgan holda gorizontal yoki vertikal chiziq bo'yicha yuqoriga va pastga ko'chishidir.

*Guruhiy mobililikda* ko'chishlar guruhiy,kollektiv holda sodir bo'ladi,u yoki bu strataning sotsial mavqe'i o'zgaradi.P.Sorokinning fikricha, guruhiy mobililikning sababi sifatida quyidagi holatlar namoyon bo'ladi:

- sotsialistik revolyusiyalar
- chet el intervensiysi, bostirib kirishi
- davlatlararo urushlar
- fuqarolik urushlari
- harbiy to'ntarishlar

<sup>81</sup> Сорокин П.А. Человек, индивидуум, общество. – М.: 1992. С.374.

<sup>82</sup> Кравченко А.И. Социология. – Екатеринбург: Деловая книга, М.: Издательская корпорация «Лотос», 1999. С.257-259.

- siyosiy rejimlarning o'zgarishi
- eski konstitutsiyaning yangisiga almashirilishi
- dehqonlar qo'zg'olonlari
- aristocrat zotiga mansub bo'lgan zodagonlarning o'zaro yer yuzasidan olib borilgan urushlari
- imperianing tashkil etilishi.

*Individual mobillik omillariga kasbiy-prfessional zinapoyada ko'tarilish(malaka oshirish natijasida), ta'lim darajasi,ma'muriyatda egallagan o'mi,ya'ni kasbiy karera bilan bog'liq bo'lgan omillar kiradi.Individual mobillik siyosiy va tadbirdorlik faoliyati, armiyada va boshqa davlat institutlaridagi faoliyati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Individual sotsial mobillik omillari – oilaning ijtimoiy maqomi,millat,ta'lim darajasi,jismoniy va aqliy xususiyatlar,tashqi ko'rinish,tarbiya,yashash joyi va h.k. Individual sotsial mobillikning yuqoriga yo'naltirilgan turining eng samarali usuli – manfaatli nikohdir.*

Sotsiologiyada yana *avlodlararo va avlodlar ichidagi sotsial mobillik<sup>83</sup>* ham farqlanadi.

*Avlodlararo mobillikda farzandlar o'z ota-onalaridan ko'ra yuqoriq sotsial pozitsiyani egallahadi yoki ularga nisbatan quyi pog'onaga tushib qoladi.Avlodlar ichidagi mobillik individning uning ota-onasining pozitsiyasiga solishtirmsandan turib o'zining sotsial statusini o'zgartirishini anglatadi.Individ sotsial maqomini o'zgartirganda o'zi uchun yangi statusni o'zlashtirishi va bunga bog'liq bo'lgan o'zaro harakat va munosabatga,muloqatga kirish muammosi yuzaga keladi.Madaniy to'siq va munosabat,muloqat to'siqlarini buzib o'tish uchun individ oldingi hayot tarzini o'zgartirishi,o'zi uchun yangi statusning hatti-xarakatlari namunalarini shakllantirishi, ijtimoiy muhitini o'zgartirishi lozim.Ammo hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki,barcha individlar ham bunday sotsio-madaniy nazoratdan muvoffaqiyatli o'tib, yangi stratada qulay joylasha olmaydi.Barcha obyektiv mezonlarga ko'ra, yuqoriq pog'onaga ko'tarilgan individ sotsio-madaniy shart-sharoitlarga ko'ra*

<sup>83</sup> Крачченко А.И. Социология. – Екатеринбург: Деловая книга, М.: Издательская корпорация «Лотос». 1999. С.255.

yangi strataga kiruvchi eshik ortida qoladi,lekin u eski stratani tark etgan bo‘ladi. Uning yangi holati,yangicha tarzdag‘i hayot kechirishga intilishi va h.k. uni bu yerda «begona»ga aylantiradi.Individ ikki strata, ikki madaniyat orasida «osilib» qoladi. O‘xshash holat pastga yo‘naltirilgan vertikal mobillikda ham sodir bo‘lishi mumkin. Jamiyatning yuqori qatlamlarida bo‘lish imkoniyatini yo‘qotgan,sotsial ierarxiyaning quyi pog‘onasiga tushib qolgan inson yangi holatiga.yangi hayot tarziga moslashishga qynaladi.Individ yoki sotsial guruhning sotsial ko‘chish oqibatida ikki sotsial birlik, ikki madaniyat orasida bo‘lish fenomeni *marginallik* deb ataladi. Individlar marginallashuvi ko‘pincha gorizontal mobililik natijasida (avvalo, migratsiya, emigratsiya,shahardan qishloqqa,qishloqdan shaharga)sodir bo‘ladi.

Ko‘p xollarda sotsial mobililik darajasi jamiyatning “an'anaviy”, “zamonaviy”, “industrial” yoki “postindustrial” jamiyat turiga tegishliligini belgilab beradi. Undan tashqari jamiyat a’zolarining sotsial mobililkni amalga oshirishdagi imkoniyatlari darajasi va sotsial mobillik turlari jamiyatning ochiq yoki yopiq turda ekanligidan darak beradi.

4.Jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi o‘zgarishlar va uning o‘ziga xos jihatlari  
Jamiyatda o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi juda muhim va chetlab bo‘lmaydigan jarayon. Uni boshqarish hamda nazorat qilish maqsadida chuqur o‘ylangan uzoqni ko‘ra biluvchi siyosat olib borish lozim. Aks holda mazkur jarayon stixiyali va o‘ta irratsional tarzda kechadi. Natijada jamoatchilik ongida yuz berayotgan voqealar yuzasidan norozilik va ularning adolat mezonlariga mos tushmasligi kabi tushunchalar paydo bo‘lib, xatto ijobjiy islohotlar ham salbiy qabul qilinishi mumkin. Globallashuv jarayoni bizning ijtimoiy maydonimizda ham o‘ziga xos ravishda namoyon qilmoqda. Misol uchun makro danjada va birlamchi ijtimoiy-ishlab chiqarish tuzilmalari darajasida o‘tkazilgan qator o‘zgarishlar ijtimoiy doirada yangi tengsizlikni ifodalovchi lavozimlarni yaratdi. Mulkchilik shakllari va hokimiyat institutida qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, jamiyatdagi ayrim guruh yoki tabaqalar yo‘qolishi, yangilarining esa paydo bo‘lishi kuzatilmoqda, sotsial rollar o‘zgarib, yangi statuslar yuzaga kelayapti va hakazo. Bu holatni biz o‘z mamlakatimiz hayotida ham kuzatishimiz mumkin. Ittifoq parchalangach, mustaqillikka erishgan

ko'plab mamlakatlarda yangi tuzumga hali moslashmagan va ongida egalitar g'oyalar ustun bo'lgan fuqarolar islohotlarga noto'g'ri javob bildirishi uchrab turdi. Chunki aholining deyarli barcha qisimi eyforiya holatini boshdan kechirardi. Oqibatda jamiyatda yuzaga kelgan sotsial tarranglik vaziyati ayrim hududlarda konfliktni vaziyatlarni paydo qildi. Shuning uchun sotsial tensizlik vaadolat masalasini ayniqsa o'tish davri va modernizatsiya sharoitida o'rganish talab etiladi.

Ammo shuni aytib o'tish kerakki, mamlakat fuqarolarida egalitar kayfiyati ustunlik qilar ekan o'rta qatlamni shakllantirib, jamiyatning ko'rinishini limon (*rivojlangan mamlakatlarda*) yoki Eyfel minorasi (*Lotin Amerikasi mamlakatlari*) shakliga keltirish osonroq kechadi. Shuning uchun mazkur holatdan paytida foydalanish lozim. Shunda ko'pchilik o'rta qatlam vakili sifatida o'zini yaxshi his qiladi va sinflar o'tasidagi masofa kamayib, norozilik kayfiyati pasayadi. Demak, o'rta qatlamni shakllantirgach, mavjud sotsial tensizliklarning sotsial adolatga mos bo'lishini o'rta sinf doirasida o'rganish va unga moslash maqsadga muvofiq.

Sotsial integratsiya va dezintegratsiya jarayonlarini o'rganish sotsial tensizlikni tushunish imkonini beradi. Chunki dezintegratsiya tarqoqlik belgisi bo'lib, fikrlar va qarashlarning qarama-qarshiligini ifodalaydi. Sotsial integratsiya esa turli sotsial guruuhlar o'tasidagi munosabatlarning uyg'unligi, birdamligini nazarda tutadi. Integratsiyaning absolyutlashuvi qaysidir ma'noda sotsial konfliktning oldini olishi mumkin. Bunda ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch va jamiyat rivoji inobatga olinmaydi. Asosiy urg'u janiyat elementlarining uyg'unligiga qaratiladi. Platon, Gobbs, O. Kont, E. Dyurkgeym va ayniqsa T. Parsons shu g'oyaning tarafdoi bo'lgan. Sotsial dezintegratsiyaning integratsiyaga zid jarayon sifatida eng keng tarqalgan ko'rinishi umumiylar sotsial qadriyatlar, sotsial tashkilotlar va institutlarning yo'qolib ketishidir. U tizimni parchalaydi, ammo uning tarkibiy elementlariga ta'sir etmasligi mumkin. Ko'pchilik sotsiologlar ijtimoiy nazoratning susayishini ifodalash maqsadida mazkur tushunchani ishlatalishadi. Ba'zilari esa sotsial xulq-atvor qoidalarining ta'siri pasayishiga nisbatan qo'llaydi (U. Tomas, F. Znanetskiy). Sotsial dezintegratsiya tushunchasi shaxs yoki guruh tashkilot normalari, ya'ni qabul qilingan institutsional xulq-atvor me'yorlaridan chekinishi

holatini ham ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan uni «anomiya» tushunchasiga yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Sotsial integratsiya istalgan jamiyatda majburlov shakllari va stixiyali ravishda paydo bo'lgan birdamlikka asoslanadi. Integratsiya va jamiyatdagi birdamlik bir-biriga uzviy bog'liq. Agar jamiyatdagi birdamlik kuchsiz bo'lsa, undagi munosabatlarni ratsionallashtirish juda qiyin kechadi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Rossiyada<sup>84</sup> bugungi kunda jamiyatning dezintegratsisi tendensiyasi o'sib bormoqda. Olimlar buning asosiy sababini sotsial guruhlar va individlarning «yagona» sotsial muhitni tasavvur qilishdagi farqlarida, deb baholashmoqda. Bu erda integratsiya va dezintegratsiya jarayonlarida ratsional asos (qadriyat va maqsadlari yuzasidan konsensus) dan ko'ra irratsional va emotsiyonal turki (etnomilliy, diniy va mahalliy) ustunlik qiladi. Sotsial stratifikatsiya tamoyillari tubdan o'zgarmoqda. Rossiya jamiyati yangi asoslarga tayangan holda qayta tuzilishni boshdan kechirmoqda<sup>85</sup>.

O'ylab ko'radigan bo'lsak, shunday holatni mamlakatimizda ham ko'rishimiz mumkin. Bizning jamiyatimiz ham mustaqillikka erishilgach, demokratiya yo'lida yangi islohotlar natijasida transformatsiya hodisasini boshdan kechirdi. Bu sharoitda yangi sotsial tengsizliklarning vujudga kelishi va ularga nisbatan fuqarolarning o'ziga xos fikri shakllanishi tabiiy holat. Har doim yangilik omma tomonidan qarshilik bilan kutib olinishini yodda tutmoq zarur. Chunki islohotlarni amaliyotga tez tadbiq qilish imkonи bo'lsada, ammo fuqarolar ongida o'zgarishlar sekin-astalik bilan qabul qilinadi. Siyosiy o'zgarishlar bilan birgalikda mustaqillikning ilk yillarda iqtisodiy jarayonlar – ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik, inflyasiya – jamiyatning katta qismi maoshlari va nafaqalariga ta'sir qilib, real daromadlarini sezilarli darajada kamaytirdi. Bugungi kunda mazkur ahvol ancha yaxshilandi. Mamlakatimizdagи keyingi ijtimoiy-stratifikatsion jarayonning rivojlanishi, sotsial strukturaning transformatsiyasi iqtisodiy va siyosiy islohotlarning tezligi va yo'nalishiga, shuningdek, mamlakatning sotsiomadaniy xususiyatlariga bog'liq bo'ladı.

<sup>84</sup> Галенкова З.Т. Основные тенденции трансформации социальных неравенств / Россия: трансформирующееся общество. – М., 2001. – С 41.

<sup>85</sup> Т.В. Дильнова «Социальная справедливость и социальное неравенство в условиях современной России»

O'zbekistonda yuz berayotgan modernizatsiya jarayonini va bugungi kundalik hayotni o'rgangan holda quyidagi holatlarni ko'rishimiz mumkin:

1) Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bonyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi<sup>86</sup>

2) Harakatlar strategiyasiga muvofiq institutsional asoslarning o'zgarishi, ya'ni xususiy mulk huquqining mustahkam himoyasi natijasida bugungi kunda mamlakatda xususiy mulk miqdorining ortib borayotganini aytib o'tish lozim.

3) erkin, bozor munosabatlariga asoslangan tizimning shakllanishi bir xil imkoniyatlar sharoitida raqobat hissining shakllanishi va turli hildagi daromad olish, bandlik tizimidagi chuqur o'zgarishlar. O'rta va kichik biznesga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida jamiyatimizda iqtisodiy kriteriy bo'yicha tadbirkorlardan tashkil topgan o'rta sinf shakllantirilmoqda. Albatta ushbu holatni ijobjiy deya baholash o'rinni.

4) ilk yillarda iqtisodiyotda kuzatilgan notekisliklar aholi ko'p qismining turmush darajasiga salbiy ta'sir etdi, ya'ni pasayishi kuzatildi. Ammo bugungi kunda aholi daromadlari yildan-yilga orta bormoqda, jumladan, 2019 yilning o'tgan 9

<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Hamkatlar strategiyasi w'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plani, 2017 y., 6-son, 70-modda)

*oyida aholi umumiy daromadlari 129,5 trln. so'mni tashkil etdi, o'z navbatida 2016 yilning shu davriga nisbatan 19,8 foizga ko'payganini ko'rish mungkin. Joriy davrda iste'mol tovarlari narxlarining 8,3 foizga o'zgarishi aholining umumiy daromadlari xarid qobiliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu sababli aholining umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi<sup>87</sup>. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev esa "Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Biroq ayrim shahar va tumanlarda bu o'ta muhim masalaga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Oqibatda, respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko'rsatkichining 1 foiziga ham yetmaydi. Shu sababli, har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rtta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish kerak. Bu masalani, avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar rahbarlari alohida nazoratga olishi kerak"<sup>88</sup>.ligini ta'kidladi.*

4) sotsial anomiya, ya'ni qadriyat va normalardan tarkib topgan bir tizimning buzilishi va yangisining xali to'la shakllanmaganligi. Fuqarolarda iqtisodiy ong va tafakkurni shakllantirishdagi muammolar. Undan tashqari huquqiy, siyosiy tafakkur borasida ham muammolar mavjud. Shuningdek, e'tiqod masalasi bugungi kunda o'rganilishi kerak bo'lган masala bo'lib kelmoqda.

5) sotsial deprivatsiya yoki hayotiy ehtiyojlarni qondiruvchi moddiy va ma'naviy resurslarga etishish imkonining cheklanganligi, ba'zan esa bunday imkonning yo'qligi. Deprivatsiya tengsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, mazkur holatda individ yoki guruh o'zini boshqalarga nisbatan kamsitilganday his qiladi. Uning bir qancha ko'rinishlari bor: iqtisodiy (daromadning noteng taqsimlanishi), ijtimoiy (prestij, hokimiyat, yuqori maqom kabilarni taqsimlashda ayrim individlarning boshqalarga nisbatan yuqori baholanishi), ahloqiy<sup>89</sup> (jamiyatdagi qadriyatlar va individ dunyoqarashining mos tushmasligi), psixologik (jamiyat individni tan-

<sup>87</sup> <https://stat.uz/images/press-reliz/Ahol-tur-dari/6-ahol-dar-UZ.png>

<sup>88</sup> O'rzbekiston Respublikasi Prezidentining oly Majlisga murojaatnovasi / 28.12.2018yil

<sup>89</sup> Заправоислов А.Г. Социология конфликта: Россия на путях преодоления кризиса / Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Аспект Пресс, 1995 – С 310.

olmaganligi uchun unda qadriyatlar vakuumi yuzaga kelib, yangi e'tiqod, qadriyat, an'analarni qidira boshlaydi). Deprivatsiyaning sabablarini inson anglangan yoki anglanmagan bo'ladi. Har ikki holatda shaxs ushbu holatdan chiqishni istaydi. Ammo kasta kabi stratifikatsion tiziunda yashovchi insonlar deprivatsiyalar qadriyat va normalar bilan mustahkamlangani uchun chorasiz vaziyatda qoladi<sup>90</sup>. Ammo ochiq demokratik jamiyatlarda adolat istagi namoyish, konflikt va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.


O'zbekiston qonunchiligidagi fuqarolarning har biri ularning dini, millati, jinsi va boshqa sotsial xarakteristikalaridan farqli ravishda tengligi belgilab qo'yilgan.

«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2018 yilda olib borgan tadqiqoti natijasida so'r alganlarning O'zbekistonliklarning 96,3 foizi sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoyalash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi hamda ma'qullaydi. Xususan, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan hamda tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslar, jumladan, yoshlar va ayollar Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo'mitalari kafilligi bilan jazodan ozod etildi. Fuqarolarning fikricha, mazkur o'zgarishlar o'zbek xalqiga xes bo'lgan insonparvarlik fazilatlariga mos keladi, bu rahm-shafqatga muhtoj insonlarga oljanoblik ko'rsatishga bo'lgan intilish namunasi.<sup>91</sup> Bu holat mamlakatda fuqarolarning konstitutsion huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda samarali olib borilgan siyosatdan darak beradi. Jamiyatimizda shakllangan steriotiplar tufayli barchani birday ko'rnaslik holatlari kundalik hayotda namoyon bo'ladi. Misol uchun genderdagi farqlar, tanishbilishchilik, mahalliychilik, jismoniy nuqsonlari ega bo'lgan shaxslarga munosabat va boshqalarda buni ko'rish mumkin.

O'zbekistonda viloyatlararo turmush darajasi o'rtasidagi farqlar mavjud.

<sup>90</sup> Социология. Учебник для высших учебных заведений. Г.В. Осипов, А.В. Кабыша, М.Р. Тульчинский и др. – М.: Наука, 1995. – С 67.

<sup>91</sup> [https://news/tag/Ijtimoiy\\_fikr](https://news/tag/Ijtimoiy_fikr)



Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 23 foizdan (Toshkent shahrida) 48 foizgacha (Toshkent viloyatida) o'zgarib turadi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning uchdan bir qismi (34,3 foizi) Toshkent shahri (10,6 foiz) hamda Toshkent (13,7 foiz) va Samarqand (10,0 foiz) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'atlari 107,2 foizdan (Toshkent shahrida) 120,5 foizgacha (Surxondaryo viloyatida) o'zgarib turadi.

Shuningdek, aholining daromad manbalaridan biri bu mol-mulkdan olingan daromadlar hisoblanadi. 2017 yil 9 oylik yakunlariga ko'ra, aholining mol-mulkdan olgan daromadlari 5,2 trln.so'mni tashkil qilgan. 2016 yilga nisbatan o'sish sur'ati 121,2 foizni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4 foizni tashkil etdi<sup>92</sup>.

<sup>92</sup> <https://stat.uz/images/press-relez/Aholi-tur-darj/6-ahol-dar-liz.png>

Me'yordagi tengsizlik jamiyatda sog'lom raqobat va rivojlarishni ta'minlaydi. U ijtimoiy-iqtisodiy resurslari samarali ishlashiga undaydi<sup>93</sup>. Insonlar o'zining jamiyatdagi holatini adekvat baholay boshlashadi. Ular jamiyatdagi aniq farqlami seza boshlaydi. Jamiyatning yangi sotsial stratifikatsion modeli nafaqat obyektiv reallikka, balki subyektiv jihatdan shaxs, guruh tomonidan anglanib, sotsial tengsizlikni yumshatib, jamiyat integratsiyasiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyatda o'zgarishlarning sodir bo'lish jaryonini boshqarish hamda nazorat qilish maqsadida chuqur o'ylangan uzoqni ko'ra biluvchi siyosat olib borilishi lozim. Aks holda mazkur jarayon stixiyali va o'ta irratsional tarzda kechadi. Natijada jamoatchilik ijobiy islohotlarni salbiy qabul qilishi mumkin. Yangi lavozimlarning paydo bo'lishi, mulkchilik shakllari va hokimiyat institutida qator o'zgarishlar, jamiyatdagi ayrim guruh yoki tabaqalar yo'qolishi, yangilarining esa paydo bo'lishi, sotsial rollar o'zgarib, yangi statuslar yuzaga kelishi holatlari davom etmoqda. Jamiyatdagi yangi o'zgarishlarga hali moslashmag'an va egalitar g'oyalar bilan ongi to'la fuqarolar islohotlarga noto'g'ri javob bildirishi uchrab turishi, oqibatda ayrim hududlarda konfliktli vaziyatlarni vujudga keltirishi mumkin. Shuning uchun sotsial tengsizlik va adolat masalasini ayniqsa modernizatsiya sharoitida o'rganish talab etiladi.

### Nazorat savollari

1. Sotsial stratifikatsiya deganda nima tushuniladi?
2. Sotsial stratifikatsiya necha me'zonli?
3. M.Veber ijtimoiy stratifikatsiyaning mazmunini qanday o'chovlar bilan tahlil qilgan:
4. Sotsial struktura deganda sotsiologiyada nima tushuniladi?
5. Sotsial stratifikatsiyaning qanday shakllarini bilasiz?
6. Ochiq va yopiq tizimga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating
7. Hozirgi jamiyatlarda sinflarning qanday turlarini bilasiz?
8. P.Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi qarashlarini aytib bering.
9. An'anaviy jamiyatlarga xos bo'lgan sotsial stratifikatsiyani izohlab bering

<sup>93</sup> Шевяков А. Экономический рост и неравенство // Общество и экономика. – 2004. – № 2. - С 57.

## Test savollari

**1. Sotsial stratifikatsiya – bu?**

- A. Jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi
- B. O'z ichiga sotsial mobililik tushunchasini, iqtisodiy va taqsimot munosabatlarini, ijtimoiy-sinfiy munosabatlar, ijtimoiy-demografik munosabatlarni oladi
- C. Individning bir sotsial qatlamdan shu darajada joylashgan boshqa qatlamga o'tishini anglatadi.
- D. Individning bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o'tishini anglatadi.

**2. Qadimgi yunon faylasufi Aflatun jamiyat a'zolarini qanday guruhga ajratgan?**

- A. Mulkdorlar va mulksizlar
- B. Faylasuflar, harbiy jangchilar, qullar.
- C. Burjua va proletariy
- D. Patritsiy va plebey

**3. K.Marksning sinflar nazariyasida qaysi sotsial guruhlari kiritilmagan va ikki sınıf oralig'idagi ko'rinishlari yoki oraliq sinflar nomi bilan atagan?**

- A. Intelligensiya
- B. Burjuaziya
- C. Proletariy
- D. Harbiylar

**4. M.Veberning stratifikatsion nazariyasi qaysi kriteriyalarga asoslanadi?**

- 1. Mulkka egalik
- 2. Daromad miqdori
- 3. Hokimiyat
- 4. Ma'lumot
- 5. Prestij
- 6. Millat
- 7. Yosh

8. Jins
- A. 2,3,4,5
  - B. 1,2,3,4
  - C. 3,4,7,8
  - D. 1,4,5,8

5. Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni qanday toifalarga ajratgan?

- A. Boshqaruvchi va boshqariluvchilar
- B. «Ishchi aristokratiyasi» va quyi - past malakali ishchilar.
- C. Burjuaziya va proletariat
- D. Mulkdorlar va mulksizlar

6. Bernard Barber individlarning sotsial tizimlarda turli holatlarni egallashiga qarab, ularning ierarxiyasi asosida sotsial stratifikatsiyaning qanday modellarini yaratgan?

- A. Piramida va romb
- B. Limon va bosiq piramida
- C. Eyfel minorasi va piramida
- D. Limon va eyfel minorasi

7. AQSH jamiyatining olti sotsial sinfdan iborat bo'lgan stratifikatsion modelini yaratyan olim?

- A. U.Uorner
- B. K.Devis
- C. U.Mur
- D. R.Koleman

8. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi jamiyatni turli qatlamlarga bo'lish kriteriyalarini ishlab chiqish bilan birga qaysi nazariya uchun nazariy asos sanaladi?

- A. Sotsial mobillik
- B. Sotsial nazorat
- C. Sotsial adolat
- D. Sotsial tengsizlik

**9. «Sotsial mobillik» termini sotsiologiyaga kim tomonidan kiritilgan?**

- A. P.Sorokin
- B. M.Veber
- C. R.Darendorf
- D. V.Pareto

**10. P.Sorokining fikricha, mobillikning qaysi turi jamiyatdagi revolyusiyalar, chet el intervensiysi, davlatlararo urushlar, fuqarolik urushlari kabi holatlar oqibatida amalga oshadi?**

- A. Gorizontal mobillik
- B. Vertikal mobillik
- C. Individual mobillik
- D. Guruhiy mobillik

## **7- bob. SOTSIAL ALOQALAR, SOTSIAL MUNOSABATLAR VA SOTSIAL NAZORAT**

**Reja:**

- 1. Elementar sotsial aloqalarning turlari va shakllari (sotsial aloqalar, sotsial harakat, sotsial o'zaro harakat)**
- 2. Sotsial munosabatlar va E.Dyurkgeymning sotsial birdamlik nazariyasi**
- 3. Sotsial nazorat va sotsial sanksiyalar**

**Tayanch iboralar**

*Sotsial aloqalar. Sotsial harakat. Sotsial o'zaro harakat. Sotsial munosabatlar. Sotsial nazorat. Odat. Urf-odat. Sanksiya.*

- 1. Elementar sotsial aloqalarning turlari va shakllari (sotsial aloqalar, sotsial harakat, sotsial o'zaro harakat)**

Sotsial dramaturgiya vakili bo'lgan Ervin Goffman insonlarning kundalik hayotdagi real harakatlarini teatrda qiyoslagan. Mazkur yondashuvda muammolar talaygina bo'lsada, olim inson xulq-atvor mexanizmidagi ko'p holatlarni aniqlashga erishgan. Unga ko'ra, har bir inson aktyor bo'lib, o'ziga rejissyor tomonidan belgilab qo'yilgan rolni bajaradi. "Dunyo go'yo teatrga o'xshaydi. Biz esa o'zimizga ajratilgan vaqt oralig'ida tuyg'ularimiz va fikrlarimiz boshchiligidida harakat qilamiz".

Jamiyat faoliyati uni tashkil etuvchi elementlarining o'zaro aloqalari bilan belgilanadi. Sotsial aloqalar – bu sotsial subyektlarning o'zaro bajargan anglangan yoki anglanmagan, rejalashtirilgan yoki tasodifiy, takroriy yoki bir marotabali aloqadorligidir<sup>94</sup>. Qator omillar yig'indisi ta'sirida sotsial aloqalar individrlarning sotsial birliklardagi o'zaro faoliyatini ta'minlab, ularning birqalikdagi harakatlarining davomiyligini ta'minlaydi va rivojlantiradi.

Insonlar orasida turli xil aloqalar mavjud. Ular sotsial harakat, sotsial o'zaro harakat, sotsial munosabatlar, sotsial nazorat, sotsial tashkilot va sotsial

<sup>94</sup> Социологический словарь / [Сост.: А.Н.Елкуков, К.В.Шулага; Науч.ред. Г.Н.Соколова И.Я.Писаренко; Редкол.: Г.П.Давидюк (отв.ред.) и др.]. — 2-е изд., перераб. и доп. — Минск: Университетское, 1991. С.327.

institutlar. Ular bir tomonidan sotsial aloqalarning tarkibiy komponentlari sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomonidan sotsial aloqalarning rivojlanish bosqichlari sanaladi.

Umuman olganda jamiyatdagi aloqalar quyidagi turlarga ajratiladi: hayotiy kenglikdagi, psixologik va sotsial aloqalar.

Hayotiy kenglikdagi aloqalar deyilganida, insonlarning o'zaro aloqalarga kirishishdan oldin bir-birini vositali yoki vositasiz tarzda kuzatishi, o'rganishi va o'rganiyatotgan subyekt unga qay darajada yoqishi (xususiyatlarining muvoffiqligi) to'g'risida xulosaga kelishi holati tushuniladi. Hayotiy kenglikdagi vositasiz aloqalarda ikki individ bevosita bir-birini kuzatadi va o'rganadi. Vositali aloqalarda esa individ biror vosita orqali obyekt yoki subyektga baho beradi. Misol uchun ish qidirayotgan inson gazetadagi e'lon orqali yangi ishi to'g'risida xulosaga keladi. Insonlar har kuni avtobus, metro, magazin kabi jamoat joylarida bir-biriga duch keladi. Bu holat individlarni bir-birini kuzatish va o'rganish imkonini yaratadi. Hayotiy kenglikdagi mana shunday aloqalar natijasida ijobjiy xulosaga kelungan paytda individlar o'rtaida sotsial aloqalar va uning keyingi bosqichi sanalgan sotsial munosabatlar paydo bo'ladi. Anmmo har doim harn emas.

Psixologik aloqalarning birinchi elementi qiziqish va manfaatdorlikdir. Mazkur qiziqish va manfaatdorlik kuzatayotgan insonda avvalboshdan mavjud bo'ladi, u kuzatish jarayonida qay darajada kuzatilayotgan ob'yekt ularga muvoffiq ekanligini baholaydi, xolos. Individ o'zining biologik, iqtisodiy, madaniy yoki boshqa turdag'i ehtiyojlarini kuzatilayotgan ob'yekt tomonidan qondirilish imkoniyatining mavjudligini his etsa, aloqaga kirishishga shaylanadi. Shu o'rinda manfaatdorlik ikki tomonlama yoki bir tomonlama bo'lishi mumkin. Misol uchun bir yigit metroda o'zining barcha talablariga javob beruvchi qizni ko'rib qoldi, qiz ham yigit uning talablariga javob berishini anglasa, ular o'rtaсидаги o'zaro qiziqish hissi psixologik aloqa uchun asos bo'lishi mumkin.

Psixologik aloqaning o'zi xali o'z xolicha sotsial aloqa sanalmaydi. U sotsial aloqa va munosabatlarning shakllanishidagi bosqichlardan biridir.

Sotsial aloqa – bu o'ziga xos tizim bo'lib, u eng kamida ikki kishi, aloqaning asosini tashkil etuvchi qandaydir bir qadriyat va mazkur qadriyat yuzasidan amalga oshirilgan o'zaro harakatlardan tashkil topgan.

Agar ikki individ uchrashib, ikkalasi uchur ham qadrli bo'lgan qadriyat tufayli o'zaro harakatlarga kirishib, o'zaro fikr almashsa, bu sotsial aloqaga misol bo'la oladi. Sotsial aloqaning eng sodda ko'rinishi do'konda kitob, gazeta yoki jurnal sotib olishdir. Avvaliga hayotiy kenglikdagi aloqa sodir bo'ladi, ya'nisi do'konga kirib sizni qiziqtirayotgan gazeta, jurnal yoki kitobning borligiga ishench hosil qilasiz, so'ng psixologik aloqaga kirishasiz, ya'nisi bu gazeta, jurnal yoki kitobning sotuvchi tomonidan sotilishini aniqlaysiz (sotuvchi qay darajada sizni xaridor sifatida qabul qilishini kuzitasiz), shular asosida siz sotuvchi bilan sotsial aloqaga kirishib gazeta, jurnal yoki kitobni sotib olasiz.

Aloqalarning davomiyligi va miqdoriga ko'ra, vaqtinchalik (tasodifiy, bir martali) va doimiy aloqalarga ajratish mumkin. Aloqaga kirishayotgan tomonlarning statusiga ko'ra, aloqalar formal va noformal turlarga ajraladi. Agar aloqaga sabab bo'lgan manfaatlar guruhga tegishli bo'lib, intitutlashtirilgan qiziqishlarni amalga oshirish davomida vujudga kelgan bo'lsa, formal (rasimy) hisoblanadi. Noformal aloqalar esa yakka shaxslarning qiziqishlari asosida vujudga keladi.

Aloqalarni shaxsiy va predmetli aloqa turlariga ajratish mumkin. Shaxsiy aloqalar individdagi shaxsiy xususiyatlarga qiziqish asosida paydo bo'ladi. Predmetli aloqalar esa individ yoki guruhga tegishli bo'lgan biror buyumga qiziqish bo'lganida vujudga keladi.

Sotsial aloqalar ularda ishtirot etuvchi tomonlarning aloqa shakliga ko'ra, bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Bevosita sotsial aloqalar to'g'ridan-to'g'ri va yuzma-yuz amalga oshiriladi. Bunda tomonlar bir – birini ko'rib turishlari kerak. Bilvosita sotsial aloqalar esa turli kommunikatsiya aloqalari asosida amalga oshadi. Misol uchun xat yoki radio.

Yuqorida keltirilgan aloqa turlari birlgilidagi turli shakllarda amalga oshishi mumkin. Misol uchun bevosita predmetli doimiy aloqa sifatida har kuni gazetani bitta sotuvchidan sotib olish holati namoyon bo'ladi.

Aytib o'tish kerakki, shaxsiy aloqalar jamiyat hayotining muhim omili sanaladi. Agarda bevosita doirniy shaxsiy aloqalar sodir bo'lmasa, bu holat shaxsnı yolg'izlikka va jamiyatdan begonalashuviga olib keladi. Yolg'izlik va sotsial aloqalarning faqat premetli ko'rinishining zamonaviy jamiyatda ko'p uchrashi shaxs psixikasidagi salbiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqdä.

### Sotsial harakat

Sotsial harakat – bu individ yoki guruhning boshqa individ yoki guruh harakatlarini, qarashlarini, fikrlarini o'zgartirishga qaratilgan xatti-harakat, metod va vositalar tizimi.

Sotsial harakatning asosini sotsial aloqalar tashkil etadi. Chunki, sotsial aloqalar davomida individ yoki guruhda boshqa individ yoki guruhning harakatlarini, fikrini va qarashlarini o'zgartirish mayli paydo bo'ladi.

Shunday qilib, sotsial harakat harakatning shunday turiki, ularning maqsadi biror individ yoki guruhning xatti-harakati, qarashlari va fikrini o'zgartirishdir. Mashhur sotsiolog M.Veber ham inson tomonidan bajarilgan ayrim harakatlarga sotsial harakat maqomini olishi mumkin, degan fikri bildirgan. Chunki, inson tomonidan amalga oshirilgan barcha harakatlarning ham maqsadi biror guruh yoki individdagi holatni o'zgartirishga qaratilgan bo'linaydi. Shuning uchun olim o'zining "Asosiy sotsiologik tushunchalar" asarida shunday yozgan: "sotsial harakat "boshqalar"ning o'tmish, hozir va kelajakdagи xatti-harakatiga yo'naltirilgan bo'ladi. U o'tmishdagи adovat uchun qasos, hozirda mavjud bo'lgan tahdiddan himoyalanish yoki kutilayotgan tahdiddan himoyalanish chora-tadbirlari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. "Boshqalar" sifatida ma'lum bir inson, tanishlar yoki umuman noma'lum bo'lgan notanish insonlar namoyon bo'lishi mumkin<sup>95</sup>. Demak, Veberning nazariyasiga ko'ra, sotsial harakat ikki muhim holatni o'zida mujassamlashtirishi lozim: guruh yoki individ harakatlarining subyektiv motivatsiyasi; o'tish, hozir yoki kelajakdagи harakatga yo'naltirilganlik.

<sup>95</sup> Вебер М. Основные социологические понятия // Избранные произведения: Пер. с нем. / Сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова; Предисл. П.П.Гайденко. — М.: Прогресс, 1990. — С.602-643. — (Социологич. мысль Запада). С.625.

- Har qanday sotsial harakat tizim sifatida quyidagi elementlardan tashkil topadi:
- Harakat subyekti – harakatni amalga oshiruvchi ta'sir etuvchi individ yoki guruh
- Harakat obyekti – harakat yo'naltirilgan individ yoki guruh
- Harakat vositalari va metodlari. Ular vositasida o'zgartirishlar amalga oshiriladi
- Harakat natijasi – harakat yo'naltirilgan guruh yoki individning javob reaksiyasi.

Shu o'rinda harakat va xulq-atvor tushunchalarini farqlash lozim. Xulq-atvor organizmning ichki yoki atrof muhitga tegishli bo'lган omillariga nisbatan javob reaksiyasi bo'lib, u refleksli, anglanmagan yoki rejali, anglangan bo'lishi mumkin.

Sotsial harakat har doim aniq tanlangan vositalar va anglangan, oldindan rejalashtirilgan harakatlar to'plami sifatida ma'lum maqsadga yetishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Veberning fikricha, sotsial harakat sotsiololgiya fanining markaziy muammolaridan biri sanaladi. "Sotsiologiya – yozadi Veber – bu sotsial harakatlarni tushunishga harakat qiluvchi fan bo'lib, u sotsial harakat jarayonini va o'zaro ta'sirini kauzal<sup>96</sup> tushuntirishga intiladi<sup>97</sup>". Olim sotsial harakatning anglanganlik va ratsionallik darajasiga ko'ra ularni maqsadli-ratsional, qadriyatli-ratsional, affektiv va an'anaviy harakatlarga ajratgan.

Maqsadli-ratsional harakatda harakatni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan uning har bir harakati aniq anglangan bo'ladi, uning maqsadi aniq qo'yilgan, maqsadiga yetishtiruvchi eng samarali vositalar tanlangan bo'ladi. "Xulq-atvori maqsad, vositalar va harakatining mumkin bo'lган salbiy oqibatlariga yo'naltirilgan, vositalarning maqsadga va uning oqibatlariga bo'lган munosabatlarini ratsional baholaydigan individning harakati maqsadli-ratsional sanaladi". Boshqacha qilib

<sup>96</sup> куузал – (лат. causal) сабабий. Сабаблар асосида маъносида кўлланилиган.

<sup>97</sup> Вебер М. Основные социологические понятия // Избранные произведения: Пер. с нем. / Сост., общ. ред. и послесл. Ю. Н. Дацыкова; Предисл. П. П. Гайденко. — М.: Прогресс, 1990. — С. 602–643. — (Социологич. мышль Запада). С.602.

aytpanda, individning harakati an'ana yoki o'rganish asosida vujudga kelmagan bo'lishi kerak.

Jamiyatda odatda qadriyatli-ratsional harakatlar ko'p uchraydi. Bunday harakatlar davomida harakat yo'naltirilgan obyekt o'zining qadriyatlaridan kelib chiqqan holda xulq-atvorini o'zgartiradi, ya'ni burch tufayli harakat qiladi. Misol uchun ota-onalar oldidagi burch, vatan oldidagi burch, farzand oldidagi ota-onalik burchi va h.k. Veberning fikricha, qadriyatli-ratsional harakatlarning "majburiyatlar"ga bo'yusunadi. Bunda individ jamiyatda o'rnatilgan qadriyatlar tizimiga butkul ishonadi va ularga amal qilishga intiladi. Ba'zan bu harakatlar individning o'zi uchun salbiy oqibatlarga yoki noqulayliklarga olib kelsa ham o'rnatilgan normalardan tashqariga chiqsa olmaydi.

An'anaviy harakat – individning o'rganib qolgan, ko'nikmaga aylanib qolgan odatiy harakatlari to'plami. Ushbu harakatlar insonning jamiyatda qabul qilgan va o'zlashtirgan norma hamda qadriyatları asosida shakllangan bo'lib, an'ana sifatida idrok etiladi.

Affektiv harakat – affekt holatida sodir etilgan harakat, qisqa muddatli jadal emotsiyonal holat oqibatida unga ta'sir etgan tomoniga nisbatan qilingan harakatlar to'plamidan iborat. Misol uchun g'azab yoki qattiq qo'rquv paytida affekt harakat sodir bo'lishi mumkin. Bunday harakatning asosini individning zudlik bilan qondirilishi kerak bo'lgan qasos, ehtiros yoki intilish kabi tuyg'ulari yotadi.

Veberning fikricha, an'anaviy va affektiv harakatlar odatda anglanmagan holatda individ tomonidan amalga oshiriladi. Chunki ularda anglanganlik elementlari va ratsional qarorlar xos bo'lmaydi. Shuning uchun bunday harakatlarni to'la ravishda sotsial harakat toifasiga kiritib bo'lmaydi.

Harakat o'zining tarkibiga ko'ra uch toifaga ajratiladi: reproduktiv harakat, sotsial inkor etish va sotsial ijodkorlik<sup>98</sup>.

Reproduktiv harakatlar – ma'lum sotsial institutning faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar. Misol uchun sotsial nazorat, an'analarga

<sup>98</sup> Социальное действие / [Ю.А.Харин, Г.С.Фильчин-ков, Н.В.Рябенев и др.]; Под ред. Ю.А.Харина. — Минск: Наука и техника, 1990. С.24-25.

amat qilish, mehnat intizomini mustahkamlash va h.k. Sotsial inkor etish – jamiyat hayotining ma'lum elementlarini soddalashirishga, mo'tadillashtirishga qaratilgan harakatlar. Misol uchun mavjud bo'lgan kamchiliklarni tanqid qilish, deviant xulq-atvorning turli shakllariga qarshi kurash va h.k. Sotsial ijodkorlik – sotsial munosabatlarning yangi shakllarini yaratish va shu orqali jamiyat tafakkurini rivojlantirishni maqsad qilgan harakatlar. Misol uchun ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati, mehnat guruhlaridagi ahloqiy-psixologik holatni yaxshilash va h.k.

Ko'zlangan maqsadiga yetishish yo'liga ko'ra, barcha sotsial harakatlarni salbiy majburlov va ijobiy ishontirish turlariga ajratish mumkin. Salbiy majburlov – odatda buyruq va ta'qiqlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijobiy ishontirish esa guruh yoki individning mallum harakatlarni o'z xohishiga ko'ra amalga oshishini ta'minlovchi ishontirish, iltimos, tushuntirish kabi vositalar asosida amalga oshirilib, tahdid va repressiyalarsiz bo'ladi.

Sotsial harakatlarning boshqa turdag'i tasniflari ham mavjud. Misol uchun F.Znanetskiy<sup>99</sup> barcha sotsial harakatlarni ikki guruhga ajratgan: moslashish va oppozitsiya (qarshilik). Birinchi guruhga olim tahdid va tazyiqlarsiz individ tomonidan kutilgan harakatlarning bajarilishi holatlarini kiritadi. Ikkinci guruhga esa, aksincha, tahdid va tazyiqlar oqibatida amalga oshadigan harakatlarni kiritadi. Olimning fikricha, mazkur ikki turga ham taalluqli bo'lgan ayrim kam sonli sotsial harakatlar mavjud. Birinchi holatda individning harakati iltimos, taklif, qadriyatga yo'naltirilganchilik hamda bo'ysundirish kabilalar orqali amalga oshiriladi. Bu barcha jamiyatlarda kuzatiladigan va qo'llaniladigan holatlar sanaladi.

Tahdid asosida individ yoki guruhning harakatini o'zgartirish uchun F.Znanetskiy quyidagi holatlar qo'llanilishini ta'kidlagan: o'zini boshqalarga nisbatan taqqoslash; repressiya va qo'zg'olon; turli shakllarda narnoyon bo'luvchi dushmanlik; hamkorlik qilishni istamaslik hissidan qarshilikkacha. Olimning fikricha,

<sup>99</sup> Шубкин В.Н. Возрождающаяся социология и официозная идеология // Российская социология шестидесятых годов: В воспоминаниях и документах. — СПб.: Русский христианский гуманистический ин-т, 1999. С.96-97.

akkomodatsiya (moslashish, ko'nish, tolerant bo'lish) va oppozitsiya oralig'ida jamiyatda individlar tomonidan egoistik kompromiss holati vujudga keladi.

Sotsial harakatlarni tadqiq qilish sotsiologiyaning asosiy vazifalaridan biri. Shu bilan birqalikda sotsial harakat va sotsial o'zaro harakatlarni bir – biridan farqlash lozim.

**Sotsial o'zaro harakat** – bir insonning boshqa insonga nisbatan amalga oshiriladigan harakatlar tizimi bo'lib, uning natijasida harakat amalga oshirilgan inson harakatning egasiga nisbatan o'z harakatini amalga oshirib, undan ham biror harakatni amalga oshirilishini kutadi. Buni individlarning ikki tomonlama bir-biriga qaratilgan va o'zaro kutilgan harakatlar natijasi sifatida baholash mumkin. Sxema tarzida buni quyidagicha tasqirlash mumkin: A tomonidan Bga nisbatan biror harakat amalga oshiriladi, B kutilgan harakatni Aga nisbatan bajargach, A ham Bga nisbatan kutilgan harakat javobini amalga oshiradi. Sotsial haraktada kamitda ikki indivi, ikki guruh yoki bir individ va bir guruh ishtirok etishi kerak. O'zaro harakatni harakatlar almashinuvni sifatida atash ham mumkin.

"Sotsial o'zaro harakatlar" tushunchasi "shaxslararo aloqalar" yoki "muloqot qilish" tushunchalaridan kengroqdir. Chunki sotsial o'zaro harakatlarda shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan sotsial norma va qadriyatlarni anglab yetib, ular asosida real harakatni amalga oshiradi. Chiroqni o'chirishni so'rash kabi shaxslararo munosabatlar esa axborot alrnashish va unga nisbatan javob reaksiyasi sifatida baholanishi mumkin. Unda hyech qanday sotsial kontekst yo'q.

Sotsial o'zaro harakat obyektiv va subyektiv tomonlariga ega. Obyektiv jihatdan bu o'zaro harakatlar insonlarga tegishli bo'lsada, ma'lum jihatdan ular dan mustaqil bo'ladi va tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga bo'y sunadi. Subyektiv jihatdan esa sotsial o'zaro harakat individlarning o'zaro kutishlari oqibatida amalga oshirilganligi uchun ular tomonidan anglangan va ma'lum ma'noda rejalashtirilgan bo'ladi.

Shunday qilib, sotsial o'zaro harakat qo'yidagi elementlardan tashkil topadi:

- Ma'lum harakatlarni amalga oshiruvchi individ yoki sotsial guruhlar;
- Mazkur harakatlar natijasida jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar;

- Jamiyat a'zolariga mazkur o'zgarishlarning ta'siri;
- Jamiyat a'zolari tomonidan javob reaksiyasingning bildirilishi.

Sotsial o'zaro harakatlar sotsial aloqalarga o'xshab bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Undan tashqari subyektiv xohish asosidagi (bir tomonning shaxsiy ehtiyoji tufayli) hamda murakkab tizimlardagi birgalikdagi harnkorlik natijasida (iqtisodiy, siyosiy tizimlarda) yuzaga kelgan sotsial o'zaro harakatlar mavjud. Ikkinchini holatda har ikki tomon o'z xohishi asosida emas, balki tizimdagagi vazifasi nuqtai nazaridan o'z burchlarini bajaradi va o'zaro harakat amalga oshiriladi. Bunda o'zaro harakatning amalga oshirilishi majburiy va rejalashtirilgan xarakterga ega. Shu bilan bigalikda bunday holatda sotsial o'zaro harakat amalga oshirilsada, ularni amlaga oshiruvchi tomonlar buni anglamasliklari ham mumkin. Misol uchun mudofaa vaziri harbiy harakatlarning boshlanishi to'g'risida e'lon qildi. U o'zi bilgan va bilmagan barcha harbiylarga nisbatan ta'sir ko'rsatdi.

Sotsial harakat va sotsial o'zaro harakat bir qarashda o'xshash hodisalar bo'lsada, sodir bo'lishiga ko'ra farqlanadi. Sotsial harakatda bitta individ ishtirok etsa, sotsial o'zaro harakatda kamida ikkita individ ishtirok etishi lozim. Demak, sotsial o'zaro harakat ikki tomonlama yo'nalgan harakatlar almashinuvi jarayoni bo'lib, ikki va undan ortiq individ o'rtaida amalga oshadi. Sotsial o'zaro harakatda harakatga javob harakatning borligi namoyon bo'ladi. Sotsial harakatda esa individning harakati biror bir individiga nisbatan yo'nalgan yoki yo'nalmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun sotsial o'zaro harakatda harakatning biror bir individiga (narsa-buyumga emas) yo'nalganligi va javob reaksiyasi shartlari bajarilishi lozim.

Biz kundalik hayotimizda ko'plab sotsial o'zaro harakatlarni amalga oshiramiz. Misol uchun uchrashganimizda bir-birimiz bilan salomlashib, qo'l siqishamiz, jamoat transportida yoshi keksalar, bolalar va ayollarga yo'l beramiz. Bularning bari sotsial o'zaro harakatning aktlari sanaladi. Ular alohida sotsial harakatlardan tarkib topadi. Ammo atrofdagi insonlar bilan birgalikda amalga oshirgan har qanday harakatimizni sotsial o'zaro harakat deb atayolmaymiz. Avtomobil yo'lovchini urib yuborish holati yo'l hodisasi sanaladi. Amma haydovchi va yo'lovchi ikki yirik sotsial guruhlar vakillari sifatida mazkur hodisani o'z manfaati va nuqtai nazari orqali izohlab,

intiladi. Bu yo'nalish vakillarining fikricha, faqat gina inson va uning tafakkuri tufayli sotsial voqe'likni hamda sotsial munosabatlarni yaratish mumkin bo'ladi. Chunki sotsial reallik va sotsial munosabatlar insonning interpretatsion faoliyati orqaligina vujudga keladi. Fenomenologik sotsiologiyarning taniqli vakillaridan biri D. Silverman yuqoridagi g'oyalarni asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.

Sotsial munosabatlarga berilgan ko'plab tu'riflar asosida ularning ikki muhim xususiyatini ko'rsatish mumkin: birinchi holatda, sotsial munosabatlar A va B o'rtaсидаги ularning subyektiv xohishiga aloqador bo'lmagan bog'liqlik sifatida tushuniladi (misol uchun ishlab chiqarish munosabatlari); ikkinchi holatda esa bu subyektiv mayl asosida vujudga kelgan o'zaro harakatlarning mustahkam tizimi (misol uchun do'stlik).

Sotsial munosabatlar bilvosita aloqaga kirgan tomonlar o'rtaсида ham o'matilishi mumkin. Bunda tomonlar bir-birini shaxs sifatida tanimasligi ham mumkin. Bu kabi sotsial munosabatlar tomonlarning subyektiv xohishi yoki istagi asosida emas, balki ular tegishli bo'lgan sotsial tashkilot yoki institut qoidalari va normalari asosida amalga oshiriladi va shu normalar mazkur sotsial munosabatlarni tashkil etuvchi asos sanaladi.

Shuning uchun sotsial munosabatlar deyilganida, keng ko'lamdagи sotsial tizimlar ham tushuniladi. Sotsial munosabatlarga ikki qiz o'rtaсидаги do'stlik, ustoz va shogird munosabatlari, ishchi va ish beruvchi o'rtaсидаги kelishuv, ikki tashkilot o'rtaсидаги hamkorlik, ikki davlat o'rtaсидаги hamkorlik kabilar misol bo'lishi mumkin.

Sotsial munosabatlar tiziimida quyidagi elementlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Ikki individ, ikki guruhi yoki indivi va guruh;
- Ikki tomonni bog'lab turuvchi biror manfaat, qadriyat, predmet yoki qiziqish;
- Ikki tomon bir-birining oldida bajarishi majburiy bo'lgan formal yoki noformal vazifalar tizimi.

Sotsial munosabatlar tufayli insonlar turli to'plam va guruhlarga birlashadilar. Tartibsiz harakatlar esa sotsial guruhlardagi tartib uchun asos bo'la olmaydi. Shuning uchun sotsial harakat va sotsial o'zaro harakatlarni o'rghanish orqali tadqiqotchi aslida sotsial munosabatlarni tadqiq etishni ko'zlaydi. Chunki sotsial munosabatlarning mohiyatini o'rghanish jamiyat manfaati nuqtai nazaridan muhimroq sanaladi.

Sotsial munosabatlar sotsial institutlar tizimi doirasida amal qilib, sotsial nazorat mexanizmlari orqali nazorat qilinadi. Ular jamiyat tomonidan belgilangan rasmiy talablar va normalarga asoslanadi. Sotsial munosabatlar kundalik hayotimizda doimiy uchraydigan munosabatlar bo'lib, ular sotsial nazorat orqali nazorat qilinsada, ba'zan sotsial munosabatlarning buzilishi huquqiy yoki jamoatchilik tomonidan jazolanmasligi ham mumking. Masalan, qo'pollik qilgan avtobus haydovchisini tartibga chachiruvchi qoidalar va dashnom shakllari bo'lsada, yo'lovchi uni so'zda urushibgina "jazolashi", uning ustidan arz qilish darajasiga kamdan-kam xollarda borishi mumkin.

Sotsial munosabatlarda rollar, xulq-atvor modellari, norma, motiv va ehtiyojlarining miqdori kam. Sotsial munosabatlardan shaxsiy munosabatlarga o'tish u qadar oson emas. Ammo shaxslararo munosabatlarning istalgan bosqichidan sotsial munosabatlarga osonlikcha o'tish mumkin.

**E.Dyurkgeymning sotsial birdamlik nazariyasi.** Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rinn tutadi. Chunki birdamlik - bu ko'pgina ma'nnaviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik tushuncha bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'satayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir. Sotsiologiya faniga bu kategoriya birinchi bo'lib O.Kont tomonidan kiritilgan bo'lib, sotsial jipslashuv ma'nosini bildirgan. E.Dyurkgeym sotsial birdamlik muammosini tadqiq qilgan yirik olimlardan biri sanaladi.

E.Dyurkgeymning fikricha, sotsial birdamlik, bu axloqiy tamoyil safatidagi universal qadriyat bo'lib, jamiyatning har bir a'zosi uni tan oladi. E.Dyurkgeym o'z ta'limotini mexanik va organik birdamlikka ajratadi.

Rivojlanmagan va eski tartibdagi an'anaviy jamiyatlarda hukumronlik qiladigan birdamlik mexanik birdamlik sanaladi. Chunki mexanik birdamlik jamoaviy turidag' birdamlik bo'lib, jamoadagi individlarning o'xshashliklari bilan belgilanib, ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil ko'rinishda bajariladi.

Jamiyatda mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi tufayli individlar maxsus vazifalarini bajaradilar. Shuning uchun bunday jamiyat jonli organizmni eslatadi va undagi vujudga kelgan yangi turdag'i birdamlik organik birdamlik sanaladi. Mehnatning taqsimlanishi jamiyat a'zolarining individual qobiliyatlarining rivojlanishi uchun turki bo'ladi. Har bir individning o'zi qolgan individlarga bog'liq bo'lib, sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyg'usiga erishadi.

### **3. Sotsial nazorat va sotsial sanksiyalar**

Nima uchun insonlar ko'rishganlarida bir-birlariga jilmayishadi, nima uchun bayramda bir-birlariga tabriknomalar jo'natishadi, nima sababdan ota-onalar farzandlarini ma'lum yoshga yetishgach bog'chaga jo'natishadi, niuna uchun insonlar ko'chada poyafzal kiyib yurishadi qabilidagi savollarning barchasiga bitta javob mavjud. Bularning bariga jamiyatda o'matilgan sotsial norma va qadriyatlar qatorida mavjud bo'lgan sotsial nazorat sababdir. Insonlar har kugni kundalik hayotlarida ma'lum vazifalarni va xatti-harakatlarni bajarishadi. Ularning ba'zilari xatto avloddan-avlodga o'tish xususityaiga ega. Mana shu qaytariluvchanlik tufayli jamiyatning davomiyligi ta'minlanadi. Qaytariluvchan xatti-harakatlar oqibatini oldindan aytish va ko'ra bilish mumkin. Bu insonlar o'rtasidagi o'zaro moslashish va ko'nikish holatiga olib keladi. Misol uchun mashina haydovchisi yo'lda ketayotganida qarama-qarshi tomonidan kelayotgan mashinalarning o'ng tomonidan yurishini aniq biladi. Chunki ularning birortasi bu qoidani buzsa, avtoxalokat sodir bo'lib, buning uchun jazo muqarrarligini barcha biladi.

Jamiyatdagi har bir guruh o'ziga xos bo'lgan qoidalar va ta'qiqlar tizimini, majburlash va bosim o'tkazish tizimini, individlarning xatti-harakatini ma'lum qolipga soluvchi usullar tizimini (xatto jismoriy kuch ishlatish orqali) yaratadi. Mazkur tizimlar sotsiologiyada sotsial nazorat tizimi nomi bilan yuritiladi.

Jamiyat hayoti faqat hulq-atvorni muvofiqlashtiruvchi me'yorlar va qonunlardan tashkil topmaydi. Bundan tashqari jamiyat kishilar hulq-atvorini nazorat qiluvchi turli xil mexanizmlariga egadir. Jumladan, sotsial nazorat tizimli amaliyot hisoblanib, u sotsial guruhlar tomonidan deviatsiyani vujudga kelishiда to'siq sifatida ishlab chiqiladi.

Sotsial nazorat mexanizmlari ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki sotsial nazorat sotsializatsiya jarayoni asosida amalga oshiriladi: kishilar sotsial me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirib boradilar, ularda esa kishilar o'zlarini qanday tutishlari lozimligi aks etadi va keyin kiishilar o'z kundalik hayotlarida ularga tayanadilar.

Bundan farqli o'laroq, tashqi sotsial nazorat o'zida negativ sanksiyalarini qo'llashlikni namoyon qiladi va ayrim hulq-atvor turlarini ta'qilashni kuzda tutadi. Zamonaliv jamiyatda janoyatga qarshi kurashuvchi adolatli sud, politsiya va turmalar tashqi sotsial nazoratning asosiy mexanizmi bo'lib gavdalanishadi.<sup>100</sup>

Sotsial nazorat turi tarkibiga asosiy sakkizta komponent kiritiladi:

1. *Individual ta'sir*, bu holat individning atrof – muhit, ijtimoiy muhit bilan faol munosabatlari davomida shakllanadi – bu ishlab chiqarish, anglash va moslashish ko'rinishidagi xohlagan akllardan tashkil topgan.

2. *Baholashlarning ijtimoiy shkalasi*, bu holat obyektiv mavjudlikdan kelib chiqqan holatda belgilanib, jamiyatda bu holat atrofdagi ijtimoiy muhit ta'siri reaksiyalarida aks etadi.

3. *Kategoriyalashitirish*, bu holat ijtimoiy baholash shkalasining funksiya bajarishi davomida qaror topadi va ma'lum bir aniqlikdagi baholash kategoriyalarida u yoki bu individual xatti – harakatlarga tegishli hisoblanadi (nisbatan ko'proq umumiy ko'rinishda – ijtimoiy muvofiqlik yoki rad etilish).

4. *Ommaviy o'zlikni anglash tavsifi*, aynan ushbu holatdan o'z navbatida xohlagan individual harakatlarning kategoriyalanishi kelib chiqadi, jumladan jamoatchilik tomonidan o'z – o'zini baholash va ijtimoiy guruhi tomonidan vaziyatning baholanishi ta'sir ko'rsatadi (ijtimoiy persepsiya).

<sup>100</sup> Diana Kendall Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. P.166-167

5. Ijtimoiy harakatlar tarkibi va tavsifi, bu ijobjiy yoki salbiy *sanksiyalar* funksiyasini bajaradi, bevosita jamoatchilikning o'zligini anglash holati bilan bog'liq hisoblanadi.

6. *Baholashlarning individual shkalasi*, bu holat ichki qadriyatlar, ideallar, hayotiy manfaatlar va individning intilishlari tizimi xosilasi sifatida namoyon bo'ladi.

7. Individning o'z-o'zini kategoriyalashi doirasida harakatlarning ijtimoiy natijalarini kelib chiqadi (rolni qabul qilish, o'z – o'zini identifikasiyalash, ya'ni o'zini ma'lum bir shaxslar guruhiga mansubligini aniqlash), bu individual baholash shkalasining funksiyasidan kelib chiqadi.

8. *Individual ong tavsifi*, bu holat individning o'z-o'zini kategoriyalashidan kelib chiqadi, bu holat asosida individning navbatdagi faoliyati, ijtimoiy baholash harakatlari reaksiyalarini amalga oshadi.

Demak, sotsial nazorat – sotsial tizimlarda o'zini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi bo'lib, individlarning normativ harakatlarini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Normativ harakatlarini ta'minlash deyilganida, individlarning jamiyatda o'matilgan huquqiy, ahloqiy qoidalar asosida yashashi tushuniladi.

Sotsial nazorat jamiyatda bajaruvchi o'ziga xos vazifalari orqali sotsial tizimning mustahkamligi, individlar hayotidagi tinchlik va sotsial barqarorlik, shuningdek, sotsial tizimdagagi ijobjiy o'zgarishlar ta'minlanadi.

Jamiyatda kechuvchi turli xil o'zgarishlar jumladan, norma va qoidalardan og'ish holatlarini to'g'ri baholash va taraqqiyotga boshlovchilarini aniqlash uchun sotsial nazorat o'ta qayishqoq bo'lishi lozim. Jamiat uchun xavfli va salbiy og'ishlarni jazolash va aksincha, ijobjiy sho'zgnarishlarni rag'batlantirishda sotsial nazoratning qayishqoqolik xususiyati muhim o'rinn tutadi.

Sotsial nazoratni amalga oshirish sotsializatsiya jarayonidan boshlanadi. Chunki, bu paytdan boshlab individ sotsial normalarni va qadriyatlarni o'zlashtirishni boshlaydi. Unda ma'lum rollarni amalga oshirish yuzasidan ma'lum burch va huquqlar tizimi paydo bo'ladi.

Sotsial nazoratning asosiy elementlari odatlar, urf-odatlar va sanksiyalar tizimi sanaladi.

Odat – bu ma'lum vaziyatlarda amalga oshiriladigan mustahkam xatti-harakatlardan bo'lib, ba'zi hollarda individ uchun ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi va guruh tomonidan salbiy qarshilikka uchrannaydi.

Har bir individning o'z odatlari bo'lishi mumkin. Misol uchun erta tongda turish, ertalab badan tarbiya bilan shug'ullanish, ma'lum bichim va shakldagi kiyinish uslubiga ega bo'lish va h.k. butun guruhga tegishli bo'lgan odatlar ham bo'ladi. Misol uchun ma'lum do'stlar guruhi har yili yangi yil arafasi tog'ga dam olishga chiqishlari mumkin. Undan tashqari odatlar tascidiyf ravishda vujudga kelgan yoki biror maqsad yo'lida tarbiyalangan bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ayrim odatlar individ xarakterining ajralmas qismiga aylanadi va avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Odatlar ko'nikmalami qabul qilish va urf-odatlarni o'rganish davomida hosil bo'lishi mumkin. Ayrim odatlar qadimgi tantanalar va urflardan qolib ketgan bo'ladi.

Odatda odatlarning buzilishi salbiy sanksiyalarga olib kelmaydi. Ammo individning harakatlari guruhda qabul qilingan odatlarga mos kelsa, ular albatta ijobjiy qabul qilinadi va rag'batlantiriladi ham.

Urf-odatlar – xulq-atvorni sotsial boshqarish va nazorat qilishning stereotipli shakli sanaladi. Ma'lum guruhning ahloqiy qarashlarini o'ziga singdirgan, tarixiy jihatdan o'tmishga borib taqaladigan xatti-harakatlar tizimi bo'lib, ularning buzilishi salbiy sanksiyalarga olib keladi. Urf-odatlar insonlarni ma'lum vaziyatlarda majburlash va belgilangan amallarni bajarishga undaydi.

Ko'p hollarda «urf-odat» tushunchasi «an'una» va «udum» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Ammo urf-odat o'tmishdan qolgan majburiy amallarni qat'iy ravishda boshqarishni nazarda tutadi va an'analardan farqli ravishda sotsial hayotning barcha sohalarida amal qilmaydi. Udumlardan farqi shundaki, urf-odatlar ma'lum sotsial munosabatlarni anglatib, turli obyektlarni amaliy jihatdan o'zgartirish va turli usullarda ishlatish vositasi hisoblanadi.

Misol uchun urf-odatlarimiz keksa yoshdag'i insonlarni qadrlashni nazarda tutadi. Avtobusda nogiron va keksa yoshdagilarga joy berish, guruhda yuqori lavozimni egallagan shaxsga nisbatan etiket yuzasidan hurmat bilan munosabatda

bo'lish va h.k. Demak, sotsial urf-odatlar deyilganida, guruh tomonidan qabul qilingan qadriyatlar tizimi tushunilib, ular individlarning ma'lum vaziyatlarda o'zini qanday tutisblarini belgilovchi xulq-atvor namunalaridan tashkil topadi.

Urf-odatlarni bajarmaslik va ularga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lish holatlari guruhning birdamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Guruh uchun urf-odatlar orqali amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar o'ta qadrli bo'lgani uchun u o'z alzolarini mazkur urf-odatlarga rioya qilishga majbur qiladi.

Agrar va kapitalistik munosabatlar qaror topmagan jamiyatlarda urf-odatlar hayot tarzining asosiy sotsial regulyatori, ya'ni nazoratchisi, boshqaruvchisi sanalgan. Ammo urf-odatlar guruh a'zolari ustidan sotsial nazoratni olib borish bilan birga guruhning birdamligini, avloddan-avlodaga sotsial va madaniy merosning o'tishini ta'minlaydi. Urf-odatlar yoshlarning sotsializatsiyasida muhim o'rinni tutadi.

Urf-odatlar qatoriga diniy udumlar, fuqarclik bayramlari, ishlab chiqarishdagi ma'lum ko'nikma, an'analar misol bo'ladi. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatlarda sotsial nazorat vazifasini asosan sotsial institutlar olib boradi. Sof holatda urf-odatlarni kundalik hayotimizda, ahloqda, fuqarolik burchlari va turli xil nisbiy qoidalarda uchratishimiz mumkin. Misol uchun yo'l harakati qoidalari va h.k.

Urf-odatlar ular o'rinni olgan jamiyat va undagi ijtimoiy tizimdan kelib chiqqan holda progressiv va reaksiyon bo'lishi mumkin. Progressiv urf-odatlar jamiyatni rivojlanirishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga novatorlik yondashuvini qamrab oladi. Bunday urf-odatlar odatta rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ko'p uchraydi. Reaksiyon, ya'ni eskirgan urf-odatlar bilan rivojlangan mamlakatlarda muntazam kurash olib boriladi. Chunki ular jamiyat rivojini ortga suruvchi omil sifatida baholanadi. Eski urf-odatlarning o'rniga yangi fuqarolik udumlari va odatlari muomalaga kiritiladi.

**Sotsial sanksiyalar.** Sanksiya – guruh a'zolarining xatti-harakatini boshqarish maqsadida guruh tomonidan yaratilgan operativ choralar-tadbirlar va vositalar yig'indisi bo'lib, sanksiyani yaratishdan maqsad – guruhiy birlikni saqlab qolish, ijtimoiy hayotning davomiyligini ta'minlash, jazolash yo'llari orqali guruh a'zolarida mazkur xatti-harakatlarni o'z xohishi bilan bajarish ishtiyoqini tug'dirishdir.

Sanksiyalar salbiy, ya'ni jazolovchi va ijohiy, ya'ni rag'batlantiruvchi bo'lishi mumkin. Sotsial sanksiyalar sotsial nazoratning ajralmas bo'lagi sanaladi. Ularning mohiyati shundan iboratki, ular individ tomonidan bajarilayotgan xatti-harakatni yoki individning biror xatti-harakatga nisbatan munosabatini aniqlashtiruvchi tashqi stimul sifatida namoyon bo'ladi.

Sanksiyalar formal, ya'ni rasmiy va noformal, ya'ni norasmiy bo'lishi mumkin. **Rasmiy sanksiyalar** – bu rasmiy institutlarning qonun, qaror, ustav yoki biror boshqa rasniy hujjatda oldindan aniqlashtirilgan holatiga ko'ra individ yoki guruhning xatti-harakatiga nisbatan javob reaksiysi.

**Norasmiy sanksiyalar** – jamoatchilikning, norasmiy institutlarning, guruh a'zolari, do'stilar yoki qo'shnilarining tasodifiy hamda emotsional tusga ega bo'lgan reaksiysi. Eshqqa qilib aytganda atrofdagilarning sizning xatti-harakatlaringizga nisbatan javobi.

Individ bir vaqtning o'zida bir necha guruh va institutlarga a'zo bo'lishi mumkin. Turli guruh va institutlardagi sanksiyalar bir-birini qo'llab-quvvatlashi yoki inkor qilishi mumkin.

Ichki bosim o'tkazish usuliga ko'ra, sanksiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

**Huquqiy sanksiyalar** – bu qonun tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan rag'bat hamda jazolar tizimi.

**Ahloqiy sanksiyalar** – bu ahloqiy tamoyillarga tayanuvchi dashnom, pand-nasihatlar tizimi.

**Satirik sanksiyalar** – guruhning normalariga nisbatan o'zgacha harakatlarni amalga oshirganlarning ustidan ustidan kulish shaklida namoyon bo'lувчи harakatlar tizimi.

**Diniy sanksiyalar** – ma'lum dingga tegishli bo'lgan e'tiqod va dogma normalari asosida shakllangan rag'bat va jazolar tizimi.<sup>101</sup>

**Ahloqiy sanksiyalar** bevosita sotsial guruh tomonidan individga nisbatan bildirilgan munosabat va xatti-harakatlari orqali amalga oshiriladi. Yuridik, siyosiy,

<sup>101</sup> Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психологический социальный институт, Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.234.

iqtisodiy sanksiyalar esa turli sotsial institutlarning faoliyati orqali namoyon bo'ladı. Misol uchun sud-huquq tizimi aynan shunday sanksiyalarni amalga oshirish uchun mahsus yaratilgan hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ko'p hollarda quyidagi sanksiya turlarini uchratish mumkin:

Salbiy norasmiy sanksiyalar – qoniqmaslik, xafa bo'lish, ranjish shakllarida namoyon bo'lib, do'stlikning tugatilishi, yordam berishdan o'zini tiyish, turli mish-mishlarni tarqatish kabi ko'rinishlarda amalga oshishi mumkin. Mafzur sanksiyalar muhim ahamiyatga ega. Chunki ulardan so'ng ma'lum sotsial oqibatlar, ya'ni individ o'z hurmatini yo'qotishi, ma'lum imkoniyatlarining cheklanishi kabilarni boshdan o'tkazadi.

Salbiy rasmiy sanksiyalar – qonun tomonidan nazarda tutilgan barcha jazolash turlarini qamrab oladi. Bularga jarimalar, hibsga olish, qamash, mol-mulkini musodara qilish, o'lim jazosi kiradi. Bu jazolar tahdid, qo'rqtish yo'llari bilan individga jamiyatdagi qoidalarni buzganligi uchun qo'llaniladigna choralar haqida xabar beradi.

Ijobiy rasmiy sanksiyalar – bu atrofdagilarning individ tomonidan bajarilgan ijobiy va guruhga yoqadigan xatti-harakatlariga nisbatan munosabati bo'lib, og'zaki va yozma ravishda rag'batlash, maqtash tarzida namoyon bo'ladı. Ular individ to'g'risidagi ijobiy mish-mishlar tarzida bo'lishi ham mumkin.

XX asrda tadqiqotchilar tomonidan sotsial sanksiyalarning oshkora va latent oqibatlari o'rganila boshlandi. Buning sababi shundaki, jamiyatda ba'zi hollarda sanksiyalarning og'irlashtirilishi oqibatida aks ta'sir kuzatila boshlangan. Sanksiyalarning og'irlashtirilishi ularga nisbatan bo'ysunmaslik va og'ma harakatlarga olib kelgan. Misol uchun bir kichik qilmishini bekitish va jazodan qochish maqsadida inson yanada kattaroq xatolarga yo'l qo'yadi. Sanksiyalardaan ortiqcha ravishda qo'rqish hissi esa individning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uning ijodkorligi va impravizatorligi pasayadi.

Shuning uchun sksiyalarning samarador bo'lishi ularning qo'llanish payti, joyi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan bnyosita bog'liq. Sanksiyalarni o'rganish

ularning jamniyat va shaxsga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazaridan juda muhim sanaladi.

### Nazorat savollari

1. Jamiyatdagi sotsial aloqalarining turlarini aytib bering?
2. M.Veberring "Sotsal harakat" nazariyasining mobiyati nimadan iborat?
3. "Sotsial munosabatlar" deganda nimani tushundingiz.
4. Sotsial munosabatlarning qanday turlarini bilasiz?
5. Sotsial nazorat tushunchasi va ularning turlarini aytинг.
6. Sotsial sanksiyalarning qanday turlarini bilasiz?

### Test savollari

#### 1. Sotsial munosabatlar – bu?

A. Bu sotsial subyektlarning o'zaro bajargan anglangan yoki anglanmagan, rejalashtirilgan yoki tasodifiy, takroriy yoki bir marotabali aloqadorligi.

B. O'ziga xos tizim bo'lib, u eng kamida ikki kishi, aloqaning asosini tashkil etuvchi qandaydir bir qadriyat va mazkur qadriyat yuzasidan umalga oshirilgan o'zaro harakatlardan tashkil topgan

C. Individ yoki guruhning boshqa individ yoki guruh harakatlarini, qarashlarini, fikrlarini o'zgartirishga qaratilgan xatti-harakat, metod va vositalar tizimi.

D. Organizmning ichki yoki atrof muhitga tegishli bo'lган omillariga nisbatan javob reaksiyasi bo'lib, u refleksli, anglanmagan yoki rejali, anglangan bo'lishi mumkin.

#### 2. Umuman olganda jamiyatdagi aloqalar qanday turlarga ajratiladi?

A. Hayotiy kenglikdagi, psixologik va sotsial aloqalar

B. Hositali yoki vositasiz

C. Ikki tomonlama yoki bir tomonlama

D. Vaqtinchalik (tasodifiy, bir martali) va doimiy

#### 3. Sotsial aloqalar ularda ishtirok etuvchi tomonlarning aloqa shakliga ko'ra, qanday turlarga bo'lishi mumkin?

- A. Formal va noformal
- B. Shaxsiy va predmetli aloqa
- C. Bevosita va bilvosita
- D. Ikki tomonlama yoki bir tomonlama

**4. Jamniyatda qanday turdagি sotsial aloqalar yo'qolsa yoki kamaysa, yolg'izlik va begonalashuv ortadi?**

- A. Bevosita doimiy shaxsiy aloqalar
- B. Predmetli tasodifiy
- C. Bilvosita tasodifiy shaxsiy
- D. Bevosita tasodifiy shaxsiy aloqalar

**5. Sotsial harakat – bu?**

- A. Individ yoki guruhning boshqa individ yoki guruh harakatlarini, qarashlarini, fikrlarini o'zgartirishga qaratilgan xatti-harakat, metod va vositalar tizimi.
- B. O'ziga xos tizim bo'lib, u eng kamida ikki kishi, aloqaning asosini tashkil etuvchi qandaydir bir qadriyat va mazkur qadriyat yuzasidan amalga oshirilgan o'zaro harakatlardan tashkil topgan
- C. Organizmning ichki yoki atrof muhitga tegishli bo'lgan omillariga nisbatan javob reaksiyasi bo'lib, u refleksli, anglanmagan yoki rejali, anglangan bo'lishi mumkin.
- D. Bu sotsial subyektlarning o'zaro bajargan angangan yoki anglanmagan, rejalashtirilgan yoki tasodifiy, takroriy yoki bir marotabali aloqadorligi.

**7. Qaysi olim sotsial harakatning anganganlik va ratsionallik darajasiga ko'ra maqsadli-ratsional, qadriyatli-ratsional, affektiv va an'anaviy harakatlarga ajratgan?**

- A. Veber
- B. Goffman
- C. Kont
- D. Dyurkgeym

**8. Mashhur sotsiolog M.Veberning nazariyasiga ko'ra, sotsial harakat qaysi muhim holatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:**

1. Guruh yoki individ harakatlarining subyektiv motivatsiyasi
  2. O'tmish, hozir yoki kelajakdag'i harakatga yo'naltirilganlik
  3. Harakat subyekti – harakatni amalga oshiruvchi ta'sir etuvchi individ yoki guruh
  4. Harakat obyekti – harakat yo'naltirilgan individ yoki guruh
  5. Harakat vositalari va metodlari. Ular vositasida o'zgartirishlar amalga oshiriladi
  6. Harakat natijasi – harakat yo'naltirilgan guruh yoki individning javob reaksiyasi.
- A. 1,6  
B. 1,2  
C. 1,2,3,4,5,6  
D. 3,4,5,6

## **8-bob. JAMOATCHILIK FIKRI SOTSSIOLOGIYASI**

### **Reja:**

- 1. Jamoatchilik fikri tushunchasining shakllanish tarixi**
- 2. Jamoatchilik fikri tushunchasining mohiyati, subyekti, obyekti, xususiyatlari**
- 3. Jamoatchilik fikrining tarkibiy komponentlari va vazifalari**
- 4. Jamoatchilik fikrining shakllanish bosqichlar va uni o'rganish metodologiyasi**
- 5. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi. Stereotip va mish-mishlar**

### **Tayanch iboralar**

*Jamoatchilik fikri. Akt diurnal. Jamoatchilik fikri sotssioligiysi. "Gellapp interneyeshnl" xalqaro tarmog'i. Jamoatchilik fikri subyekti. Jamoatchilik fikri obyekti. Asos (bazis) xususiyatlari. Institutsional xususiyatlar. Instrumental xususiyatlar. Gnoseologik vazifa va sotsietal vazifa. Singdirish. Ishontirish. Taglid usullari. Elektoral. Plebessentar. Kommunikativ shakl. Individual va guruhiy jamoatchilik fikri. Sotsial stereotip. Mish-mishlar.*

### **1. Jamoatchilik fikri tushunchasining shakllanish tarixi**

Volter ta'biri bilan aytganda, "jamoatchilik fikri dunyoni boshqaradi, ammo oxir oqibat jamoatchilik fikrini donolar boshqaradi".

Qadim Yunonistondayoq jamoatchilik fikrining jamiyat rivoji va hayotidagi o'miga alohida e'tibor qaratilgan. Klassik feodalizm davrida "jamoatchilik fikri" tushunchasi ingliz yozuvchisi va davlat arbobi Solsberi tomonidan XII asrning ikkinchi yarmida birinchi bor ishlatalgan, animo u keng tarqalmadi. Mazkur tushunchani 1759-yil Djon Solbern tomonidan parlamentda so'zlagan nutqi

davomida ishlatilgach, keng yoyildi va qo'llanila boshlandi. Jamoatchilik fikri tushunchasi Angliyada 18 asrda so'rov usuli orqali ommaviy muhokamaga qo'yilgan masalalar yuzasidan bildirilgan ijobiylar va salbiy baholovchi fikrlarning yig'indisini anglatgan.

Tarixiy rivojlanish davomida tadqiqotchi olimlarning jamoatchilik fikri to'g'risidagi qarashlari taraqqiy etib bormoqda. Jamoatchilik fikriga sotsial fenomen sifatidagi ascesiy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

*Antik davr.* Qadimgi Yunonistonda erkin fuqarolarning fikrlari xalq yig'inlari va forumlarida ularning bildirgan ovozlari orqali inobatga olingan. Qadim Yunonistonning adabiyotlarida xalq fikri va uni inobatga olish masalasi keng yoritilgan. Aristotel o'zining "Siyosat" asarida "xalq ommasini yig'in va muhokamalrga jalb qilish" orqali jamoatchilik fikriga davlat ishlarini boshqarish imkonini berish lozimligi ta'kidlagan.

Qadimgi Rimda jamoatchilik diskussiyalari amaliyoti keng qo'llanilib, ularning natijalari va axborotlar devoriy "Akt diurna" nomli gazetalarda chop etilgan. Aytib o'tish kerakki, xalq fikri - «vox populi» haqida ilk bora rimliklar fikr bildirishgan va uning jamiyatdagi ahamiyatining ortishiga hissa qo'shgan. Xalq fikri, Sitseronning yozishicha, Rim sud amaliyotida keng qo'llanilgan. Rimda jamoatchilik fikrini bildiruvchi mahsus organ tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi fuqarolarning ahloqiy qarashlarini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Rimning xalq yig'inlari oxir oqibat fikrlarni bildirish makoni maqomini yo'qtib borgan.<sup>102</sup>

Platon, Sokrat, Protagor, Aristotelning astralarida jamoatchilik fikri to'g'risidagi qarashlarni ko'rish mumkin. Ular birinchilardan bo'lib, jamoatchilik fikrining roli va jamiyat hayotidagi ahamiyatini oshib berishga harakat qilishgan.

Sofistlar demokratik davlat tarafdoqlari sifatida uning ishlarida jamoatchilik fikriga katta ahamiyat berishgan.

Protagorning fikricha, jamoatchilik fikriadolat va adolatsizlik, haqiqat va yolg'on borasida bir fikrga kelish uchun o'rganilishi kerakli sanalgan. Olimning

<sup>102</sup>Социологические проблемы изучения общественного мнения. Учебно-методический комплекс. Составитель Д. соп.н., проф. Л.Н. Вдовиченко. Ответственный редактор Д.Ф.И., чл.-корр. РАН, проф. Ж.Т. Тошенико. Российский государственный гуманитарный университет. 2010. С 11.

mazkur yondashuvi ko'p hollarda fuqarolik jamoasining kuchli pozitsiyalari bilan asoslanadi. Bunda jamoatchilik fikrining jamiyat, davlat, jamiyat hokimiyat tizimi bilan uyg'unlashuvi nazarda tutilgan.

Sokratning maktabi vakillari dono va bilimlilarning aristokratik boshqaruvi xalqning o'zboshimcha boshqaruvini yengishi uchun jamoatchilik fikridan xabardor bo'lish kerakligini ilgari surishgan. Mazkur fikr Platonning ishlarida o'z rivojini topgan. Uning fikricha, dono va bilimli insonlarning fikrlari keng ommaning fikriga qaraganda ahamiyatliroq, qadrliroq, jamiyat uchun foydaliroq, to'g'riroq sanaladi.

Aristotel "Siyosat" asarida turli masalalarni tahlil qilish paytida yakka insonning irrnkoniyatlari chegaralangan bo'ladi. Jamiyatdagi ayrim voqye va hodisalarini tushunishda ko'pchilikning mushohadasi o'rinliroq va samaraliroq sanaladi. Olim boylik va ilmiy asosga ega bo'limgan erkin fuqarolarning jamiyat hayotining qaysi jabhasini boshqarishi kerak, degan savolga javob qqidirishga intilgan. Bir tomondan, yetarlicha ko'nikma va bilimg ega bo'limgan keng ommani yuqori lavozimlar ustidan nazoratini o'matish u qadar xavfsiz emas. Chunki ular adolatsizlikka va noto'g'ri qarorlarga yo'l qo'yishlari mumkin. Ikkinci tomondan, ularni hhokimiyatdan butkul chetlatish ham xavf tug'dirishi mumkin. Chunki davlatda ko'pchilik siyosiy huqulardan mahrum qilinsa, qashshoqlar soni ko'p bo'lsa, bunday davlatda norozilik va qarshilik kayfiyati kuzatilib, nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Aristotel mazkur yo'nalishda fikr olib borib, oddiy xalqni yig'inlarda va sub hokimiyatidagi huquqlarni cheklash lozimligini ko'rsatgan.<sup>103</sup>

*O'rta asrlar.* Feodal tuzumi davrida cherkov mafkurasining hukmronligiga qaramay ijtimoiy-siyosiy fikrda jamoatchilik fikriga alohida e'tibror qaratilgan. Aynan klassik feodalizm davrida "jamoatchilik fikri" tushunchasi paydo bo'lgan. U birinchi bo'lib ingлиз yozuvchisi va davlat arbei Solsberi tomonidan XII asrning ikkinchi yarmida qo'llanilgan. U jamoatchilik fikrini parlamentning ma'naviy vqa ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi vositasi sifatida ishlatgan. Garchi mazkur tushuncha, o'sha davrda keng qo'llanilmagan bo'lsada, jamoatchilik fikri fenomeni uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Angliyadan mazkur tushuncha boshqa

<sup>103</sup> Аристотель. Политика. — М., 2002. — С. 105.

mamlakatlarga yoyila boshladi va XVIII asrga kelib umum tomonidan qabul qilindi. Fransiyada jamoatchilik fikri (commune opinion) XII — XIII asrlardan boshlab ilmiy adabiyotlarda ishlatilgan

Feodal tuzumming yemirilishi davrida qadimgi yunon inutafakkirlarining jamoatchilik fikri borasidagi qarashlari rivojlanishda davom etadi. Misol uchun XV asrda Italiya'dagi gumanistik fikr jamoatchilik fikrining jamiyat hayotidagi ahamiyatini ifoda etib, fuqarolik gumanizmi yo'nalishi shakllandi. Ularning yorqin namoyondalari L. Bruni, M. Palmieri, A. Rinuchchini hisoblanadi<sup>104</sup>. Fuqarolik gumanizmi davomchilari Florentiya respublikasining demokratik boshlanishlari uchun kurashishgan. Ular teng huquqli fuqarolarning davlat boshqarmvida bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun kurashishgan. L. Bruni<sup>105</sup> Aristotel kabi boshqaruvchi sardorni demokratik usulda tanlash tarafdoi bo'lgan. U boshqaruvdag'i shaxschlarning tez-tez almashib turishi holatida fuqarolarning tengligini, hamda tironiyadan saqlanish va demokratiyanı o'matish usulini ko'rgan.

Feodalizm davrida ekspluatatsiyaga qarshi bo'lgan ko'pgina qarashlar paydo bo'ldi. Ularning asosini utopik sotsializm va kommunistik g'oyalartashkil etgan. O'zining ilk paydo bo'lish bosqichlarida mazkur g'oyalalar diniy ta'limotlar sifatida yoki ularning ichida, xalq og'zaki ijodida shakllangan. Ko'p hollarda ular patriarchal demokratiyaning (T. Myunser, taboritlar, anabaptistlar) tarafдорлари bo'lgan.

Jamoatchilik fikrini o'rgangan olim V. Korobeynikovning ta'kidlashicha, feodalizm o'zining bo'linish xususiyati tufayli jamoatchilik fikrining guruhsar fikri sifatida qaror topishi va shakllanishida o'z izini qoldirdi. Bu diniy omillar bilan ham aniqlangan. Jumladan, yevropada katolik cherkovining hokimiysi va nufuzi, siyosiy va jamoatchilik fikrining nisbiy harakatsizligi, fikr almashuvi imkoniyatining cheklanganligi.

Bu davrda jamoatchilik fikri diniy mushohadalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. O'rta asrlarning so'ngida bu holat cherkovni isloh etish uchun asos bo'ldi. Feodal

<sup>104</sup> Пальмиери М. О гражданской жизни // Антология мировой философии. Возрождение. — Минск, 2001. — С. 256.

<sup>105</sup> Социологические проблемы изучения общественного мнения. Учебно-методический комплекс. Составитель Д. соц.н., проф. Л.Н. Вдовиченко. Ответственный редактор Д.Ф. чл.-корр. РАН, проф. Ж.Т. Тощенко. Российский государственный гуманитарный университет, 2010. С 13.

davlatning siyosiy tashkiloti jamoatchilik fikri subyektiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Monarxning fikri dvoryanlar va diniy rahnamolarning manfaatlарини ifodalagan. Misol uchun Lyudovik XIV davrida, G.Tardning yozishicha, "monarxning qarorlari saroy ayonlarining fikrini bиринчи navbatda inobatga олган, shaharning fikriga e'tibor berilmagan, provinsiyalarning ovozi esa umuman yo'q deb sanalgan".

"Jamoatchilik fikri" tushunchasining ilmiy jihatdan qaror topishi va ishlab chiqilishi XVII—XIX asrlarga to'g'ri keladi. XIX-asr so'ngiga qadar jamoatchilik fikri falsafaning muammosi sifatida ko'rilgan. T.Mor va T.Kampanellaning bu borada yaratgan asarlari va fikrlarini misol qilishimiz mumkin<sup>106</sup>

T.Mor o'zining "Utopiya" asarida barcha milliy kulfatlarning sababi sifatida xususiy mulkni ko'rsatgan. Uning fikricha, bunday sharoitda davlat boshqaruvi adolatli va baxtli bo'la olmaydi. Ammo shu bilan birgalikda u xalqning erki va fikrlarini jilovlab turuvchi institutlarning mavjudligi yoqlaydi — quidorlik, sotsial ierarxiya, yuqori knyaz hokimiyatini va h.k.

Kampanella esa sotsial tenglik tamoyillarini ishlab chiqadi va yigirma yoshdan oshgan barcha fuqarolarning davlat boshqaruvi borasida o'z fikrlarini bildirishi imkoniyatini yoqlab chiqadi. Uning fikricha, mansasayubdor shaxslarning almashinuvi xalq irodasiga asoslanishi lozim.

*Kapitalizm davrida jamoatchilik fikri fenomenining nazariy jihatdan anglash,* uning davlat va jamiyat hayotidagi o'mini o'rganish uchun asoslar va imkoniyatlar yaratila boshlandi.

Italiyalik mutafakkir Makiavelli o'zining "Xukmdor" asarida jamoatchilik fikrinинг ko'pqirrali ekanligini aytib o'tadi. Siyosiy ong va siyosiy xatti-harakatni yoritish maqsadida olim jamoatchilik fikrini ham o'rganadi. U xalqni ulkan kuch sifatida ta'riflab, u xukmdorning mustahкам asosi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. U shunday yozgan: "tashqi dushmanlardan ko'ra o'z xalqidan ko'proq qo'rqqan xukmdor uchun qal'anı o'rab turuvchi devorlar foyda berishi mumkin, ammo o'z

<sup>106</sup> Социологические проблемы изучения общественного мнения. Учебно-методический комплекс. Составитель Д. соц.н., проф. Л.Н. Вловиченко. Ответственный редактор Д.Ф.Н., чл.-корр. РАН, проф. Ж.Т. Тощенко. Российский государственный гуманитарный университет, 2010. С 14.

xalqidan emas, balki tashqi dushmanlardan xadiksragan xukmdor uchun qal'alarning keragi yo'q... ularning eng katta himoyasi xalqining muhabbatidir".

Makiavelli jamoatchilik fikrida xukmdorning aks etuvchi ba'zi sotsial-psixologik xususiyatlarini ta'kidlab o'tgan: "Har birimizning ko'zimiz borligi uchun insonlar eng avvalo tashqi ko'rinish asosida baho berishadi, qo'l bilan tegib ko'rish imkonи esa hammaga berilmagan va seni tashqi qiyofang asosida biluvchilarning soni seni ichki olaming asosida biluvchilar sonidan ancha ko'p. Ko'pchilikni tashkil etuvchilarning fikriga hamisha ozchilik ergashadi. Ko'pchilikning fikrini davlat qo'llab-quvvatlaydi".

*Yangi davr.* Mazkur davrda jamoatchilik fikri borasida A. Smit, F. Bekon, Dj.Lokk, T.Gobbs kabi olimlar o'z fikrlarini bildirishgan.

### *3. Jamoatchilik fikri tushunchasining moliyati, subyekti, obyekti, xususiyatlari*

Jamoatchilik fikrini amaliy sotsiologik jihatdan o'lhash va o'rganish jarayoni XIX asrda AQShda boshlangan bo'lib, ular jamiyatda iqtisodiy muammolar va siyosiy vaziyat, ya'ni saylovlar va partiyalaming faoliyati borasida axborot olishga bo'lgan katta ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan.

Jamoatchilik fikri sotssiologiyasi sotsiologiyaning eng ko'p talab qilinayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi jamoatchilik fikrini o'rganishdagи samarador mexanizm va texnologiyalarni yaratishdan tashqari, uni tashkil etish va dinamikasini aniqlashdan iborat. Bunda jamoatchilik fikrining obyekti va subyektini o'rganish, muhim sotsial institut sifatidagi faoliyatining muhim tendensiyalarini ochib berish muhim kahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik fikri sotssiologiyasi nisbaatn yosh yo'nalitshlardan biri bo'lib, u fuqarolik jamiyatining rivojlanishidan darak beradi. XXasrning o'talaridan boshlab fanda jamoatchilik fikri va uning haqqoniyligi kabi masalalarga nisbatan shubha bilan qarash urf bo'lgan. Bu jamoatchilik fikrii sotsiololgiyasining o'rganish doirasini qator yangi muammolar bilan boyitib, tadqiqot uchun zamin yaratmoqda. Ko'p hollarda oddiy xalq va olimlar o'rtasida ham jamoatchilik fikrining muhimligi va haqqoniyligi juda past baholanishi kuzatilmoqda. Misol uchun P.Burdening "Jamoatchilik fikri

“mavjud emas” nomli dokladi yoki U.Lippmanning “jamoatchilik fikri ratsional emas, yetarlicha emotsional va voqealar rivojidan ortda qoladi, shuning uchun jamoatchilik fikrini boshqaruv qarorlarini qabul qilish paytida asos sifatida qabul qilib bo‘lmaydi”, degan fikrlari<sup>107</sup>

XX asrda jamoatchilik fikri sotsiologiyasi boshqa sotsiologiya yo‘nalishlari orasida o‘zining mustahkam o‘rnini egallab oldi. AQShda jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi firmalar tarmog‘i shakllarni. Ularning eng yirigi *Djordj Gellapping* xalqaro tarmog‘i sanaladi. yevropada Germaniyada faoliyat olib boruvchi demoskopiya Instituti mashhur. Fransiyada *J.Siesel* jamoatchilik fikrini o‘rganish masalasini institutlashuviga yirik hissa qo‘sigan bo‘lib, ko‘p yillar davomida “Zondaj” nomli jurnalni chop ettirgan. Bugungi kunda “*Gellapp interneyshnl*” xalqaro tarmog‘i Shimoliy Amerika va yevropaning deyarli barcha mamlakatlari ni qamrab olgan va ularda faoliyat olib boradi.

Jamoatchilik sotsiologiyasi XX asrda sotsiologik bilimning tarmog‘i sifatida shakllangan. Sotsiologik nuqtai nazardan jamoatchilik fikri murakkab sotsial kompleks bo‘lib, uni o‘rganishda uch xil yondashuv nuqtai nazardan amalga oshiriladi.

- Ma’naviy hayotning mental komponenti.
- O‘ziga xos sotsial jarayon.
- O‘ziga xos sotsial institut.

Jamoatchilik fikri – ommaviy ongning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u orqali jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlar, hodisalar, muammolar, davlat arboblari, faktlarga nisbatan ijtimoiy bahoni, xalq manfaatlarini hamda ma’naviy-amaliy yondashuvini bilish mumkin.

Jamoatchilik fikrining *mohiyati* quyidagi holatlarda o‘z aksini topadi.

*Birinchidan*, jamoatchilik fikri jamiyatdagi insonlarning tafakkuri mahsuli.

*Ikkinchidan*, jamoatchilik fikrining shakllanishidan ijtimoiy manfaat va ehtiyojlar asosiy tanlov sharti sanaladi.

<sup>107</sup> Социологические проблемы изучения общественного мнения. Учебно-методический комплекс. Составитель Д. соц.н., проф. Л.Н. Вдовиченко. Ответственный редактор Д.Ф.и., чл.-корр. РАН, проф. Ж.Т. Топченко. Российский государственный гуманитарный университет, 2010. С 7.

*Uchinchidan*, insonlarning ommaviy tafakkur mahsuli sanalagan fikrlarining obyektivligi turli xil darajada bo'ladi va ba'zan xato bo'lishi ham mumkin.

*To'rtinchidan*, jamoatchilik fikri keng jamoatchilikni faoliyatga rag'batlantiruvchi fikr snaladi.

*Beshinchidan*, jamoatchilik fikri jamiyatda faoliyat olib boruvchi turli bilim darajasi va ko'nikmalarga eg bo'lgan, yosh jihatidan va boshqa kriteriyalar asosida farqlanuvchi individlar fikrlarining yig'indisi sanaladi.

Jamoatchilik fikrining *subyekti* – keng jamoatchilik bo'lib, o'zining ichki strukturasiga ega bo'ladi va uni sotsiologik jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ularga sinflar, tabaqalar, guruhlar, yakka shaxslar kiradi. Mazkur birliklar doirasida jamoatchilik fikri shakllanadi.

Jamoatchilik fikrining *obyekti* – bu jamoatchilik fikri nima borasida shakllanganligidir, ya'ni jamiyatdagi biror dolzarb muammo, qandaydir fakt, holat yoki shu kabilar. Obyekt qay darajada inson manfaatlariiga tegishli bo'lsa, jamoatchilik fikrini shu darajada relefiroq bo'ladi. Misol uchun ekologik muammolar yoki jamiyatdagi sotsial tengsizlik masalasi.

#### *Jamoatchilik fikrining xususiyatlari:*

- Asos (bazis) xususiyatlari
- Institutsional xususiyatlari
- Instrumental xususiyatlari.

Jamoatchilik fikrining *asos xususiyatlariga* dixotomik reflektivlik (aks ettirish) va substansional yo'nalganlik kiradi.

Jamoatchilik fikrining *institutsiyal xususiyatlariga* jamoatchilik fikrining shakllanganlik darajasi, harakatda namoyon bo'lishi, ma'lum vazifalarga yo'nalganligi, ma'lum vazifalarga ega bo'lishi kiradi.

Jamoatchilik fikrining *instrumental xususiyatlarini*, ya'ni jamoatchilik fikrining miqdoriy ko'rsatkichlariga masshtabllik, jamoatchilikfikrining geografik tarqalganligi, o'zaro bog'liqligi, bir xil elementlardan tashkil topishi, intensivligi, qatiyiliqi, modalligi kiradi. Modallik jamoatchilik fikri strukturasidagi asosiy baholarning taqsimlanishi va mutanosibligini belgilaydi.

#### *4. Jamoatchilik fikrining tarkibiy komponentlari va vazifalari*

Jamoatchilik fikrining strukturasi o'z ichidagi komponentlarining o'zar qonuniy bog'liqligi asosidagi joylashuvi va aloqasini nazarda tutadi. Jamoatchilik fikri tarkibidagi *asosiy komponentlar* besh darajaga bo'lib o'rganiladi.

1. Tarkibiy komponentlar (ma'lum obyektlarga nisbatan ijotiy, salbiy, neytral baholar)
2. Asos komponentlari (ratsional emotsiyal, irodaga oid korinponentlar)
3. Subyekt-obyekt komponentlari (asosiy sotsial subyektlar yoki jamoatchilik fikrining egalari, jamoatchilik fikrini aks ettiruvchi obyektlar)
4. Darajali komponentlar (ichki tuzilish, ijtimoiy psixologiya va ideologiyaning mutanosibligi)
5. Jamoatchilik fikrining dinamik yoki diaxronik strukturasi, ya'nii jamoatchilik fikrining asosiy sikllari: genezis bosqichi, funksional bosqich, yakun topish bosqichi.

Jamoatchilik fikri o'zining ikki asosiy vazifasiga ega. Ularning birinchisi *gnoseologik vazifa* bo'lib, u o'z ichiga atrofdagi voqyea va hodisalarni bilish hamda ularni baholash jarayonlarini qamrab oladi. Jamoatchilik fikrining *sotsietal vazifasi* o'z ichiga shaxsning adaptatsiyasi, sotsiomadaniy meros, madaniyatlarning o'zar mutatsiyasi (qo'shilishi), konservativ funksiya, boshqaruva funksiyasi, nazorat funksiyasi, maqsadga yetishtirish funksiyasi, himoyalash funksiyasi, boshqaruva funksiyasi kabilarni qamrab oladi. Jamoatchilik fikrining nazorat funksiyasi – hokimiyat va davlat institutlarini nazorat qiladi.

Konsultativ funksiya – hokimiyat orgnalariga maslahat beradi.

Direktiv funksiya – sotsial hayotga tegishli bo'lgan qarorlar referendum vositasida qabul qilinadi.

Baholash funksiyasi – jamiyatda yuz yerayotgan barcha voqyea va hodisalar yuzasidan o'zining baholovchi ijobjiy yoki salbiy fikrini bildirishi.

Ba'zan jamoatchiliki fikri emotsiyalar ta'sirida shakllanadi. Ammo u konstruktiv va tahliiy tadqiqotlar asosida shakllangan bo'lsa, maqsadga muvoffiq va

obyektiv sanaladi. U ijobiylar va salbiy mushohadalar sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Sotsiologiyada "Xalq nimani o'ylaydi va nimani istaydi?", degan savol asosiyalaridan biri sanaladi. Bizning mamlakatimizda sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti nisbatan yaqin tarixga ega. Shunga qaramay sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish va ma'lumotlarni tahlili asosida tegishli xulosalarni ishlab chiqish yaxshi yo'lga qo'yilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

##### **5. *Jamoatchilik fikrining shakllanishi va uni o'r ganish metodologiyasi***

Jamoatchilik fikri shakllanishi davomida *paydo bo'lish, shakllanish va faoliyat* bosqichlarini bosib o'tadi. Jamoatchilik fikri stixiyali yoki ongli ravishda shakllanishi mumkin.

Jamoatchilik fikrini shakllantirishning o'ziga xos usullari mavjud. Ularga *singdirish, ishontirish, taqlid usullari* kiradi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish kanallariga esa *onimaviy axborot vositalari, og'zaki tashviqot, siyosiy targ'ibot, shaxslararo munosabatlar* kiradi.

Jaomatchilik fikrining shakllanish bosqichlari o'z ichiga individual fikrlarning paydo bo'lishi, fikrlar almashinuvi, ko'plab fikrlarning o'zaro moslashishi asosida yagona fikrning hosil bo'lishi hamda faoliyatga kiritilishini oladi. Kundalik hayotimizda jamoatchilik fikrining shakllanish bosqichlari hammasi birligida amalga oshirilib, o'ziga xos ko'tarilish va tushishlardan iborat bo'ladi. Har daqiqa biror yangi individual, guruhiy yoki jamoatchilik fikri shakllanadi.

Jamoatchilik fikri deyarli har doim o'zining sardorlariga, boshchilariga ega bo'ladi. Urug'chilik jamoasida bu yoshi ulug' oqsoqollar bo'lgan, keyinchalik esa diniy rahnamolar, zodagonlar, partiya rahbarlari va h.k. Ular o'z ta'sir doirasi orqali jamoatchilik fikrini boshqarib, nazorat qilib turishgan.

Bugungi kunda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi maxsus mutaxassislar – ideologlar, mafkurani targ'ib etuvchilar mavjud. Ular jamiyatda ma'lum fikrning ustun bo'lishini ta'minlash vazifasini bajarishadi. Bunda odatda propaganda (tashviqot), senzura, sotsial psixologiya usullaridan keng foydalilanildi.

Shakllangan jamoatchilik fikri integrativ xarakterga ega bo'ladi. U fikrlarning umumiy yig'indisi emas, balki umumiy ongning namoyon bo'lgan shakli sanaladi. Shakllangan jamoatchilik fikrining tarkibini aksariyat baholar tashkil etadi. Bu baholar ba'zi hollarda aldamchi bo'lishi ham mumkin.

Jamoatchilik firkini o'rganishning asosini unining metodika va metodologik bazasi, jumladan so'rovnomanli tuzish usullari va yo'llari tashkil etadi. Gellap institut tomonidan XX asrning 40 yillarida saylov kampaniyalarining yo'naliishini va rivojlanishini bashorat qilish tajribasini o'rganish natijasida jamoatchilik fikrini o'rganish metodikasini takomillashtirish maqsadida besh o'lchovli rejasini ishlab chiqilgan.

Unga ko'ra, mazkur jarayonda eng asosiysi savolni tanlash va uni ifoda etish ekanligi aniqlandi. Mazkur sohada aniqlangan kamchiliklar to'g'ri qo'yilmagan va sifatsiz savollar tufayli ekanligi aniqlandi. Misol uchun savol o'rganilayotgan predjmet yuzasidan ma'lumotga ega bo'lmagan pinsonlarga berilgan; savolga javobni o'ylasdan avtomatik beruvchilar hamda savolni o'ylab, baholab javobberuvchilar o'rtaсидagi farq inobatga olinmagan; savollar turli guruhlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin bo'lgan, ya'ni ikki xil ma'noga ega bo'lgan; ayrim savollarga bitta tugal javob berish imkonli bo'lmagan; nima sababdan respondent ma'lum fikrni yoqlagani ex'tiborga olinmagan.

Gellappning rejasiga ko'ra, jamoatchilik fikrining beshta xususiyati e'tiborga olinishi kerak:

1. Respondentning so'ralayotgan predjmet yuzasidan ma'lumotga egaligi
2. Respondentning umumiy nuqtai nazari
3. Nima sababdan respondent ma'lum qarashlarning tarafdori ekanligi
4. Muammoning o'ziga xos tomonlari yuzasidan respondentning fikrlari
5. Bildirilayotgan fikrning intensivligi, ya'ni jadalligi.

Gellappning besh o'lchovli rejasida besh xil turdagisavollardan foydalilanildi.

Bular *filtr savollar, ochiq savollar, sababiy savollar, o'ziga xos savollar, fikrning jadalligini aniqlovchi savollar*. Bugungi kunga kelib sotsiologiyaning rivojlanishi tufayli uning metodika va metodologiyasida ko'plab o'zgarishlar yuz berdi.

Jumladan, savollarning ko'plab turlari ishlab chiqilib, ularning shakllari takomillashib bormoqda. So'rovlar mintaqaviy va umunumillyi darajada o'tkazilmoqda. Undan tashqari buyurtmachining talabiga binoan yopiq so'rov tadqiqotlari; turli tadqiqot institutlarining eksperimental so'rovlari olib borilmoqda. Ularning arnaliy va nazariy ahamiyati yuqori bo'lib, jamiyat va alohida buyurtmachilarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda jamoatchilik fikrining ma'lum jabhalarini va baholovchi fikrlarini, fikrning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda jamoatchilik fikrmini o'rghanishning va *qayd etishning quyidagi shakllarini* ko'rsatish mumkin<sup>108</sup>:

1. Elektoral (saylovlar paytida)
2. Plebessentar (umumxalq muhokama)
3. Kommunikativ (prezidentning xalq bilan muloqoti)
6. *Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi*

Jamoatchilik fikri sotsial hayotning shunday hodi sasi sanaladiki, uni har tomonlama o'rganib, tahlil qilib, qat'iy ravishda aniqlashning iloji yo'q. Shuning uchun zamonaviy ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik fikrining bir qator ta'riflari mavjud. Mazkur ta'riflar asosida jamoatchilik fikrini sotsial jamaa ongingin jamiyatdagi voqyea va hodisalarga nisbatan bo'lgan fikrlari mahsuli sifatida belgilash mumkin. Jamoatchilik fikri jamiyat hayotida baholovchi mushohadalar va mazkur jamoaviy birliklarning amaliy xatti-harakatlari shaklida namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik fikri doimiy ravishda guruhiy fikrni o'zida ifodalab ijtimoiy manfaatlarga kiruvchi masalalarni qamrab olgan bo'ladi. O'z mohiyatiga ko'ra, u nazariy tasavvur, obyektiv bilimlar va aldamchi fikrlardan tashkil topgan bo'ladi. Jamoatchilik fikri avvaliga individlarning emotsiya va fikrlarida namoyon bo'ladi, so'ng esav ularni amaliy harakatlarni bajarishga undaydi. Ko'pchilik olimlarni ng fikricha, jamoatchilik fikri insonlarning sotsial o'zaro harakatlarining eng muhim mexanizmlaridan biri sanaladi. Chunki, har qanday sotsial guruhning amaliy xatti-

<sup>108</sup> Цаллер Дж. Происхождение и природа общественного мнения. М.: Институт Фонда «Общественное мнение», 2004.

harakati umumiy fikrning shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Jamoatchilik fikri hodisasi jamiyatni tadqiq qiluvchi barcha mutaxassislar tomonidan o'rganiladi. Bularga jurnalistlar, politexnologlar, sotsial harakatlarning faollari kabilarni ko'rsatish mumkin.

Jamoatchilik fikri jamiyat hayotida muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun, uni o'rganish va o'lhash barobarida shakllantirish usullari ham mavjud.

Jamoatchilik fikrini sun'iy ravishda biror maqsad yo'lida shakllantirish mutaxassilar tomonidan sotsial texnologiya sifatida qabul qilingan va sotsial jarayonlarni boshqarish jarayonida keng qo'llaniladi.

Sotsium bir qator sabablarga ko'ra, jamoatchilik fikrini o'rganishga qiziqadi.

Birinchidan, jamoatchilik fikri jamiyat ruhiy va ma'naviy olamining o'ziga xos hosisasi sanaladi. Shuning uchun u doimiy ravishda tegishli bo'lgan guruhining manfaatlari va o'ziga xos jihatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Jamoatchilik fikrining sotsial bazasi qay darajada keng bo'lsa, uning sotsial turdag'i munosabatlarni transformatsiyalash instrumenti sifatidagi ta'sir doirasi shu qadar keng bo'ladi.

Jamoatchilik fikri jamiyatning manfaatlarini ifoda etuvchi muhim *dolzarblik indikatori* sifatida namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik fikri *sotsial-psixologik fenomen* sifatida ommaning yetarlicha uzoq muddatli harakatlarini rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi omil sanaladi.

Jamoatchilik fikri sotsial texnologiya sifatida boshqaruvin qarorlarining qabul qilinishida muhim o'rinni egallaydi. Uning davlat va jamiyat boshqaruvining faol subyekti sifatidagi o'mi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, texnik sharoitlaridagi o'zgarishlar barobarida rivojlanishi oqibatida ortib boradi. Natijada jamoatchilik fikrining vazifalari ortib boradi, jamoatchilikning fikr doirasi kengayadi, fikrlarning chuqurligi va sifati ortadi. Shuning uchun jamoatchilik fikri deyilganida, jamoatchilik ongingin narnoyon bo'lish shakli sifatida qabul qilishimiz mumkin. Bunda fikrlar yozma yoki og'zaki shaklda bildirilishi, dolzarb raummolarga nisbatan oshkora yoki yashirin munosabatlarni ifodalashi mumkin.

Jamoatchilik fikrini *individual fikrlarning hosilasi* sifatida qabul qilish holati ham mavjud. Bu yondashuv odatda ma'lum davlat yoki mintaqalarning fikriga nisbatan qo'llaniladi.

Jamoatchilik fikri jamiyat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'lishi mumkin. Ularning barchasi o'zaro bog'liqliklarga ega. Misol uchun jamoatchilikning siyosiy bahclari ularning huquqiy baholari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ahloqiy baholar insorlarning umum qabul qilingan normalarga muvoffiqligi bilan bog'liq.

So'nggi yillarda qator tadqiqotchilarning umum dunyo jamoatchilik fikrining shakllanishi to'g'risidagi mushohadalari keng o'rin olmoqda. Ularning fikricha, mazkur jamoatchilik fikri o'z ichiga global ijtimoiy-siyosiy muammolar yuzasidan baholovchi fikrlarini ifodalishi lozim. Xalqaro fikr dunyo hamjamiyatining sotsial-demografik taraqqiyot, dunyo mintaqalarining sotsial-iqtisodiy rivojlani shi, terrorizm, ekologiya, globalizatsiya kabi muammolar yuzasidan baho, fikr va mushohadalarini ifodalaydi. Ammo muammoni shu nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida biz jamoatchilik fikrida zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy tizimini, zamonaviy bilimning predmeti va mahsus nazariyani inobatga olishimiz zarur.

Rossiyalik sotsiologlar ye. Petrenko va V. Mansurovning fikricha<sup>109</sup>, jamoatchilik fikrini sotsiologiya fani doirasida nisbatan mustaqil yo'nalish sifatida tadqiq qilish holati quyidagi sabablarga ko'ra amalga oshdi:

1. Kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishi iste'molchi talablarini o'rganish, raqobat sharoitida reklamaning samaradorligini aniqlash ehtiyojini yuzaga keltirdi;
2. Demokratik strukturalarning rivojlanishi, ya'nii siyosiy partiyalarning qaror topishi va ular o'rta sidagi siyosiy kurashning boshlanishi siyosiy preferensiyalarni, elektoral xatti-harakatlarni va siyosiy ta'sirlarning samaradorligini o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirdi;

<sup>109</sup> Социологические проблемы изучения общественного мнения. Учебно-методический комплекс. Составитель Д. соц.н., проф. Л.Н. Едовиченко. Ответственный редактор Д.Ф.н., чл.-корр. РАН, проф. Ж.Т. Тощенко. Российский государственный гуманитарный университет, 2010. С 10.

3. Ommaviy axborot vositalarining, ayniqsa, televideniening shakllanishi oqibatida auditoriyaning qiziqishlari, axborot manbasini tanlashdagi motivlarini aniqlash talabini yuzaga keltirdi;

Mazkur sabablar qatoriga fuqarolar orasida ta'lif va madaniyat darajasining ko'tarilishi holatini ham kiritish maqsadga muvoffiq. Chunki bu insonlarning atrof-muhni tografiya bo'layotgan voqyealarga nisbatan bo'lgan qiziqishining ortishiga sabab bo'ladi. Misol uchun siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning kechishi va h.k.

Jamoatchilik fikri va hokimiyatning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari jamiyat strukturasi, siyosiy tuzum, madaniyat va din shakkllari kabi bir qator omillar bilan belgilanadi. Shunga ko'ra ular o'rtaisdagi munosabatlар quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin<sup>110</sup>:

1. OAVlarining hokimiyat tomonidan bostirilishi va bo'ysundirilishi
2. Jamoatchilik fikrining hokimiyat tomonidan tan olinmasligi, jamoatchilik fikriga e'tibor bermaslik
3. Paternalizm, ya'nini nimjon va xali yetarlicha shakllanmagan fuqarolik jamiyatining davlat qaramog'ida bo'lishi va boshqarilishi, yo'naltirilishi
4. jamoatchilik fikri va hokimiyatning o'zaro hamkorligi
5. jamoatchilik fikrining hokimiyat ustidan kuchli nazorati, diktaturasi.

Jamoatchilik fikri nazariyasi mahsus sotsiologik nazariya bo'lib, uning asosiy maqsadi yirik jamoalar, sinflarning dolzarb muammolar yuzasidan baholovchi fikrlarining shakllanish qonuniyatlarini va mexanizmlarini tadqiq qilishdan iborat.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda sotsiologik jihatdan jamoatchilik fikrini o'rghanishda uni ongning tarkibiy elementi sifatida qabul qilish hamda uni "ong-sotsial muhit" mutanosibligida ko'rish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar har bir insonga alohida ta'sir ko'rsatib, jamoatchilik fikrida o'z aksini topadi. Bu paytda davlatning dijamoatchilik fikriga nisbatan paternalistik munosabati o'zini oqlaydi. Chunki shu orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli filklilik, nizolar va tushunmovchilikning oldi olinadi.

<sup>110</sup>Социология: Энциклопедия. Минск: Интерпресссервис; Книжный Дом. А.А. Грифнов, В.Л. Абушев, Ю.Г. Евелькин, Г.Н. Соколова, О.В. Терещенко. 2003. [http://sociology\\_encyclopedia.academic.ru/](http://sociology_encyclopedia.academic.ru/)

Jamiyat transformatsiyasi jarayoni davornida jamoatchilik fikrini o'rganib, monitoring qilib borish har bir davlat va jamiyat uchun boshqaruv masalalri va qarorlarini qabul qilish paytida muhim sanaladi.

Jamoatchilik fikri subyektning qiziqshlari va tanlovidan kelib chiqqan holda ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shakllangan jamoatchilik fikri uzoq muddat o'zgarmas bo'lishi mumkin. Ba'zida esa u an'anva va urf-odatlarning bir qismiga aylanishi mumkin.

Jamoatchilik fikri mintaqaviy va sotsial xarakterdag'i tarqalish maydoniga ega bo'ladi. O'ziga xos kompetenlik, sotsial yo'nalganlik, keng tarqalganlik kabi xususiyatlар odatda shakllangan yetuk jamoatchilik fikriga xos bo'ladi. Jamoatchilik fikrining namoyon bo'lish sohalariga siyosat, huquq, ahloq, din, fan, madaniyat kabilalar kiradi.

Umuman olganda fikrni *individual, guruhiy* va *jamoatchilik fikri* sifatida turlarga ajratish mumkin. Jamoatchilik fikri sotsial muhitda o'zining ildizlariga ega bo'ladi. U ko'p hollarda partiyalar, harakatlar, boshqaruvchi elitaning manipulyasiya obyektiga aylanadi. U doimiy ravishda jamiyatdag'i fikrlarning o'zaro kurashi oqibatida shakllanib, yuzaga keladi. Ba'zi hollarda jamoatchilik fikrining analogi paydo bo'ladi. Bu holat yuzaga kelmasligi uchun jamiyat a'zolari obyektiv axborotga ega bo'lishlari, ma'naviy jihatdan yetuk va ma'lumotli bo'lishlari lozim.

### *Stereotiplar va mish-mishlar*

### *Stereotiplar ommaviy kommunikatsiyaning oqibati sifatida.*

*Sotsial stereotip* – bu sotsial obyekt yoki holdisalarning jamoatchilik orasida keng tarqalgan va nisbatan o'zgarmas, ya'ni mustahkam xususiyatga ega bo'lgan obrazi. Stereotiplarning o'zgarmaslik xususiyati jamiyatdag'i an'anaviy qabul qilish va tafakkur qilish usullariga bevosita bog'liq. Qabul qilish va tafakkur qilishning bunday usullari bir sotsial guruhlarning boshqalari ustidan hukmronligi va ustunligining garovi bo'lishi mumkin. Stereotiplarning jamoatchilik fikrining shakllanishaiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Stereotiplarning ijobiy tomoni shundan iboratki, ular tahliliy mushohada kerak bo'Imagan sharoitlarda ma'lum yo'nalishda harakatlanish va vaziyatdan chiqish imkonini beradi.

Stereotiplarning salbiy jihatni esa ularning tahliliy mushohadaning o'mini bosib, ma'lum standartlashtirilgan xatti-harakatlarni bajarishni nazarda tutishidir. Bu holat milliy guruhlarni o'rtaсидаги qarama-qarshilikka va yoqtirmaslik holatiga olib kelishi hamda boshqa salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Shaxslararo munosabatlarda rollar va shaxsiy xususiyatlarni baholash davomida insonlar odatda shakllangan etalonlar asosida fikr yuritishadi. Etalonlarning asosida insonlarning rolli, shaxsiy xususiyatlarining va tashqi ko'rinishidagi o'xshashliklarining o'zaro bog'liqligiga ishonch hissi yotadi. Kuzatilayotgan insonning tashqi ko'rinishidagi xususiyatlari asosida etalondagi boshqa xususiyatlarni ham unga mos deb o'yaymiz. Sh ubilan birgalida aytib bo'tish lozimki, insonlarni tsereotipler nuqtai nazaridan baholash o'ziga xos qator xatoliklarga sabab bo'ladi.

1. Proeksiya effekti – o'zimiz yoqtirgan insonga nisbatan o'zimizdagagi ijobiy xususiyatlarni biriktirish va aksincha, o'zimiz yoqtirmagan insonga o'zimizdagagi salbiy jihatlarni biriktirish. Boshqacha qilib aytganda o'zimizda mavjud bo'lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarning boshqalarga simpatiya va antipatiya asosida biriktirish.

2. O'rtacha xatolik effekti – insonning nisbatan yorqin ifodalangan jihatlarini o'rtacha darajadla ko'rishga moyillik.

3. Tartib effekti – qarama-qarshi fikrlar paydo bo'lganida birinchi olingan ma'lumotning to'g'ri ekanligini yoqlashga moyillik. Uzoq yillar davomida tanish bo'lgan insonlar bilan muloqot davomida esa ularning aytgan so'nggi gapiga ko'proq ishonish shaklida namoyon bo'ladi.

4. Oreol effekti – inson to'g'risidagi fikr uning bajargan xatti-harakati asosida shakllanadi. Oreol ijobiy yoki salbiy tusgaega bo'lishi mumkin.

5. Stereotipizatsiya effekti – insonga ma'lum sotsial guruhlarga xos bo'lgan xususiyatlarning biriktirilishi. Misol uchun kasbiy xususiyatlar: o'qituvchi, matematik, shifokor va h.k.

Sotsial stereotip – ma'lum sotsial guruh vakillariga tegishli bo'lgan xususiyatlar, ularning voqyea va hodisalardagi xatti-harakat normalari borasida shakllangan nisbatan o'zgarmas fikrlar. Turli sotsial guruhlar o'zaro harakatlari davomida bir-biriga nisbatan ma'lum fikrlarni – stereotiplarni shaklantiradi. Ular orasida etnik va milliy stereotiplar nisbatan keng tarqalgan sanaladi.

*Mish-mishlar noformal kommunikatsiya turi sifatida.* **Mish-mishlar** – haqoqniyligi tasdiqlanmagan va og'zaki tarzda insondan insonga o'tuvchi ma'lumotlar bo'lib, ma'lum faktga asolangan hisoblansada, bo'rttirish va qo'shimchalar qo'shilishi hisobiga mazmunan mazkur faktdan ancha yiroqlashgan bo'ladi.

Mish-rnishlar barcha jamiyatlarda tarqaladi va mavjud bo'ladi. Ammo ommaviy jamiyatlarda u sotsial munosabatlarning yoqqol namoyon bo'lgan shakli sanaladi.

Mish-rnishlar tarkibi, axborot miqdori va ehtiyojlar nuqtai nazaridan farqlanadi.

Mish-rnishlarni tarqatuvchi va ulardan vosita sifatida foydal anuvchilar odatda yuqori statusli guruhlar sanaladi.

Mish-mishlarni tarqatish omillari<sup>111</sup>:

1. Axborot ehtiyojini tug'diruvchi muammoli vaziyat;
2. Axborotlarning noaniqligi yoki axborot yetishmasligi;
3. Individning jamiyatdagi muammolar yuzasidan xavotirlanishi.

Mish-mishlar insonlarga individual, guruhiy va ommaviy darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Individual darajada ta'sir ko'rsatishi oqibatida muhitga moslashish yoki individning dezintegratsiyasi holati yuzaga kleishi mumkin. Guruhiy darajada mish-mishlar guruhnini birlashtirishi yoki aksincha parchalagi mumkin.

<sup>111</sup> [http://www.libma.ru/nauchnaja\\_literatura\\_prochee/obshaja\\_sociologija\\_konspekt\\_lekcii/p21.php](http://www.libma.ru/nauchnaja_literatura_prochee/obshaja_sociologija_konspekt_lekcii/p21.php)

Ommaviy darajada jamoatchilik fikrini o'zgartirishi va kollektiv xatti-harkatlarni boshqa yo'sinda yo'naltirishi mumkin.

Mish-mishlar ta'sirining oqibatlarini deyarli barcha holatlarda oldindan bashorat qilib bo'lmaydi. Chunki ularni boshqarishning iloji yo'q. Mish-mishlarning oldini olish uchun o'z vaqtida va tushunarli ochiq axborotlarni tarqatish lozim.

#### Nazorat savollari

1. Jamoatchilik fikri deganda nimani tushunasiz?
2. Jamoatcilikfikrinig obyekti va sub'yektini aytинг.
3. Jamoatchilik fikrining qanday tarkibiy komponentlari mavjud?
4. Jamoatchilik fikrining vazifalarini aytинг.
5. Jamoatchilik fikrining qanday shakllari mavjud?
6. Sotsial stereotiplarning ijobiy va salbiy jihatlaritui aytинг.

#### Test savollari

1. “Jamoatchilik fikri” tushunchasi ilk bora kim tomonidan muomalaga kiritilgan?

A. Ingliz yozuvchisi va davlat arbobi Solsberi tomonidan XII asrning ikkinchi yarmida

B. 1759 yil Djon Solbern toomnidan parlamentda so'zlagan nutqi davomida

C. Qadimgi Rimda jamoatchilik diskussiyalari iamaliyoti davomida

D. Platonning ““Davlat” asarida

2. XV asrda Italiyadagi gumanistik filr jamoatchilik fikrining jamiyat hayotidagi ahamiyatini ifoda qanday yo'nalishning yuzaga kelishini ta'minladi?

A. Fuqarolik gumanizmi yo'nalishi

B. Ekspluatatsiyaga qarshi yo'nalish

C. Diniy mushohadalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalish

D. Bixevoirizm yo‘nalishi

3. “Jamoatchilik fikri” tushunchasining ilmiy jihatdan qaror topishi va ishlab chiqilishi qaysi davrlarga to‘g‘ri keladi?

A. XVII—XIX asrlar

B. XIX asr so‘ngi va xozirgi davrga qadar

C. XII- XX asrlar

D. XIX-XX asrlar

4. Makiavelli qaysi asarida jamoatchilik fikrining ko‘p qirrali fenomen ekanligini ta‘kidlagan?

A. Xukmdor

B. Davlat

V. Siyosat

G. Qonunlar

5. Jamoatchilik fikrini amaliy sotsiologik jihatdan o‘lchash va o‘rganish jarayoni qachon va qaerda boshlangan?

A. 19asrda AQShda

B. 18 asrda Angliyada

C. 19 asrda Fransiyada

D. 20 asrda AQShda

6. Jamoatchilik fikrining muhimligi va haqqoniyligini past darajada baholagan olimlarni ko‘rsating?

A. P.Burde, U.Lippman

B. Makiavelli, T.Mor, Kumpanella

C. Maks Veber, E.Dyurkgeym

**7. Ma'lum fikrlarni bildirgan va o'zining ichki strukturasiga ega bo'lgan keng jamoatchilik bu -?**

- A. Jamoatchilik fikrining subyekti
- B. Jamoatchilik fikrining obyekti
- C. Jamoatchilik fikrining asosiy komponenti

**8. Jamoatchilik fikrining asos komponentlariga qaysilar kiradi?**

- A. Ratsional emotsional, irodaga oid komponentlar
- B. Asosiy sotsial subyektlar yoki jamoatchilik fikrining egalari, jamoatchilik fikrini aks ettiruvchi obyektlar
- C. Ichki tuzilish, ijtimoiy psixologiya va ideologiyaning mutanosibligi
- D. Jamoatchilik fikrining dinamik yoki diaxtronik strukturasi

**9. Jamoatchilik fikriniq asosiy sikllari?**

- A. Genezis bosqichi, funksional bosqich, yakun topish bosqichi.
- B. O'zaro muloqot, fikrlarning sintezi, fikrlarning analizi
- C. Qaror topish, shakllanish, faoliyat bosqichi

**10. Jamoatchilik fikri qanday asosiy vazifalariga ega?**

- A. Gnoseologik vazifa va sotsietal vazifa
- B. Paydo bo'lish, shakllanish va faoliyat vazifalari
- C. Singdirish, ishontirish, taqlid vazifalari
- D. Ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish, og'zaki tashviquot, siyosiy targ'ibot, shaxslararo munosabatlarni shakllantirish vazifalari

**11. Gellap institutining jamoatchilik fikrini o'rganish metodikasi nechi o'lchovli rejasini nazarda tutadi?**

A. Besh

B. Olti

C. Uch

D. To'rt

**12. Jamoatchilik fikrnini o'rghanishning va qayd etishning shakllari plebessentar shakli nimani nazarda tutadi?**

A. Umumxalq muhokama

B. Prezidentning xalq bilan muloqoti

C. Saylovdagi ishtiroki

**13. Jamoatchilik fikri va hokimiyat o'rta sidagi munosabat shakllari orasi paternalizm qanday namoyon bo'ladi?**

A. Nirjon va xali yetarlicha shakllanmagan fuqarolik janiyatining davlat qaramog'ida bo'lishi va boshqarilishi, yo'naltirilishi

B. OA'Vlarining hokimiyat tomonidan bostirilishi va bo'yundirilishi

C. Jamoatchilik fikrining hokimiyat tomonidan tan olinmasligi, jamoatchilik fikriga e'tibor bermaslik

D. Jamoatchilik fikri va hokimiyatning o'zaro hamkorligi

## **9-bob. DIN SOTSILOGIYASI**

**Reja:**

- 1. Din sotsiologiyasining paydo bo'lishidagi ilk nazariyalar**
- 2. Din sotsiologiyasining predmeti va metodlari**
- 3. Din sotsiologiyasining vazifalari va diniy tashkilot turlari**
- 4. Sekulyarizatsiya sotsiomadaniy fenomen sifatida**

### **Tayanch tushunchalar**

*Din sotsiologiyasi. Din. Antifeodal burjua inqiloblari. Uch bosqich qonun. Qadriyatlarning ahloqiy politeizmi. Total institutlar. Mazmun yoki mohiyat funksiyasi. Tegishlilik yoki identifikatsiya funksiyasi. Sotsial integratsiya va barqarorlik funksiyasi. Madaniy qadriyatlari. Ahloqiy normalarning muqaddaslashtirilishi funksiyasi. Cherkov. Denominatsiya va sekta. Sekulyarizatsiya.*

### **1. Din sotsiologiyasining paydo bo'lishidagi ilk nazariyalar**

Din sotsiologiyasi XIX asrning o'rtaidan sotsiologyaning mustaqil yo'nalishi sifatida rivojlana boshladi. Uning rivojlanishi uchun yevropa jamiyatida ma'naviy uyg'onish jarayonlari va antifeodal burjua inqiloblarining sodir bo'lishi asos sanaladi. O'n sakkizi nchi asr faylasuflarining feodal ijtimoiy munosabatlar va g'arb jamiyatidagi cherkovning tanqidi dini sotsiologiyasining rivojlanishida asosiy sabablardan biri bo'ldi.

O'rta asrlar yevropasi va yangi davrning boshlanishi ko'plab diniy asosdagi mojarolarga to'la bo'ldi. Mazkur davrning qator mutafakkirlari, jumladan, Gobbs, Lokk, Yum din asosidagi nizolar va notinchliklar tufayli uning jamiyatni birlashtiruvchi, tinchlantiruvchi, kompensatorlik kabi xususiyatlari borasida shubha bilan qaraydigan bo'lishgan. Gobbs xristianlik tarixida yuz bergan voqyea va hodisalarga tayangan holda o'z asarlarda dinning jamiyat uchun xavf tug'diruvchi xususiyatlarini yoritgan. Ba'zi olimlarr katolik cherkovini feodalizm tuzumining poydevori sifatida baholagan. Fransuz ma'rifatchilari Golbax va Didro jamiyatdagi

dinning o‘rnini “tabiiy insonning” aqli va ahloqi egallashi kerak, degan g‘oyani ilgari surishgan. Faqat ayrim ma‘rifatchilar tomonidan din jamiyatning normativ tizimini ushlab turuvchi sotsial institut sifatida juda muhirn, degan fikrlarni bildirgan.

Yuqorida keltirilgan barcha qarama-qarshi fikrlarning sababi yangi davr yevropasining hayotida din tinchlik va barqarorlik garovidan ko‘ra, baxs va sotsial konfliktlarning sababi bo‘lib qolganligida edi. Shuning uchun jamiyatda din uchun shunday joyni ajratish kerak ediki, u sotsial tartibga tahlil solmasligi, aksincha, uni o‘rnatishga ko‘maklashishi zarur bo‘lgan. Buning uchun jamiyatda dinka nisbatan diniy qarashlarni shakllantirish lozim edi.

Lokkning fikricha, mazkur maqsadga faqat dinni davlatdan ajratish, ya’ni “xususiy lashirish” orqali amalgalashish mumkin. Shu orqali din har bir shaxsning o‘z shaxsiy ishi va tanloviga aylanishi kerak bo‘lgna. Davlat o‘z navbatida fuqarolarning mulkini va mulkiy munosabatlarini himoya qilgan holda ularning e’tiqodi masalasiga aralashmaydi. Cherkov – bevosita insonning tanlovi va xohishiga ko‘ra birlashadigan tashkiloti bo‘lib, yaratguvchiga umumiy ishonch hissi asosida insonlarni birlashtiradi.

J.J.Russo esa mazkur muammoning boshqacha yechimini ishlab chiqqan. U o‘zining “Ijtimoiy hamkorlik to‘g‘risida”<sup>112</sup> (1762) nomli asarida dinni jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida talqin qilgan. U shunday yozadi: “Har bir fuqaro o‘z burchlarini yaxshi ko‘rishi uchun davlat dindan foydalanadi va unga ehtiyoj sezadi”. Ammo Russo tarixiy jihatdan jamiyatda qaror topgan dinlarni nazarda tutmagan. U ma‘lum “fuqarolik dini”ning yaratilishini nazarda tutgan. Uning nazarida fuqarolik dini o‘zining ijtimoiylik xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik burchlarining amalgalashishini ta’minlashi kerak bo‘lgan. Mazkur fuqarolik dinining dogmatlariga triada deizi xos bo‘lgan, ya’ni yaratguvchining mavjudligiga ishonch, abadiy hayot va ezzulikka ishonch, ijtimoiy hamkorlik va qonunlarning muqaddasligiga ishonch.

Jamiyatda dinka bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, olimlarni tomonidan yangi dinning yaratilishi borasidagi fikrlar va dinning jdamiyatdagagi o‘rnini shakllantirish

<sup>112</sup> Гараджо В. И. Социология религии: Учеб. пособие для студентов и аспирантов гуманитарных специальностей. - З-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. С 33.

talablari mavjud bo'lgan diniy talablar, an'analarini qayta ko'rib chiqish, din fenomenini o'rghanish va ilmiy asoslash ehtiyojini tug'dirdi. Mazkur ehtiyoj asosida sotsiologiyada yangi yo'nalish shakllanib o'z rivejini boshladi.

"Ma'rifatli inson" obraqi bogan sari yevropa ilmiy olamida ustunlikka ega bo'la bordi. Unga ko'rsa, inson o'z aqli, ongiga va ilmiga tayangan holda o'z hayotini ratsional to'g'ri va adolatli asoslarga tayangan holda qurishi murnkin. Shu o'rinda ongli ratsional insonning din va yaratguvchiga ishonchi masalasi o'rtaga chiqdi. Natijada dinga nisbatan an'ana va urf-odatlardan xoli bo'lgan ratsional qarash shakllana boshladi. Yangi davrda yevropa jamiyatida qator sotsial o'zgarishlar dindagi talab va qoidalarni yangidan ko'rib chiqish va sotsial muhimlik nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi.

I.Kant (1724-1804) yangi davrning faylasuf olimlarridan biri bo'lib, dinni turli dogma va diniy-teologik nuqtai nazaridan emas, balki din falsafasi va ratsionallik nuqtai nazaridan o'rgangan. Uning fikricha, inson ongi cherkov doktrinalari va muqaddas yozma manbalariga qaraganda ishonchliroq va kuchliroq argumentlarni keltirib bera oladi. Ma'naviy yuksak inson o'z aqliga tayangan holda yashashi kerak. Shu kabi dinni falsafiy talqin qiluvchi nazariyalar dinni rad etishni emas, balki uning ratsional mohiyatini ajratib olishni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan. Ratsional din ratsional davlat va huquqiy tartib bilan birlilikda insonning tolerant bo'lishi, jamiyat bilan uyg'unlikda yashashi, dindagi dogmatizm va fanatizmni yengib o'tishi kerak bo'lgan. Shuning asosida "ahloqiy din" tushunchasi shakllandı.

G'arbiy yevropa mamlakatlarining mazkur davrdagi rivojlanishi, ya'ni sotsial dinamikasi ijtimoiy institutlarning differensiatsiyasi jarayoni bilan birlilik kechdi. Undan tashqari jamiyatdda segmentatsiya va plyuralizmning o'sishi kuzatildi. Natijada dinning iqtisod, oila, ta'lif, siyosat kabi sohalar bilan aloqasi masalalari dolzarblik kasb eta boshladi.

XVIII asr fransuz inqilobi va XIX asrning 30-40 yillarda sinflar o'rtasidagi antoganizmning paydo bo'lishi dinning sotsial vazifalari, jamiyatdagi o'mni, jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi roli kabi masalalarni o'rghanishga da'vat etdi. Dinning fan bilan muknosabtlari ham atroficha o'rGANILA boshladi. Chunki fan jamiyat

rivojlanishining asosiy omillaridan biri edi. Fan va din o'rtasidagi qarama-qarshiliklar X1Xasrning o'ttalarida o'zining eng baland nuqtasiga yetdi. Bunda Darvinnin evolyusion nazariyasi asos bo'ldi.

Radikal tanqidchilar sanalgan Feyerbax va Marks dinning taraqqiyot yo'lidagi to'siq, tormoz sifatida baholagan. Dinning tarafdarlari esa uni jamiyatning kuchini qaytadan tiklovchi omil sifatida baholashgan.

- *Kontning uch bosqich qonuni va dinning jamiyatdagi roli.* Sotsiologik jihatdan din turli mafkura va dogmalardan xoli ravishda dining funksiyalari, jamiyatdagi o'mi jihatidan o'r ganilgan. O.Kontning (1798-1857) fikricha, sotsial hayotni tabiiy fanlarda qo'llanilayotgan bilishning induktiv usullari vositasida o'r ganish lozim. Sotsiologiya shu usullar vositasida jamiyatda ideal tartib yo'llarini ko'rsatib berishi kerak edi. Kont o'z izlanishlari davomida sotsial tartibning asosini nima tashkil etadi va bunda dinning sotsial roli qanday?, degan savolga javob berishga uringan. Kontning sotsial dinamikasi din tarixi asosida shakllangan tushunchalar asosida qurilgan jamiyat modelini nazarda tutadi. U jamiyatning taraqqiyoti jarayoni sifatida insonning hayoti kabi (bolalik, o'smirlik, yetuklik) uch bosqichni qamrab oladi. Uch bosqich qonuni teologik, metofizik va pozitiv bosqichlardan iborat. Teologik bosqichda inson voqyealarning ichki mohiyati va kelib chiqish sabablarini aniqlashga intiladi. Bu bosqichda diniy qarashlar uchta tip bilan belgilangan: fetishizm, politeistik, monoteistik.

Metafizik bosqichda mavhum tushunchalarining o'mi muhim bo'lib, turli xudolar o'mini mavhum obrazlar egallaydi. Pozitiv bosqichda inson "tugal sabablar"ni emas, balki hodisalar o'rtasidagi kuzatiladigan empirik aloqalarni bilishni istaydi. Bu davrda boshqaruv ilmli insonlarning qo'liga o'tadi.

Kontning mazkur ta'limotida din sotsiologiyasi uchun muhim sanalgan ikki holat mayjud: birinchidan, rivojlanishning birinchi teologik bosqi chida din jamiyatning ajralmas va muhim elementi sanalgan; ikkinchidan, rivojlanishning har bir bosqichi ma'lum sotsial struktura va hokimiyat munosabatlari bilan bog'liq.

Teologik g'oyalar ustunlik qilgan rivojlanishning birinchi bosqichi XIII asrgacha davom etgan va unda diniy rahnamolar va harbiylarning hukmronligi

ustunlik qilgan. Metafizik bosqichda byurokratiya, yuristlar, ya'ni pozitivizm nuqtai nazaridan ishlab chiqarishdan uzoq bo'lgan sinflar hukmronligi o'matilgan.

Kontning fikricha, din deyaroli har doim jamiyatni birlashtruvchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Ammo dindagi buzilish tufayli jamiyatdagi sotsial munosabatlarning tartibsizlanishi va uzilishi sodir bo'ladi. Shuning uchun sotsial tizimni tutib turuvchi yangi asoslar kerak bo'ladi.

XIXasrda qaror topgan pozitiv bosqichda jamiyat hayotida fanning nufuzi ortadi va muhandislar, olimlarning ahamiyati ortadi. Din inqirozga yuz tutugan paytda jamiyatning birlashishini ta'minlovchi asosiy omil sotsiologiya tomonidan ishlab chiqiladigan pozitiv ilmiy bilimning sintezidir. Ammo o'z izlanishlari davomida O'Kont insonlar ongini ma'rifat orqali yuksaltirish asosida jamiyatdagi tartibni o'matish mumkinligiga shubha bilan qaray boshlaydi va sotsial aloqalarning asosi sifatida "ikkinchi teologik sintez"ni amalga oshirishni ilgari suradi. U "pozitiv din" g'oyasining o'mini insoniyatning yirik bir butun "Buyuk mayjudot" sifatidagi kultini taklif qiladi. Mazkur dinning diniy rahnamosi o'mini sotsial hayot mexanzmlarini mukammal biluvchi va shu asosda jamiyatni boshqara oladigan sotsiolog egallashi kerak edi.

Kont din sotsiologiyasini ilmiy jihatdan yaratmagan bo'lsada, uning yaralishi uchun asosni shakllantirdi. Kontning fikricha, an'anaviy jamiyatlarda din sotsial strukturaning bir qismi bo'lib, jamiyatda ma'lum, jumladan, ijobiy vazifalarni bajaradi.

G.Spenser (1820-1903) ning fikricha, ijtimoiy evolyusiyasi jamiyatning sanoatlashgan tipini hamda individualizm va utilitarizm tamoyillarini shakllantiradi. Utilitar individualizm nuqtai nazarida din jamiyat hayotining muhim regulyatori sanalmagan. Dindan ko'rsa, bozor va siyosiy faoliyatning ta'siri muhimroq deb qabul qilingan. Angliyada mazkur davrda din madaniy odat sifatida talqin qilingan. Spenserning fikricha, din sotsiologiyasining asosiy vazifasi Angliya davlat cherkovi faoliyatining istiqbollarini o'rganib, uning faoliyatidagi jamiyatda qaror topish nuqtai nazarilan omadli va omadsiz faoliyati borasida takliflar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan. Spenserga xos bo'lgan mazkur yondashuvni sotsial reformator R.Tauni ham

qo'llab quvvatlagan. U M.Veberning protestantlik ahloqining kapitalizmning rivojlanishida asosiy sabab, degan fikriga qarshi chiqqan. Spenser Angliyada yangi diniy ta'limg'oning payg'ambari sifatida qabul qilingan. U din xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirilishini ko'rsatgan va fan orqali inson ta'g'ri yo'lni topa olishini isbo'ilagan. G.Spenser din jamiyat hayotidagi sotsial nazorat instrumenti ekanligini ta'kidlagan.

Din sotsiologiyasining asoschilari sifatida E. Dyurkgeym, K.Marks, M.Veber tan olingan. *Din sotsiologiyasi a'sosiyo yo'nalishlar*<sup>113</sup>:

Evolusionizm yo'nalishi (O.Kont, Spenser,Dyurkgeym, Zimmel)

Funktionalizm (A.R.Redkliff-Braun, B.Malinovskiy, T.Parsons, N.Luman, R.Merton)

Neoevolusionizm (M.Veber, R.Bell)

Dinning konfliktologik nazariyasi (K.Marks va uning tarafdarlari)

E.Dyurkgeym (1858-1917) fransuz faylasufi va sotsiologi bo'lib, o'zining "Diniy hayotning elementar shakllari. Avstraliyadagi totemik tizim" nomli (1912) asari orqali din sotsiologiyasiga asos solgan.

E.Dyurkgeym barcha dinlarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashga harakat qilgan. U sotsial hodisalarni va dinni "sotsial fakt" sifatida o'rganish orqali ularning vazifalarini aniqlash va ularning strukturasini ochish muhim masala ekanligini ta'kidlagan. Olim din har bir jamiyatda mavjud ekan u faqat illyuziya va xato fikrlarda, yolg'onlardan iborat bo'lishi mumikn emas (demak, biror aniq asos bor), degan fikrni ilgari surgan.

E.Dyurkgeym "Diniy hayotning elementar shakllari. Avstraliyadagi totemik tizim" nomli asarida uchta turli darajadagi va o'zaro aloqador boblarni o'rganib, ularning natijalarini tahlil qilgan:

- Jamiyatning umumiyl nazariyasi. Unda din integratsiyalovchi omil, "birdamlik" kafolati);
- Din nazariyasi. Unga ko'ra, din soiomadaniy fenomen sanaladi;

<sup>113</sup> Гарифова В. И. Социология религии: Учеб. пособие для студентов и аспирантов гуманитарных специальностей. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. - 348 с.

- Totemizm nazariyasi. Totemizmga aloqador bilimlar majmui.

Ko‘p hollarda Dyurkgeymning, ayniqsa, totemizm borasidagi bildirgan fikrlari eskirib qolgan sanaladi. Ammo dinning jamiyatdagi o‘rni, strukturasi va vazifalari borasidagi bilimlar juda o‘rinli va din sotsiologiyasi uchun muhim sanaladi.

Dyurkgeymning fikricha, har bir din o‘z doirasida o‘zining qarashlari va qoidalari ayni haqiqat sifatida qabul qiladi. Shuning uchun dinni o‘rganishda uning yolg‘on yoki haqiqat nuqtai nazaridan baholamaslik kerak. Olim barcha dinlarga xos bo‘lgan asosiy elementlar primitiv dinlarni o‘rganish davomida aniqlanadi, degan fikri ilgari surgan. Shu nuqtai nazardan, dinning strukturasini oddiy dinlar misolida tadqiq qilish va vazifalarini aniqlash osonroq sanaladi. Dyurkgeym Avstraliya aborigenlarining totemik dinini dinning eng elementar shakli sifatida o‘rgangan.

Dyurkgeymning nuqtai nazarida jamiyat individlarning yig‘indisigina emas, “guruhiy tasavvurlar”, “individidan yuqori” hosilalar, ya’ni til va dindan tashkil topgan. Olimning asosiy g‘oyasi – individ jamiyatdan yaralgan, uning hosilasi.

*K. Marks* (1818-1883). Germaniyada XIX o‘rtalari va XX asr boshlariда siyosiy manfaatlар va sotsial konflikt nazariyasi nuqtai nazaridan din mafkuraviy komponent sifatida qabul qilingan. “Jamiyatni o‘zgartirish maqsadida undagi asosiy g‘oyalarni, jumladan, dinni tarqid ostiga olish orqali muammoni yechib bo‘lmaydi. Chunki din mazkur jamiyatni yaratmagan, aksincha, u mazkur jamiyatning ijod mahsuli sanaladi”. “Din yuraksiz (shafqatsiz) olamning yuragi sanaladi”. Marksning din borasidagi asosiy tushunchalaridan biri “diniy begonalashuv”.

K. Marks dinni tanqid qilgan va illyuziyalarga to‘la hosila sifatida baholagan. U inson mana shunday illyuziyalarga muhtojlik holatidan qochishi kerak, deb ta‘kidlagan. Olimning fikricha, inson tabiatan buyuk mavjudot bo‘lgani uchun bo‘ysunish, kamshitilish kabi holatlarni yomon ko‘radi va oxir oqibat, albatta, bosh ko‘taradi.

K. Marks dinni sotsial institut sifatida o‘rganishda funksional yondashuvdan foydalangan. Diniy harakatlar tarixiga nazar tashlasak, azaldan jamiyatdagi sotsial o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Misol uchun ilk xristianlik Rim jamiyatini quyi

tabaqalarining sotsial o'zgarishlarni amalga oshirgan harakatlantiruvchi kuch sanalgan...

*M. Weber* (1864-1920) o'zining "Protestantlik ahloqi va kapitalizm ruhi" (1905); "Dunyoviy dinlarning xo'jalik ahloqi" (1916-1919); "Din sotsiologiyasi bo'yicha tanlanma asar" (1920-1921) dinni tadqiq qilishga bag'ishlangan qator asarlarida jamiyat hayotining turli jabhalarida din va insonning xatti-harakatlarini kuzatish natijalarini bayon qilgan. *Weber* insonni maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarini ratsional harakat sifatida baholagan. Qadriyatlarga taqqoslash har doim tanlov vaziyatida amalga oshiriladi. Inson tirk mavjudot sifatida doimo qadriyatlarga amal qilish va ularga qarshilik qilish o'rtasida tanlovni amalga oshiradi. "Qadriyatlarning ahloqiy politeizmi" deganda, *Weber*, insonning bir narsani tanlashi, albatta biror narsadan voz kechishi bilan bog'liqligini anglatadi. Misol uchun karera uchun muhabbatdan voz kechish.

Vebernинг ratsional harakat nazariyasi ideal tip tushunchasi bilan bog'liq. Olim dinlar, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o'rganishda ideal tiplardan foydalangan. Din sotsiologiyasidagi asketizm, mistika, magiya, cherkov, sekta kabi tushunchalar ideal tiplar sifatida turli hodisalarni baholash uchun kerak. Uning nazarida sotsiologiya ideal tiplar vositasida jamiyatdagi hodisalar va din kabi fenomenlarni tushuntirishi kerak. Shu orqali nima sababdan ma'lum madaniyatlarda fan taraqqiy etishi, boshqalarida esa rivojlanmasligi, nima sababdan kapitalizm G'arbiy yevropa mamlakatlarida qaror topishi, Xitoy va Hindistonda esa amalag oshmasligi kabi savollarga javob topish mumkin.

*Weber* "Protestantlik ahloqi va kapitalizm ruhi" nomli asarida dinning institutlashuvi orqali sotsial o'zgarishlarga, jumladan, kapitalizmning rivojlanishiga asos bo'lganini ko'rsatgan. Sanoatlashgan kapitalizmning diniy komponentini o'rganish davomida *Weber* lyuteranlikning dunyoviy burchlarning majburiyati borasidagi dogmaga chek qo'yish orqali jamiyatdagi o'zgarishlarga katta turtki bo'lganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kalvinizm va puritansvo insonning "dunyoviy burchi va majburiyatları" borasidagi dogmalarga tugal chek qo'ya oldi hamda kapitalistik psixologiya va mafkuraning diniy asoslarini yaratadi. Misol uchun

kalvinizm har bir inson birinchi navbatda o‘z ishi va kasbini yaxshi bajarishi kerak, degan g‘oyani ilgari surgan. Bu ishlab chiqarishning ijobiy rivojlanishiga olib keldi. “Kapitalizm ruhi” o‘z ifodasini “kapitalizm ahloqi”da topa boshladi.

Puritanstvo boylik va xaddan tashqari dabdabani inkor qilgan, qoralagan. U ham insonning asosiy vazifasi jamiyat uchun foydali bo‘lgan ishni bajarish, ya’ni vazifasini bajarishdan iborat, degan g‘oyani ilgari surgan. U insonning birovning haqqiga hiyonat qilmaslik, va’dasining ustidan chiqish, hisob- kitob bilan xattiharakatlarni amalga oshirish, ratsionallik, o‘z kasbiga hurmat bilan qarash kabi xususiyatlarini qadrlagan. Yaratguvchi tomonidan xristian biriktirilgan ish sidqidildan amalga oshirilishi lozim. Ammo o‘z kasbini tanlash va uni eng maqbul yo‘l bilan amalga oshirishni insonning o‘zi tanlaydi.

Garchi Veber protestantlik asosida qaror topgan xo‘jalik va turmush shakli kapitalizm uchun asos bo‘lganligini ta’kidlagan bo‘lsada, buni doktrina sifatida qabul qilishni rad etgan. Olim kapitalizmining rivojlanishi uchun boshqa sabablar ham asos bo‘lishi mumkin, deb hisoblagan. Veber kapitalizm XVII asrda qaror topib bo‘lgach, “protestantlik ruhi”ga va diniy motivatsiyaga bo‘lgan ehtiyojini yo‘qotganligini ta’kidlaydi.

Veber dunyo dinlarining nafaqat iqtisodiy soha balki jamiyat hayotining boshqa sohalariga – intellektual, madaniy, siyosiy va h.klarga bo‘lgan ta’sirini o‘rgangan. Sharq dinlarini tahlil qilish oqibatida Veber mazkur dinolarning xususiyati va mohiyati ularning Sharq jamiyatlarini G‘arb jamiyatlarinikiga o‘xshamagan rivojlanish yo‘lidan borganligini ko‘rstagan.

Veber diniy motivatsiyaning sotsial hayotdagi o‘mini o‘rganish orqali dinning tarixiy rivojlanish jarayonidagi o‘mini aniqlagan. Olimning fikricha, insonlarning sotsial faoliigi ular amal qilayotgan qadriyat, norra, madaniyatga borib taqaladi.

Dunyoviy dinlarni taqqoslash natijasida Veber dinlarning ratsionallik darajasiga baho berishga xarakat qilgan. Uning nazarida dinning ratsionallik darjasini undagi sehr elementiga teskari proporsional hisoblanadi. Shunga ko‘ra primitiv dinlarda sehr elementi asosiy o‘rinni egallasa, mukammal dunyoviy dinlarda uning

asosiy qismini ratsionallik egallagan. Shu asosda Veber dinlarning hayotga bo'lgan munosabatiga ko'ra uch turga ajratgan:

- hayotga moslashuvchi dinlar – konfutsiylik, daosizm;
- hayotdan qochuvchi dinlar - hinduizm va buddizm;
- hayotni egallovchi (boshqaruvchi) dinlar – hinduizm va xristianlik.

Har bir din hayotga bo'lgan ideal tip munosabatlarini ifodalaydi. Har birida turmush tarzining ma'lum usuli, ratsionallik tipi mavjud bo'lib, ular dunyo haqidagi, hayot haqidagi tasavvurlarni, shuningdek, ma'lum ishonch va madaniy qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Turli diniy ta'limotlarning har xil sotsiomadaniy asoslardagi faoliyati jamiyat uchun har xil sotsial oqibatlarni vujudga keltiradi.

Xristianlik dinining o'zida ratsionallikning bir-biridan farqlanuvchi turlari shakllangan. Katolitsizm - lyuteranlik - kalvinizm sotsial borliqning din tomonidan ratsionallashuvining bosqichlari sanaladi. Uning natijasida jamiyatning sekulyarizatsiyasi va diniy tasavvurlarning o'mini dunyoviy qarashlari egallashi sodir bo'ldi. Veber zamonaviy davrni xudosizlik davri, deya ta'riflagan. Uning fikricha, inson o'zi yashayotgan mazkur davrda yaratguvchiga ishonch uchun joy qolmaganligini o'zidan yashirib yashashi kerakligini uqtirgan. "Qanchalik achinarli bo'lmasin rutsionalizatsiya e'tiqodga teskari proporsinal jarayon sanaldi, deya ta'kidlagan olim. Bu davr fan qadriyatları va din o'rtaşıdagi kurashlar va qarama-qarshiliklar davri. Qanday qandriyatlar asosida yashash kerakligi to'g'risidagi savolga javobni Qutqaruvchi berishi kerak, ammo sehrni yo'qotgan mazkur olamda ortiq Qutqaruvchi va payg'ambarlar mavjud emas. Chunki, payg'ambar va vahiy kelishiga ortiq insoniyat ishonmaydi".

Endilikda insonning yerdag'i hayoti va tabiiy hodisalar ilohiylik jihatidan emas, balki ilmiy jihatdan asoslanayotgan paytda haqiqiy e'tiqodli, "pozitiv-diniy" insonning asosiy xususiyati uning tomonidan "o'z intellektini qurbanlik" qilishidir. Chunki hozirgi hayotda yagona yaratguvchiga bo'lgan ishonch yo'q. Monoteistik dinlarning o'mini xudolar o'rtaşıdagi doimiy kurash egallaydi. Shundan xulosa chiqargan holda Veber mazkur muammoning yagona yechimi insonning o'zi ekanligini ko'rsatadi. Payg'ambarlarga va yangi dinning yaralishiga ishonch yo'qligi

hamda fanlar jamiyatdagi mazkur qadriyatlarni asoslab bera olmaganliklari uchun insonning o'zi bir qarorga kelishi va tanlovini amalga oshirishi kerak.

Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni va insonlarning birdamligini diniy jihatdan talqin qilish orqali yuksaklikka ko'tarish holatiga Veber shubha bilan qaragan. U mazkur davrning ratsionalligi va dinga bo'lgan munosabatni tan olishga jur'ati yetmagan insonlarga qadim cherkovlarning davridagi e'tiqod bilan yashash keraligi to'g'risidagi maslahatini bergen. Ular o'sha davrlardagi tasavvurlar dunyosida yashashlari mumkin. Intellektning inson tomonidan shu tarzdagi qurbanligi e'tiqodlilik belgisi sanalib, intellektual jihatdan insonning rostgo'y bo'lism holatidan qochishi sifatida baholanishi rnumkin. Veber faol va ahloqiy jihatdan mas'uliyatli hayotiy pozitsiyalarga ega bo'lgan. U inson davriga mos bo'lishi va uning talablariga javob berishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. O'tmishdagi holatni qumsab yashash befoyda va samarasiz holat sifatida baholangan. Olimning fikricha, hyech bir insonni qanday yashash kerakligiga o'rjeta olmaydi.

Veberning ilmiy ijodi inson xatti-harakatitining mikroanalizini yagona tizimga birlashtirish, insoniyat tarixining to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish va zamonaviy davrning interpretatsiyasini yebrish imkonini berdi.

Veber Marksning ko'pgina fikrlariga qarshi chiqqan bo'lsada, uning ishlarini o'rgangan va tegishli xulosalar chiqargan. Veberning fikricha, din inson faoliyatiga ulkan ta'sir ko'rsatuvchi vosita sanaladi va sotsial o'zgarishlarning sababi bo'ladi. Ko'p xollarda uning sotsial rivojlanish konsepsiysi xarizma va payg'ambarlik tushunchalariga asoslangan. U E. Trelch bilan hamkorlikda diniy tashkilotlarning tipoloiyasini yaratib, tushunchalar apparatini ishlab chiqqan. Mazkur apparatdan bugungi kunda ham sotsiologiyada keng foydalaniлади.

E.Dyurkgeym, K.Marks, M.Veberning din sotsiologiyasi doirasida yaratgan asarlari din sotsiologiyasida shakllangan ilmiy yo'naliishlarga asos soldi: din va birdamlik, jamiyatning birlashuvi (Dyurkgeym); din va konflikt (Marks); din va sotsial o'zgarish (Veber).

## **2. Din sotsiologiyasining predmeti va metodlari**

Sotsiolog dinni sotsial fenomen sifatida, ya'ni diniy xatti-harakatni guruhiy xatti-harakat turi sifatida o'rGANADI. Garchi sotsiologiya bevosita individlarni ham o'rgansada, uning asosiy o'rganish predmeti inson jamoalari va guruhlarining o'zaro munosabatlari idir.

Din sotsiologiyasining predmeti – diniy tashkilotlar, ularning shakllanishi va faoliyati. Bunda dinni jamiyatning mustaqil sohasi sifatida o'rganish barobarida diniy xatti-harakatlarni, indivilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topishi, ularning diniy tashkilotlar faoliyatiga ta'siri, diniy tashkilotlarning inson faoliyatiga ta'siri, diniy tashkilotlar faoliyatining jamiyat sohalariga ta'sir oqibatlari kabilar sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi.

Din sotsial institut sifatida qator o'zaro bog'liq bo'lgan va boshqa sohalardan ajralib turuvchi diniy xatti-harakatlar va o'zaro munosabatlар kompleksi sifatida sotsiologik jihatdan o'rganiladi.

Individning xatti-harakatiga ta'sirlar uning e'tiqodi orqali amalga oshiriladi. Chunki, e'tiqod individning hayot to'g'risidagi tasavvurlari, kayfiyati hamda motivlarini belgilab beradi. Ammo diniy tashkilot o'z a'zolarining xatti-harakatiga dissiplinar usullar orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun total institutlarning ta'siri. Total institutlar deyilganida, a'zolarining hayoti qat'iy nazorat ostiga olingan majburlov uyushmalari tushunilib, a'zolarining ehtiyojlari tashkilot tomonidan qat'iy belgilanadi, qilinishi mumkin bo'lgan va ta'qiqlangan xatti-harakatlar tashkilot qoidalari tomonidan belgilab qo'yiladi. Maktab-internatlar, armiya kazarmalari. Qamoqlar, psixiatrik kasalxcnalarning faoliyati total institutlarga ko'p jihatdan yaqin. Tashkilot tomonidan shaxsnинг butkul ravishda tashkilotga qo'shilishi ehtiyojiga individning o'z irodasi va ijodkorligi xalal bermasligi uchun total institutlarning majburlov va qat'iy nazorat vazifalari shakllangan.

Din sohasida ham total institutlar mavjud bo'lib, ular qat'iy belgilangan diniy normalar, qadriyat va e'tiqodga o'z a'zolarini bo'ysundirish orqali birdamlikni ta'minlashni maqsad qiladi. Albatta inson xatti-harakati jamiyat hayotining iqtisod,

siyosat kabi qator sohalari tomonidan ham nazorat qilinadi. Undan tashqari har bir din uni sotsial jihatdan aniqlashtiruvchi qatlamlarning manfaatlarini inobatga oladi.

Din sotsilogiyaning predmeti sifatida kundalik hayotda namoyon bo'lувчи madaniyat modellari, belgili tizimlar sifatida namoyon bo'ladi. Din sotsiologiyasining maqsadi individ uchun nafaqat emotsional jihatdan taskin beruvchi, balki mohiyatga aloqador bo'lgan muhim muammolarni yechuvchi diniy-belgili tizimlarni aniqlashdan iborat. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, barcha insonlar uchun bir xil ravishda diniy vazifalarni bajaruvchi yagona belgi shakllari mavjud emas. Shuning uchun din sotsiologiyasi mazkur belgilarni aniqlab, ularni ma'lum turlarga ajratishi, ularga amal qilish qanday natijalarga olib kelishini aniqlashi lozim.

Din sotsiologiyasi sotsiologiya fanining strukturasiga nazar solsak, o'rta darajadagi nazariyalar toifasidan o'rin olgan. U empirik tadqiqotlar vositasida dinning jamiyatdagi shakllari, o'mni, funktsiyasi, ta'sirlari va ta'sirlarining oqibatlari borasida amaliy ma'lumotlar olib, ular asosida dinning nazariy modelini umumsotsiologik nazariyalar doirasida ishlab chiqadi.

Din sotsiologiyasi doirasida umumiy sotsiologiyada qo'llaniluvchi qator tushunchalar ishlatalidi: guruh, rol, hokimiyat, madaniyat va h.k. dinni tadqiq qilish davomida sotsiologik instrumentariy va metodlarni qo'llash maqsadga muvoffiqligini va samarasini isbotladi. O'z navbatida din fenomenini o'rganish orqali sotsiologiyaning asosiy tushunchalari ishlab chiqildi, qatorr yondashuv va usullar yaratilib, umumsotsiologik bilim sohasi boyitildi.

Ilmiy sotsiologiyaning asoschilarini sifatida O.Kont, K.Marks din boraisda ham o'z qarashlarini bildirishgan. Ulardan so'ng E.Dyurkgeym, M.Veber, G.Zimmel kabi olimlar din sotsiologiyasining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishdi.

*Din sotsiologiyasining metodlari.* Din fenomenini o'rganishda umumiy sotsiologiyada qo'llaniluvchi usullardan foydalaniлади. Bular: so'rov va statistik analiz; kuzatish va eksperiment; kross-madaniy taqqoslovchi tahlil; yozma manbalarning, tarixiy hujjatlarning tahlili, kontent analiz.

Din sotsiologiyasida ham muhim usullardan biri so'rov bo'lib, u odatda standartlashtirilgan intevyu yoki anketa tarzida amalga oshiriladi. Respondentlarga

ularning diniy kelib chiqishi va e'tiqodi, diniy urf-odat va an'analarni bajarishi, qay darajada o'li mdan keyingi hayotga ishonchi kabi qator savollar beriladi. Bunda respondentlarning e'tiqodlilik darjasni, dinga bo'lgan munosabati va uning namoyon bo'lish shakllari aniqlanadi. So'rov usuli orqali diniylik xususiyatlari va ma'lum sotsial ustanovkalar o'rtaida korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Din sohasidagi nisbatan chuqur aloqadorliklarni va sabablarni aniqlash so'rovdan tashqari boshqa usullarni va tahlilni talab qiladi. So'rov, eksperiment, statistik analiz, kuzatish kabi metodlar natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, talqin qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Din insonning chuqur ichki his-tuyg'ulariga bog'liq bo'lgani uchun dinni o'rganishga aloqador bo'lgan tadqiqotlarda eksperiment usulidan ahloqiy nuqtai nazardan yondashilgan holda kamdan-kam vaziyatlarda qo'llaniladi. Chunki insonning diniy tuyg'ularini manipulyasiya qilinishi individlar tomonidan ham salbiy qabul qilinadi. Ammo ba'zan insonning noodatiy xislatlarini namoyon qilish (ekstrasenslik, shamanlik va h.k), diniy ta'limotlarni o'qitish dasturlarini kiritish vaziyatlarida mazkur usuldan foydalaniлади.

Kross-madaniy taqqoslash turli madaniyatlarda amal qiluvchi diniy fenomenlarni taqqoslashni va solishtirishni nazarlda tutadi. Misol uchun mazkur usul vositasida M. Veber xristianlik va buddaviylikdagi qutilish tushunchasini diniy va madaniy jihatdan taqqoslagan.

Tarixiy yozma manbalar va hujjatlarni tahlil qilish metodi diniy tashkilotlarning tipologiyasini yaratish, dinning evolyutsiyasi bosqichlarini o'rganish, protestantizmning kapitalizmning rivojiga ta'sirini aniqlash paytida qo'llanilgan.

V.V.Rozanov kontent analiz usuli vositasida xristianlik tarixini qaysi bosqichlarida "yorug'lik" (xursandchilik, bayramlar, tinchlik) va qaysi bosqichlarida "zulmat" (azob-uqubat) ustunlik qilganini aniqlagan.

Sotsiolog din fenomenini o'rganish davomida sotsiologiyada qo'llaniluvchi turli metodlardan foydalaniлади. Ba'zan tadqiqot to'liq bo'lishi uchun bir qancha metodlarni kompleks tarzda qo'llash maqsadga muvoffiq bo'ladi.

### **3. Dinning vazifalari va diniy tashkilot turlari**

Din o'ziga xos bo'lgan turli vazifalarni bajarish barobarida jamiyatdagi individ va guruhlarning ehtiyojlarini qondiradi. Funksional yondashuv dinning sotsial fenomen sifatida o'rganish imkonini yaratdi. Ammo har bir jamiyat o'z xususi yatlari va unda amal qiluvchi madaniyat nuqtai nazaridan farqlangshani uchun dinning har bir jamiyatda bajaruvchi funksiyalari ham bir xil emasligini inobatga olish lozim. Shuning uchun hamma dinlar uchun universal bo'lgan funksiyalarning ketma-ketligini ko'rsatish qator qiyinchiliklarga ega.

Funksional yondashuv nuqtai nazaridan din jamiyatda integratsiyalovchi va barqarorlikni ta'minlash vazifani bajaradi. Ammo zamonaviy jamiyatlarda ko'p hollarda jamiyat integratsiyasi va barqarorligi ko'p hollarda qonunchilik va huquq tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Undan tashqari bugungi kunda din ba'zan jamiyatni dizintegratsiyalovchi omil sifatida o'z xususiyatlarini namoyon qilmoqda. Bitta din turli jamiyat va madaniyatlar bilan hamkorlikda turli xil vazifalarni bajarishi mumkin. Bu vazifalar jamiyat uchun ham ijobji, g'ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shularni inobatga olgan holda dinning quyidagi to'rtta funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1.Mazmun yoki mohiyat funksiyasi**
- 2.Tegishlilik yoki identifikasiya funksiyasi**
- 3.Sotsial integratsiya va barqarorlik funksiyasi**

---

- 4.Madaniy qadriyatlar, asosan ahloqiy normalarning muqaddaslashtirilishi funksiyasi.**

Birinchi va ikkinchi funksiyalar bevosita shaxsga, qolgan ikkitasi esa sotsial strukturalarga qartilgan ta'sirni ifodalaydi.

Mazmun yoki mohiyat funksiyasini M.Veber barcha dirlarga xos bo'lgan asosiy funksiya sifatida baholagan. Din insонning hozirgi hayotidagi adolatsizlik, azob-uqubatlari va o'limi holatini "narigi dunyo"dagi farog'at uchun ahamiyatli, deya talqin qiladi. Bunda dirlarning kompensatorlik effekti namoyon bo'ladi. Shu bilan

birgalikda din imazkur funksiyasi doirasida insonning jamiyatda boshqa insonlarni ham inobatga olishi hamda hurmat qilishi, hamkorlikda yashashi kerakligi kabi fikrlarni isngdiradi.

Din insonning identifikatsiyasida muhim o'rinni egallaydi. U insonning butun umri davomida – bolaligidan keksaligigacha sotsializatsiyasida ishtirok etib, uning milliy o'zligini ta'minlashda ham ma'lum vazifani bajaradi. Insonning yoshiga aloqador bo'lgan urf-odatlar ko'pchilik dinlarda mavjud. Shaxs o'zini jamiyatning aksariyat qismiga tegishli ekanligini sezishi uchun ham azkur an'analarga rioya qilishga majbur bo'ladi. Dyurkgey dinning mazkur funksiyasini eng muhim funksiya sifatida baholagan. Chunki u orqali jamiyatda guruhiy birdamlik va identifikatsiya ta'minlangan.

Ammo mazkkur holat individ psixologiyasiga dinning mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarini inkor qilmaydi. U jamiyatdagi bardoshiszlik yoki konformlik holatini ham yuzaga keltirishi mumkin.

Dining sotsial integratsiya va barqarorlikni ta'minlash funksiyasi an'anaviy jamiyatlarda samarali hisoblanadi. Ammo jamiyatning differensiatsiyasi va plyuralizmnning o'sishi sharoitida hyech bir mahalliy din mazkur vazifani to'laqonli bajara olmaydi.

Madaniy qadriyatlar, asosan ahloqiy normalarning muqaddaslashtirilishi funksiyasi ham asosan an'anaviy jamiyatlar uchun xos bo'lib, dinning mazkur imkoniyati jamiyatning rivojlanishi barobarida chegaralanib boradi.

### *Diniy tashkilot turlari*

Diniy tashkilotlarning shakllanishiga e'tibor qaratigan bolsak,

jamiat va din rivojining primitiv bosqichyaida alohida sotsial struktura sifatida diniy tashkilotlar mavjud bo'lmaydi. Tarixiy jihatdan eng qadimgi diniy uyushmalar "vital" tipidagi (tabiiy ravishda hosil bo'lgan) birliklar bo'lib, ularga oila, urug', jamoa, xalq kirgan. Ular o'zaro qarindoshlik asosidagi identifikatsiya asosida birlashib, diniy e'tiqod mazkur identifikatsiyaga yondosh xususiyat sifatida shakllangan. Bunday din shakllari "xalq dinlari", "diffuz dinlar" nomini olgan.

Qadimgi Yunoniston va Rim diniy rahnamolar va xatto ularning kollegiyasi tashkil topgan bo'lsada, bu davrda din hali to'laligicha shakllknmagan va xali ham madaniyatning bir bo'lagi sifatida amal qilgan.

Xristianlik dinida cherkov va sekta diniy tashkilotlarning ikki xil ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Amalda mavjud bo'lgan diniy tashkilotlar odatda hyech qachon mazkur tashkilot modellariga barcha ko'rsatkichlar bo'yicha to'laqonli ravishda muvoffiq kelmaydi. Ammo mazkur tushunchalar evristik qadriyatga ega. Ular diniy tashkilotlarning tipologiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur ikki tashkilotdan og'uvchi va ularga yondosh bo'lgan diniy tashkilot turlari ham mavjud.

R.Nibur AQShdagi diniy tashkilotlarni o'rganish davomida<sup>114</sup> sektalar vaqt o'tishi bilan ularga xos bo'lgan tipik xususiyatlarni yo'qotishini aniqlagan. Yopiqlik xarakteri va elitarlik xususiyati o'z safiga istalgan shaxsni qabul qilishga tayyorlik xususiyatiga o'z o'mini bo'shatib beradi. "Ongli ravishda safiga qo'shilish" xususiyati shu e'tiqodda tug'ilganlar uchun o'z ma'nosini yo'qotadi. Chunki, ular tug'ilib, ota-onasi tufayli mazkur e'tiqodga amal qilishni boshlagan hisoblanadi. Hayotni inkor qilish yoki unga bo'lgan befarqlikning o'mini sotsial hayotdagi faol ishtirok va sotsial tartib-qoidalarni qo'llab-quvvatlash holati almashtiradi. Ammo sektalardagi shu kabi o'zgarishlarr ularni to'laqonli ravishda cherkov sifatida talqin qilish uchun asos bo'la olmaydi. Chunki, ular jamiyatning keng tabaqalari orasida yetarli darajada tarqalmagan bo'ladi. Undan tashqari ular fuqarolarning milliy identifikatsiyasini ta'minlay olmaydi va davlatga sidqidildan vafodorlik ko'rsata olmaydi.

R.Nibur diniy tashkilotlarning mazkur turini "denominatsiya", ya'ni sekta va cherkov o'rtasidagi oraliq tashkilot sifatida nomlagan. Niburning fikricha, denominatsionalizm AQSh jamiyatiga xos bo'lgan hodisa bo'lib, uning asosiy sababi mazkur jamiyatda o'matilgan diniy plyuralizm va davlat cherkovi maqomiga da've qilishi mumkin bo'lgan diniy tashkilotning mavjud emasligidir. Amerikada 200 dan

<sup>114</sup> Гарифов В. И. Социология религии: Учеб. пособие для студентов и аспирантов гуманитарных специальностей. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. С. 221.

ortiq yirik denominatsiyalar faoliyat olib boradi. Nibur sekta - denominatsiya – cherkovni dinning rivojlanish bosqichlari sifatida baholaydi.

Jamiyat va e'tiqod o'rtasidagi qadriyatlarning bir-biriga muvoffiq kelmasligi insonni o'zining asosiy dinidan voz kechib biror sektaga murojaat qilishiga olib keladi. Konflikt yayangi turdag'i diniy guruhlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Cherkov, deminatsiya va sektalar qator farqlarga ega bo'lgan holda o'zining o'xshasha tomonlariga ham ega sanaladi. Ulparning barchasida a'zolarining joylashuvi va vazifalari qat'iy belgilab berilgan bo'ladi.

G.Bekker zamonaviy jamiyat va undagi din fenomenini o'rghanish davaomida dinning shunday shaklini ajratib, talqin qilganki, unga ko'ra mazkur din biror diniy tashkilot emas, balki faqat a'zolarining ishtiyoqi (entuziazmi) asosida faoliyat olib boradi. Bekker dinning mazkur shaklnini "kult" nomi bilan atagan.

#### **4. Sekulyarizatsiya sotsiomadaniy fenomen sifatida**

Sekulyarizatsiya yevropa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, burjuaziyaning yuksalishi hamda zamonaviy olamning shakllanishi uchun asos sanaladi. U Dyurkgeym va Veber kabi olimlarning diqqat markazida bo'lgan.

XV-XVI asrlardan boshlab yevropa jamiyatida dinning ahamiyati va nufuzi pasayib borgan. Sekulyarizatsiya – bu jamiyat hayotining turli jabhalarining din ta'siri va nazoratidan forig' bo'lishi jarayonidir.

"Sekulyarizatsiya" atamasi mazkur ma'noda ilk bor 1646 yil Vestfal tinchlik shartnomasini imzolash paytida ishlatalgan. Ular g'olib tomonlarning urush davomida ko'rgan talafotlarining o'mini diniy monastrylar mulkini musodara qilish orqali to'ldirish mazmunida qo'llashgan. Dunyoviy davlat hisobigav cherkov yerlarining musodara qilinishi amaliyoti XVII- XVIII asr yevropa monarxlari tomonidan keng qo'llanilgan. Ammo Taleyran tomonidani 1789- yilda bo'lgan Fransiya milliy yig'ilishida bildirgan taklifi mazkur jarayonning jadallahuvitga olib keldi. Natijada cherkovning barcha mulki millat tasarrufiga o'tkazildi. Bu holat cherkov mulkining musodara qilinishi hamda monastrylarning bekitilishini nazarda tutgan.

Natijada sekulyarizatsiya tushunchasi keng ma'noda qo'llanila boshlandi. U zamonaviy nadaniyatni va dunyoviy davlatni shakllantiruvchi ornil sifatida talqin qilina boshlandi. XVII ars boshlarida Venetsiya respublikasida kuzatilgan jarayonlar mazkur holatning misoli bo'lishi mumkin. Venetsiyada o'sha davrda fuqarolarning cherkovlarga ajratadigan moddiy yordami miqdori chegeralanib qo'yildi, dalat tomonidan cherkov binolarining qurilishi nazorat ostiga olindi, jinoyatda ayblangan din vakillari oddiy fuqarolar kabi sud oldida javo berishi tartibi o'rnatildi, dindorlar va ularning oila a'zolari hukumat atrkibidan chiqarib tashlandi. Venetsiya salib yurishlarida qatnshishdan qat'iyan voz kechgan. Venetsiyaning mazkur xatti-harakatlari va yangi tartiblari Rim tomonidan salbiy qabul qilingan.

Aslini olganda jamiyatdagi sekulyarizatsiya jarayoni dinning mavjudligini xavf ostiga qo'ymaydi. U shunchaki diniy va dunyoviy tushunchalarni bir-biridan farqlaydi.

Rim papaligi tomonidan sekulyarizatsiya jarayoniga qarshi kurashish holatlari XVI-XVII asrlarda amalga oshirilgan, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Shundan so'ng papalik boshqa hyech qachon dunyoviy davlatga qarshi chiqish urinishlarini amalga oshirmadi.

Sekulyarizatsiya jarayoning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu iqtisodiyotdir. Kapitalizm va sanaotlashtirilish jarayoni dinning davlatdan adjralish jarayonini tezlashtirib yubordi. Iqtisod sohasidan boshlab sekulyarizatsiya jamiyatning boshqa sohalariga tarqala boshladи. Angliyaning rivojlanishi bunga misol bo'la oladi. Sanoat rivojlanishi ortda qolayotgan davlatlarda siyosat seulyarizatsiyani tezlashtirishda muhim o'r'in tutgan. Bu holat XVIII asrda Fransiya va Rossiyada kuzatilgan. Bugungi kunda rivojlanish darajasi past bo'lgan davlatlarda mazkur jarayonning namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Yevropadagi ma'naviy uyg'onish davri jamiyatning sekulyarizatsiya jarayonini yanada jadallashtirdi. U inson ongingin diniy ta'qiqlar va dogmalardan xoli bo'lishi g'oyasining keng tarqalishiga olib keldi. Shunga ko'ra, sekulyarizatsiya zamonaviy jamiyatni va madaniyatni shakllantirgan omil sifatida baholanishi mumkin. Chunki, u

jamiyatda din instituti va diniy tashkilotlarning o'mini, ularning ta'sirini va vazifalarini tubdan o'zgartirdi.

Sekulyarizatsiyani dinning boshqa sohalardan butkul uzilishi sifatida tushunmaslik kerak. Albatta bugungi kunda ham din siyosat, madaniya, iqtisod sohalari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Ko'pchilik sotsiologlarning fikricha, sekulyarizatsiya qaytarilmaydigan jarayon sanaladi va dinning ta'sir doirasi chegaralanishi, qisqarib borishini nazarda tutadi. Boshqa sotsiologlar esa sekulyarizatsiyani dinning namoyon bo'lish shaklining o'zgarishi sifatida baholashadi. Unga ko'ra, o'z umrini tutatgan dinnning o'mini yangi din shakllari egallaydi. Shu nuqtai nazaridan sekulyarizatsiya normal jarayon sanalib, vaqt o'tishi bilan u dinning yangi qandaydir shakllarining nufuzi ortishiga olib kelishi mumkin.

P.Bergerning fikricha, sekulyarizatsiya jarayonining oqibatlari har bir individ uchun individual ma'no kasb etadi. U o'zining "Muqaddas pard" (1967) nomli asarida sekulyarizatsiya iqtisod va sanoatlashuv sohasidan boshlanib, siyosat sohasiga o'tishini ta'kidlagan. Shu bilan birgalikda din ongning bir shakli sifatida inson hayotida muhimligini hamda siyosiy nuqtai nazaridan mafkura tarkibida faoliyat olib borishi kerakligini aytib o'tgan.

Olim sotsial strukturalar darjasidagi sekulyarizatsiyani "obyektiv sekulyarizatsiya" nomi bilan atagan va u "subyektiv sekulyarizatsiya" bilan birgalikda analga oshishini ta'kidlagan, ya'ni "ko'cha odami" borgan sari o'zining dinga bo'lган qiziqlishi va ehtiyojini yo'qotib boradi. uning kundalik hayoti cherkovga murojaat qilishni nazarda tutmaydi. U diniy odatlar va burchlani keyinga surishga odatlanib qoladi va ko'p hollarla ulami unutib qo'yadi.

Bergerning fikricha, dinning oilaga ta'siri ham kundan-kunga pasayib bormoqda. Din jamiyatni yagona tizimga birlash tiruvchi muqaddas qadryait maqomini yo'qotib bormoqda. Din individning shaxsiy tanlovi masalasiga aylanishi barobarida yagona qadriyat va yagona hayotiy yo'l maqomini yo'qotib bormoqda. Dtin har bir insonning shaxsiy ishiga aylanib qolganligi uchun dinning roli va ahamiyati kamayib bormoqda.

T.Parsons va R.Bellning fikricha, jamiyatdagi qarashlarning plynuralizatsiya tufayli ortishi oqibatida sekulyarizatsiya jarayoni davomida denga bo‘lgan qarashlarr ham o‘zgaradi. Ammo mazmunan din o‘zining mohiyatini yo‘qotmaydi. Dinning sotsial guruh va insonning dunyoqarashi va xatti-hharakatlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari o‘zgaradi, xolos.

#### Nazorat savollari

1. Din sotsiologiyasining paydo bo‘lishidagi ilk nazariyalar
2. Din sotsiologiyasining predmeti nimadan iborat?
3. Din fenomenini o‘rganishda qaysi usullardan foydalaniadi?
4. Din sotsiologiyasining vazifalarini aytib bering.
5. Qanday diniy tashkilot turlarini bilasiz?
6. G‘arb olimlarining sekulyarizatsiya to‘g’risidsagi qarashlarini ayting.

#### Test savollari

1. Din sotsiologiyasi qachon mustaqil yo‘nalishi sifatida rivojlana boshladi.
  - A. XIX asming o‘rtalaridan
  - B. XX asr boshlaridan
  - C. XIX asr oxirlaridan
  - D. XIX asr boshlaridan
2. Din sotsiologiyasining rivojlanishiga qanday sabablar asos sanaladi?
  - A. Yevropa jamiyatida ma’nnaviy uyg‘onish jarayonlari va antifeodal burjua inqiloblarining sodir bo‘lishi
  - B. O‘n sakkizi nchi asr faylasuflarining feodal ijtimoiy munosabatlar va g‘arb jamiyatidagi cherkovning tariqidi dini sotsiologiyasining rivojlanishida asosiy sabablardan biri bo‘ldi.
  - C. O‘rta asrlar yevropasi va yangi davrning boshlanishi ko‘plab diniy asosdagi mojarolarga to‘la bo‘ldi va din sotsiologiyasining rivojdanishiga sabab bo‘ldi.

D. B va C

**3. Qaysi olimlar tomonidan dinning salbiy funksiyalari o'rganilgan?**

A. Gotbs, Lokk, Yum, Golbax va Didro

B. J.J.Russo, Lokk, Bell

C. Veber, Dyurkgeym

D. Kant, Yum, Didro, Gobbs

**4. Qaysi olim dinni jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida talqin qilib, ma'lum "fuqarolik dini"ning yaratilishini nazarda tutgan?**

A. J.J.Russo

B. R.Bell

C.I.Kant

D. Gotbs

**5. Dinni taraqqiyot yo'lidagi to'siq sifatida baholagan olinlar?**

A. Feyerbax, Marks

B.O.Kont, E.Dyurkgeym

C. G.Spenser, T.Parsons

D. Bell, Malinovskiy

**6. Din sotsiologiyasining asoschilari?**

A. E. Dyurkgeym, K.Marks, M.Veber

B. O.Kont, Dyurkgeym, Veber

C. G.Spenser, T.Parsons

D. Bell, Malinovskiy

**7. "Denominatsiya" tushunchasini kiritgan olim?**

A. Nibur

B. Berger

C. Djeyms

D. Kant

**8. Sekulyarizatsiya jarayoning asosiy harakatlantiruvchi kuchi?**

A. Iqtisodiyot

B. Madaniyat

C. Din

D. Protestantlik ahloqi

**9. Din insonning chuqur ichki his-tuyg'ulariga bog'liq bo'lgani uchun dinni o'rghanishga aloqador bo'lgan tadqiqotlarda qaysi sotsiologik usuldan ahloqiy nuqtai nazar tufayli kam foydalilanadi?**

A. Eksperiment

B. Kuzatish

C. So'rov

D. Hujjatlarni tahlil qilish

**10. M. Veber xristianlik va buddaviylikdagi "qutilish" tushunchasini diniy va madaniy jihatdan taqqoslash paytida qaysi usuldan foydalangan?**

A. Kross-madaniy taqqoslash

B. Eksperiment

C. Tarixiy manbalarni o'rghanish

D. Ichki kuzatish

## **10- bob. BOSHQARUV SOTSILOGIYASI VA UNING AHAMIYATI**

**Reja:**

- 1. Boshqaruv sotsiologiyasining obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari**
- 2. “Sotsial boshqaruv” boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos turi sifatida**
- 3. Boshqaruv sotsiologiyasining qonunlari, sotsial doktrinasi va tamoyillari**
- 4. Boshqaruvning samaradorligida sotsial nazoratning ahamiyati**

### **Tayanch so‘z va iboralar**

Boshqaruv sotsiologiyasi. Boshqaruv. Bilish funkitsyasi. Baholash funkitsyasi. Bashorat funkitsyasi. Sharhlash funkitsyasi. Tashkiliy-ma’muriy metodlar. Iqtisodiy metodlar. Sotsial – psixologik metodlar. Sotsial boshqaruv. Boshqaruv munosabatlari. Boshqaruv sotsiologiyasining qonunlari. Sotsial doktrina. Sotsial boshqaruvning qonuniyatları. Boshqaruv sotsiologiyasining tamoyillari. Sotsial nazorat va boshqaruv samaradorligini baholash. Majburlov. Mas’uliyat, Xomaki (birlamchi) nazorat. Davom etuvchi nazorat. So‘nggi nazorat.

- 1. Boshqaruv sotsiologiyasining obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari**

Boshqaruv sotsiologiyasi ikki mustaqil fan – sotsiologiya va menedjmentning qo’shilishidan hosil bo‘lgan sintetik fan sanaladi. Ma’lumki, sotsiologiya insonlar o’rtasidagi sotsial munosabatlarni xolisona tarzda tahlil qilish orqali jamiyatni boshqaruvchi qonun va qonuniyatlarni aniqlaydi, jamiyatni turli shakllarini va kichik guruhlarning xatti-harakatlarini va alohida shaxslarni o’rganadi. Menedjmentning asosiy maqsadi esa sotsial munosabatlarni ma’lum sotsial guruhlar, tashkilotlar va jamiyatning manfaati uchun amaliy jihatdan samarador bo‘lgan boshqaruv usullarini aniqlashdan iborat.

“Boshqaruv” tushunchasi birinchi bor AQSHda amaliyotga kiritilgan bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab fanlar tomonidan o’rganiladi. Ammo ularning barchasi

boshqaruvning asosiy maqsadi insonlarni boshqarish va ularning faoliyatini avvaldan ishlab chiqilgan reja asosida ma'lum tashkilot yoki sotsial institut manfaati yo'lida yo'naltirish, degan fikri qo'llab-quvvatlaydi.

Sotsial jihatdan boshqaruv deyilganida, insonlar o'rtaida o'matilgan sotsial munosabatlarning hokimiyat va bo'ysunishga aloqador shakli tushunilib, u mehnat tashkilotidagi insonlarning joylashgan joyi va vazifalari bilan aniqlanadi. Bugungi kunga qadar sotsiologiya fanida boshqaruvni "insonlarning xatti-harakatini ularga sezdirmagan holda tashkilot manfaatidan kelib chiqqan holda ma'lum yo'sinda yo'naltirish" sifatidagi ta'rifi keng qo'llanilib kelinadi. Shuning uchun ba'zan olimlar boshqaruvni san'atga tenglashtirishadi.

Boshqaruv sotsiologiyasining asosiy xususiyatlaridan biri uning amaliy fan ekanlidir. U umumiy sotsiologiyaning bir qismi sifatida jamiyatdagi boshqaruv sohasiga aloqador bo'lgan jarayonlarning shakllanishi, faoliyati va rivojlanishini, sotsial o'zgarishlar va munosabatlarning mexanizmlarini, sotsial harakatlarning qonuniyatlarini o'rGANADI. Boshqaruv jarayoni ko'plab bosichlardan iborat bo'lgani uchun o'o'z ichiga turli xil komponentlarni qamrab oladi va turli fanlar o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda uni tadqiq qiladi. Ularning har biri mazkur jarayonda o'zining obyekti va predmetini aniqlaydi.

Politologiya hokimiyat munosabatlariiga, o'zini nazorat qilish, boshqaruv nuqtai nazaridan hokimiyat va jamiyatning o'zaro munosabatlariiga diqqatini qaratadi.

Boshqaruv sotsiologiyasining obyekti va predmeti boshqaruv jarayoni va boshqaruv faoliyatini o'z ichiga oladi. Boshqaruv sotsiologiyasining obyekti tizimli yondashuv nuqtai nazaridan jamiyatda kechuvchi boshqaruv jarayonlari bo'lib, ular bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi tagtizimlar sifatida o'z ichiga siyosiy tizim, iqtisodiy tizim, sotsiomadaniy tizimni oladi; tashkilotlardagi munosabatlarga kiruvchi individlarning o'zaro harakatlar tizimi ham kiradi kiradi. Misol uchun hamkorlik, raqobat, yordam kabi munosabatlarga kirituvchi oilaviy, kasbiy, hududiy va boshqa turdagи sotsial guruhlar.

Boshqaruv sotsiologiyasining predmeti turli xil jamiyatlardagi, sotsial tashkilotlardagi, sotsial institatlardagi boshqaruv jarayonlarini baholash, o'rganish va

mukammallashtirish. Boshqaruv sotsiologiyasi davlat va jamoat tashkilotlarini quyidagi jihatlari asosida o'rganadi:

1. Boshqaruv kadrlarining joylashtirilishi, shakllantirilishi, o'qitilishi va qayta tayyorlanishi
2. Boshqaruv apparati, unga bo'y sunuvchi organlar va tashkilot strukturalari o'rtaida yuzaga keluvchi munosabat va o'zaro harakatlar
3. Sotsial-iqtisodiy va sotsialpsixologik kriteriyalar asosida boshqaruv maqsadlarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi
4. Boshqaruv qarorlari va ularning oqibatlari baholanadi, samaradorlaik riteriyariishlab chiqiladi.
5. Boshqaruvchi subyektining boshqariladigan obyektga nisbatan ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Bu mazkur sotsial tizimning butunligi, faoliyatidagi barqarorligining saqlanishi uchun muhim sanaladi.

Boshqaruv sotsiologiyasi Teylor, Fayol, Veber, Mayo kabi bir qator olimlarning nazariyalariga tayanadi.

Boshqaruv sotsiologiyaisining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

1. Boshqaruv faoliyatining sotsial asosini tashkil etuvchi va doimiy o'zgarishda bo'ladigan real faktlarni o'rganish
2. Boshqaruv faoliyatiga loqador bo'lgan ko'plab real faktlardan asosiy va tipik bo'lganlarini aniqlash va ular asosida yuz beradigan insonlar hayotining jamiyatdagi sotsial-siyosiy, sotsial -iqtisodiy, sotsiomadaniy sharoitlarni tadqiq qilish
3. Boshqaruv faoliyatida yangi usullarni qo'llashning mazmun va mohiyatini ishlab chiqish, tushuntirish. Mazkur maqsad o'z ichiga boshqaruv faoliyatining rivojlanish tendensiyasi, mazkur tendensiyalarning muhimligi va ahamiyati baholanadi, yangi boshqaruv nazariyalarining, ayniqsa, motivatsiyaga aloqador bo'lganlarining amaliy ahamiyati baholanadi, mazkur nazariyalarning saradordigi va amaliy ahamiyati baholanadi.

4. Boshqaruv faoliyatining kelajakdagi ehtimoliy rivojlarish ssenariylarini ishlab chiqish. Mazkur maqsad doirasida boshqaruv tizimi va jarayoninining mukammallahushi bashorat qilinadi.

5. Boshqaruv tizitmini mukammallashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va shu orqali boshqaruv faoliyatining umumiy samaradorligini oshirish.

Boshqaruv sotsiologiyasining fan sifatidagi asosiy vazifalari (funksiyalari):

1. Bilish – mehnat faoliyatining ma'lum turi sifatida boshqaruv faoliyatini va uning xususiyatlarini o'rganish, boshqaruv sohasining jamiyatdagi o'rmini aniqlash.

2. Baholash – boshqaruv tiziminining mazkur jamiyatda mavjud bo'lgan normalarga, sotsial kutishlarga, ko'pchilikning manfaat va ehtiyojlariga qay darajada mos tushganini aniqlash.

3. Bashorat – boshqaruv faoliyati va jarayonidagi ehtimoliy qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli rivojlanishi borasidagi istiqbollarini belgilash.

4. Sharhlash – turli boshqaruv konsepsiyalari, boshqaruv faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va baholash asosida boshqaruv tiziminining maqsadi, vazifalari va mexanizmlari borasida bilimlarni tarqatish. Mazkur faoliyati o'quv muassasalari, qayta tayyorlash dargohlari orqali amlaga oshiriladi.

Boshqaruv sotsiologiyasining metodlari uch yirik guruhga ajratiladi:

1. Tashkikliy-ma'muriy metodlar:

- Mamlakat qonun chiqaruvchi aktlari tizimi
- Boshqaruvchi yuqori organlarning faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar

- Ma'lum tashkilotda ishlab chiqiluvchi aniq reja, dastur va maqsadlar tizimi

Operativ boshqaruv: imkoniyatlarning qayta taqsimlanishi, rag'bat va sankitsiyalar.

Operativ boshqaruv uch turda amalga oshrilishi mumkin: *majburiy* yoki tashqi tomondan buyurilgan (yuqoridagilarga pasitdagilarning bo'ysunishi), *passiv* (ishchilarning qaror qabul qilishdan forig' qilish orqali vazifasini engillashtirish), *anglangan* (biror asosga ko'ra bo'ysunishi)

2. Iqtisodiy metodlar – motivatsiyaning iqtisodiy mexanizmlari ta'siriga asoslanadi. Bunga mamlakatdagi soliq siyosati, kredit-pul siyosati, investitsion siyosat, sotsial siyosat, ish sifatiga javobgarlik tizimi, innovatsion faoliyatni rag'batibantirish tizimi kiradi.

3. Sotsial – psixologik metodlar – shaxsga, sotsial guruhlarga, sotsial jamoaga hamda ular o'rtaqidagi sotsial rannosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos metodlar yig'indisi bo'lib, boshqaruv jarayonida uning samaradorligini oshirishni maqsad qilgan bo'ladi.

## **2. "Sotsial boshqaruv" boshqaruv faoliyatining o'ziga xos turi sifatida**

"Sotsial boshqaruv" tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda sotsial boshqaruv – sotsial jarayonlar, strukturalar va sotsial institutlarga avvaldan rejalashtrilgan maqsad yo'lida ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Keng ma'noda sotsial boshqaruv deyilganida boshqaruv sotsiologiyasi tushuniladi, ya'ni bu insonlarning ma'lum faoliyati sohasi bo'lib, u obyektiv jihatdan ma'lum ishchilar guruhini – boshqaruvchilarni tashkil etadi. Boshqaruvchilar guruhiga ilmiy tadqiqotchilar hamda boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlovchi pedagoglar kiradi.

Boshqaruv sotsiologiyasining ahamiyati tarixiy jihatdan jamiyatda va mehnat kollektivlaridagi mehnat taqsimotining yuzaga kelishi bilan asoslanadi. SHu jihatdan boshqaruv sotsiologiyasi jamiyatning muhim ahamiyatga molik elementi sifatida talqin qilinishi mumkin. Boshqaruv sotsiologiyasining asosiy tushunchasi "ta'sir ko'rsatish" bo'lib, u boshqaruv subyektining boshqariluvchilarga nisbatan qaratilgan anglangan va rejalashtrilgan, maqsadli ta'sirini anglatadi.

Sotsial tizimdagи ta'sirlar o'z hajmi, mohiyati va yo'nalish kuchiga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra boshqaruvning mohiyati o'zgaradi. Davlat boshqaruvida boshqaruv hamisha davlat va siyosiy hokimiyat bilan bog'liq bo'ladi. Davlat boshqaruvida asosiy element sifatida maqsadga erishish yetadi. Maqsadlarni shakllantirish tizimiga jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimi, fuqarolik jamiyati institutining rivojlanganlik darajasi, milliy, tarixiy va madaniy an'analar eng ko'p

ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi maqsadlarning o'zgarishiga sababa bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsada maqsadlar tizimi cloimo davlat boshqaruvini ma'lum yo'sinda yo'naltirishda ishtirok etadi.

Boshqaruv faoliyati davomida boshqaruv subyektlari, boshqaruv organlari va har bir alohida inson boshqaruv munosabatlariiga kirishishadi. Boshqaruv munosabatlarini shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin:

1. Maqsadni shakllantirish va axborotlarni tahlil qilish muncsabatlari;
2. Maqsad va vazifalarni aniqlashtirish hamda ularga etishishga qaratilgan munosabatlar.

Boshqaruv munosabatlari o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Boshqaruv subyektlari munosabatlari tashkiliy munosabatlardan iborat bo'lib, bu yuboshqaruv jarayonining ajralmas, muhim elementi sanaladi. Boshqaruv subyektlarining tashkiliy munosabatlari o'z ichiga subordinatsiya va koordinatsiya, mas'ullik va raqobat, markazlashtirilish va xususiyashtirilish kabi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar vertikal va gorizontal, formal va noformal bo'lishi mumkin.

Boshqaruv faoliyati davomida uni samarali amalga oshirish maqsadida ma'lum predmetlar, tarkib, mehnat turi yuzasidan ixtisoslashuv joriy qilinadi, shuningdek, butun boshqaruv organlarining malakali ishini tashkil etish uchun kooperatsiya amalga oshiriladi. Kooperatsiyaga erishish maqsadida boshqaruv organining rasmiy tashkiliy strukturasi yaratilib, u bo'limlarning va lovozimlarning ketma-ket va ierarxik joylashuvini nazarda tutadi. Ammo mazkur rasmiy struktura domiy ravishda norasmiy struktura bilan taqqoslanishi va uni inobatga olishi lozim. Faqat shu shart asosida boshqaruv faoliyati samarali va omadli bo'ladi.

Barcha tashkilotlarda norasmiy aloqa va munosabatlar aksariyatni takshil qiladi. Aytib o'tish kerakki, norasimi darajada rasmiy muammolarni echish ancha engil kechadi. Ammo davlat boshqaruvida subordinatsiya munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Ulardan tashqari koordinatsiya munosabatlari, ya'ni boshqaruv strukturasida bitta ierarxik darajada joylashgan a'zolarning o'zaro munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruv munosabatlari o'z ichiga boshqaruv subyektlari va obyektlaridan tashqari u o'z ichiga boshqaruv faoliyati va vazifalarining turlarini qamrab oladi. Shunga qarab ular ikki guruhg'a ajratiladi: maqsadli va tashkiliy. Maqsadli funksiyalarning asosiy vazifasi tashkilotning avvaldan rejalashtirilgan maqsadlarini amalga oshirish yo'naliшини aniqlashdan iborat. Tashkiliy funksiyalar boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Boshqaruv tizimining tugal natijasi boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ishlab chiqilgan maqsadlarga erishishdir.

### **3. Boshqaruv sotsiologiyasining qonunlari, sotsial doktrinasi va tamoyillari**

Boshqaruv sotsiologiyasining qonunlari boshqaruv jarayonining muhim o'zgarmas ichki xususiyatlarini aks ettiradi. Mazkur qonunlar obyektiv xarakterga ega bo'lib, insonlarning irodasi va maqsadiga bog'liq bo'lmaydi.

Boshqaruv qonunlarini ongli ravishda qo'llash orqali insonlarning faoliyatini hayotning obyektiv talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Sotsiologiyada boshqaruv qonunlarining quyidagi ko'rinishlari o'rganiladi:

1. Turli – tumanlik qonuni. Boshqaruvni amalga oshiruvchi subyektlar va boshqarilayotgan obyektlarning faoliyatida turli-tumanlik aks etgan bo'lishi kerak. Boshqaruv obyekti qay darajada murakkab bo'lsa, uni boshqaruvchi organ ham shu darajada murakkablik kasb etishi lozim. Boshqaruv subyektlari qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish va individlarning faoliyatini unga yo'naltirish maqsadida turli-tuman usullar va yo'llarga ega bo'lishi lozim. SHu bilan birgalikda boshqarilayotgan obyektlarning qaysi biriga, qaysi paytda, qanday usul orqali ta'sir ko'rsatishni aniqlash samarali boshqaruvning belgisi sanaladi.

2. Boshqaruvning ixtisoslashuvi qonuni. Zamonaviy ijtimoiy munosabatlarni boshqarish amaliyoti kundan-kunga mazkur sohadagi vazifalarining bo'linishiga olib kelmoqda. mazkur vazifalar boshqaruvning turli bosqichlarida, ma'lum sharoitlarda va yo'naliishlarda amal qiladi. SHuning uchun boshqaruv iqtisodiy, siyosiy, psixologik, tashkiliy-texnik, huquqiy va boshqa sohalarda yuqori malakaviylikni

talab qiladi. Boshqaruv subyekti turli sohalardagi bilimlarni o'zlashtirib, ularga tayangan holda boshqaruvdagi qarorlarni, loyihalarni, dastur va konsepsiyalarni ishlab chiqadi.

3. Boshqaruvning integratsiyasi qonuni. Boshqaruv jarayonining turli bosqichlarida va yo'nalishldarida ixtisoslashtirilgan harakatlarning yagona tizim doirasidagi birlashuvini nazarda tutadi. Birlashtiruvchi omillar sifatida jamiyatning maqsadlari, vazifalari va qiziqishlari namoyon bo'ladi.

4. Vaqtni tejash qonuni. Mazkur qonun boshqaruv faoliyatidagi asosiy qonunlardan biri sanaladi. U qo'yilgana maqsadga eng kam miqdorda vaqt sarflab erishini nazarda tutadi. Bunda vaqt qanchalik kam sarflansa, moddiy buyumlar, inson va moliyaviy resurslarning sarfi ham karmayadi.

5. Sotsial maqsadlarning muhimlik qonuni. Boshqaruv faoliyatining maqsadlari qo'yilishi paytida ularning qaysilari dolzab, qaysilari yordamchi va ikilamchi ekanligi aniqlanadi. Misol uchun jamiyatni boshqaridagi asosiy maqsadlar ishlab chiqarish, iqtisod yoki siyosat emas. Bunda jamiyat a'zolarining hayotini doimi ravishda ko'tarish va yaxshilash asosiy maqsad sanaladi.

6. Boshqaruv jarayonidagi o'suvchi subyektivlik va intellektualilik qonuni boshqaruv faoliyatidagi barcha sotsial munosabatlari insonlarga etgishli bo'lgani uchun ularning barchasi inson ongidan o'tkaziladi, insonlar tomonidan mukammallashtiriladi va rivojlantiriladi. Bu jarayon jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlarining shakli va ulardagi o'zgarishlaga bevosita bog'liq sanaladi. Chunki, boshqaruv munosabatlari ishlab chiqarish usullari va jamiyatning iqtisodiy asosiga tayangan holda yuzaga keladi. SHu bilan birlgilikda boshqaruv jarayonining o'zi jamiyat hayotining barcha jabhalariga aks ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun boshqaruv subyektlarning subyektiv mushohadalari asosida amalga oshiriluvchi jarayon ekanligini tan olish kerak. Mazkur subyektivlik umumiy boshqaruv madaniyatida, boshqaruvchilarning boshqaruv usullarida, maqsad va manfaatlarda o'z aksini topadi. SHuning uchun boshqaruv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, unda subyektivlikning ijobiyligi va salbiy ko'rinishlarining namoyon bo'lish darajasi ortadi.

Boshqaruvdagi subyektivlikning xarakteri ko'p hollarda ja'miyatning asosiy maqsadini tashkil etishdagi tanloviqa bog'liq.

Global maqsadning ustunligi qonuni sotsial boshqaruvning asosini tashkil etadi. Uning mohiyati shundan iboratki, har qanday sotsial tizim bir nechta tagtizimlardan tashkil topgan bo'ladi. Misol uchun iqtisod, siyosat, madaniyat, tashkiliy, sotsial, texnik va h.k. mazkur tagtizimlarning birlashuvi sotsial tizimning yaxlitligini ta'minlaydi. Mazkur yaxlitlikning ta'minlashi uchun tagtizimlarda mavjud bo'lgan maqsadlarni o'ziga bo'yssundiruvchi va ulardan ustun turuvchi bosh maqsad mayjud bo'lishi kerak.

Sotsial boshqaruvning muhim qonuniyati uning doktrina xususiyatiga ega ekanligi. Boshqaruv jarayoni davomida sotsial dokrinaning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi boshqaruv ta'sirining tizmliligini ifodalab beradi. SHuning uchun sotsial doktrina global texnologiyaning bir turi bo'lib, sotsial tizimning geosiyosiy maydondag'i o'mini aniqlab beradi. Ma'lum millatning tub sotsial ehtiyojlarini amalga oshirishdagi asosiyalarini ko'rsatib beradi, ularni amalga oshirishning mexanizmlarini (iqtisodiy, t'xalqaro, madaniy, ekologik, harbiy) o'z ichiga oladi va asosiy strategik maqsadlarni, islohot davomidagi asosiy sotsial yo'naliishlarni aniqlash, fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har xil turdag'i siyosatni amalga oshirish uchun asos sanaladi.

Sotsial doktrinanai ishlab chiqish uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, tarixiy tajribani, dunyoviy taraqqiyotga va geosiyosiy maydonning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarni ilmiy jihatdan chuqr tahlil qilish talab etiladi.

Mazkur bosqichda sotsial doktrina quyidagi holatlarni alohida ajratib ko'rsatadi:

Birinchidan, asosiy milliy manfaatlarni ajratadi. Davlat manfaati asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Davlat manfaati obyektiv va subyektiv bo'lishi mumikn. U davlatdagi siyosiy rejim, boshqaruv shakli, hokimiyat va jamiyatning o'zaro munosabatlari tizimidan tashkil topgan bo'ladi.

Ikinchidan, mamlakatning millimy xavfsizligining ta'minlanishiga bevosita aloqador bo'lgan manfaatlar mayjud bo'lib, davlatning bunday manfaatlari iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, harbiy sohalarni qamrab oladi. Bunda davlatnitng asosiy harbiy ehtiyoji va manfaati davr talabiga va tazyiqlarga javob bera oladigan kuchli armiyani yaratishdan iborat. Iqtisodiy manfaat sotsial strukturaning barcha tagtizimlarini qudrat va resurslar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi. Asosiy sotsial manfaat sifatida jamiyatdagi barqarorlik holatini ta'minlanishi, sotsial integratsiyaning yuqori darajasiga erishish, jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi yirk sotsial uzilishlarning oldini olish holatlari kiradi. Madaniyat sohasidagi davlatning manfaatlariga yagona, umumiy madaniy olamning shakllanishi, asosiy qadriyatlarning yaratilishi holatlari tushuniladi. Natijada millat o'zini yagona madaniyatga tegishli ekanligini va davlatining dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'mini aniq anglay oladi.

Davlat magnfaatlari jamiyatdagi ma'lum guruh va qatlamlarning manfaatlariga zid bo'lishi mumkin. Jamiyatning barqarorligini tax'minlashning asosiy omillaridan biri jamiyat manfaatlarining uyg'unlashtirilishi. Ba'zan qat'iy totalitar tizim asosida shakllantirilgan davlat manfaatlari obyektivlikdan yiroqlashib, subyektiv mohiyatga ega bo'lishi va yirik sotsial qatlamlarning manfaatlarini inobatga olmasligi mumkin. Davlat manfaatlarini aniqlashdagi subyektivlik holati butun sotsial tizimning faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, sotsial doktrina sotsial maqsadlarga etishishni, millat genofondini saqlashni, aholi umrining uzayishini, o'lim ko'rsatkichining pasayishini, umuman fuqarolarining yashash darajasining ko'tiarilishini ta'minlovchi birlamchi resurslarni aniqlab beradi. Sotsial doktrina umumiy tarzda sotsial soha, jamiyatning sotsial maqsadlari va ularni amalga oshirishning prinsipial mexanizmlari haqida tasavvurlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Sotsial doktrinani yaratish mantiqiy jihatdan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Boshqaruv fpaoliyaning ta'sir obyekti sanalgan sotsial sohaning chegaralarini aniqlash;

- 2) Mazkur sohadagi muammoli vaziyatni aniqlash;
- 3) Sotsial dasturdagi harakatlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan uzoq va o'rta muddatlilarini aniqlashtirish va algoritmini ishlab chiqish;
- 4) Jamiyat sotsial xavfsizligining ta'sinlanishi konsepsiyasini ishlab chiqishda asos bo'lgan jamiyat sotsial tashkilotining asosiy prinsipial mexanizmlarini aniqlash.

Bugungi kunda ijtimoiy rivojlanishning aniqlashtiruvchi qonuni sotsial siyosatni shakllantirish va amalga oshirish bo'lib, u "sotsial davlat" va "ijtimoiy chegaralangan bozor" tamoyillarini amalga oshirishning asosiy mexanizmi sanaladi. U o'z navbatida faqat sotsial doktrina asosida shakllanadi.

Zamonaviy sotsial boshqaruvning asosiy qonunlaridan biri boshqaruv vazifalarini topshirish sanaladi. U o'z ichiga vazifalar, huquqlar, manbalarning xalqning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tishini, ularning mustaqil faoliyatining shakllanishini, o'zini nazorat qilish va rivojlanish kuchlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Asosiy nazarni nazariya va amaliyotning muvoffiqligiga qaratish kerak.

Sotsial boshqaruvning amaliyotida quyidagi qonuniyatlar amal qilishi kerak:

1. Sotsial boshqaruv tizimining butunligi. Mazkur butunlik sotsial rivolanishning madaniy, siyosiy, iqtisodiy omillari bilan belgilanadi. Bu boshqaruv munosabatlарining uzluksizligida, butun sotsial tizimning boshqaruvdagi ishtirokida o'z ifodasini topadi.

2. Sotsial tizimning boshqaruvchi va boshqariluvchi tagtizimlari o'rtasidagi proporsionallik saqlanishi lozim. Mazkur tagtizimlar o'rtasidagi proporsionallik ularning ichki va ular o'rtasidagi munosabatlarning ratsional joylashuvini nazarda tutib, mazkur tagtizimlarning maksimal samarli faoliyatini ta'minlaydi.

3. Sotsial boshqaruv funksiyalarining markazlashtirilishi va xussiylashtirilishi o'rtasida optimal mutanosiblik saqlanishi lozim. Boshqaruvning tmakazlashtirilishi jamiyatning rivojlanishi barobarida o'zgarib boradi. rivojlanishning har bir bosqichi uchun markazlashtirishning o'ziga xos darajasi

aniqlanishi lozim. Boshqaruvning markazidashtirilishi va xusuiylashtirilishi sotsial bboshqaruvning qonuniyatlaridan bir sanaladi.

4. Jamiyatning turli qatlamlari sotsial boshqaruvda ishtirok etishi lozim. Chunki, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini ishlab chiqarishda jamiyatning turli tabaqa vakillari ishtirok etadi va bu boshqaruvning samaradorligini oshirish hamda vazifalarni bajarishdagi mas'uliyatning ortishiga olib keladi.

Boshqaruv sotsiologiyasining tamoyillari deyilganda, jamiyatda hosil bo'lgan sotsial sharoitlar holatida boshqaruv organlarining boshqaruvni amalga oshirishda amal qiladigan xatti-harakat normalari tushuniladi. Mazkur normalalar sotsial boshqaruvning tizimi, strukturasi, jarayonlari va mexanizmlariga bo'lgan talablarni aniqlab beradi.

Sotsial boshqaruvning tamoyillari – bu boshqaruv munosabatlarining rivojlanish qonunlarini aks ettiruvchi asosiy g'oyalari va holatlardir.

Sotsial boshqaruvning tamoyil, qonun va qonuniyatlarini quyidagi holatda tasavvur qilish mumkin: sotsial rivojlanish qonunlari → sotsial rivojlanishning ma'lum bosqichiga mos bo'lgan qonunlar → sotsial boshqaruvning qonun va qonuniyatları → sotsial boshqaruv tamoyillari.

Sotsial boshqaruvning tamoyillari va usllari o'rtaсидаги farqlar shundani iboratki, boshqaruv tamoyillari tanlanmaydi, ularga amal qilinadi

Sotsial boshqaruvning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- Qarorlarni qabul qilishda bitta organ tomonidan amalga oshirilishi va ularni guruh bo'lib muhokama qilish;
- Sotsial tizim butunligini ta'minlash maqsadida boshqaruv metodlarining birgalikdagi ta'siri;
- Soha va hududiy boshqaruvning birikishi, muvoffiqligi;
- Strategik maqsadlarga etishishdagi muhimmlilik xusuiyati;
- Sotsial boshqaruvning ilmiy asoslanganligi;
- Sotsial boshqaruvning bashorat qilinishi;
- mehnat motivatsiyasi;
- sotsial boshqaruv natijalari uchun mas'uliyatlilik;

- Kadrlarni ratsional tanlash, tayyorlash, joylashtirish va ulardan ratsional foydalanish;
- Boshqaruvning kam chiqimliligi va samaradorligi;
- Tizimlilik, ya'ni boshqaruv obyekti va subyektining turli qatlamlardan iborat bo'lgan tizim sifatida ko'rish;
- Ierarxiya, ya'ni ko'p elementlardan tashkil topgan bosqichli boshqaruv tizimi;
- Turli-tumanlik (murakkablik) sharti, boshqaruv subyekti boshqaruv obyekti kabi murakkab bo'lishi kerak;
- Aloqalarning ikki tomonlama bo'lishi, ya'ni boshqaruvchi subyekti bajarilgan vazifalarning amalga oshirilayotgani haqida ma'lumotlarni olishi lozim;
- Yagona maokaz va guruhitylikning mujassalashuvi;
- Vaziyatni inobatga olib qarorlarni qabul qilish, ya'ni jamiyatdagi turli noroziliklarni inobatga olish;
- Dasturiy-maqsadli ta'minot;
- Boshqaruvdagagi insoniylik va ahloqiylik tamoyili;
- Qarorlarni qabul qilishdagi ochiqlik.

Boshqaruv tamoyillari asosida boshqaruv usullari tizimi va alohida metodlar tanlanadi. Ammo har bir alohida metod tamoyilga shu darajada aks ta'mir ko'rsatmaydi.

Shunga ko'ra, sotsial boshqaruv tamoyillari quyidagilarga asoslanishi kerak:

- Jamiyatning rivojlanishi va boshqaruv qonunlarga asolanishii kerak;
- Sotsial boshqaruv maqsadlariga muvoffiq kelishi va boshqaruvning asosiy xususiyatlari, aloqlari va munosabatlarni aks ettirishi kerak;
- Sotsial boshqaruvning vaqt va hudjudiy xususiyatlarini inobatga olishi lozim;
- Lozim bo'lgan paytlarda huquqiy shaklga kirishi va normativ hujjalarni bilan ta'minlanishi lozim.

#### **4. Boshqaruvning samaradorligida sotsial nazoratning ahamiyati**

Sotsial boshqaruv faqatgina qarorlarni qabul qilishdan iborat emas. U o‘z ichiga sotsial nazoratni ham qamrab oladi. Sotsial nazorat qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta’minlab, qarorlar bajarilishi barobarida yuzaga kelgan turli xil holatlarda ularga o‘zgartirish va to‘g‘irlashlar kiritish imkonini beradi. SHuning asosida ish faoliyatining keyingi bosqichlari yanada samaraliroq bo‘lishi ta’minlanadi.

Nazorat va boshqaruv samaradorligini baholash – bu boshqaruv faoliyatining so‘nggi bosqichi sanaladi.

Sotsial nazorat – bu jamiyatda o‘rnatilgan norma va qadriyatlarga mos bo‘lgan ravishda jamiyat a’zolarining xatti-harakatlari va faoliyatining bajarilishini ta’minlovchi usullar va vositalar majmuasi.

Ijtimoiy tartibga ko‘ra boshqaruv subyekti ma’lum boshqaruv qarorlarini ishlab chiqqach, ularning bajarilishini nazorat qilishi va talab qilishi lozim.

Sotsial nazoratni amalga oshirishning uchta usuli mavjud:

1. Samarli tarbiya va sotsializatsiya. Insonlar o‘zлari anglagan holatda jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi holati nazarda tutilmoqda.

2. Majburlov. Mazkur usul ma’lum sanksiyalarining qo‘llanilishi orqali qarorlarning bajarilishini ta’minalashni nazarda tutadi. Misol uchun jamiyat qadriyatlari va boshqaruv qarorlari bir-biriga muvoffiq kelmasa, shunday holat yuzaga kelishi mumikn.

3. Mas’uliyat. Siyoisy mas’uliyat, iqtisodiy mas’uliyat, yuridik mas’uliyat va h.k. so‘nggii paytlarda guruhiy mas’uliyat jamiyat hayotida tobora keng yoyilmoqda.

Sotsial nazoratning samaradorligi bevosita mamlakatda shakllangan fuqarolik jamiyatiga, undagi sotsial institular rivojlanganlik darajasi va faoliyatiga bevosita bog‘liq. Jamiyatda sotsial institutlar nimjon shakllangan bo‘lsa, sotsial nazorat faqat davlat nazorati shaklida namoyon bo‘ladi. Sotsial nazorat o‘z mohiyatiga ko‘ra hisobotga tenglashtirilmasligi lozim.

Sotsial nazorat davlat barqarorligi va boshqaruvchi strukturalarning faoliyatining ta'minlanishida muhim o'rinn tutadi. U jamiyat va shaxs, jamiyat va sotsial guruhlar, jamiyat va sotsial institutlar haında ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlardan biri sanaladi.

Sotsial nazoratning asosiy vazifasi o'z vaqtida o'matilgan normalardan og'ishlarni aniqlash va monitooring asosida tegishli qarorlarni qabul qilishdan iborat. Ammo mazkur nazorat davomida olingen qo'shimcha ma'lumotlar asosida avval boshdan rejalashtirilgan maqsadlar o'zgarishi, aniqlashtirilishi, to'g'rilanishi mumkin.

Sotsiologiyada sotsial nazoratning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatilgan: Diagnostika. Tahlimi qilinayotgan otizimning ideal shakldagi ko'rinishini nazarda tutib, unga taqqoslash asosida og'ishlar aniqlanadi. Og'ishlar aniqlangach, ularni bartaraf etuvchi dasturlar ishlab chiqiladi.

Javob aloqa. Boshliq boshqariluvchilarining faoliyatidan doimiy ravishda xabardor bo'lishi lozim. Aks holda u faoliyatning yo'nalishini bilolmay, uni yo'naltirish vazifasini bajarishni amalga oshirolmaydi.

- Yo'nalish (orientir). Ma'lum vazifalarning bajarilishi domiy nazorat ostida bo'ladi. Boshqalari esa odatda chetda qoladi va ularning bajarilishi yuzaki amalga oshrilishi mumkin.

- Rag'bat. Mehnat faoliyati jarayoniga barcha band bo'limgan manbalarni jalb etish mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Korreksiya (To'g'rakash). Nazorat natijalari asosida faoliyat jarayoniga ma'lum o'zgartirishlar kiritilishi. Bu tashkilot a'zolarining barchasidan o'zaro nazorat qilish vazifasini bajarishni talab qiladi.

- Tarbiya funksiyasi. To'g'ri amalga oshirilgan nazorat har doim sidqidildan mehnat qilish va o'z vazifalarini bajarish ishtiyoqini yuzaga keltiradi.

Boshqaruv amaliyotida nazoratning uchta turi qo'llaniladi:

1. Xomaki (birlamchi) nazorat. U bevosita boshqaruv qarorining qabul qilinishidan oldin amalga oshiriladi. Uning maqsadi mazkur qaromi assolashdan iborat.

Willa boshqaruv, uning asosida qarorlaga ma'lum tuzatishlar kiritilishi mumikn.

3. So'nggi nazorat. Boshqaruv faoliyati va qarorlarni qabul qilish jarayonining samaradorligini aniqlaydi.

Yuqorilagilar asosida sotsial nazorat obyektiv jihatdan muhim va kerakli amaliyot ekanligini ko'rishimiz mumkin.

#### Nazorat savollari

1. Boshqaruv sotsiolgiyasining obyekti nima?
2. Boshqaruv sotsiolgiyasining predmeti va maqsadini ayting.
3. Boshqaruv sotsiolgiyasining vazifalari va metodlarini ayting.
4. "Sotsial boshqaruv" deganda nimani tushunasiz?
5. Boshqaruv sotsiolgiyasining qonunlarini aytib bering.
6. Boshqaruv sotsiolgiyasining tamoyillari nimalardan iborat?
7. Boshqaruvning samaradorligida sotsial nazoratning ahamiyati qanday?

#### Test savollari

1. "Boshqaruv" tushunchasi birinchi bor qaysi mamlakatda muomalaga kiritilgan?

- A. AQSh
- B. Germaniya
- C. Rossiya
- D. Fransiya

2. Sotsial jihatdan boshqaruv deyilganida....

- A. Insonlar o'rtasida o'matilgan sotsial munosabatlarning hokimiyat va bo'y sunishga aloqador shakli tushuniladi.
- B. Mehnat tashkilotidagi insonlarning joylashgan joyi va vazifalari tushuniladi.

- C. Insonlar o'rtasidagi o'zaro xatti-harakatlarning birligi tushuniladi  
D. Hokimiyat organlarining o'zaro buyruq va ijro faoliyati tushuniladi

**3. Boshqaruv sotsiologiyasining asosiy nazariyalari qaysi olimla tegishli?**

- A. Teylor, Fayol, Veber, Mereo  
B. Merton, Veber, Dyurkgeym, Fayol  
C. Kont, Spenser, Sen-Simon  
D. Mereo, Ch.Kuli, Dyurkgeym

**4. Boshqaruv sotsiologiyasining metodlari?**

- A. Tashkiliy-ma'muriy, iqtisodiy metodlar, sotsial – psixologik metodlar  
B. So'rov, hujjatlarni tahlil qilish, sharhlash  
C. Tashkiliy-ma'muriy, psixologik, sotsiologik  
D. Huquqiy, psixologik, iqtisodiy

**5. "Sotsial boshqaruv" tushunchasi keng ma'noda qanday sharhlanadi?**

- A. Boshqaruv sotsiologiyasi tushuniladi, ya'ni bu insonlarning ma'lum faoliyati sohasi bo'lib, u obyektiv jihatdan ma'lum ishchilar guruhini – boshqaruvchilarni tashkil etadi.  
B. Sotsial jarayonlar, strukturalar va sotsial institutlarga avaldan rejalashtrilgan maqsad yo'lida ta'sir ko'rsatish jarayonidir.  
C. Boshqaruv subyektining boshqariluvchilarga nisbatan qaratilgan englangan va rejalashtirilgan, maqsadli ta'sirini anglatadi.  
D. B va C

**6. Boshqaruv munosabatlarining tarkibiy elementlar?**

- A. Boshqaruv subyektlari, obyektlari, boshqaruv faoliyati, vazifalarining  
B. Boshqaruv subyektlari, obyektlari, boshqaruv faoliyati  
C. Boshqaruv subyektlari, obyektlari, vazifalar

D. Boshqaruv subyektlari, boshqaruv faoliyati, vazifalari

**7. Boshqaruv vazifalarining turlari?**

- A. Maqsadli va tashkiliy
- B. Ijodkorlik va tashkiliy
- C. Nazorat va tashkiliy
- D. Yo'nalganlik va ijodkorlik

**8. Boshqaruv qonunlari ichida turli – tumanlik qonuni nimani anglatadi?**

A. Boshqaruv subyektlari qabul qilingan qarolarni amalga oshirish va individlarning faoliyatini unga yo'naltirish maqsadida har xil usullar va yo'llarga ega bo'lishi lozim.

B. Boshqaruv subyekti turli sohalardagi bilimlarni o'zlashtirib, ularga tayangan holda boshqaruvdagi qarolarni, loyihalarni, dastur va konsepsiyalarni ishlab chiqadi.

C. Boshqaruv jarayonining turli bosqichlarida va yo'nalishlarida ixtisoslashtirilgan harakatlarning yagona tizim doirasidagi birlashuvini nazarda tutadi.

D. Qo'yilgan maqsadga eng kam miqdorda vaqt sarflab erishini nazarda tutadi.

**9. Sotsial boshqaruvning tamoyil, qonun va qonuniyatlarini qanday o'zaro bog'liqlikda tasavvur qilish mumkin?**

A. Sotsial rivojlanish qonunlari → sotsial rivojlanishning ma'lum bosqichiga mos bo'lgan qonunlar → sotsial boshqaruvning qonun va qonuniyatları → sotsial boshqaruv tamoyillari

B. Sotsial rivojlanishning ma'lum bosqichiga mos bo'lgan qonunlar → sotsial rivojlanish qonunlari → sotsial boshqaruvning qonun va qonuniyatları → sotsial boshqaruv tamoyillari

C. Sotsial rivojlanish qonunlari → sotsial boshqaruvning qonun va qonuniyatlar → sotsial boshqaruv tamoyillari

**10. Boshqaruv faoliyatining so'nggi bosqichi qaysi?**

- A. Nazorat va boshqaruv samaradorligini baholash
- B. Maqsadlarni ishlab chiqish
- C. Vazifalarni taqsimlash
- D. Vazifalarni ishlab chiqish

**11. Sotsial nazoratni amalga oshirish usullari?**

- A. Tarbiya va sotsializatsiya, majburlov, mas'uliyat
- B. Rag'bat, sotsializatsiya, majburlov
- C. Tazyiq, sotsializatsiya, majburlov
- D. Majburlov va mas'uliyat

## **11-bob. EMPIRIK SOTSILOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING METODLARI**

**Reja:**

1. **Empirik sotsiologik tadqiqotlarning shakllanish asoslari**
2. **Empirik sotsiologik sotsiologik tadqiqot dasturi**
3. **Empirik sotsiologik sotsiologik tadqiqot metodlari**
4. **Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish.**

### **Tayanch so'z va iboralar**

*Sotsiokogik tadqiqot. Sotsiologik tadqiqot dasturi. Empirik. So'rov usuli. Test metodi. Anketa metodi. Sotsiometrik so'rov. Fokus guruh tadqiqotlari. Klinik intervyyu. Kuzatish usuli. Bevosita va bilvosita kuzatish Hujjatli manbalar tahlili. Sotsial eksperiment usuli. Intervyuer. Respondent.*

#### **1. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning shakllanish asoslari**

Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida qaror topishi nazariy bilimlarning rivojlanish sohasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi bilan birlgilikda ko'p asrlik amaliy tadqiqotlar tajribasiga ham tayanadi. Mana shunday amaliy tadqiqotlar doirasida sotsiologiyaning empirik tadqiqotlari uchun zamin shakllandi. Ma'lumki, qatolr sabablarga ko'ra uzoq vaqt davomida empirik va nazariy sotsiologiya avtonom tarzda rivojlandi.

XVII asrdan boshlab empirik sotsial tadqiqotlarning metodologiyasi va metodlarini ishlab chiqish masalasi odatda tabiiy fanlar namoyondalari va matematiklar tomonidan olib borilgan. Ular orasida Dj. Graunt, E.Galley, Ya.Bernulli, P.Laplas, J.Fure kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Nazariy sotsiologiyaning yaralishi esa XI Xasrda faylasuflar va ijtimoiy fanlar namoyondalari tomonidan olib borilgan. Sen-Simon, O.Kont, E.Dyurkgeym, G.Zimmel, F.Tyonnis va boshqalar.

Fanning shakllanishi bosqichida uning empirik va nazariy qismlari o'rtasidagi uzilish amaliy va nazariy qismlarning maqsadidan kelib chiqqan edi. Jamiyatdagi qashshoqlik, jinoyatchilik, mehnatkashlarning og'ir ijtimoiy ahvorli kabi dolzarb muammolar ularni empirik jihatdan tez fursatda o'rganish va bartaraf etishni nazarda tutgan. Jamiyat to'g'risidagi hamda undagi dolzarb muammolarni o'rganuvchi fanni yaratish ehtiyoji va mazkur ehtiyojning ilmiy anglanishi uchun biroz fursat talab etilgan. Sotsiologiya fanining empirik tadqiqotlar va nazariy bilimlar qismlarining turli davrlarda shakllana boshlaginini shu bilan asoslash mumkin.

Sotsiologlar tomonidan ilk qo'llanilgan tarixiy-taqqoslash usuli qat'iy faktlarni talab qilmagan va olimning fikrlarini tasdiqlovchi tarixiy illyustratsiya sifatida namoyon bo'lgan.

Jamiyatning strukturasi va xususiyatlarini miqdoriy jihatdan tahlil qilish ehtiyoji davlatlarning qaror topishi va ular o'rtasidagi ilk hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan qadim davrlarga borib taqaladi. Aholining soni, mol-mulk miqdori kabi xususiyatlarni inobatga olgan miqdoriy tadqiqotlar qadimgi Misr, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, yahudiy va hindlar manbalarida uchraydi.

Qadimgi Yunonistonda *Solon* (m.a. 640 — 559y) hukmronligi davrida aholi daromadlarini inobatga oluvchi miqdoriy tadqiqotlar olib borilgan. U aholining mavqeini qabilasi emas, balki mulk miqdori asosida belgilanishini joriy qilgan. SHunga ko'ra, aholi to'rt toifaga ajratilgan. Mulkinning miqdori asosida ularning xuquqlari va yashash hududi ajratib berilgan. Natijada aholining o'zi o'z daromadi haqida ma'lumotlarni hukumatga etkazishdan manfaatdor bo'lgan.

Qadimgi Afinada aholining migratsiyasi, o'limi va tug'ilishlar soni doimiy ravishda nazorat qilingan. Rimning afsonaviy asoschisi (m.a. 754-753yy.) Romuning hukmronligi davridayoq aholini ro'yxatga olish amaliyoti amalga oshrilgan. O'z davlatining harbiy va moliyaviy ahvoli, shuningdek, o'z hukmronligi davrida amalga oshirgan yutuqlarini haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun Romul hukmronligining boshida va so'ngida aholini ro'yxatga olishni amalga oshirgan ekan

Ko'rinish turibdiki, ibridoiy jamoa tuzumidan quidorlik tuzumiga o'tish natijasida hamda davlatlarning qaror topishi, siyosiy va harbiy tashkilotlarning

shakllanishi oqibatida jamiyatlagi sotsial va tabaqaviy tuzilishni o'rganish, aholiga aloqador bo'lgan turli xususiyatlarni (soni, daromadi, yoshi, kasbi) aniqlash ehtiyojini yuzaga keltirib, empirik sotsiologik tadqiqotlar uchun zamin yaratdi.

Ilk aholini ro'yxatga olish va xususiyatlari bo'yicha guruhlarga ajratish vazifasini harbiy boshliqlar amalga oshirishgan. Keyinchalik buning uchun mahsus amaldorlar – senzorlar faoliyat olib borishgan.

Aholini ro'yxatga olishning shakllari va usullari davlatning rivojlanganlik darajasi bilan baholangan. Bu shakl va usullar davlatning rivojlanishi barobarida takomillashib borgan. Misol uchun skif podshohi Arianatas o'z harbiylarining sonini bilish uchun hammaga o'llim tazyiqi ostida nayza uchini olib kelishni buyurgan. Nayzalar soni harbiy askarlarning sonini aniqlab bergan.

Buyuk sarkarda va davlat boshlig'i A.Temur 1370 yil Iliy vodiysiga yurishi paytida askarlarining sonini aniqlash maqsadida ularga Tyan-SHan tog'i etagiga bittadan tosh tashlashni buyurgan. Toshlardan hosil bo'lgan tepalikning qay darajalda ekanligi orqali Temur o'z harbiy kuchini baholagan.

O'rta asrlarda aholini ro'yxatga olish va turli xususiyatlar asosida guruhlarga ajratish ommaviy so'rovlar shaklida amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar yozma ravishda manbalarda qayd etilgan. Vaqt o'tishi bilan bunday tadqiqotlar ma'lum vaqt oralig'ida va takroriy o'tkazilish xarakteriga ega bo'lgan. Ammo o'rta asrlarda bunday tadqiqotlarning miqdori ko'p bo'lmagan. Ulardan eng yirigi Angliyada Vilgelm Zabit etuvchi buyrug'i bilan amalga oshirilgan "Dahshatli Sud kuni" nomini olgan aholini ro'yxatga olish kitobidir. Mazkur amaliyot 1083-1086 yillar davomida o'tkazilgan bo'lib, uning tajribasidan foydalangan holda XIII asrdan boshlab cherkov tug'ilgan va qazo qilgan aholini ro'yxatga olishlarni amalga oshirgan.

Uyg'onish davrida savdo va xalqaro tovar-pul munosabatlarining shakllanishi oqibatida Italiyaning va Gollandianing ko'plab shaharlarida chiqim va daromadni, moddiy qadriyatlar va mehnat resurslarini inobatga oluvchi hujjatlar olib borilgan. Dengiz orqali tovarlarni o'tkazish natijasida ularni kafolatlash ehtiyoji yuzaga keladi. SHu tariqa olingan ma'lumotlar amaliy qarorlarni qabul qilishda ko'maklashgan.

XVII asrda sotsiologyaning empirik asosi shakllana boshlagan. Zamonaviy sotsiologyaning bu davrdagi asosiy manbalari va zamini demografiya, iqtisodiy geografiya, qisman tarix, siyosiy iqtisodiyot, nazariy statistika va uning statistika hamda siyosiy arifmetika qismlari bo'ldi.

Dj.Sinklerning xo'jalik hayotiga aloqador bo'lgan «Shotlandiyaning statistik tarxi» nomli 21 tomlik tadqiqeti davomida 116 punkdan iborat bo'lgan so'rovnomalar tuzilib, uning 60tasi aholi va uning qator xususiyatlariga aloqador bo'lgan. Bular jinsi, yoshi, kasbi, diniy kelib chiqishi, tug'ilishi, o'limi, o'z-o'zini o'ldirish holati, alkogolizmga ruju quyanlar, ishsizlar soni va h.k.

XVII-XVIII asrlarda yuqorida ko'rsatilgan fanlar doirasida jamiyatdagi sotsial tartibni aniqlashtiruvchi qator sotsial faktlarni o'rghanish va ularning rivojlanishini baholash tendensiyasi ustunlik qilgan.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar jadallik bilan Evrparda XIX asr boshlarida rivojiana boshladi. Sotsiologik tadqiqotlarning bunday jadal rivojlanishiga jamiyatdagi sotsial muammolarning keng miq'yosda va tez sur'atlarda yoyilishi, kapitalizmning rivojlanishi oqibatida qator o'zgarishlarning sodir bo'lishi sabab bo'ldi. Bunday o'zgarishlarga shaharlarning tez sur'atlarda o'sishi, boy va kam ta'minlanganlar o'rtasidagi keskin qutblanish, pauperizatsiya, alkogolizm va jinoyatchilikning ortishi, sinfiy kurashlarning keskinlashuvi va h.k. kiradi. Bularning barchasi o'sha davrda yaratilgan ta'lismotlarning mazmun va mohiyatini belgilab berdi. Natijada sotsiologiya yaratilguniga qadar turli ijtimoiy fanlar doirasida jamiyatning ehtiyojlaridjan kelib chiqqan holda empirik sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi. Ular aholi o'rtasida turli ro'yxatga olishlar, tadqiqotlar, statistik ro'yxat olishlar, sahovatlik jamiyatlarining tashkil topishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Jamoatchilikning turli kasb vakillari, jumladan, shifokorlar, o'qituvchilar, tabiiy fan vakillari, tadbirkorlar qatnashgan.

Mazkur tadqiqotlarning asosiy maqsadi jamoatchilikni axborotlashtirish va mobillash tutishdan iborat bo'lgan. Axborotlarni yig'ish jamiyatdagi sotsial muammolarning yechimini tpib beruvchi islohortlarini belgilash va amalga oshirishda

muhim sanalgan. Demak, bu davrda olib borilgan ilk sotsiologik tadqiqotlar boshqaruvdagi muammolarni xal etish maqsadida amalga oshrilgan.

Mazkur davrda empirik tadqiqotlar doirasida sotsial gigiena (sotsial sanitariya) yo'nalishi paydo bo'ldi. Uning asosiy vakillari Angliyada E.CHaduik, Fransiyada L.Villerme (1782-1863), A.Paran-Dyushatle (1790-1836), Germaniyada R.Virxov (1821-1902).

Sotsial gigienaning birinchi vazifasi, shahar ishchi aholisining holati to'g'risidagi etishmaydigan axborotlarni to'ldirish, ikkinchidan kam ta'minlangan aholi qatlamining hayotini sog'lomlashtirish. Mazkur yo'nalish vakillarining tadqiqotlari sog'liqni saqlash sohasida davlatning amalga oshirgan islohotilari uchun kerakli ma'lumotlarni etkazib bergen va yutuqlarga erishgan. Ular amaliyotga axborotlarni yig'ishning o'sha davr uchun yangi bo'lgan intervyyu usulini kiritgan.

Sotsiol axborotlarning turlarga ajratilishi oqibatida XIXasning o'rtalarida empirik tadqiqotlarning yana bir yo'nalishi – ahloqiy statistikaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mazkur yo'nalishning asosiy namoyondalari Angliyada— Dj.Key-SHattluort, Fransiyada— A.Gerri (1802-1867), Germaniyada— A.Vagner bo'ldi. Ahloqiy statistika yo'nalitshi vakillarining asosiy maqsadi aholining ahloqiy va intellektual xususiyatlari borasidagi miqdoriy ko'rsatkichlarni yig'ishdan iborat bo'lgan. Jinoyatchilik va ma'lumotlilik darajasi mazkur t adqiqotlar davomida o'r ganilgan. Ahloqdan og'ish holatlari ko'p hollarda kam ta'minlangan va kambag'al aholi qatildamlari orasida ko'p uchragani uchun mazkur tadqiqotlar asosan shu qatamlar o'rtasida amalga oshirilgan.

Shunday qilib, Evropa mamlakatlarida XIX asrning 30-40 yillarda sotsiologiya fan sifatida qaror topdi va uning jamiyat hayotidagi turli sohalarga aloqador tadqiqotlari sotsiolok empirik tadqiqotlar uchun asos bo'ldi.

## **2. Empirik sotsiologik sotsiologik tadqiqot dasturi**

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlar to'g'risida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil

qilish, umumilashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy vogelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytildi.

Dastur-ilmiy amaliy tadqiqot faoliyatining qonuniyatli bajarilish tartibi va bosqichli dasturlashtirilgan ketma-ketligi bo'lib, bu umumiyoq kansepsiya loyihamda aks etadi.

Dasturga qo'yiladigan asosiy talablar:

- 1)zarurat;
- 2)aniqlik;
- 3)asoslangshanlik;
- 4)mantiqiy ketma-ketlik.

Sotsiologik tadqiqotlar buyurtmachi tashabbusiga ko'ra ijtimoiy talab asosida shakllanadi.

*Buyurtmachi* - noaniq sharoitlarda intiluvchi, etishmovchiliklar, qanoatlanmaslik, qiyinchilik, yangidan-yangi nizolarni keltirib chiqaradigan jarayonlar, funksional xizmatni ko'rsata olmaydigan, tor ishlab chiqarish jarayonlari bilan ishlagan boshqaruva tizimining vakilidir.

*Ijrochi*-qo'yilgan muammoni keng ko'lamda yechimini sifatli sotsiologik darajada olib boruvchi professional tadqiqotchilar guruhidir. Unda buyurtmachi talabiga mos sotsiologik metodlarga ijtimoiy voqeylek asosida yondashish, va ijtimoiy qo'llashda uni amaliy yechimga olib chiqish, innovatsion sotsiologik axborot berish guruhi.

Buyurtmachi va ijrochi turli ijtimoiy rollar holatida bo'ladi. Birinchidan, ko'maklashishdan qarama-qarshilikgacha boradi. Ikkinchidan, tashabbus. Bunday xilma-xillik buyurtmachi va ijrochi o'rtasida ilmiy-tashkiliy menejmetda hamkorlik hamda o'zaro moslanuvchanlikka olib keladi.

Dastur sotsiolog tomonidan amalga oshiriladigan bo'lajak tadqiqot tartibini aniq asoslab tuzib chiqishdan iboratdir. Bu tartib bo'lajak tadqiqot materiallarini

to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma'lumot annotatsiyada beriladi.

Harqanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturning umumiyligi talablarini mavjud. Bularga: tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash, ishlchi farzni ishlab chiqish, dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilari kiradi.

### *Ma'lumotlar ba'zasini to'plash*

Dasturda tadqiqotning ma'lumotlar ba'zasini to'plash va ta'minlash o'zida harakatlar yig'indisini tashkil etadi. Muammoni qo'shishda ilmiy adabiyotlar va turli metodlar tahlilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Izlanayotgan axborotlarning manbasi ma'lumotlar ba'zasidan aniqlanadi:

- a) statistika;
- b) referatlar, ilmiy ishlar, lug'at ma'lumotlar;
- v) bibliografiya (kataloglar, kitoblar);
- g) ma'lumotlar ba'zasi;
- d) konferensiyalar.

2. Metodlarni tanlashda izlanayotgan axborotlarni saralangan manbalardan olish kerak. Jumladan, statistik tahlillar, so'rovlar, turli hil konkret metodlar, ananaviy yoki rasmiy hujjatlardan ma'lumotlarni tanlash mumkin.

3. Jarayonga tegishli, o'xshasa yoki yonma-yon muammolar bilan tanishib chiqish.

4. Hamkasblaringizni tajribasi, predmetlarga, qulayliklarga moslashishni o'r ganib chiqish.

Dasturda ijtimoiy muammo obyekti, predmeti, maqsad va vazifalar, ilmiy taxmin aniq belgilangan bo'lishi lozim. Dastur asosan 2 ta bo'lim va xulosadan iborat bo'ladi:

1. *Nazariy-metodologik bo'lim;*
2. *Amaliy-metodologik (protsedura-ish jarayoni) bo'lim;*
3. *Xulosa qismidan iborat.*

Dastavval bu bo'limlarning har biri haqida qisqacha to'xtalamiz:

### I. Nazariy-metodologik bo'lim:

Tadqiqotlarda muammoni qo'yish.

Muammo-bu ilmiy-amaliy yechimni talab etuvchi, mavhurnlikni ifodalovchi so'rov so'zlar shakli. Uni qo'yilishi sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bo'g'ini bo'lib, yechimga muhtoj ijtimoiy vazifadir. O'z o'mida muammoni qo'yish uni yechimga bo'yundirish demakdir.

Muammo sotsiologik jihatdan rivojlanayotgan bilim asosida echiladi va sotsiologik tadqiqotda aniq savollar orqali yechimga yo'naltiriladi. Muammoni qo'yish jarayonida ikki asosiy ketma-ketlikni ajratish mumkin:

- *muammoli vaziyatni anglash;*
- *muammoni yechimini shakillantirish.*

Muammoli vaziyat-bu ijtimoiy voqeylekda qarama-qarshilikning mavjudligidir. Sotsiolog ma'nolardagi ahamyatlari va ahamyatsiz qarama-qarshiliklar nazariy asosga to'g'ri kelmasligini qayd qilib boradi. SHu asnoda muammoli vaziyatni echishda va bizga noma'lum natijani izlashda yangi bilimga bo'lgan obyektiv ehtiyoj shakllanadi.

1. **Muammoni qo'yish, ishlab chiqish:** korxona yoki muassasa sotsiologlar oldiga muayyan bir masalani qo'yadi. Bilimga byurtma beradi. Buyurtmachining o'zi ilmiy muammoni qo'ya olmaydi, chunki buning uchun proffesional bilimlar zarur bo'ladi. Muammoni ilmiy ifodalash sotsiologning vazifasi. Muammoni empirik o'r ganib, ochiq qo'ymaslik kerak. Chunki, foydalilik, barqarorlik, jamoadagi keskinlik va nizolarni kamaytirish, boshqarish va tashkil qilish munosabatlarini tajriba yo'lli bilan tekshirib bo'lmaydi.

Ilmiy ishda ijtimoiy tuzulmadagi qarama-qarshiliklar, ijtimoiy muammolar real ifoda etilishi lozim. Ilmiy muammoning qo'yilishi ayni shu soha uchun kerakli bo'lgan bilimlar doirasidan chetga chiqish, bu bilimlar chegarasini kengaytirish demakdir. Ba'zan muayyan va hozirgacha ma'lum bilimlar doimsida hamisha ham ijtimoiy muammo vaziyatlari hal etilayvermaydi. Shu sababdan ham ko'pincha bilimlarga bo'lgan ehtiyojlar ham o'sa boradi. Ko'p hollarda sotsiologik tadqiqotlar

faqat nazariy umumlashmalar ishlab chiqibgina qolmasdan, balki ijtimoiy muammo vaziyatini hal etishning konkret amaliy tavsiyalarini ham ishlab chiqadi. Masalan, madaniy-marifiy muassasalar kadrlarning ko'ningsizligi masalasini o'rghanishga bag'ishlangan sotsiologik tadqiqotni nazariy umumlashmalar asosida hal etish mumkin. Bir jihatdan, bunda ijtimoiy muammo vaziyatini keltirib chiqargan shart-sharoitlar atroficha tahlil etilib, nazariy xulosalar ilgari surilsa, ikkinchi jihatdan vaziyatni bartaraf etishning dolsarbo'yliqlari tavsiya etiladi. Yuzaga kelgan ijtimoiy muammo ma'lum bo'lgan amaliy vositalar bilan hal etilmasa, ilmga, tadqiqot o'tkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda **ijtimoiy byurtma** deb ataladi.

Shunday qilib, sotsiologik tadqiqotlar ikki yo'nalishda:

-*ijtimoiy byurtma*;

-*shaxsan sotsiologning tashabbusi asosida* amalga oshirilishi mumkin.

2. **Tadqiqot maqsadi va vazifalarni belgilash:** Sotsiologik tadqiqotda buyurtmachi va bajaruvchilar o'rta sidagi munosabat o'zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan harajatlar, moliyaviy va mehnat resurslari hisoblab chiqiladi.

Bunda maqsad va vazifa aniqlab olinadi. Maqsad-bu ongda oldindan payqalgan tadqiqot natijasidir. Muammoni o'rghanish darajasi va ijtimoiy buyurtma tadqiqot manfaatlariga bog'liq bo'ladi. Empirik (ekspriment) tadqiqotning umumiyl maqsadi obyektning rivojlanish turlari, tuzilmasi, o'zgaruvchanligi va tendensiyalaridir. Bu faktlar turli maqsadlarga qo'llanishi mumkin:

- *nazariy hulosalar olishda*;

- *o'rghanish metodining effektivligi, bilish imkoniyati orqali xulosalar olishda*;

- *amaliy maslahatlar olishda*;

- *kam o'rGANILGAN soha bo'yicha axborot to'plashda*.

Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini ko'tarish muarmosini o'rghanish zarur bo'lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligi pastligining asosiy sabablarini aniqlash, qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va mavjud shart-sharoitni o'zgarishidan iborat bo'ladi. Tadqiqotning asosiy vazifasi esa belgilab

olingen maqsadning mazmunan, uslubiy va tashkiliy jihatdan yanada oydinlashtirib olishdan iborat bo'ladi.

Maqsadni amalgga oshirish jarayonida tadqiqotchi uch an'anaviy vazifani bajarishni o'z oldiga qo'yadi:

- *o'rGANIChI bobNI ilMIy-nAZARIY JIHATDAN TADQIQ ETISH;*
- *ilMIy-nAZARIY bobNING bOSHQA ilM VA hayot BIlan bog'liqligi;*

*-krizis holatlardan chiqishning aniq-ravshan yo'llarini belgilab berish (dasturda metodologik tavsiyalarni yaratishni qayd etadi).*

Tadqiqotchi asosiy va ikkinchi darajali vazifalarni ajratish kerak. Bu vaqtin to'g'ri taqsimlashga xiznat qiladi

### **3. Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash:**

Tadqiqotlarda ko'pincha mehnat jamoalari obyekt bo'lib xiznat qiladi. Obyekt qanchalik aniq bo'lsa, metod shunchalik to'g'ri tanlangan bo'ladi. Empirik tadqiqot tipik obyektlari bo'lib odamlur fikri, jamoadagi munosabatlar, siyosiy jarayonlar xizmat qiladi. Bu obyektga bir necha predmet to'g'ri kelishi mumkin. Bunda predmet «ong tuzilmasi»dir. Umuman obyekt (lotincha) - falsafada kishi onidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan har qanday hodisa. Keng ma'noda kishi bilishga intilgan predmet, hodisa (masalan, o'rGANish obyekti) va o'z faoliyatini shunga yo'naltirishni anglatadi.

Obyekt-bu haqiqiy mavjud bo'lgan tuzilma bo'lib, predmet-abstrakt qo'yilgan tadqiqot muammosidir.

### **4. Muammoni nazariy tahlil qilish va asosiy tushunchalarini ishlab chiqish:**

-ta'riflash, ya'ni ilm-fanda ishlab chiqilgan nazariy va metodologik nuqtai nazaridan muammoning asosiy tushunchalarini aniqlash, nazariy asoslar bo'lmaganda esa tadqiqotchi o'z konsepsiyasini mustaqil yaratishi kerak.

-tadqiqot tushunchalariga bog'liq, ya'ni muammoning nazariy tahlili bevosita tushuncha bilan mantiqiy uzviylikda rivojlanadi. Bunda nazariy va empirik ko'rsatkichlar o'zaro aloqada bo'ladi.

## **5. Tadqiqot obyektining taxminiy-tizimli tahlili:**

O'rganilayotgan obyekt tizimli tahlil qilinadi. Bu obyektni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy bog'liqlikda o'rganishdir. Tizimli tahlil natijasida nafaqat obyektning mavjud mexanizimi, balki institutsional, oilaviy-maishiy, shaxsiy tuzilmalari ham aniqlanadi. Obyektning tizimli tahlili asosida gipoteza shakllanadi.

## **6. Tushunchalarning nazariy va empirik interpretatsiyasi:**

Dasturni tuzishdagi keyingi qadam, bu interpretatsiyadir. Interpretatsiya-sharhlash, izohlash, tushuntirib berish, talqin qilish natijasida olingan tushunchalarning namnalaridir. Dasturni tuzishda tushunchalar nazariy va empirik sharhlanadi:

- *nazariy sharhlash-bu tushunchalarning mazmuni, muammoning nazariy aspekti nuqtai-nazaridan tushuntirishi («e'tiqod» va «qadriyat»).*
- *empirik (eksperiment) sharhlash, tushunchalarni empirik faktlar bilan taqqoslash, o'rganilayotgan soha bilan mosligini aniqlash, tezkor tushuncha to'plash.*

## **7. Gipotezani (ilmiy faraz) aniqlash:**

Gipoteza-bu o'rganilayotgan obyekt xususiyatlari haqida ilmiy tahlil. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy farazning quyidagi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim:

-ta'riflovchi gipoteza-bu obyekt tuzilmasi va elementlar haqidagi tahlilining miqdoriy bog'liqligi, elementlararo aloqalar va xarakteri haqida ma'lumotlar beradi. Masalan, mehnat omili tuzilmasi ish haqiga einas, balki mehnat mazmuniga bog'liq bo'ladi. Dindorlikning ustuvor ko'rinishi umidvorlik va milliy jihatlarda namoyon bo'lishi;

-tushuntiruvchi gipoteza-juda murakkab bo'lgan sabab aloqalari haqidagi taxmin;

- oldindan ifodalovchi gipoteza-bashorat jarayonining rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. U rivojlanish tendensiyasi va yo'nalişlarini aniqlovchi, barqaror mexanizmlarni ochib beradi.

## **II. Amaliy - metodologik bo'lim:**

Protsedura (ish jarayoni)-tadqiqot amaliyotida qo'llaniladigan, uni o'tkazish uchun muhim bo'lgan turli qoidalalar, xarakterlar, instrumentlarni qo'llash va ularning tartibga bog'liq bo'lgan masalalari yig'indisidir.

### **1. Tadqiqotning umumiyligi rejasini tuzish va asosiy amaliy ish jarayonlari**

Rejali tanlash tashkiliy vositalarni va moddiy sarf-xarajatlarni aniqlaydi, chunki anketalar, ma'lumotnomalar, korxonalar bilan shartnomalarni ko'paytirish, so'rov o'tkazish uchun odamlarni to'plash kerak bo'ladi.

### **2. Ma'lumotlarni to'plash metodi va texnikasini tanlash ishlari.**

Metodni tanlash-asoslangan gipotezadan kelib chiqan bo'lishi kerak. Bunda har bir metod o'ziga xos empirik xususiyatga ega:

-so'rov metodi-jarayonning subyektiv tomonlarini o'rganishga yo'naltiriladi.

Chunki, u respondentlarni hayot faoliyati haqidagi javoblariga asoslangan;

-kuzatish metodi-haqiqiy hulq-atvor munosabatlarni o'rganadi;

-hujjatlarni o'rganish metodi-qayd qilishga asoslanadi;

-eksperiment metodi-hodisalarini bir butunlikda o'rganadi.

Amaliyotda ana shu metodlardan biri tanlanadi:

### **3. Tanlangan metodlarni tizimlash va asoslash.**

Har qanday metod o'ziga xos ravishda tuziladi. SHunga ko'ra umumiyligi xususiyatlarni ajratish mumkin, ya'ni axborot to'plashda empirik metodlarning umumiyligi prinsiplarini tuzish mumkin. Amerikalik sotsiologlar fikriga ko'ra balandroq ovozda berilgan savol salbiy javobdan ko'ra ko'proq ijobjiy javob berishga undar ekan. Balandroq ovozda aytilgan respondentlarning murojaatlari tadqiqotga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

### **4. Dastlabki olingan ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi va metodlarini aniqlash.**

Olingen axborotlarning obyektivligi ko'p jihatdan nazariy-metodologik yondashuvga, metodlarning mazmuni va shakliga bog'liq. Demak, tadqiqot natijalari bu ilmiy asoslangan bilimlardir. SHuning uchun tadqiqotning asosiy va muhim prinsipi

bu tadqiqot xarakterlari tuzilmasining mazmun va moihiyati hamda vositalarini (ilmiy metodologik nuqtai nazardan) aniqlashdir.

### **5. Oliingan ma'lumotlarning gipoteza asosida tahlili usullarini belgilash.**

Narsa yoki hodisa mohiyatiga etish uchun inson tomonidan maqsad qilib qo'yilgan, ammoy ilmiy asoslanmagan bo'lsada, mantiqan bog'liq chora-tadbirlarning xomaki rejasи faraz (gipoteza) cleyiladi.

Sotsiologik tadqiqot gipotezasi ijtimoiy obyekt tuzilishi haqidagi nazariy asoslangan ilmiy taxmin bo'lib, bu obyektni tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xarakteri, ularni harakatlantirish va tadqiqot jarayonini o'zida ifodalaydi. Ilmiy gipoteza o'rganilayotgan obyekt xususida dastlabki tahlil o'tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin. Gipotezaning nechog'lik haqiqatga yaqinligi yoki hayotiy emasligi empirik asoslanish davrida, konkret sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish davomida ma'lum bo'ladi. Bunday tadqiqotlar natijasida gipotezalar o'zining inkori yoki tasdig'ini topadi.

### **6. Obekt tadqiqotini o'tkazish.**

Tadqiqot predmeti mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot obyekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti tanlanganda, mavjud muammoni echish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi. SHu bilan birga sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot obyekti deganda, sotsiologik tadqiqot yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot obyekti tizimli xususiyatga asoslangan vaqt, makoniylari, imkoniyat va miqdoriylari o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot nazariy-uslubiy darajasida tadqiqot obyektni tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo xarakteri, uning dolzarbligi tadqiqot maqsadi va vazifasi tadqiqot obyektining qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot obyekti katta bo'lmasa, uni bir butun holda tadqiqot obyekti qilib olinishi mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot obyektni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi.

Shuning uchun bunday vaziyat tadqiqot obyektining nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

### *III. Xulosaga qismi:*

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish bosqichi ikkiyoqlama jarayon bo'lib, unda olimlar, ilmiy xodimlar, amaliyotchilar ham faol ishtirok etadi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari ilmiy hisobot tarzida tuziladi. Ilmiy hisobot guruhlashtirilgan holda tuzilib, kelgusida o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidayoq o'rganiyotgan obyektning muhim jihatlari ko'rina boshlaydi. Bu jihatlarni nazarda tutgan holda ilmiy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish, sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun asosiy vosita bo'lib xizrnat qiladi.

Tadqiqot natijalarining mazmunan tasnifi umumlashtirish, xulosalarni belgilash, ya'ni tushunchalar, faktlar, nazariyalar, tendensiyalarni ifodalash va buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari (asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbir) lardan iborat.

#### *Empirik (aniq) tadqiqot metodlari*

Sotsiologiyada obyekt haqida to'laqonli ma'lumot to'plash muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy jarayonlarni samarali boshqarish imkoniyatini oshiradi. Sotsiologik tadqiqot usullari ta'rixiy-tadrijiy rivojlanish davomida takomillashib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib kelmoqda. Quyida ular hususida to'xtalib o'tamiz:

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng keng tarqalgani *so'rov usullidir*. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalg qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin.

#### *So'rov usullari*

*Anketa* – o'z mazmun va shakliga ko'ra tartiblangan savollar va muloxazalar bayon qilingan so'rov varaqasi.

*Anketa savollari* – axborot olishga mo‘ljallangan iboralar bo‘lib, bunda o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisaning belgilarini aniqlab borish tarzida qayd qilinishiga imkoniyat yaratiladi.

*Anketa so‘rovi-sotsiologik tadqiqotlarda* qo‘llaniladigan so‘rovning asosiy ko‘rinishlardan biri. So‘rov jarayonida respondentlar so‘rov varag‘i tarzida berilgan savollarga yozma javob beradilar. Bu holatda tadqiqotchi va respondent o‘rtasida o‘zaro muloqot anketa vositasida sirtdan amalga oshiriladi. So‘rovning dastlabki bosqichida so‘rov nomasi savollari ishonchligi, asosliliqi tekshiriladi. Anketa so‘rovda respondentlarni jalb qiluvchi funksional-psixologik savollar muhim rol o‘ynaydi. SHuningdek, anketaning ko‘rinishi, gramatik qoidalarga rivoja qilinganligidan tortib varaqaning anonimligigacha alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi, chunki konfliktli holatlar, oilaviy munosabatlar, ishchi va rahbar hamda boshqa aloqalarni o‘rganganda bu etakchi omil hisoblanadi.

*Anketa so‘rovining o‘ziga xos jihatlari* – anketa so‘rovi tejamli va tezkor usul hisoblanadi. Uning yordamida qisqa muddat ichida bir necha ming kishini so‘roq qilishi mumkin. Biroq bu metodning kamchiliklari ham yo‘q emas, masalan: so‘rovnomani respondentning o‘zi to‘ldirilganligiga isbot yo‘qligi, pochta yoki matbuot orqali tarqatilgan so‘rov varaqalarining qaytarilmasligi, ba’zi muhim savollarga javob bermasdan tashlab ketish kabilarni keltirish mumkin.

#### *Anketalarni tarqatish usullari:*

- pochta;
- ommaviy.

*Pochta so‘rovi* – anketa so‘rovininig bir shakli bo‘lib, unda so‘rov varaqalari salohiyatlari kishilarga pochta orqali yuboriladi va respondentninig javob yuborishi uning obyektga qiziqishiga, sotsial faolligiga, uning tadqiqotchi bilan munosabatiga va hokazoga bog‘liq bo‘ladi.

*Ommaviy so‘rov* – anketa savollarini gazetaga va jurnallar orqali tarqatilib, birlamchi informatsiya olish metodi. Javoblarning yig‘ilishini nazorat qilish mushkul. YAxshi natijalarga ega bo‘lishi, respondentning bo‘sh vaqtini jalb etish uchun uni qiziqtira bilish kerak. So‘rov nomasi oxirida uni to‘ldirish va yuborish

so'raladi. So'rovni qayta amalga oshirish ham effektiv hisoblanadi. Sotsiologik tadqiqot natijalarini muntazam e'lon qilib turish ham tadqiqotning obro'yini oshiradi.

*Anketa tuzilishining asosiy shartlari:*

1. tadqiqot maqsadi;
2. hujjatni to'ldirish qoidalari;
3. ochiq va yopiq savollar tartibi;
4. so'rovnomada minnatdorchilik fikirlari.

*Anketa va intervyyu so'rovnomasi tarjimasining asosiy shartlari:*

- original tildan boshqa tilga o'girish;
- original tilga qayta boshqa tarjimon tomonidan tarjima kilish;
- original so'rovnomani qayta tarjima qilingan so'rovnomaga bilan solishtirish va ma'no buzilishlarini qayta ko'rib chikish.

*So'rovnomada pasporti* - jins, yosh, ma'lumot darajasi, mehnat staji, oilaviy sharoiti, daromad ko'rsatkichlari.

*Ochiq savollar*-bu shakl murakkab tahlilni yuzaga keltiradi, chunki respondentlar ochiq qo'yilgan javobga munosabat bildirishini oldindan aytib bo'lmaydi.

*Yopiq savollar*-mavqe jihatdan ikki ma'noli bo'lgagan terminlarga asoslanish.

*Filtir savollar*-respondentlar so'rov bobsi bo'yicha xabardorligini nazorat etish uchun filtr so'rovlari qo'llaniladi. Tuzoq savollar respondentlarning to'g'ri so'zligini aniqlashga yordam beradi.

*Hodisalar to'g'risidagi savollar:*

- respondent xabardorligi. Hodisa bilan bevosita (passiv, aktiv) muloqotda bo'lganmi yoki u to'g'risida boshqalardan eshitganmi;
- hodisa bo'lib o'tgan joyi, vaqtin uning mohiyati, ijtimoiy tizimga muvofiq munosabati, norma va qoidalari nuqtai nazardan tashkiliy jihat;
- ishtiroychilar, guruh, tashkilot, liderlar tarkibi, maqsadlari ishtiroychilarning o'ziga xos pozitsiyalari;
- hodisa ijtimoiy harakati ijobiy va salbiy tomonlari. (qanday tashkilot va guruhlar bunga to'siq bo'lishdi);

- voqealar kechishi dinamikasi (harakat boshi, o'rtasi, yakuni va shu kabilar);
- kutilgan natijalar, harakat mahsuli, ijtimoiy nizo xodisalarida kelishuvlar, yutuq va kamchiliklar, ishtirokchilarning bunda tutgan o'mni;
- respondentning bunga shaxsiy munosabati, bahosi, munozarasi.

**Intervyu** (ing. interview) - sotsiologik tadqiqotda qo'llanadigan uslub-maqsadli suhbat. Uning maqsadi-tadqiqot dasturida ko'zda tutilgan savollarga javob olishdan iborat.

Intervyuer-birlamchi sotsiologik axborctlarni yig'ish bosqichida og'zaki (verbal) muomala uslublari yordamida epirik tadqiqot olib boruvchi mutaxassis-sotsiolog.

*Intervyuerning asosiy harakat qoidalari:*

1. Har kungi tabiiy holatdagi dalillarni, g'ayri oddiy voqealarni saralab olish kerak.
2. Kishilar bilan bo'lgan bevosita aloqalar qatnashchi-kuzatuvchining ikki yoqlama tutgan o'mini taqazo qiladi hamda respondent bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishni talab qiladi.
3. Masofani saqlashda tushunish va xayrixohlik-analitik istiqbolning qat'iy sharti.
4. Doimiy ravishda holatni belgilab detal, yozma qaydlar, qo'shimcha ma'lumotlar manbalarini yig'ish (rasmlar, hujjatlar, xatlar, kundaliklar va hokazo) voqeanning har tomonlama tahlil qilinishi garovi.
5. Har kungi amaliyotning tashqi (ongli, aytilgan) hamda ichki (aytilmagan, taxminiy) elementlarini ajratish kerak.

*Intervyuuning shakllari-suhbat tarkibiy tuzulishiga ko'ra hujjatli intervyu (o'tmish hodisalarini o'rganish va dalillarni aniqlash) va fikrlar bildirish intervusu (bahol berish, qarashlari va munasabatlarini ko'rsatib berish); mutaxassis va ekspertlar bilan bo'ladigan intervyu (tashkiliy jarayonlari va protsedurasi bilan oddiy intervudan farq qiladi).*

*Intervyu olish texnikasi:*

1. *Standartlashmagan, erkin intervyyu*-bu uzoq davom etuvchi suhbat bo'lib, umumiy dastur bo'yicha savollar qat'iyligi kuzatilmaydi. Bu usul tadqiqotni rejalashtirishda razvedka vazifasini o'taydi.

2. *Standartlashgan intervyyu*-rasmiylashgan intervyyu kabi butun jarayonni qat'iy ishlab chiqishni talab etib, suhbat umumiy rejasida savollar aniqligi, ketmaketligi va javoblar varianti ehtimolligi biriktirilgan bo'ladi.

#### *Intervyuning xususiyatlari:*

1. *Klinik intervyyu*-maqsadiga ko'ra respondent ichki motivlari, istak ishtiyoqi to'g'risida ma'lumot olish.

2. *Fokuslashgan intervyyu*-maqsadi ko'rsatilgan ta'sir asosida subyekt reaksiyasi to'g'risida ma'lumot yig'ish. Uning yordamida misol uchun inson axborotning alohida jahbalariga munosabat bildirishi aniqlanadi (matbuot, ma'ruba va shu kabilarga). Bunda axborot tekisti oldindan kontent-tahlil yordamida tahlil etiladi. Tahlil natijasida olingan ma'lumot birliklarni aynan qaysilari respondent tomonidan e'tiborga olinganligi aniqlanadi.

*Yo'naltirilmagan intervyyu*-shakli «terapevtiko» xarakterga ega bo'lib, tashabbus to'la respondent tomonida bo'ladi, intervyyu esa faqat «yuragidagilarni bayon etishga» yordam beradi.

*Narrativ intervyyu*-intervyuerning erkin bayon etishga, turmush tarzini o'rjaniga yo'naltiriladi.

#### *Intervyuni tashkillashtiriish usularli:*

*Guruhi intervyyu*-intervyuer guruhi bilan suhbat qilishga harakat qiladi. V.Pozner televizion uchrashuvlari bunga misol bo'lishi mumkin deb yozadi.

*Individual intervyyu*-telefon orqali bog'lanishlar, fikrlar bayonini ochib berishga imkon yaratadi.

#### *Sotsiologik tadqiqotlarda test metodi*

*Test* - individning ijtimoiy-ruhiy sifatlarini o'chish va baholash usuli. Test deb rivojlanish yoki ayrim ruhiy jihatlar (belgi, tavsif)ni ifodalash darajasi, shu bilan birga, shaxslarning ruhiy jihatlari yoki guruhi va birliklarning ruhiy holati (munosabat idrok qilish) majmui yordamida baholanuvchi qisqa muddatli sinovga aytildi.

*Tadqiqot ish jarayoniga ko'ra testlarni guruhlashtirish:*

a) umumshaxsiy - uning yordamida shaxs ruhiy jihatlarining ayrim yaxlitligi qayd qilinadi;

b) shaxsiy - maxsus testlar. Subyektning u yoki bu alohida belgisi, tavsifi, jihatni (masalan, ijodiy qobiliyati, mas'uliyat darajasi, o'z-o'zini nazorat qilish va h.k) diagnostikasi uchun mo'ljallangan;

v) guruhiy-guruhdagi ruhiy jarayonlarning, ya'ni guruuh va jamoaning birdamlik darajasi, ruhiy psixologik muhitning o'ziga xosligi, shaxslararo idrok qilish va boshqalarning diagnostikasi uchun mo'ljallangan.

*Texnik qo'llashga ko'ra test turlari:*

a) asosan psixofiziologik sinovlarda qo'llaniladigan obyektiv deb nomlanuvchi testlar;

b) G. Ayzenk va R. Kottelning umumshaxsiy testlari singari so'rov uslubiyoti yoki subyektiv testlar. Bu testlar turli shaxsiy xususiyatlarning namoyon bo'lishini o'zaro nazorat qiluvchi bir necha qisimlardan tashkil topgan (Ayzenk testidagi xavotirlanish indikatorlardan biri bo'lib, «sizni doimo hissiyot bezovta qiladimi, nima siz boshqalardan kammisiz?») hisoblanadi;

v) «qalam va qog'ozli testlar», masalan e'tibor diagnostikasi uchun matndagi ayrim harflarning o'chirilishi («korrektor testi») yoki chalkashlikdan chiqishning eng maqbul yo'lini ostiga chizib belgilashdir (intellekt ayrim xususiyatlarni baholashi);

g) sinalayotgan hatti-harakatlarning namoyon bo'lishi ekspert baholashga asoslangan testlar hisoblanadi. Bunga psixologlarning amaliy ishlarida keng qo'llanilgan shaxsning guruhiy baholanishi uslubiyotini kiritish mumkin.

*Test uslubiyotining o'ziga xos xususiyati* - u baholanayotgan obyektga oid ma'lumotlarni ko'p marotaba nazorat qilish imkonini beradi. Test ko'rsatgichlari doimo nisbiy bo'lib, sinaliyotgan guruhning jami bali (indeks) statistik usul orqali aniqlanadi.

*Semantik differensial testi*-XX asr 50-yillarning o'rtalarida ishlab chiqilgan semantik differensial testi kishilarning emotsiyal munosabatlarini tadqiq etishda tavsija qilinadi. Sinalayotganga tartib bilan berilgan obyekt yoki tushuncha (masalan,

«ish»)ga nisbatan o'zining munosabatini bildirish taklif etiladi. CH. Osgudning ushbu testi loyhalashgan uslubiyotga asolangan.

*Sotsiometrik test* - sotsiometrik texnika shaxsiy xususiyatlarni baholash uchun emas, balki guruhiy xususiyatlar uchun qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Kichik guruhlarni o'rghanish uchun mohiyatan ko'rsatgichlarning to'rt ko'rinishidan foydalanish rnumkin:

1. Maxsus asboblarni talab qilmaydigan baholash jarayoni bo'lib, ular guruh va jamoa faoliyatining maqsadi, ijtimoiy tashkilotlar talablariga o'zaro munosabati, jamoa va guruhlarda ta'sir etuvchi ijtimoiy normalar mazmunidan iboratdir. Bu ko'rsatgichlarni o'ziga xos tarzda sifatli tahlil qilish, shu bilan birga hujjatlarga muvofiq kontent-tahlil, jamoaning ish tartibini belgilovchi faoliyati, uning ishini standartlashgan kuzatish kabi usullarning qo'llanilishi va rasmiyatirilishi bilan ham olish mumkin;
2. Guruh va tashkilot a'zolariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni, maslan, ijtimoiy-demografik (o'rtacha yosh, daraja, turli kasb vakillari orasidagi o'zaro munosabat) va ishlab chiqarish-natijaviy (mehnat unumдорлиги, maxsulot ko'lami, uning sifat ko'rsatkichlari, daromad va boshqa qiymat ko'rsatkichlari) ni o'rtacha qilish yo'li orqali olinuvchi tavsiflar;
3. Sotsiometrik indekslar qatoriga tegishli bo'lgan sturkturali ko'rsatkichlar;
4. Guruhiy norma va qadriyatlar ko'rsatkichlari hisoblanib, ulardan biriga A.I.Dansov tomonidan ishlab chiqilgan guruhli, qadriyatli-orientatsion indeksi kiradi.

**Sotsiometriya** - kichik guruhdagi psixologik munosabatlarning o'zgarishi butun ijtimoiy tizim munosabatlarining o'zgarishiga asoslangan maxsus sotsiopsixologik nazariyani yaratdi. Bu termin J. Moreno nomi bilan bog'liq bo'lib, u asrimizning 30-yillarida vujudga kelgan. Mazkur yondashuv utopizimiga binoan Moreno ayrim guruhiy tavsiflarning o'lchovi uchun qulay empirik protsedurani taklif etadi.

*Sotsiometrik protsedura maqsadlari:*

- a) birdamlik darajasini baholash;

- b) yoqtirish-yoqtirmaslik munosabatlariga nisbatan guruh a'zolarining o'zaro munosabati kabi sotsiometrik nuqtai nazarning namoyon bo'lishi;
- v) norasmiy lider boshchiligidagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan birdamlik singari guruh ichidagi tizimlarni topish.

### ***Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli.***

Kuzatish-tadqiqotchining hodisa va sharoitlarini bevosita to'g'ridan-to'g'ri qayd etish yo'li bilan birlamchi ijtimoiy axborot yig'ish usulidir. Kuzatish voqealikdagi narsa va hodisalarini muayyan maqsadga muvofiq qaratilgan hissiy bilish usulidir. Kuzatish harakat, o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum obyektni tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa shu holicha diqqat bilan belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida ko'zdan kechirib borishdir. Kuzatishning qay darajada bo'lishi qo'yilgan maqsadning aniqligiga, kuzatilayotgan narsa va hodisalar haqida oldindan bilimga ega bo'lishga bog'liqdır.

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish dastlabki empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puxta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan fodalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borayotgan obyektidan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlar obyektiv va xolis, hayotiy bo'lish bilan o'zining ilmiy qiymatiga egadir.

### ***Metodini qo'llangan olim:***

Birinchi bo'lib Amerikalik psixolog R. Beynez (1950 y.).

### ***Kuzatish ko'rinishlari quyidagilar:***

- uzuksiz;
- diskret;
- monografik;
- maxsus va boshqalar.

### ***Kuzatish shakillari:***

1. bevosita kuzatish;

2. bilvosita kuzatish;
3. universal kuzatish;
4. o'z - o'zini kuzatish;
5. ochiq-oydin kuzatish;
6. uzlucksiz kuzatish;
7. diskret (ahayon-ahayon alohida) kuzatish;
8. monografik kuzatish (ina'lumotlaryozib boriladi);
9. tor ixtisosli kuzatish;
10. izlanish qidiruv kuzatish;
11. shartli ravishda kuzatish;
12. maxsus kuzatish;
13. nazoratli va nazoratsiz kuzatish;
14. to'la qamrovli va qamramaydigan kuzatish;
15. dala va laboratoriya sharoitida kuzatish;
16. muntazam va tasodifiy kuzatish.

*Kuzatish metodi o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha farqlanadi:*

1. protseduralarning rasmiylik darajasi;
2. kuzatuvchining kuzatishdagi vaziyati;
3. kuzatiladigan muhiti;
4. kuzatuv muntazamligi.

*Kuzatuv rasmiyligi shakllariga ko'ra:*

1. Strukturali (nazorat qilinadigan). Strukturali kuzatuv shaklida nimani qanday kuzatish oldindan rejalashtirilgan bo'ladi. Bu kuzatuv shakli, tadqiqot predmeti to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lgandagina qo'l kelishi mumkin. Strukturali kuzatuv shakli boshqa metodlar yordamida muhim axborotni olish mumkin bo'limgan taqdirda axborot olishning asosiy metodi sifatida foydalilanadi. Bu usul boshqa metodlar asosida qayd etilgan natijalarni qayta tekshirishda ham qo'llaniladi.

2. Strukturalashmagan (nazorat qilinmaydigan). Strukturalashmagan kuzatuv shaklida faqatgina kuzatuv obyekti aniqlangan bo'lib, odatda tadqiqotning

boshlang'ich pallasida, obyekt to'g'risida konkret ma'lumot olish va muammoli vaziyatni aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Unda sotsiologning voqeasi va hodisalarini haddan ortiq obyektiv baholashi asosiy kamchilik sifatida ilgari suriladi.

*Kuzatuvchining kuzatish muhitidagi vaziyatiga ko'ra kuzatish shakllari:*

- zimdan;
- ichkaridan kuzatish.

*Kuzatish muhitiga ko'ra kuzatuv metodi dala va laboratoriya kuzatuv shakliga bo'linadi:*

1. Dala kuzatuvlari – real turmush hodissalari va tabiiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Bu nisbatan keng tarqalgan usul bo'lib, sotsial ma'lumotlarni yig'ishda asosiy va qo'shimcha metod siyatida qo'llaniladi.

2. Laboratoriya kuzatuvlari-obyektni sun'iy muhitda o'rghanishga asoslanadi. Bu kuzatuv ko'p hollarda eksperimental xarakterdagi tadqiqotlarda qo'llaniladi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatuvlarda obyekt hatti-harakatini va hodisalarini qayd etish uchun sotsiolog turli shakldagi texnik vositalarni qo'llashi mumkin. Bunday vositalarga kino va fotoaparaturna, video va audio magnitafonlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

*Kuzatuv metodi davomiyligiga ko'ra tizimli va tasodifiy shakllarga bo'linadi:*

1. Tizimli kuzatuv shakli hodisa va jarayonlarni kechishini ma'lum vaqt mobaynida qayd qilib borishi bilan farq qilinadi. Kuzatuv bunda doimiy tarzda yoki vaqt vaqt bilan o'tkazilishi mumkiin: har kun, haftada, bir kun, har oyda bir haftada kabilar. Tizimli kuzatuv turli shakldagi tadqiqotlarda qo'llaniladi.

2. Tasodifiy kuzatuv oldindan rejalashtirilmagan harakat hodisalarini va jarayonlarni o'rghanishga asoslanadi.

*Kuzatish jarayoning xarakteriga qarab uning quyidagi tipalarini ajratib ko'rsatish mumkin:*

- nazoratli va nazoratsiz;
- to'laqamrovli va qamramaydigan;
- dala va laboratoriya sharoitida;
- muntazam va tasodifiy kabilar.

*Zamonaviy sotsiologiyada birlamchi sotsial ma'lumotlarni olishning ikki uslubi:*

1. miqdoriy;
2. sifatiy.

*Miqdoriy usulning 3 ko'rinishi:*

1. 'To'g'ridan-to'g'ri kuzatish: sotsiologik kuzatish asosida voqealarni guvohlar tornonidan to'g'ridan-to'g'ri joriy qilish tushuniladi. Har qanday ilmiy izlanish kuzatishdan boshlanadi. Bu esa ayni haqiqatga asoslangan bo'ladi. Ba'zida o'zimizning, ba'zida esa boshqalarining kuzatishlaridan foydalananiz.
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish: kuzatish, so'rov usullari. Intervyu kabi tadqiqotlarning «oqlama» va «qoralama»larning bir joyda umumlashtirib, tadqiqot bobiga asoslangan holda sxemalashtirish yoki tahlil qilish tushuniladi. Unga ko'ra aniq, konkret javoblar olinadi.
3. So'rov metodi: ma'lum bir auditoriya, guruh, jamoani bir joyda yoki turlicha joylarda ma'lum bobga asoslangan savollar majmuini ochiq va yopiq tarzda taqdim etish va pisixologik muhitni shakillantirish orqali respondentlardan real javoblarni olishga intilishdan iboratdir. So'rov metodi intervyu yoki anketa uslubida va shunga o'xshash bo'lishi mumkin.

*Kuzatish strategiyasi:*

1. Sotsial hodisalarining umumiyligi xarakteristikasi shunday elementlarni o'zida aks ettiradiki, unda faoliyat qobig'i (ishlab chiqarish, oilaviy hayot, siyosat va boshqa) qoida va normalar, obyektni bir butunlikda boshqarish (rasmiy va umumiyligi belgilangan lekin ko'rsatma va buyruqlarda ko'rsatilmagan) obyekting kuzatishdagi o'z-o'zini boshqarish darajasi (uning qanday holatdaligi tashqi faktorlar va ichki sabablarda aniqlanadi) ko'rsatiladi.
2. Ushbu jarayonda obyektning kuzatishdagi tipga xosligini aniqlashga urinishga boshqa obyekt va jarayonlarga tegishli bo'lishi mumkin: atrof-muhit, hayot tarzi, umumiyligi iqtisodiy va siyosiy atmosfera, unday holatda vaziyatni umumiyligi ommaviy bo'lishi qo'l keladi.

3. Subyektlar yoki sotsial voqealarning qatnashchilari. Kuzatishning umumiy topshirig‘idan qat’iy nazar ularni guruhlarga bo‘lish mumkin: demografik va sotsial xarakteriga ko‘ra (jins, yosh, oilaviy va modiy holat yoki bilimi), faoliyatining namoyon bo‘lishi (bilim va bo‘sh vaqt), jamoa va guruhdagi mavqeiga qarab (boshqaruvchi, kasbdosh, bo‘ysinuvchi, administrator). Birgalikdagi faoliyatda ma’lum funksiyalar obyektni o‘rganishda sodir bo‘ladi, (huquq sodir bo‘lishining faoliyatini, imkoniyati, majburiyat qoida), ma’lum bo‘limgan munosabatlar va funksiyalar do‘stona aloqa, norasmiy odimlash, avtoritet.

4. Faoliyat maqsadi, subyekt va guruhlarning qiziqishiga: umumiy hamda jamoaviy maqsad va qiziqsh: rasmiy va norasmiy: atrof-muhitga mos yoki maql bo‘limgan kelishilgan yoki munozarali qiziqish va maqsadlar kiradi.

5. Faoliyatning strukturasi bir tomondan tushqi istak (stimul), ichki maqsadni anglash (motiv), ma’lum maqsadga etishishda o‘ziga tortuvchi vositalar (vositalarni saqlash va ularning ahloqiy jihatlariga e’tibor bergan holda), faoliyatini tez unumli, reproduktiv, diqqatni kuchaytiruvchi, va ularning amaliy natijalariga qarab (extiyojni qodiruvchi va ma’naviy vositalar) qo‘llaniladi.

6. Doimiylik va voqealarni kuzatish tezligi: yuqorida ko‘rsatilgan parametrlar va ularda ko‘rsatilgan vaziyatlar tiplariga qarab boholanadi. Bunday rejalar asosida qo‘llanilgan kuzatish umumiy maqsadga yo‘naltirilgan obyekt asosida olib borilishini bildiradilar. Ma’lumotlarning to‘planishiga qarab va ularning ma’lum bir tahlilidan so‘ng kuzatishning maqsadi aniqlanadi.

#### *Kuzatish haqqoniyligi:*

1. Aniq indikatorlardan foydalangan holda kuzatuvga tegishli bo‘lgan hodisalarни maksimal holda elementlarni klasifikatsiya qilish.

2. Agar muhim kuzatish bir necha kishilar orqali amalga oshirilsa ular o‘z kuzatishlarini birgalikda baholaydilar, ma’lumotlar yig‘indisi bir hil texnikaga asoslangan yozuvda olib beriladi. SHu orqali yaxshi natijaga erisha oladi.

3. Obyektni turli holatlarda kuzatish maqsadga muvofiqdir, (normal va stressli, standart yoki konfliktli holatlarda).

4. Kuzatilayotgan voqealarni ko'rinishini aniq belgilash va farqlay olish.  
Ularning miqdoriy xarakteristikasini aniq tuza olish kerak bo'ladi.

5. SHuni to'g'ri aniqlash kerakki, voqealar ko'rinishi ularning ma'nosini bilan qo'shilib ketmasligi kerak. SHuning uchun qaydnomalarini yozish talab etiladi.

6. Kiritilgan yoki kiritilmagan kuzatishning ma'lumotning aniqligi, ma'nosini tekshirishni talab qiladi. Buning uchun o'z fikrlarini kuzatuvchi qayta tekshirishi, har xil yo'llar bilan o'z o'ylovingin haqiqatga yaqin ekanligini bilib olishi mumkin.

7. Mustaqil namunaga asoslangan kuzatishga kelish maqsadga muvofiqdir. Berilgan ma'lumotlar «bir tomonlama» o'zları olib borgan intervyu yordamiga tayanishlari imumkin. Bunda xujjalarni o'sha dasturga asoslanib tekshirish yoki shu xususidagi ma'lumotlarga tayanib olib borilishi mumkin.

*Hujjatli manbalar tahlili* – sotsiologik tadqiqotlarda ma'lumotlar yig'ishning asosiy uslublaridan biri bo'lib, bu qo'lyozma yoki bosma matnlardagi, magnit tasmasidagi, kinoplenkalardagi va h.k. qayd qilingan axborotni qo'llashni ko'zda tutadi. Hujjatlar tahlili sotsiologik tadqiqotlarning barcha bosqichlarida sotsiologik muammolarning barcha turlarini tadqiqlashda qo'llaniladi. Uning yordamida axborot to'plash nisbatan qisqa vaqt talab qiladi. SHuningdek, kuzatish va so'rovlargacha qaraganda, hujjatlar o'zining yuqori asoslanganligi, ishonarliligi, aniqligi, umumiyligi bilan farqlanadi, nihoyatda kerakli ma'lumotlar ham ko'pincha hujjatlar tahlili orqali olinadi.

*Hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi* - matn mazrnuniga, maqsadi, yo'nalanligiga, uni keltirib chiqaruvchi sabablari va oqibatlari, muallifining aniqligi bilan bog'liq

*Ikkilanchi hujjat-jarayon davomida hujjatda yoritilmagan qirralarni aks ettiruvchi qo'shimcha hujjatlar.*

*Hujjatlar tahlilining turlari:*

1. an'anaviy metodlar;
2. mumtoz (sifatli) metodlar;
3. miqdoriy metodlar;

*An'anaviy metodlar*-hujjatda aks etgan axborot an'anaviy metod yordamida o'rganiladi, uning yordamida hujjatda ifodalangan mazmunning eng chuqur hujjatlarini ham anglash imkonи tug'iladi, shuning uchun bu tahlil turi intensiv deb baholanadi. An'anaviy tahlil tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Tashqi tahlil hujjatning tarixiy tomonlarini aks ettirsa, ichki tahlil hujjat mazmunini tadqiq etib, muallifning shaxsiy munosabatlar dinamikasini anglatadi. Tadqiqot o'tkazish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi;

1. Tashqi tahlil-bunda hujjatning shakli (rasmiy, norasmiy va h.k.), uning ishlab chiqilish vaqt va joyi, muallifi, maqsadi, yo'l qo'yilgan xatolar, hujjatning yo'naltirilganligi aniqlanadi.
2. Ichki tahlil- bunda hujjatni ishlab chiqishga turki bo'lgan sotsial faktorlar, o'rganilayotgan hujjatning sotsial effektivlik darajasi, uni ko'rib chiqishga mo'ljallangan amaliy tadbirlar aniqlanadi.

*Miqdoriy tahlil*-an'anaviy tahlilning subyektivlik xususiyatini oldini olishga qaratilgan. U hujjatning konkret jihatlarini tadqiq etishga yordam beradi. Bunda miqdoriy mazmun o'lchanadi va tahlil natijalarini obyektivligi oshadi. Bu metod ekstensiv deb baholanadi. Uning kontent-tahlil turidan tez-tez foydalaniladi.

*Verbal hujjatlar tahlili*- yozma shakldagi hujjatlardan ma'lumot to'plashga xizmat qiladigan metod. Uning usullari ko'pgina an'anaviylik, mumtoz, miqdoriylik bilan uyg'unlashib ketadi. (An'anaviy) verbal hujjatlar tahlilining an'anaviy metodiga quyidagilar kiradi;

1. Tarixiy metod-bunda hujjatning ishonarlilik va asoslanganlik muammosi tekshiriladi. Jumladan, hujjat muallifi vaqt, joyi, uni keltirib chiqargan sabablar, xatoliklar aniqlanadi. Hujjatning ishonarligini aniqlashda uning muallifini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatning asoslanganligi hujjat mazmunini mushohada etish, uning sinfiy va siyosiy yo'nalishlarini topishga borib taqaladi.

2. Adabiy metod- muallifning o'ziga xos matn yozish yo'li va u foydalanadigan so'zlar lug'ati tekshiriladi.

3. Psixologik metod- hujjatdagи voqe'likni yoritishdagи mualliflik mahoratini va uning ijtimoiy jaъha bilan uzviyligi aniqlanadi.

4. Sotsiologik metod-hujjatni sotsial sohadagi ahamiyatini o'rganadi.
5. Lingvistik metod-mazmunning tarkibini tadqiqlaydi.

*Ikonografik hujjatlar tahlili-kino va fotohujjatlar, tasviriy san'at asarlarining mazmunini to'g'ridan-to'g'ri tahlil orqali sotsial informatsiya toplash metodi hisoblanadi. Uning metodlari;*

1. An'anaviy (sifatiy);
2. Shakllangan (tarkibiy va mazmuniy).

Shakllangan ikonografik hujjatlar tahlili bir xildagi hujjatlar to'plamini o'rganishda qo'llanilishi mumkin, u hujjat mazmunini kontent-tahlil birliklari tarzida o'rganadi. U portretlar tahlilidan tortib toki markalar tahliligacha o'rganish imkoniyatiga ega.

*Sotsiologik axborotning ikkilamchi tahlili-ilgari turli sotsiologlar tomonidan to'plangan sotsiologik axborotlardan yangi tadqiqot vazifalarini bajarishda foydalanish jarayoni. Bu metod yordamida axborotlar asosidagi sotsiologik bilimlar hamkorligi oshadi. Bunday axborotlardan to'laroq foydalanish tadqiqot proekti (loyiha)larini (ekonom) tejarkorligini ko'paytiradi, biroq sotsiologlar o'zlarini to'plagan ma'lumotlarning taxminan 20%ini ishlata oladilar xolos. Sotsiologik axborotlarni ikkilamchi tahlili yordamida maxsus tadqiqotlarsiz o'rganilayotgan muammo bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni vaqt va kuchni tejab olish mumkin.*

*Diskriminantli tahlil-sotsiologik tadqiqot obyektlarini ekspertlar tomonidan tasnifining sifatini baholovchi sotsiologik axborotning ko'p o'Ichamli statistik tahlil metodlaridan biri, shuningdek talab qilinganda obyekt tasnifini qayta amalga oshirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda bu metod obyekt xususiyatlarini taqsimlash ma'nosida keladi. Diskriminant tahlilning quyidagi qo'shimcha amallari tavsiya etiladi.*

1. Ekspert guruhlarga nisbatan obyektlarning ta'siriga xos belgilarni qayd etish.
2. Ekspertli klassifikatsiya sifatini baholaydigan diskriminantli tahlilni tashkil etish.
3. Obyektning qaysi bir guruhga mansubligini tahlil qilish.

4. Tanlash yo'lini tekshirish, nazorat qilish.
5. To'g'ri tasniflarni alohida va butun holicha foiz hisobida o'lchash.
6. Olingan ma'lumotlar sifatini baholash.

Sotsiologiya tarixida ushbu yo'nalishda dastlabki tadqiqotlar, asosan, shaxsiy hujjatlarni o'rghanishda qo'llaniłgan.

*Hujjatlar maqsadiga ko'ra:*

1. Shaxsiy-shaxsiy hujjatlarga alohida yuritiluvchi hisobda turgan kartochkalar (masalan; imzolangan anketa va blankalar), xat, kundalik kiradi.
2. Noshaxsiy-statistik yoki voqeaviy arxiv ma'lumotlari kiradi.

*Hujjat manbalari mavqeiga ko'ra:*

1. Rasmiy hujjat manbalariga davlat materiallari, qonunlari, rasmiy majlislar, devoriy gazetalar, arxivlar, turli korxona va muassasalarning joriy hujjatlari, sud organlarining qarorlari, moliya ma'lumotlari va boshqa shunga o'xshash hujjatlar kiradi.
2. Norasmiy hujjatlarga esa yuqorida aytib o'tilgan ko'pgina shaxsiy materiallar, shuningdek, alohida fuqarolar tomonidan tuzilgan noshaxsiy hujjatlar (masalan, statistik ma'lumotlar) kiradi.

*Hujjatlarning asosiy guruhiga* - ommaviy axborot vositalarining materiallari; gazeta, jurnal, radio, televideniya, kino videolavhalari kiradi.

*Hujjatlar ma'lumotlarning kelib chiqishiga ko'ra:* birlamchi va ikkilamchi guruhlarga ajratiladi.

*Birlamchi hujjatlar* - to'g'ridan-to'g'ri kuzatish yoki so'rov, bevosita hodisani ko'rib, belgilab qo'yish asosida tuziladi.

*Ikkilamchi hujjatlar* - qayta tahlil, birlamchi manbalarni qaytadan o'rghanish asosida tuziladi.

*Hujjat bilan ishlashning asosiy qoidalari:*

1. Voqeа, hodisani aniq, ravshan farqlay olish va to'g'ri baholashdir. Fikr va baho bildirilgan hujjatlarning ko'pchiligidagi vaziyatning biror bir xususiyati yozilmaydi. Biroq konkret vaziyat, berilgan fikr va bahoning ma'nosini ochishda kalit bo'lib xizmat qiladi.

2. Hujjat tuzuvchi qanday maqsad sari intilgani tahlil qilish lozim. Bu haqiqatni ochishga imkon beradi.

*Shaxsiy hujjalarning axborot ishonchligi*-hujjatning haqiqiyligini tekshirish, tahlil motivi, istak, uning tuzilishi, shart-sharoitlari, muallifning maqsad yo'l-yo'riqlari, u ishtirok etgan hodisalar, uni o'rab turgan muhit xarakteri faktorlariga ko'proq tayanadi.

*Hujjalarning an'anaviy (klassik) tahlili* - hujjat bilan tanishish yoki o'qib yangi bilimga ega bo'lishdan farqli o'laroq-bu tadqiqot metodi bo'lib, har qanday ilmiy tadqiqotda bo'lgani kabi aniq faraz ishlab chiqadi, tahliliy ma'lumotni to'liq o'rganadi, matn mantig'i, asoslanishi va ma'lumot ishonchlilikiga tayanadi. Bu tahlil usuli hujjatning ichiga kirib, tc'liq mohiyatini o'rganishga harakat qiladi. An'anaviy tahlil intensiv tahlil hamdir.

*Miqdoriy tahlil* - agar hujjatda berilgan ma'lumotlar etarli darajada umumiyl ishlasmagan va ular noto'liq bo'lsa, shuningdek, murakkab shaklda tuzilgan bo'lsa miqdoriy tahlilga murojaat qilish kerak emas.

*Matnlarning miqdoriy tahlili* - bir tartibli ma'lumotlarni taqposlashda yuqori darajadagi aniqlik muhim bo'lganda hamda material ustida ishlashda u o'zini oqlaydigan darajada ko'p bo'lsa va bu materiallar ilmiy sohani o'zida aks ettirsa materiallar bilan bog'liq miqdoriy tahlil qo'llanishi mumkin.

*Kontent-tahlil* – sotsiologik axborot mazrnunini miqdoriy o'rganish usuli. U matn tuzilishini tahlil qilgan holda ma'lumotlarni to'plash va yig'ish metodidir. «Kontent» so'zi aloqa va munosabatlardan obyekti hisoblangan so'zlarga, mazmunga, rasmga, belgilarga, tushunchalarga, bob, sarlavha va boshqa ma'lurnotlarga aloqador. Matndagi belgi va xususiyatlarni kontent-tahlil orqali ularning miqdoriy tuzilmasini sistematik va obyektiv hisob-kitob qilish usuli yordamida ma'lumotlar olinadi. Markoffa, Shapiro va Veytmanlarning fikrlariga ko'ra kontent-tahlilni «kodlashtirilgan manb» deb atash to'g'iroq bo'ladi. Kontent-tahlilning sifatli va interpretativ yo'nalishlari mavjud bo'lib, ammo matn mazmunidagi miqdoriy ma'lumotlar asosiy o'rinnasabtasida kasb etadi. Kontent-tahlil so'rovsiz tadqiqot usuli bo'lib, undagi belgilarni,

so'zlarni kiritish jarayonida tadqiqotchining subyektiv ta'sirisiz ma'lumotlarni o'r ganuvchi va qabul qiluvchilar o'tasida aloqani ta'minlaydi.

Kotent-tahlilda matnni oddiy o'qib chiqishdan farqli o'laroq uni tizmli tarzda muntazzam tadribga o'tkazishga va mazmun mohiyatiga etiishga chorlaydi. Bundan tashqari matndagi yashirin ma'noga ega so'zlarni, ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Kotent-tahlil o'zida tasodifiy tanlovni, aniq baholashni va mavhumlashgan Eksperimental harakatlarni bir vaqtida mujassamlashtirgan.

Sifatli kotent-tahlil pozivistik yondashuv vakillari tomonidan unchalik yuqori baholanmaydi. Bu yo'naliш fiministik va tanqidiy yondashuv tadqiqotchilar tomonidan qo'llab quvvatlangan. Miqdoriy yo'naliш tarafdorlari gohida sifatli kotent-tahlil usulidan foydalanib tadqiqotni ishonchliligini ta'minlaydilar.

*Matn* - bu munosabatlar doirasidagi bayon, ko'rinish yoki yozuv tarzida aks ettirilgan so'zlar majmuasidir. Bu munosabatlar doirasi o'z ichiga kitoblar, ro'znomalar, jurnallar yoki maqolalar, yangiliklar va e'lolnlar, rasmiy hujjatlar, badiy va video filmlar, qo'shiqlar, foto suratlarni hamda san'at asarlarini qamrab oladi.

*Kontent-tahlilning asosiy tamoyillari* - amerikalik sotsiologlar X.Lassuel va B.Berilsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Uni rivojlantirishda Rossiya va Estoniya sotsiologlari A.Alekseev, YU.Vooglayd, P.Vixalemm, B.Grushin, T.Dridze, M.Lauristinlар muhim hissa qo'shgan.

#### *Eksperiment usuli*

Eksperiment (lot. tajriba, sinov, namuna olish) - sotsial eksperiment mohiyatan gipotezani ilmiy asoslashga yo'naltirilgan, sinov, tajriba holatini vujudga keltirib, nazorat guruhlarini tuzish va baholash nazarda tutilgan ijtimoiy obyektni tajribaviy tahlil qilish usulidir.

Eksperiment usuli sotsioloik tadqiqot metodlari ichida murakkab tuzilmali, o'ziga xos ichki bog'liqliklarga ega. Mazkur usul asosida ijtimoiy jarayonlarni oldindan amaliy samaradorligini baholash mumkin.

Bu usul ijtimoiy voqeyleklarni oldindan analiy tajribalar orqali qiyosiy tahlil qilish va hayotiy haqiqatga mos kelish darajasini baholash imkonini beradi.

Eksperimental tadqiqotlar fanning barcha sohalarida muhim kashfiyotlar qilish imkoniyatini oshirgan. XIX-XX asrlarda hayot samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim ilmiy tadqiqotlarda sinov, tajriba metodi o'ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Eksperiment usulini qo'llashda muayyan talablarga rioya qilish maqsada muvofiq:

- a) eksperimental usullar borasidagi mavjud bilimlarni oshirish;
- b) o'rganilayotgan obyektning asosiy xususiyatlarini o'zartirmaslik;
- v) eksperimental jarayon batamom nazorat ostida bo'lishi lozim.

Eksperiment metodini modellashtirish borasida S.YAskevich o'z fikr-mulohazalarini ilgari surgan. Hozirgi zamонави тадқиқотларда ЕҲМда texnologik jarayonlaridan keng foydalaniladi:

1. Eks-post-fakto eksperiment – bunda eksperiment o'tmishdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy hodisalar tadqiqot obyekti qilib olinganda o'tkaziladi.
2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bunda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlarni tadqiqot obyekti qilib olingan bo'ladi.
3. Loyhalashtirilgan eksperiment – yaqin kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi.
4. Tadqiqot vazifasi va xususiyatiga ko'ra (fan sohasidagi, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishdag'i) eksperimentlar
5. Sotsial eksperimentning tarkibiy xususiyati
6. Amaliyat va laboratoriya sharoitida
7. Mantiqiy tarkibiga ko'ra paralel va davomiylarida

## **Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish.**

Sotsiologik tadqiqotlar davomida qo'lg'a kiritilgan ma'lumotlarni tahlil etish tadqiqotlar jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichning maqsadi natijalarning ma'nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdan iborat. Sotsiologik tadqiqotlarning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy uslubiy yechimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, respondentlar, ma'muriyat) ishtirokida analga oshiriladi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyligi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli gipotezani sinash jarayonida tadqiqotchi ko'proq real hodisalarga tayanishi, xilma-xil ma'lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan o'r ganilayotgan obyektning zaruriy jihat va xossalarni ajratib berishga intilishi kerak. Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlarga ajratilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Hisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rvonomalar, blanklar, testlar va boshqalar keltiriladi.

Amaliy sotsiologik tadqiqotning asosiy maqsadi amaliyot tomonidan ilgari surilgan masalalarning yechinidir. SHuning uchun bunday tadqiqot hisobotida gipotezalar, tadqiqot vazifalari, o'rtacha ko'rsatkichlar tizimi, axborotlar, boshlang'ich axborotlarni yig'ish bo'yicha tadqiqot uslublari tarkibi tavsiflab beriladi.

Hisobotga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

- hisobotda tadqiqotning predmetiga mos mantiqan barcha o'zaro bog'langan muammolar guruhlari iloji boricha chuqur va to'la aks ettirilgan bo'lishi kerak;
- bajariladigan ishlarning turkumining mantiqiy ketma-ketligi ta'minlangan bo'lishi kerak;
- hisobotning har bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismining o'zaro mutanosibligini ta'minlash zarur;

- so‘rovnomanning barcha savollari va ularga mos natijalar ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etilishi kerak;
- hisobot texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiylashtirilishi va to‘g‘ri tuzilishi kerak.

#### Nazorat savollari

1. Qaysi omillar empirik sotsiologik tadqiqotlarning shakllanishiga sabab boldi?
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi deganda nimani tushunasiz?
3. Sotsiologik tadqiqot dasturi qanday bo‘linlardan tashkil topgan?
4. So‘rov metodining qanday turlari mavjud?
5. Kuzatish usulining qanday turlari mavjud?
6. Sotsiologik tadqiqotlarda kontent-tahlil usulining ahamiyatini aytинг.
7. Hisobotga qo‘yiladigan asosiy talablarni sanab bering.

#### Test savollari:

1. Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jibatidan qanday qismlardan iborat bo‘ladi?

A) nazariy metodologik va amaliy protsedura qismi

B) nazariy metodologik va amaliy sotsiologik tadqiqotning ish jarayoni qismi

C) nazariy metodologik, amaliy sotsiologik tadqiqotning ish jarayoni qismi va xulosa qismi.

D) amaliy sotsiologik tadqiqotning ish jarayoni qismi va xulosa qismi.

2. Sotsiologik tadqiqot o‘tkazish necha bosqichdan iborat?

A) 2 bosqichdan

B) 3 bosqichdan

C) 4 bosqichdan

D) 5 bosqichdan

**3. Sotsiologik tadqiqotlarda axborot yig'ishda eng keng tarqalgan metod qaysi?**

- A) kuzatish
- B) so'rov
- C) xujjalarni o'rghanish
- D). Eksprement

**4. Quyidagilarning qaysi biri so'rov metodiga kiradi?**

- A). Xujjalarni analiz qilish
- B). Kuzatish metodi
- C). Eksprement
- D). Intervyu

**5. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar qanday sharoitlarda o'tkaziladi?**

- A). Etarli mablag' bo'lganda.
- B). Sharoit taqazo etganda.
- C). Anketa savollari tayyor bo'lganda.
- D). Sotsial buyurtma mavjud bo'lganda.

**6. Empirik sotsiologiya birinchi bo'lib qaerda vujudga kelgan?**

- A). G'arbiy Evropada.
- B). Rossiyada.
- C) AQShda.
- D). Sharqda.

**7. Sotsiometriya usuli orqali qanday munosabatlar o'rghaniladi?**

- A). Shaxslararo munosabatlar.

B). Iqtisodiy munosabatlar.

C). Faqat siyosiy munosabatlar.

D). Yoshlarga oid munosabatlarni.

**8. Respondent deganda kimni tushunasiz?**

A). Tadqiqot o'tkazuvchi

B). Tadqiqot dasturini tuzuvchi

C). Tadqiqot savollarini tuzuvchi

D). Tadqiqot savollariga javob beruvchi

**9. Intervyuer deganda kimni tushunasiz?**

A) Tadqiqot o'tkazuvchi

B) Tadqiqot dasturini tuzuvchi

C) Tadqiqot savollarini tuzuvchi

D) Tadqiqot savollariga javob beruvchi

**10. Gellap jamoatchilik fikrini o'rganish instituti qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatadi?**

A). Germaniya

B). Fransiya

C). AQSH

D). Norvegiya

## GLOSSARIY

**Sotsiologiya** (lat –sosietas, uynon- logos) jamiyatning tarkibi va uni tashkil qiluvchi elementlar(unsurlar), ularning amal qilish shart-sharoitlari hamda bu tarkibda sodir bo‘ladigan sotsial jarayonlarni o‘rganuvchi fan.

**Makrosotsiologiya** -sotsial bilimlar sohasi bo‘lib, sotsial tarkibning yirik elementlari, ularning holati va o‘zaro aloqadorligini o‘rganadi.

**Mikrosotsiologiya** sotsial bilimlar sohasi bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi, guruhlar ichidagi va kishilar orasidagi kundalik o‘zaro hatti-harakatlarni o‘rganadi.

**Makrodaraja** sotsiologiyada katta sotsial guruhlar va xalqlarni qamrab oluvchi sotsial hodisalar va jarayonlarni aniqlash; aholining ko‘chib yurishi, turli sotsial institutlarning inqirozi, jamiyatning bir ko‘rinishdan boshqasiga o‘tish tendentsiyasini ko‘rsatish holati.

**Sotsial qonun** sotsial obyektlar o‘rtasidagi nisbatan barqaror va muntazam yangilanib turuvchi munosabatlar. Hodisa va jarayonlar orasidagi muhim va zaruriy bog’lanish. Sotsial qonunlar umumsotsiologik va maxsus sotsiologik qonunlarga bo‘linadi.

**Sotsial nazorat** jamiyatdagi me’yor va qadriyatlar yig’indisi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun qo’llaniladigan turli sanktsiyalar. Masalan, deviant xulq-atvorning oldini olishga, jazolashga yoki tuzatishga qaratilgan sanktsiyalar.

**Sotsial fakt (*dalif*)** jamiyatning u yoki bu sohasiga xos bo‘lgan alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi voqealarni hamda bir xil ko‘rinishli voqealar yig’indisi.

**Tarmoq sotsiologiyasi** sotsiologik bilimning muhim sohasi bo‘lib, ijtimoiy hayotning alohida yoki tor sohalaridagi sotsial hodisalar va jarayonlarni o‘rganadi. Umumiy sotsiologiyadan farqli o‘laroq, tarmoq sotsiologiyasining obyekti sifatida sotsial voqelikdagi aniq bir soha qamrab olinadi. Masalan, iqtisod sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi va boshqa shu kabilar.

**Sotsial institutlar** nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan sotsial va siyosiy tizimli uyushmalar bo‘lib, bir-biridan tarkibining barqarorligi, o‘z elementlarining integratsiyalashganligi hamda vazifalarining xilma-xilligi, o‘zgaruvchanligi va egiluvchanligi bilan farqlanadi.

**Bixevoirizm** (*ing. behaviour – xulq-atvor*) pozitivistik sotsiologiyadagi muhim yo‘nalishlardan biri. Bixevoiristlar sotsiologiyaning predmeti deganda kishilar xulq-atvorini tushunganlar. Bu ta’limot asoschilari inson va hayvonot olamidagi sifatiy farqlarni ajratmagan holda, sotsiologiya va psixologiyaning vazifasi ongni emas, balki kishilar xulq-atvorini o‘rganishga qaratilgan degan fikri ilgari suradilar.

**Sotsial darvinizm** ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tabiiy tardashning biologik qonunlari bilan o‘xshash deb tushunuvchi ta’limot. Bu ta’limot vakillari ijtimoiy hayat insonning biologik xususiyati (tabiat) bilan aniqlanadi, degan fikri ustun qo‘yadilar. Sotsial-darvinizm g‘oyalardan keyinchalik liberalizm, individualizm, rasizm, fashizm kabi sotsial-siyosiy yo‘nalishlarda ham foydalaniqan.

**Oligarxiya** (*yunoncha oligarchia – ozchilik hokimiyati*) kichik guruhdag‘i kishilar, asosan boylarning siyosiy hokimiyatini ta’minlovchi boshqarishning nodemokratik shakli. Shu bilan birga, oligarxiya tushunchasi ilg‘or, hukmon elita ma’nosini ham anglatadi.

**Protestantizm** – xristianlikdagi uchta yirik yo‘nalishlardan biri bo‘lib, katolitsizm va pravoslavlikdir farqli ravishda ezzulik orqaligina xristianlar o‘z gunohlaridan forig‘ bo‘lishlari, barcha e’tiqodlilar uchun yagona e’tiqod va diniy shaxsiy mas’uliyatlilik muhimligi, parvardigor va e’tiqodli inson orasida vositachining shart emasligi, inson o‘z hayoti uchun o‘zi kurashishi kerakliligi tarafdarlaridir. “Protestantizm” tushunchasining o‘zi “protest” so‘zidan olingan bo‘lib, 1529- yil 19-aprelda xristianlar majlisida evangiliya tarafdarlarining cherkovning isloh etilishini ta’qiqlashgan qarshi qaratilgan e’tirozdan boshlangan. Shundan so‘ng G‘arbiy Evropa malakatlarida Lyuter, Svingli, Kalvinnning protestantizmga asoslangan g‘oyalari shakllantirilgan. Bu Angliya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarda xristianlar orasida o‘z farovon turmushi, obod va to‘kin hayoti uchun kurashish harakatlariga sabab bo‘lib, kapitalizmning shu yo‘sinda rivojlanishi va sanoat to‘ntarishi, fransuz inqiloblariga sabab bo‘ldi.

**Merkantilizm** (fr. mercantilisme; lotincha — mercari — savdo qilish; italiyancha — mercante — savdogar) — ilk davrdagi kapitalizmda shakllangan

iqtisodiy ta'lilot va iqtisodiy siyosatning ko'rinishi bo'lib, burjua ziya – savdogarlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlatning ho'jalik hayotga aktiv aralashuvi va ishtirokini anglatadi. Merkantilizmga asosan daromad tovarlarni ishlab chiqish hisobiga emas, balki ularni tashqi savdo orqali sotib, mamlakat ichiga kapital kiritish orqali to'planadi.

**Proteksionizm** (fransuzcha protectionnisme, lotincha — protectio — himoya) milliy iqtisodiyotning davlat tomonidan chet el raqobatidan hirnoya qilinishi. U davlat sanoatini moliyalashtirish, eksportni ko'paytirib, importni chegaralash kabi choralarda o'z ifodasini topadi.

Siyosiy iqtisodiyotga ingliz iqtisodchisi *Ulyam Petty*(1623-1.687) asos solgan. U 1662-yilgi "Soliq va yig'imlar to'g'risidagi" risolasida davlatning qudrati uning pul siyosatida emas, balki, ishlab chiqarishdadir, deya ta'qidlagan. Uning fikricha, ishlab chiqarish sohasi boylik manbasi sanaladi. U mehnatning qiymati nazariyasini birinchilardan bo'lib asoslagan.

**Marksizm** – ishchi sinfi manfaatlarini ko'zlovchi g'oya bo'lib, kapitalistik ekspluatatsiyaga qarshi inqilobiy kurash yo'li orqali amalga oshurilgan. Marksizm doirasida shakllangan sotsiologiyaning asosini tarixiy materializm tushkil etgan.

**Anomiya nazariysi** - "nazoratning yo'qligi", "normalardan voz kechish" ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, jamiyatda qadriyatlar, normalar, sotsial aloqalar yo'qolishi, kuchsizlanishi yoki qarama-qarshilikka uchrashi natijasida yuzaga keladigan holat.

**Struktura** (lot. structura — tuzilish, joylashuv, tartib) obyekt tarkibiy elementlarining o'zaro joylashuvi va aloqalarining yig'indisidan tashkil topgan. Obyektning strukturasi uning elementlari o'zaro aloqadorligining mustahkaligini tashqi yoki ichki o'zgarishlariga qaramay obyektning asosiy mohiyatini saqlab qoladi.

**Sistema** – o'zaro aloqada bo'lgan elementlarning yig'indisi

**Nazariya** – kategoriya, tushunchalar, holatlar va tamoyillarning konseptual birldigi bo'lib, u hodisalarining xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini

ochib beradi. Nazariyalarda markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi. Nazariyani yaratish vositasi mavhumlashtirishdir, ya'ni aniq holatlar va hodisalarни umumiylashtirishdir.

**Organik yo'nalsh** jamiyat, uning amal qilishi va rivojlanishini jonli, biologik organizmning amal qilishi va rivojlanishi bilan aynanlashtiruvchi ta'limot. Bu yo'nalish vakillari ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan sotsial-siyosiy voqeа-hodisalarни sof biologik nuqtai-nazardan izohlashga harakat qiladilar.

**Pozitivizm** XIX asr sotsiologiyasidagi etakchi yo'nalishlardan biri. Jamiyat haqidagi mushohadaviy qarashlardan voz kechgan holda, kuzatish va tajribaga asoslangan, fizika,ximiya,biologiya kabi tabiiy fanlarga o'xshash aniq, obyektiv bo'lgan fanni yaratishga qaratilgan ta'limot.

**Pragmatizm** (*yunoncha – ish, harakat*) sotsial-siyosiy muammolar va ularni hal qilishda tez amaliy natijalar olish, afzallikkarga ega bo'lish, aniq manfaatlarni ko'zlashga qaratilgan ta'limot.

**Psixologism** yo'nalishi sotsiologiyadagi yo'nalish bo'lib, sotsial-siyosiy hodisa va jarayonlarni psixologik omillar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Bu yo'nalish tarafdorlari asosiy e'tiborni ijtimoiy va individual ongning sotsial-siyosiy hayotdagi o'mni va roli hamda ularning o'zaro nisbati masalasiga qaratadilar.

**Simvolik interaktsionizm** (*lotin.interactio – o'zaro ta'sir*) sotsiologiyadagi muhim yo'nalish bo'lib, o'z e'tiborini kishilar o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqalarga qaratadi hamda bu aloqalarni sotsial simvollarni almashish ko'rinishi sifatida baholaydi. Bu oqim tarafdorlarining fikricha, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar uzuksiz muloqot bo'lib, bu jarayonda ular bir-birlarini kuzatadilar, maqsadlarini anglab etadilar hamda tegishli munosabatda bo'ladilar.

**Tarkibiy funktsionalizm** (*lotin.funcio – amalgा oshirish, bajarish*) sotsiologiyadagi muhim yo'nalish, metodologik yondashuvlardan biri. Bu yo'nalish tarafdorlari jamiyat, undagi hodisa va jarayonlarga o'zining tarkibi, undagi tegishli o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi elementlarning o'zaro aloqa mexanizmiga ega bo'lgan sotsial tizimlar sifatida qaraydilar.

Sotsial bidadarlik ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishdagi harakorligi ko'rinishidir.

Kooperatsiya bir yoki bir qancha sotsial guruh vakillarining yagona maqsadga erishish yo'lida o'zaro harakat qilish jarayoni. O'zaro manfaatdorlik kooperatsiyaning asosi hisoblanadi.

**Begonalashuv** individ, shaxs yoki sotsial guruhning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy jarayonlar, munosabatlardan hamda faoliyatdan uzoqlashish, chetlashish holati. Sotsiologiyada begonalashuvning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, madaniy va ruhiy ko'rinishlariga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Oila kishilarning nikoh va qondoshlik munosabatlariiga asoslangan jamiyatning kichik sotsial yacheykasi. Oila kishilarni mulkchilik, umumiy xo'jalik aloqalari va farzandlar tarbiyasidagi o'zaro mas'uliyat hissi bilan ham bog'laydi.

Nuklear oila Ota —onalar va ularning qaramog'ida bo'lgan bolalardan tashkil topgan oila shakli. Hozirgi davrda ko'p avlodli oilalardan nuklear oilalarga o'tish jarayoni yakunlanib bormoqda.

**Ekzogamiya** nikohlanishda umr yo'ldoshini tanlashdagi cheklash bo'lib, guruh a'zolari umr yo'ldoshini o'z guruhi tashqarisidan izlashadi.

**Endogamiya** nikohlanishda umr yo'ldoshini tanlashdagi cheklash bo'lib, guruh a'zolari umr yo'ldoshini faqat o'z guruhi ichkarisidan tanlashadi.

**Etnos** ma'lum bir hududda tarixan qaror topgan, madaniyat va psixologik birlikning umumiy jihatlariga ega bo'lgan kishilarning barqaror uyushmasi.

**Sotsial sinflar** (*lotin. classic – guruh, razryad*) yirik sotsial guruhlar bo'lib, o'zida umumiy sotsial-iqtisodiy va siyosiy maqomga ega bo'lgan hamda o'z ijtimoiy holatiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi kishilarni birlashtiradi.

**Fan** bilimlarni yaratish va to'plashni ta'minlovchi sotsial institut; ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri. Fanlar tasnifiga ko'ra bir qancha yo'naliishlarga bo'linadi. Sotsiologiyada fundamental va amalii fanlarga alohida e'tibor qaratiladi.

**Ta'llim** institutlashgan jaravon bo'lib, uning asosida qadriyatlar, bilim va malaka bir kishi, guruh yoki uyushma tomonidan boshqalarga o'tkaziladi.

**Madaniyat qadriyatlar, hayotiy qarashlar, xulq-atvor va me'yorlar namunasi, shuningdek, turli predmetlar, moddiy boyliklarda (mehnat vositalari, belgilar kabilar) mujassamlashgan va keyingi avlodlarga o'tadigan kishilar faoliyatining natijasi.**

**Ommaviy madaniyat mintaqaviy, diniy, sinfiy xususiyatlardan qat'iy nazar mahsulotlari barcha xalqlarga tarqaladigan va ommalashadigan madaniyat shakli.**

**Elitar madaniyat o'zida hashamatli san'at, musiqa va adabiyot namunalarini qamrab olgan hamda jamiyatdagi saralangan qatlam, oliy tabaqalarga mo'ljallangan madaniyat shakli.**

**Madaniy relyativizm** boshqa sotsial guruhlar qadriyatlarini faqat o'z madaniy qadriyatlari doirasida tushunish va tahlil qilishga bo'lgan urinish.

**Etnotsenizm** hayotiy hodisalarni o'z etnik guruhining an'analari va qadriyatlari doirasida baholovchi hamda o'z madaniyatini umumiy etalon sifatida ko'rsatuvchi etnik xususiyat.

**Tolerantlik** o'zgalar tur mush tarzi, xulq-atvori, urf-odatlari, his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari va diniy e'tiqodlari sabr-bardosh, toqat bilan munosabatda bo'lish.

**Qadriyatlar (ana'nalar)** avlodlardan- avlodlarga o'tuvchi, ma'lum bir uyushma yoki sotsial guruhda uzoq davr mobaynida saqlanib qoluvchi sotsial va madaniy merosning elementi.

borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. G'arbda qadriyatlar masalasi bilan aksiologiya fani shug'ullanadi. Falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar qadriyatlar bo'yicha tegishli tadqiqotlar olib bormoqdalar.

**Sotsial stratifikatsiya** (*lot.stratum – qatlam*) sotsial qatlam (guruhlarning) daromadlari, bilim darajasi, hokimiyatga egalik qilishi, kasbiy obro'-e'tiboriga ko'ra jamiyat strukturasida yuqorida quyiga qarab joylashuvi.

**Sotsial mobillik** individ yoki sotsial guruhning jamiyat ijtimoiy tuzilmasida bir sotsial holatdan boshqasiga o'tishi, o'z ijtimoiy holatini o'zgartirish ko'rsatkichi.

**Vertikal mobillik** individ yoki sotsial guruhning bir sotsial qatlamdan boshqasiga o'tish jarayoni. Vertikal mobillik yuqori mansabga ko'tarilish, daromadlarining oshib ketishi va hokimiyat bo'lish bilan izohlanadi. **Gorizantal mobillik** individ yoki sotsial guruhning bir sotsial bir oiladan boshqa oilaga, bir dindan boshqa dinka yoki bir turar joydan boshqa joyga o'tish bilan izohlanadi.

**Deviantlik** individ yoki sotsial guruhning jamiyat tomonidan qabul qilingan umumiy me'yirlarga mos kelmaydigan xulq-atvori. Buning natijasida ular tomonidan bu me'yirlarni buzish holati sodir bo'ladi. Deviantlikning jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, byurokratiya kabi ko'rinishlari keng tarqalgan.

**Delikventlik** militsiya yoki politsiyada hisobda turuvchi, muntazam ravishda jinoiy harakatlar sodir etuvchi, tarbiyasi qiyin bo'lgan kishilar, ayniqsa, o'smirlarning huquqbazarliklarini ko'rsatuvchi tushuncha

**Shaxs** sotsial mavjudot, sotsial hayotning ongli subyekti bo'lgan har bir inson. Individning samarali faoliyat va muloqotlar asosida sotsial munosabatlarga kirishini va sotsial xususiyatlarning bir butunligini anglatuvchi tushuncha.

**Marginal shaxs** individ yoki shaxsning ikki yoki undan ortiq madaniyatlar chegarasidagi oraliq holatni egallashi va qisman ularga qorishib ketishini ko'rsatuvchi tushuncha.

**Sotsiallashuv** individ tomonidan hayoti davomida o'zi yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan jamiyatdagi sotsial me'yorlar va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni. Oila, maktab, mahalla, qarindosh-urug'lar, jamoatchilik sotsiallashuvning muhim agentlari bo'lib xizmat qiladilar.

**Jamiyat** yaxlit sotsial tizim bo'lib, u o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalariga ega bo'ladi. Unda yagona hudud doirasida kishilar umumiy madaniy qadriyatlari va sotsial me'yorlar (norma) asosida birlashadilar.

**Postindustrial jamiyat** insoniyat va alohida davlatlar ilg'or taraqqiyotining uchinchi bosqichi (*agrар va industrial jamiyatdan keyingi*). Unda zamонавиyl илмиy- texnologik, axborotlashgan inqiloblar asosida chuqr sotsial o'zgarishlar sodir bo'ladi.

**Demografik o'tish** aholi o'sishi sohasidagi o'zgarishlarni talqin qilish bo'lib, tug'ilish va o'lim darajalari o'rtasidagi barqaror mutanosib iqtisodiy farovonlikni muayyan darajasida erishilishi mumkinligidan kelib chiqadi.

**Ijtimoiy guruuhlar** muntazam ravishda bir-birlari bilan o'zaro ta'sirga kirishadigan individlar guruhi.

Sinf bu tushuncha sotsiologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lishiga qaramay qanday qilib uni yaxshiroq ta'riflash mumkinligi haqida yaxlit tushuncha yo'q. Ko'pchilik buni individlar o'rtasidagi moddiy ahvol va hukmdorlik darajasidagi farqlarga olib keladigan tafovutlarni ifodalash uchun feydalanadi.

**Etnik mansublik** muayyan guruh a'zolariga xos bo'lgan va ularni boshqalardan ajratib turadigan madaniy me'yorlar va qadriyatlar.

**Demografiya**(grek. Demos- xalq, grapho- yozaman. Tug'ulish, o'lim, oila, migratsiya va sotsial mobillik masalalari) aholini o'rganish.

**Tabaqa** individlar guruuhlar o'rtasidagi tengsizlik, qonun tomonidan mustahkamlab qo'yiladigan stratifikatsiya shakli. nasldan-nasnga o'tuvchi huquq va majburiyatlar bilan bir-biridan farqlanuvchi agrar va ko'pgina industrial jamiyatlardagi sotsial guruuhlar.

**Sotsial qonun** sotsial obyektlar o'rtasidagi nisbatan barqaror va muntazam yangilanib turuvchi munosabatlari. Hodisa va jarayonlar orasidagi muhim va zaruriy bog'lanish. Sotsial qonunlar umumsotsiologik va maxsus sotsiologik qonunlarga bo'linadi.

**Sotsial nazorat** jamiyatdagi me'yor va qadriyatlar yig'indisi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan turli sanktsiyalar. Masalan, deviant xulq-atvorming oldini olishga, jazolashga yoki tuzatishga qaratilgan sanktsiyalar.

**Gtografik maktab** sotsiologiyadagi yo'naliishlardan biri bo'lib, uning asoschilari geografik muhitni ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi sharti va muhim omili sifatida qaraganlar. SHu bilan birga, ba'zi hollarda bu maktab g'oyalari ayrim kishilar, masalan, fashizm namoyandalari (K.Xausxoffer va xulq-atvorini xulq-atvorini boshqalar) tomonidan o'zlarining bosqinchi, aggressiv geopolitik maqsadlari uchun qo'llanilgan.

**Organik yo‘nalish** jamiyat, uning amal qilishi va rivojlanishini jonli, biologik organizmning amal qilishi va rivojlanishi bilan aynanlashtiruvchi ta’limot. Bu yo‘nalish vakillari ijtimoiy hayotda sodir bo‘ladigan sotsial-siyosiy voqealarni so‘f biologik nuqtai-nazardan izohlashga harakat qiladilar.

**Pragmatizm** (*yunoncha – ish, harakat*) sotsial-siyosiy muammolar va ularni hal qilishda tez amaliy natijalar olish, afzalliklarga ega bo‘lish, aniq manfaatlarni ko‘zlashga qaratilgan ta’limot.

**Psixologik yo‘nalish** sotsiologiyadagi yo‘nalish bo‘lib, sotsial-siyosiy hodisa va jarayonlarni psixologik omillar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Bu yo‘nalish tarafdorlari asosiy e’tiborni ijtimoiy va individual ongning sotsial-siyosiy hayotdagi o‘rni va roli hamda ularning o‘zaro nisbati masalasiga qaratadilar.

**Simvolik interaktsioizm** (*lotin.interactio – o‘zaro ta’sir*) sotsiologiyadagi muhim yo‘nalish bo‘lib, o‘z e’tiborini kishilar o‘rtasidagi bevosita o‘zaro aloqalarga qaratadi hamda bu aloqalarni sotsial simvollarni almashish ko‘rinishi sifatida baholaydi. Bu oqim tarafdorlarining fikricha, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar uzlusiz muloqot bo‘lib, bu jarayonda ular bir-birlarini kuzatadilar, maqsadlarini anglab etadilar hamda tegishli munosabatda bo‘ladilar.

**Tarkibiy funktionalizm** (*lotin.functio – amalga oshirish, bajarish*) sotsiologiyadagi muhim yo‘nalish, metodologik yondashuvlardan biri. Bu yo‘nalish tarafdorlari jamiyat, undagi hodisa va jarayonlarga o‘zining tarkibi, undagi tegishli o‘ziga xos vazifalarni bajaruvchi elementlarning o‘zaro aloqa mexanizmiga ega bo‘lgan sotsial tizimlar sifatida qaraydilar.

**Sotsial birdamlik** ko‘pgina ma’naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo‘lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishdagi harakorligi ko‘rinishidir.

**Sotsial sratifikatsiya** (*lot.stratum – qatlam*) sotsial qatlam (guruhlarning) daromadlari, bilim darajasi, hokimiyatga egalik qilishi, kasbiy obro‘-e’tiboriga ko‘ra jamiyat strukturasida yuqorida quyiga qarab joylashuvi.

**Marginal shaxs** individ yoki shaxsning ikki yoki undan ortiq madaniyatlar chegarasidagi oraliq holatni egallashi va qisman ularga qorishib ketishini ko'rsatuvchi tushuncha.

**Demografik o'tish** aholi o'sishi sohasidagi o'zgarishlarni talqin qilish bo'lib, tug'ilish va o'lim darajalari o'rtaqidagi barqaror mutanosib iqtisodiy farovonlikni muayyan darajasida erishilishi mumkinligidan kelib chiqadi.

**Ijtimoiy guruhi** muntazam ravishda bir-birlari bilan o'zaro ta'sirga kirishadigan individlar guruhi.

**Ijtimoiy়лашув** bolalarning ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlami o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiy়лашув jarayoni individ uchun bolalikda ayniqsa zarur bo'lsa ham, bu jarayon uning butun umri bo'yи davom etadi.

**Etnik mansublik** muayyan guruh a'zolariga xos bo'lgan va ularni boshqalardan ajratib turadigan madaniy me'yorlar va qadriyatlar.

**Jamiyat** yaxlit sotsial tizim bo'lib, u o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalariga ega bo'ladi. Unda yagona hudud doirasida kishilar umumiy madaniy qadriyatlar va sotsial me'yorlar (norma) asosida birlashadilar.

**Postindustrial jamiyat** insoniyat va alohida davlatlar ilg'or taraqqiyotining uchinchi bosqichi (*agrар va industrial jamiyatdan keyingi*). Unda zamonaviy ilmiy-texnologik, axborotlashgan inqiloblar asosida chuqur sotsial o'zgarishlar sodir bo'ladi.

**Elektorat** u yoki bu siyosiy partiya, siyosiy tashkilot va uning vakillari hamda mustaqil deputatlarga ovoz beruvchi saylovchilar guruhi. Elektoratning ko'lami demokratiya darajasi, siyosiy partiyalarning faolligi, ommanning siyosiy etukligi bilan bog'liq bo'ladi.

**Muxolifat** (*arabcha "muxolafat" – kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat*) – rasmiy siyosatga, hukmon qarashlarga mos bo'Imagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi.

**Jamoatchilik fikri** butun jamiyat yoki uning alohida qismining ijtimoiy hodisalar va jarayonlar hamda alohida shaxslar, guruhi, tashkilotlarning faoliyatiga

bo'lgan munosabatlarini ochiq va yashirin holda ifodalovchi ommaviy ongning holati.

Tadqiqot dasturi tadqiqotning maqsadi, vazifalari, umurniy yo'nalishlari, mantiqiy izchillik asosida tegishli taxminlarni bayon qilish va bo'lajak xulosalarini olishga qaratilgan varaqasi.

Sotsiologik anketa (*fran. enquete – qidirish, tadqiq qilish*) tadqiqotchi sotsiolog tomonidan tuziluvchi va so'rov o'tkazilayotgan kishi tomonidan unda ko'rsatilgan tartib-qoidalar asosida mustaqil ravishda to'ldiriluvchi so'rov varaqasi.

Panel tadqiqot doimiy tanlov guruhi a'zolarini bir necha marta so'rash orqali tegishli axborotlarni yig'ish usuli. Bu usuldagagi tadqiqot ilgarigi so'rovlar natijalarining dinamikasini o'rganish maqsadida ham o'tkaziladi.

Pilotaj tadqiqot o'tkaziladigan sotsiologik tadqiqotning sifatini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan uslubiy yo'nalishdagi sinama tadqiqot.

Dala tadqiqoti alohida sotsial obyektni unga qulay bo'lgan tabiiy sharoitlarda bevosita va har tomonlama sotsiologik jihatdan o'rganish. Dala tadqiqotlari diagnostik, tajribaviy va monografik shakllarda bo'ladi. **Longityud tadqiqot** takroriy tadqiqot ko'rinishi bo'lib, bir sotsial obyekt ustidan uzoq muddatli, davriy kuzatish olib boriladi. Bu kuzatish natijasida sotsial obyektdagi tegishli o'zgarishlar aniqlanadi.

Kuzatish sotsiologik tadqiqot usuli bo'lib, uning yordarnida voqealar va ularning kechish jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri va bevosita qayd etish orgali tegishli axborotlar olinadi.

So'rov dastlabki axborotni to'plash usuli bo'lib, uning vositasida ma'lum bir sotsial guruh vakillariga savollar bilan murojaat qilinadi. So'rov yoppasiga va tanlash ko'rinishlarida bo'ladi.

**Intervyu** tadqiqot dasturida ko'zda tutilgan savollarga javob olish uchun o'tkaziladigan maqsadli suhbat. Interv'yu sotsiolog va so'rov o'tkazuvchi boshqa kishilar tomonidan olib boriladi.

Reprezentativlik sotsiologik tanloving xususiyati o'rganilayotgan asosiy sohaning xarakteristikasini (*tavsifini*) aks ettirishini ifodalovchi tushuncha.

**Respondent sotsiologik anketa va boshqa shakldagi so'rov savollariga javob beruvchi kishi.**

**Tanlov asosiy tadqiqotning mohiyati, xususiyatlari va nisbatini o'zida qat'iy aks ettiruvchi aholining ma'lum bir qismi, bo'lagini ifodalovchi tushuncha.**

**Gender tadqiqot** sotsiologik tadqiqot turi bo'lib, uning asosida bir madaniyat doirasidagi jins xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi kishilar xulq-atvorini o'rganish masalasi yotadi.

**Amaliy sotsiologiya** sotsiologik bilunning tarmog'i, sohasi bo'lib, fundamental sotsiologiya bag'rida sotsial hayotning tashkil etilishi, amal qilishi va rivojlanishiga doir amaliy savollarni hal qilishning yo'llari, shakllari va usullarini va shu asosda tegishli ko'rsatmalar, rejalar va taxminlarni ishlab chiqish jarayonini o'rganadi

**Ekspert so'rov.** savollarning yozma yoki og'zaki shaklda tadqiqot predmeti sohasida maxsus chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis-ekspertlar oldiga qo'yilishi.

**Sotsial axborot** jamiyat a'zolari, guruhlar, sotsial va siyosiy tashkilotlar, birlashmalar munosabatlaridagi almashuv vositasi bo'lgan sotsial va siyosiy hayot to'g'risidagi bilimlar, ma'lumotlar, dalillar, xabarlarning yig'indisi.

**Monitoring** (*inglizcha "monitoring" tekshirib turish, nazorat etish*) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va taxminlash (prognoz) tushuniladi.

## **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Raxbariy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz// Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-yil.
3. Tanqidiy tahlil qatiy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999.
5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston».
6. Karimov I.A Yuksak ma'nnaviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'nnaviyat, 2008.
7. Karimov I.A. 2009- yil 19- iyundagi «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'n sakkiz yillik bayramiga tayyoragarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarori. //Xalq so'zi, 2009- yil 20- iyun.
8. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017- y., 6-son, 70-modda)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019- yil 22- fevral PF-5667-son Farmon.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oiy Majlisga murojaatnovasi/ 28.12.2018yil.

#### **Darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. Алиев Б., Рафиқов Ф., Султонов Т., Муллажонова М., Раҳмонов Б. ва бошқалар. Социология. (Ўқув кўлланма). –Тошкент: ТДИУ нашриёти. 2006.

2. Социология Ўкув кўлланма. Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси, 2002.
3. Социология. Маъruzalар курси. Алиқориев Н.С, Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б., ва бошқ. – Тошкент, 2001
4. Умумий социология. (Алиқориев Н.С ва Убайдуллаева Р.Т таҳрири остида) – Тошкент: 1999.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги нашриёт, 1993.
2. Философский энциклопедический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2001
3. Платон. Государство // Государство. Законы. Политика / [Предисл. Е.И.Темнова]. — М.: Мысль, 1998.
4. Ҳолбеков А.Ж., Идиров У.Ю. Социология: изоҳли лугат-маълумотнома. –Тошкент: Ибн-Сино номидаги нашриёт, 1999.
5. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ӯзбекистон, 2010
6. Йўлдошев С., Усмонов М “Қадимги ва ўртааср Ғарбий Европа фалсафаси”.”Шарқ”нашиёти. Т.2003.
7. Бобобеков А. Юқори палата ва парламентаризм ривож топишининг асосий ё`налишлари. «Қонун ҳимоясида». 2004. 2-сон.
8. Ҳолбеков. А.Ж. Бошқарув социологияси (Ўкув кўлланма). –Тошкент: Академия, 2007.
9. Давыдов Ю.Н. От «Этики» к «Политике» // История теоретической социологии: В 5 т./ Отв. ред. и состав. Ю.Н.Давыдов. - М.: Наука, 1995. -Т. 1.-Разд.2. -Гл.1.
10. Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000.

11. Сорокин П.А. Общедоступный учебник социологии. Статьи разных лет / Изд. подгот. В.В.Сапов. — М.: Наука, 1994.
12. Ковалевский М.М. Социология: Соч.: В 2 т./ Отв. ред. А.О.Бороноев. — СПб.: Издательство «Алестейя»,1997. — Т.2. — (Российская социология). Т. 1. Социология.—Т.2 Современные социологи., Т.2. С.7; 120
13. Общие предварительные сведения. — Философия математики, лекции 1-9.
14. Конт О. Курс позитивной философии/ Полн. пер. с иогел. 5-го франц. изд. под ред. с примеч. и статьями С.Е.Савича, О.Д.Хвольсона, Д.И.Менделеева и др., с прилож. статьи Н.И.Кареева. - СПб.: [Экон.Тип.], 1899. Общие предварительные сведения. --- Философия математики, лекции 1-9
15. Гидденс Э. Социология // Социол. исслед. — 1994. -№ 2.- С.133.
16. Осипов Г.В. Социология. Учебное пособие. М.: Мысль, 1990.
17. Социологический энциклопедический словарь: На русском, английском, немецком, французском и чешском языках / Ред.-координатор Г.В.Осипов; Ин-т социально-политич. исслед. РАН: Ин-т социологии РАН. — М.: Издательская группа ИНФРА\*М-НОРМА, 1998.
18. Самыгин С.И., Перов Г.О. Социология. Ростов н/д: Издательский центр «Март», 2001
19. Радугин А.А., Радугин К.А. Социология: Курс лекций: Для студентов и преподавателей вузов, техникумов и учащихся старших классов школ, колледжей, гимназий, лицеев. — М.: «Владос», 1995.
20. Голенкова З.Т. Основные тенденции трансформации социальных неравенств / Россия: трансформирующееся общество. — М., 2001.
21. Зульфия Давыдова. По материалам аналитической записки Центра экономических исследований «Урбанизация и индустриализация в Узбекистане: вызовы, проблемы и перспективы», Ташкент, 2009 г.
22. Детство: проблемы и перспективы: [1946-2006]/Р. Хакимов; Узбекская ассоциация международного права. — Т.; O'zbekiston, 2006.,

23. Шевяков А. Экономический рост и неравенство // Общество и экономика. -- 2004. -- № 2,
24. Кравченко А.И. социология. – Екатеринбург: Деловая книга, М.: издательская корпорация «Логос», 1999.
25. Социологические проблемы изучения общественного мнения. Учебно-методический комплекс. Составитель Д. соц.н., проф. Л.Н. Вдовиченко. Ответственный редактор Д.ф.н., чл.-корр. РАН, проф. Ж.Т. Тощенко. Российский государственный гуманитарный университет, 2010.
26. Diana Kendall Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. 2016
27. Margaret L. Andersen and Howard F. Taylor. Sociology: The Essentials, Sixth Edition. 2016
28. <sup>1</sup> Sociology: A Global Perspective, Ninth Edition Joan Ferrante 2015, Cengage learning.

# MUNDARIJA

Kirish .....	3
1-Bob: Sotsiologiya fan sifatida .....	7
2-Bob: Sotsiologiya fanining strukturasi (ichki tuzilishi) .....	46
3-Bob. Jamiyat yaxlit tizim sifatida .....	62
4- Bob Sotsial guruhlar, sotsial tashkilotlar va sotsial institutlar.....	85
5-Bob. Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor .....	126
6-Bob: Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik .....	144
7-Bob: Sotsial aloqalar, sotsial munosabatlар va sotsial nazorat .....	167
8-Bob: Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi .....	190
9-Bob: Din sotsiologiyasi .....	212
10-Bob: Boshqaruv sotsiologiyasi va uning ahamiyati .....	235
11-Bob: Empirik sotsiologik va uning metodlari .....	254
Glossary .....	290
Foyadlanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	302

K. Kalonov, A.Sodiqov, H.Qurbanaliyeva, B.Alimboyeva

## «SOTSIOLOGIYA»

*O'liy o'quv yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma*

*“IQTISODIYOT” – 2020.*

*Muharrir  
Mirhidoyatova D.*

*Musahhih  
Matxo'jayev A.O.*

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Terishga berildi 05.01.20.  
Bosishga ruxsat etildi 15.02.2020. Qog'oz bichimi 60x80 1/16.  
Times garniturasi. Ofset bosma. Ofset qog'oz. Shartli bosma tabog'i 12,1.  
Hisob nashr varag'i 11,8. Adadi 20 nusxa.  
“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo'limida chop etildi.  
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.